ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

1/2-son
(Yanvar-Fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	2024-yil – yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili yoshlarning ta’lim-tarbiya olishida malakali pedagog kadrlarning o‘rni va roli
		TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
X. Ibraimov	6	Uchinchi renessans: yangi O‘zbekistonda ta’lim va tarbiya
S. Mahmudova	10	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari musiqa o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari
M. Abdullayev	14	Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanish
O. Aslonova	18	Zamonaviy pedagogikada variativ ta’lim modeli
N. Mamatqulova	22	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari
I. Sattarova	29	Talabalarni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil ijodiy faoliyatga yo‘naltirish
M. Maxmudova, M. Husanova	33	Bo‘lajak matematika va informatika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishda web texnologiyalarninig o‘rni
S. Qalandarova	37	Chet tilida shaxsiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish
		TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI
B. Bekboyev	42	Tarix fanini o‘qitishda “blits so‘rov” texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi
M. Axmedova, M. Abdullayev	48	Talabalarning chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayorgarlikni tashkil etish
		TA’LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT
D.Temirov	53	Umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minlashda jamoatchilik nazoratining monitoring shakli
		ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
V. Ataxojaev, D. G‘aniyev	57	Pedagogik texnologiyalarda ta’lim texnologiyalarini takomillashtirishning zamonaviy masalalari
S. Berdiyeva, G. Raxmonova	60	Integrativ yondashuvlar asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish asoslari
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
Sh. Ermatova	64	Oliy ta’limda erkin vohidov hayoti va ijodini o‘rgatishning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati
O‘. Ataniyazova	69	Bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini
		TA’LIMDA MENEJMENT
R. Djuraboeva	72	Rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik modeli
M. Mo‘minova	77	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari (kontent tahlil)
		TA’LIMDA MARKETING

Sh. Ochilov	81	O‘quvchilarga serviz xizmati yo‘nalishini fanlararo o‘qitish texnologiyasi
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
A. Otaqulov	84	Shaxs sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirish – muhim ijtimoiy pedagogik vazifa sifatida
		MADANIYAT, SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI
M. Murodov	87	Musiqa ta’limida fanlararo integratsiyani amalga oshirish imkoniyatlari
		MAKTABGACHA TA’LIM
J. Isakov	91	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining boshqaruv jarayonini takomillashtirishda pedagogik mahorat ko‘nikmalarini rivojlantirish
N. Mo‘minova	94	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy yondashuvlar
Sh. Kattaxodjaeva	98	Maktabgacha 5 yoshli bolalarni fonemik tasavvurlarni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim mazmuni va usullari
X. Mamatova	101	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda arttexnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish
D. Amanova	104	Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining metodik modeli
N. Fozilova	109	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini mediasavodxonligini rivojlantirish
		TA’LIMDA SIHAT-SALOMATLIK VA XAYOTIY FAOLIYAT XAVSIZLIGI
K. Davkarov	111	Zilzila oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat
		PSIXALOGIYA
S. Tuychiyeva	114	Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining psixologik kontseptsiyasi
L. Parmonova	119	Shaxs sensomotorikasining psixalogik strukturasi
F. Ibraimova	122	Bo‘lajak o‘qituvchilarni kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishga tayyorlashning pedagogik jihatlari
S. Hajiyeva	126	Bolalarda kreativlik sifatini rivojlantirish
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
I. Adxamova	129	Ijtimoiy sheriklik asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda xorijiy va mahalliy tajribasini taqqoslash
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Г. Хайдарова	132	Анализ медийного контента как метод исследования в педагогике
M. Jo‘rayeva	136	An integrated approach to the development of speech competence
		ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ
С. Усманходжаев, Т. Усманходжаев, Т. Зуфаров	140	Этноспортивние народные игры – эффективные средства, методы и формы организации двигательной активности детей, юношей и студенческой молодежи

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI YOSHLARNING TA’LIM-TARBIYA OLISHIDA MALAKALI PEDAGOG KADRLARNING O‘RNI VA ROLI

Ma’lumki, har qanday mamlakatning kelajagi yosh avlodning komil tarbiyasi va izchil taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Aynan shuning uchun ham, yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining davomiyligini ta’minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda namoyon bo‘ladi. Bu esa, mamlakat yoshlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish borasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Keyingi yillarda O‘zbekistonda ham bu borada samarali siyosat olib borilmoqda.

Ma’lumki, yoshlarning zamonaviy ta‘lim-tarbiya olishida malakali pedagog kadrlarning o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Prezidentimiz ushbu masalaning nechog‘lik dolzarb hamda jamiyat hayotidagi barcha soha va tarmoqlarni rivojlantiruvchi kuch yoshlar ekanligini inobatga olib, bu boradagi ishlarni maktab ta’limini chuqur isloh etishdan boshladi. Shu bilan birga, maktab o‘quvchilarini zamonaviy bilim, tarbiya va kasb-hunar egasi qilib tayyorlaydigan malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash masalasini ilgari surdi.

Shuning uchun ham O‘zbekistonda jamiyatning eng faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi yosh avlodga ertangi taraqqiyotni ta’minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi, deb qaralmoqda. Buning natijasi o‘laroq, kreativ va zamonaviy fikrlaydigan, yuksak bilimli, g‘ayrat-shijoatli, mustaqil, qat’iy pozitsiyaga ega yoshlar hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta’lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri – ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganligi hamda ta’limning innovatsion axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq qilish hisoblanadi.

Demakki, mukammal ta’lim tizimi Respublikamizning kelajakdagi intellektual imkoniyatlarini va rivojlanishini belgilab beruvchi o‘quvchi-yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo‘lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta va mukammal o‘rgatish, har bir soha yo‘nalishlarini samarali ta’lim-tarbiya asosida tashkil etish bilan bog‘liqdir. Bilimli va malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko‘tarish, jahon ta’limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirish lozim. Ushbu jarayonda o‘quv-uslubiy majmualar hamda ta’lim jarayonining didaktik hamda axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o‘quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash maqsadimizga erishishning garovidir.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog‘liq. O‘rganish va tahlillar zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi tezkor

rivojlanayotgan ta’lim jarayonlarining talablaridan orqada qolayotganini ko‘rsatmoqda. Bu holat pedagogik ta’limni rivojlantirish va uzluksiz ta’lim jarayonida pedagoglarni tayyorlashni yaxshilash bilan bog‘liq muammolarning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Muammolarni, ziddiyatlarni tan olish va ilmiy tahlil qilish, ularni bartaraf qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, izlanishlarning mazmuni va yo‘nalishlarini hamda pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishning tashkiliy-didaktik tizimini ilmiy tamoyillar asosida qayta ishlab chiqishning aniq choralarini belgilab berishga asos bo‘ladi.

Ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi shart-sharoitlarni ta’minlanishiga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

– o‘quvchilar o‘zini ko‘proq mustaqil va o‘zini o‘zi boshqaruvchi subyekt sifatida his etishi, erkin so‘zlashi va faol ishtirok etishi;

– o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qilish va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonlarida ular yetakchi rolni egallashi, o‘zini o‘zi rivojlantirishga intilishi;

– kelgusida o‘zi qiziqqan kasb-hunarni egallashi uchun ta’lim-tarbiya manbasi sifatida xizmat qiladigan hayotiy tajribalarni egallashi;

– ta’lim va mustaqil ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishidagi mavjud sun’iy to‘siqlarni bartaraf etishi uchun muhim hayotiy muammolarni hal etish yo‘nalishida amaliyotni o‘rganishi;

– o‘qish, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishi uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo‘lishi;

– o‘qish, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishning kelajakdagi amaliy ahamiyati va zaruriyatini anglab yetishi;

– o‘qish, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishga yuqori darajada intilish hissiyotlarining vujudga kelishi;

– o‘qish, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va o‘zi tanlagan kasbni egallashning ahamiyati va nufuzini tushunib yetishi;

– refleksiv ko‘nikmalar shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirishi va rivojlantirishi;

– o‘z faoliyati natijalari va imkoniyatlari darajasini obyektiv baholashi, refleksiv tafakkurining rivojlantirishi;

– dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarga doimo ijobiy munosabatda bo‘lishning ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetishi.

Bu vazifalar o‘tgan davr mobaynida muvaffaqiyatli ravishda bajarildi. Lekin hayot va kundalik turmush oldimizga qadamma-qadam yechilishi zarur bo‘lgan yangidan-yangi va xilma-xil vazifalarni ham qo‘ymoqdaki, biz bu ishga doimo hushyor va ongli munosabat bildirib borishimiz shart. Uzluksiz ta’lim tizimi pedagog o‘qituvchilarining zamonaviy, kasbiy ta’lim texnologiyalarining tub mohiyatidan xabardor ekanliklari va ularni ta’lim jarayonida samarali hamda o‘rinli qo‘llay olishlari muvaffaqiyat kafolatidir.

Zero, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol tarzda tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimizdir. Ularni ma’naviy va ma’rifiy jihatdan yetuk, milliy qadriyatlarimizni oqilona idrok etadigan, tafakkuri keng insonlar etib kamolga yetkazish, g‘ururli va or-nomusli, fikr va g‘oyalarini mustaqil ravishda aniq ifoda eta oladigan shaxslar sifatida rivojlantirish oldimizda turgan dolzarb ijtimoiy vazifadir.

Xolboy IBRAIMOV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, akademik

UCHINCHI RENESSANS: YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM VA TARBIYA

Annotatsiya

Maqolada Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida Yangi O'zbekiston ta'lim va tarbiyasida Uchinchi Uyg'onish davri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ta'lim sohasida xalqaro aloqalarni mustahkamlash kabi islohotlarning muhim yo'nalishlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Uchinchi Uyg'onish davri, ta'lim, tarbiya, modernizatsiya, texnologik integratsiya, fuqarolik faolligi, tadbirkorlik, ta'limda xalqaro hamkorlik, ijodiy fikrlash, barqaror rivojlanish.

В статье рассматривается третий период Возрождения в образовании и воспитании нового Узбекистана под руководством президента Шавката Мирзиеева. Также будут обсуждены такие важные направления реформ, как внедрение современных технологий, развитие творческих способностей учащихся, поддержка предпринимательства, укрепление международных связей в сфере образования.

Ключевые слова. Третий Ренессанс, образование, образование, модернизация, технологическая интеграция, гражданская активность, предпринимательство, международное сотрудничество в образовании, творческое мышление, устойчивое развитие.

The article examines the third renaissance in the education and upbringing of New Uzbekistan under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev. Important areas of reforms such as the introduction of modern technologies, the development of creative abilities of students, the support of entrepreneurship, the strengthening of international relations in the field of education are also discussed.

Key words. The third Renaissance, education, upbringing, modernization, technological integration, civic activism, entrepreneurship, international cooperation in education, creative thinking, sustainable development.

Yangi O'zbekiston demokratiya, inson huquq va erkinliklarining umume'tirof etilgan me'yor va tamoyillariga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyatlari bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi erkin, obod va farovon davlat yaratish bo'lgan davlatdir. "Xalqimiz farovon hayot kechirsin", dedi prezident.

O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida turli sohalarda, jumladan, ta'lim va tarbiya sohasida qator islohotlarni amalga oshirgan muhim o'zgarishlar va o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Bu davr jamiyat hayotining barcha jabhalarini, jumladan, ta'lim tizimini modernizatsiya va takomillashtirishga qaratilgan "Uchinchi Uyg'onish davri" deb nomlandi.

Uchinchi Uyg'onish davrining asosiy maqsadlaridan biri zamonaviy talab va standartlarga javob beradigan zamonaviy ta'lim tizimini yaratishdir. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim muassasalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish, o'quv dasturlarini yangilash,

o‘qitish sifatini oshirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Islohotning asosiy yo‘nalishlaridan biri ta’limning texnologik bazasini rivojlantirishdir. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish Uchinchi Uyg‘onish davri strategiyasining ajralmas qismiga aylandi. Bunga raqamli o‘quv platformalari, elektron darsliklar va samaraliroq o‘rganishni osonlashtiradigan boshqa vositalarni yaratish kiradi. Shuningdek, bitiruvchilarga mehnat bozorida talab qilinadigan zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallash maqsadida kasb-hunar ta’limi tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ta’lim muassasalari va korxonalar o‘rtasida hamkorlik aloqalarini o‘rnatish kadrlar tayyorlash dasturlarini mehnat bozorining real ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Ta’limda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash ham muhim jihatdir. Uchinchi Uyg‘onish davri doirasida fuqarolik faolligini, bag‘rikenglik va madaniy merosga hurmatni shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda. O‘quv dasturida O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga bag‘ishlangan fanlar, shuningdek, millatlararo anglashuvga o‘rgatish o‘rin olgan.

Yangi ta’lim paradigmasining asosiy elementlaridan biri bu shaxsni tarbiyalashdir. Trening faqat faktik bilimlarni berish bilan cheklanmaydi, balki tanqidiy fikrlash, muloqot qobiliyatlari va axloqiy tamoyillarni rivojlantirishga qaratilgan. Talabalarga ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyati beriladi, bu esa fuqarolik va mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyadagi Uchinchi Uyg‘onish davri yangi avlodni zamonaviy dunyo chaqiriqlariga samarali tayyorlashga qodir zamonaviy, raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan chuqur va keng qamrovli o‘zgarishlarni ifodalaydi. Bu islohot mamlakatni nafaqat professional mutaxassislar, balki fuqarolarning faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishi, o‘z tarixi va madaniyatini chuqur anglashini ham maqsad qilgan.

Uchinchi Uyg‘onish davridagi muhim qadamlardan biri ham ta’lim olish imkoniyatini kengaytirishdir. Barcha ijtimoiy toifadagi bolalarning sifatli ta’lim olishi uchun chekka hududlarda infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Yangi maktablar qurish, ularni zamonaviy jihozlar va kadrlar bilan ta’minlash shular jumlasidandir.

Yangi ta’lim siyosatining muhim elementi ham ijodkorlik va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashdir. Talabalarga turli sohalarda: san’at va sportdan fan va texnologiyagacha o‘zini o‘zi anglash uchun imkoniyatlar yaratiladi. Bu kelajak avlodni tez o‘zgarib borayotgan dunyo muammolariga tayyorlashning kaliti bo‘lgan ijodiy fikrlash va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Aytish joizki, Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar ham xalqaro hamkorlikka qaratilgan. Mamlakat boshqa davlatlar bilan ta’lim, tajriba almashish va ilg‘or ta’lim tajribasini o‘tkazish bo‘yicha hamkorlikni mustahkamlashga intiladi.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyadagi Uchinchi Uyg‘onish davri nafaqat ta’lim tizimini modernizatsiya qiladi, balki bunyodkorlik, tanqidiy fikrlash, o‘z tarixiga chuqur hurmat bilan munosabatda bo‘lgan fuqarolarning yangi avlodini shakllantiradi. Bu o‘zgarishlar texnologik taraqqiyot va globallashuv davrida mamlakatni muvaffaqiyatli kelajak sari yetaklovchi barqaror ta’lim asoslarini yaratishga qaratilgan.

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Uyg‘onish davri doirasida ta’lim tizimidagi islohotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yosh avlod shaxsini shakllantirishga qadriyatlar va yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish mavjud. Talabalarda ijtimoiy mas’uliyat va ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim jihatdir. Shu nuqtai nazardan, maktabdan tashqari

ta’lim va tarbiya tizimini, jumladan, to‘garaklar, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu o‘quvchilarning turli sohalarda ijodiy salohiyatini, ijtimoiy faolligini va o‘z-o‘zini anglashini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Ta’lim tizimidagi yangiliklardan biri bu – murabbiylik va kasbga ko‘maklashish tizimining joriy etilganidir. Talabalar o‘z sohasi bo‘yicha tajribali mutaxassislar bilan maslahatlashish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar, bu esa ularga o‘z qiziqishlari va maqsadlarini yaxshiroq tushunishga, kasbiy sohaga yanada muvaffaqiyatli kirishga yordam beradi.

Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida stipendiya va grant dasturlari joriy etilmoqda. Bu esa o‘quvchilarni faol hayot tarziga, ijodiy fikrlashga, ilmiy izlanishga intilishga undaydi. Bunday chora-tadbirlar mamlakatimizning yuqori malakali mutaxassislari va intellektual salohiyatini shakllantirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan. Bundan tashqari, ta’lim sohasidagi islohotlar doirasida dunyoning yetakchi universitetlari bilan xalqaro almashinuv va hamkorlik dasturlari faol rivojlanmoqda. Bu mamlakatdagi umumiy madaniy vaziyatga foydali ta’sir ko‘rsatadigan bilim, tajriba va madaniy qadriyatlar almashinuviga yordam beradi.

Shunday qilib, Yangi O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyadagi Uchinchi Uyg‘onish davri nafaqat ta’lim tizimini takomillashtirish, balki ijodiy fikrlashga, jamiyatda samarali faoliyat yuritishga, jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli munosabatda bo‘lishga qodir barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimidagi Uchinchi Uyg‘onish davrining muhim tarkibiy qismi o‘quvchilarda axborot savodxonligi va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratishdir. Zamonaviy jamiyat axborot bilan samarali ishlash qobiliyatini talab qiladi va o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish bitiruvchilarni raqamli davr muammolariga tayyorlashga yordam beradi.

Ta’lim sohasidagi islohotlar doirasidagi muhim g‘oyalardan biri bu yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Startap madaniyatini shakllantirish va talabalarning tadbirkorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash tadbirkorlik tafakkurini tarbiyalaydi va yoshlarni mamlakat iqtisodiyotida muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlaydi. Shuningdek, Uchinchi Uyg‘onish davri sharoitida ta’lim jarayonini differentsiallashtirishga e’tibor beriladi. Talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda turli xil o‘quv dasturlari va yo‘nalishlari yaratiladi. Bu ta’limni o‘quvchilarning turli xil qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtirishga imkon beradi.

Talabalarning lingvistik kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam berish ham muhim jihatdir. Ko‘p tillilikni rivojlantirish va chet tillarini o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash talabalar uchun yangi ufqlarni ochib, ularga xalqaro muloqot va hamkorlik uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston ta’lim va tarbiyasi sohasidagi Uchinchi Uyg‘onish davri zamonaviy, raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli va tizimli o‘zgarishlarni ifodalaydi. Ushbu islohot davri nafaqat infratuzilma va o‘quv dasturlarini yangilashga, balki yosh avlodning zamonaviy dunyoga muvaffaqiyatli moslashishi uchun zarur bo‘lgan chuqur qadriyatlarni rivojlantirishga ham qaratilgan.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratilayotgani, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ta’lim sohasida xalqaro aloqalarni mustahkamlash – bularning barchasi nafaqat muvaffaqiyatli martaba, balki barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qilmoqda. jamoat hayotida faol ishtirok etish.

Uchinchi Uyg‘onish davri ta’lim tizimi oldida nafaqat texnik jihatdan tayyorlangan mutaxassislarni, balki jamiyatdagi o‘z rolini biladigan, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega va uzluksiz o‘rganishga qodir fuqarolarni shakllantirish vazifasini qo‘yadi. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, jumladan, ustozlikni rivojlantirish, ijodkorlikni rag‘batlantirish va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash yoshlar oldida yangi istiqbollarni ochib, ularning turli sohalarda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, Yangi O‘zbekiston ta’limida Uchinchi Uyg‘onish davri zamonaviy va yaxlit tizimni yaratishning muhim bosqichi bo‘lib, bunda ta’lim nafaqat bilimlarni uzatadi, balki fuqarolik qadriyatlari, ijodiy ko‘nikma va tadbirkorlik faoliyatini shakllantiradi. Bu o‘zgarishlar yosh avlodni kelajak chaqiriqlariga tayyorlash, barqaror rivojlanish va global hamkorlik tamoyillarini joriy etishga qaratilgan. Yangi O‘zbekistonni – Uchinchi Uyg‘onish davrini birga quraylik!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovga intervyusi, 17.08.2021. – https://kun.uz/ru/08237118

2. Madaminov A.A. “Olimlar Forobiy va Beruniy risolalarida insonning axloqiy shakllanishi”. Fan va ta’lim yutuqlari, 2018 yil

3. Rahimov O.D., Manzarov Y.K., Qarshiyev A.E. Klassifikatsiya pedagogika texnologiyalari va texnologiya muammolari. // Muammoli sovremennoy nauki i obrazovaniya, 2020 yil

4. Rahimov O.D., Ashurova L. Oliy ta’limda zamonaviy ma’ruza turlari, ularni loyihalash va tashkil etish texnologiyasi // Zamonaviy fan va ta’lim muammolari. 2020

5. Jakbarov M. Komil insoniy g‘oya: tarixiy-falsafiy tahlil.-Toshkent: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2000y.

Sevara MAHMUDOVA,
Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi o‘rinbosari

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI MUSIQA O‘QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada musiqiy ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish va talablarga javob beradigan tarzda dars jarayonini o‘tish yoritib berilgan.Shuningdek, innovatsion ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim tizimi, pedagogik texnologiya, metod-uslub, ilm-fan, interfaol uslub, musiqiy ta’lim.

В стате освещается эффективная организация музыкальной образовательной деятелности и прохождение процесса урока в соответствии с требованиями.Также были рассмотрены научно-теоретические основы исползования инноватsионных передовых педагогических технологий.

Ключевые слова. Система образования, педагогическая технология, метод-метод, наука, интерактивный стиль, музыкальное воспитание.

The article covers the effective organization of musical educational activities and the passage of the course process in a way that meets the requirements. There were also reflections on the scientific and theoretical foundations of the use of innovative advanced pedagogical technologies.

Key words. Educational system, pedagogical technology, method-style, science, interactive style, musical education.

Maqolaning maqsadi o‘quvchilarning maktabdagi musiqa bo‘yicha zamonaviy kurslar va texnikalar va pedagogik mahorat darajasini oshirish imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirishdir.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlarga, innovatsion va axborot texnologiyalarga, multimedialarga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunga sabab, shu davrgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarga faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga o‘rgatilgan edi. Innovatsion texnologiyalar esa egallayotgan bilimlarni yechimini o‘zlari qidirib topishlari, mustaqil o‘rganib tahlil qilib, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqishlariga o‘rgatadi.

Musiqa o‘qituvchisining kasbiy mahorati uning malakaviy xususiyati bo‘lib, u o‘qituvchi ishida asosiy hujjat, talab va rahbariyatdir. Maktabdagi musiqa o‘qituvchisining faoliyati darajasi ushbu qo‘llanmaning bajarilishiga bog‘liq bo‘ladi. Professionallik o‘qituvchiga-amaliyotga bolalarning musiqiy tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar, qobiliyat va fazilatlarning maqbul doirasini aniqlashga yordam berishi, uning sinf va darsdan tashqari ishlarida qo‘llanma bo‘lishi, o‘qituvchining o‘zini o‘zi tarbiyalashi va ijodiy o‘sishini rivojlantirishga yordam berishi kerak.

Har bir qo‘llanma o‘z navbatida, uch qismga bo‘linishi mumkin: musiqiy-estetik, psixologik-pedagogik, uslubiy. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) musiqa nazariyasining asosiy elementlarini, musiqiy madaniyatning rivojlanish tarixini, bolalar bastakorlari ijodini va boshqalarni bilish.;

2) bolalar ovozini rivojlantirish va uni himoya qilishning anatomik, psixologik va

fiziologik asoslari va boshqalar.;

3) musiqiy ta'limga kompleks va ijodiy yondashuv usullari, darsdan tashqari va maktabdan tashqari ishlarni bajarish metodologiyasi, bolalarda musiqiy quloqni rivojlantirish metodologiyasi va boshqalar.

Musiqa o'qituvchisi o'quvchilar diqqatini tortishni turli usullarini bilishi foydalidir. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin: o'quvchilar qiziqishiga qarash, o'quvchilardan dars uchun fikr mulohazalar kutish, darsning qiziqarli qismini kutish, dars mavzusini o'ziga tortadigan musiqiy kompozitsiyalardan foydalanish va hakazolar. Darhaqiqat, musiqa o'qituvchisi sinfga nafaqat qo'shiqchilik pozitsiyasi yoki intonatsiya tozaligi kabi assimilyatsiya nomidan "berish" uchun keladi. Bo'lmasa, bitta va hatto bir qator darslarning maqsadi talabalarni musiqa san'ati bilan tanishtirishning murakkab va uzoq jarayonidagi bo'g'indir. Shuning uchun nafaqat malakali va ifodali qo'shiq aytishni, balki o'quvchilar bilan pozitiv ishlashni ham bilishi kerak.

O'qituvchi va o'quvchilarni maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiya tanlashlari ularning ixtiyorida. Chunki ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga qaratilgan. Bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, kompyuter bilan ishlash, tarqatma materiallarni, chizma va slaydlarni, turli adabiyotlardan, axborot texnologiyalardan xohish-isttaklariga qarab tanlashga bog'liq. Qisqa qilib aytganda ta'limning markaziga olib chiqish kerak. O'qituvchi har bir darsni yaxlit holatga ko'ra bilimni va uni tasavvur etish uchun dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak.

Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi uchun oldindan puxta o'ylab tuzilgan bo'lishi darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bogliq. Darsning texnologik xaritasini qayta ko'rinishda yoki shaklda tuzilishi o'qituvchining tajribasi o'z oldiga qo'ygan maqsad hamda vazifalariga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin unda dars jarayoni "yaxlit" holda aks ettirgan bo'lishi hamda belgilangan maqsad-vazifalar kafolatlangan natijada dars jarayonida to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi shart. Musiqa madaniyatini kengroq o'rganish uchun kompozitorning uy muzeylariga, konsertlarga, musiqiy festivallarga, musiqiy tanlovlarga sayohat qilish orqali yoki video tasma yordamida biror mavzuga oid musiqiy sayohat qilish orqali uyushtirila. Sayohat obyektlari dars mavzusiga bevosita aloqador bolishi muhim shartlardandir. Bu o'z navbatida sinfda o'tilgan darslardan ancha samaraliroq bo'lib, o'quvchilar ongida uzoq saqlanib qoladi.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda maktabda o'qitiladigan barcha fanlar qatori nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyati darslarini innovation texnologiyalar asosida o'qitishning ahamiyati katta. Musiqa fani maktabda boshqa fanlarni o'zlashtirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Musiqa jonli san'at turi sifatida davr, hayot, tabiat va his-tuyg'ularini, orzu-istaklarini aks ettiradi. Uni quvontiradi, o'ylantiradi va hayotdan ozuqa olishga xizmat qiladi. Musiqa inson his-tuyg'ularini, orzu-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va bolaning hissiyotlariga faol tasir ko'rsatadi.

Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Forobiy aytganlaridek, "Bu fan tana sog'ligiga foydalidir". Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, insonni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Har bir insonni manaviy shakllanishida oila, jamiyat, maktab, san'atning ahamiyati katta. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, inson atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi.

Musiqa-inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lib, uni nafosat olamiga olib kiradi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi. Maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa

madaniyatini shakllantirish,ularni zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir.

Umumta’lim maktablarida “Informatika va hisoblash texnikasi asoslari”, “Axborot texnologiyalari”, “Informatika” fanlari o‘quvchi va talabalarning kompyuter savodxonligiga qo‘yilgan umumiy talablarni bajarishga, qondirishga qaratilgan. Hozirgi kunda kompyuterda musiqa yozish, kompyuterda musiqa notalarini yozish, kompyuterda aranjirovka qilish, ovoz ustida ishlash dasturlari yaratilgan. Kompyuterda notalarsiz musiqa yozish, kompyuterda musiqa notalarini yozish, kompyuterda aranjirovka qilish, ovoz ustida ishlash, yaratilgan musiqa asarlari va ularning notalarini chop etish dasturlarini o‘rganish, ularni ta’lim jarayoniga tadbiq etish dolzarb masala bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Kompyuterda musiqa yozish uchun yaratilgan dasturlar ko‘p. Musiqa notalarini yozish, musiqani aranjirovka qilish, transpozitsiya qilish va juda ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘lgan dasturlar bor. Ularning har birini o‘zlashtirish uchun vaqt, talab darajasidagi musiqiy nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish talab etiladi.

Kompyuterda musiqa yozish dasturlaridan musiqa ta’limi tizimining hamma bosqichlarida (maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, pedagogika kollejlarida, oliy ta’lim bosqichida, oliy ta’limdan keyingi ta’limda, malaka oshirish institutlarida) foydalanish mumkin. Ayniqsa musiqa ta’limi yo‘nalishidagi fanlarni (jamoa qo‘shiqchiligi va amaliyoti, xor dirijyorligi, xonandalik, maxsus cholg‘u, qo‘shimcha cholg‘u, bolalar asarlari ustida ishlash amaliyoti, musiqa adabiyoti, maktabda musiqa o‘qitish uslubiyoti, bolalar bog‘chasida musiqa ta’limi uslubiyoti, solfedjio, musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya) o‘qitishda ta’lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Bu jarayonda “ko‘rayapman, eshitayapman, ijro etyapman” tamoyili to‘la to‘kis amalga oshirilgan bo‘ladi. Bu jarayonda ta’lim oluvchining o‘quvchining musiqiy qobiliyatlari har tomonlama rivojlanadi. Bunda ta’lim oluvchining ko‘rgazmali, mazmunli musiqiy fikrlash, eshitib tahlil qilish, darsdan so‘ng kompyuter jo‘rnavozligi bilan ansambl bo‘lib ijro etish qobiliyatlari, xotirasi, ko‘nikma va malakalari rivojlanadi.

Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta’lim tizimida, ayniqsa oliy pedagogik ta’lim tizimida pedagog – kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini yuqori ko‘tarishga katta ahamiyat berilmoqda va bu borada turli pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning aksariyati o‘qitish maqsadi va uning yuqori natijalariga erishishida ta’limga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni kiritish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta’limni texnologiyalashtirish eng muhim vazifalardan bo‘lib turibdi. O‘qituvchining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi shubhasiz ta’lim-tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Pedagogik mahorati yuqori, tajribali o‘qituvchi darsni shunchaki bayon qilib bermaydi. Buni musiqa darslari misolida izohlaydigan bo‘lsak, o‘qituvchi avvalo o‘zining so‘z mahorati, cholg‘u asbobida chalish, qo‘shiq kuylash, turli ko‘rgazmali, texnik vositalardan foydalanishi darsni qiziqarli va mazmunli kechishida katta rol o‘ynaydi. Musiqa darslarida aksariyat o‘quvchilar o‘qituvchiga taqlid qilib kuylashadi, unga ergashadi, andoza oladi, o‘qituvchining shaxsiy “namunasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsda amaliy ijrochilik yetakchi o‘rin tutadi, quruq bayonchilik uslubi bilan hech qanday maqsadga erishib bo‘lmaydi. Puxta tashkillashtirilgan ilmiy-pedagogik tayyorgarlik ta’lim samaradorligini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda faol ishtirok etuvchi o‘qituvchilar muntazam ravishda o‘zlarining pedagogik mahoratlarini orttirib boradilar hamda ta’lim – tarbiya samaradorligini ta’minlashda, kelajak uchun mas’ul barkamol avlodni kamolga yetkazishda boshqalarga o‘rnak bo‘lib xizmat qiladilar.

Demak har bir ta’lim bo‘g‘inida shu jumladan umumta’lim maktablarida “Musiqa

madaniyati” darslarini olib boruvchi ilg‘or pedagoglarning innovatsion faoliyatlari va tajribalarini doimiy takomillashtirib, rag‘batlantirib borish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish munosabati bilan ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni kiritishda eng muhimi o‘quvchilarni ushbu faoliyatga tayyorgarligi va qiziqishlarini inobatga olish va kerakli texnologiyani tanlash hisoblanadi. o‘quv muassasasi u maktabmi, kollejmi, oliy o‘quv yurtimi u yerda asosiy maqsad o‘quvchi yoki talabaga bilim berish hisoblanadi.

O‘qituvchi bilim berishdan tashqari bilim berishning eng qulay, samarali yo‘llarini izlab, ta’lim jarayonini qiziqarli va mazmunli o‘tishini tashkil etadi. Bunday faoliyatning o‘zini ta’lim texnologiyasi deb atash mumkin. Ta’lim texnologiyasi (yunoncha “tehne” – mahorat, san’at, “logos” – tushuncha, ta’limot ma’nolarini anglatadi) yoki pedagogik texnologiyada pedagogik ta’lim berishning turli yo‘l, usullarini o‘z faoliyatiga joriy etish bilan birga bu jarayonning natija berishiga ishonch hosil qilish kerak.

Pedagogik texnologiya – ta’lim usuli, ma’lum ma’noda ta’lim jarayoni, vositalari shakl va metodlari majmui. O‘quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o‘quvchilarni kuchi imkoniyatlari, fanni o‘zlashtirish darajasi fanni spesifik tuzilishi xususiyatiga moslab shakli va hajmini o‘zgartirish ham ta’lim texnologiyasiga daxldor. O‘qituvchining ta’lim jarayoni texnologik metodlar asosida tashkil etishi ko‘p jihatdan uning o‘ziga bog‘liqligi, bilimi ularni har birini tashkiliy tuzilishi xususiyatlarini yaxshi bilishi ta’lim samaradorligi ta’minlashning muhim kafolati bo‘ladi.

O‘qituvchining pedagogik texnologiyalrini qo‘llashida ularni mazmunli va samarali tashkil etishga oid bilimlardan yaxshi habardor bo‘lishi qo‘llanilgan texnologiyalarni dars samaradorligiga ijobiy ta’siri va natijalarni tahlil qilish baholay olish, tegishli xulosalar chiqara olishi, o‘z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo‘lishi, o‘zgalar nazari bilan baholash o‘z bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash o‘quvchilarni darsda faol ishtirokini ta’minlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ilg‘or, interfaol texnologiyalardan barcha fan o‘qituvchilari, shu jumladan musiqa o‘qituvchilari yaxshi habardor bo‘lishlari zarur. Chunki, ta’lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari fan taraqqiyoti natijasida kengayib bormoqda. Shu jarayonda o‘qitishning shakl va usullari ha takomillashib bormoqda. Natijada, inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari ya’ni ta’lim tizimida ta’lim va tarbiyadan ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi yaxlit tizimga, ya’ni texnologiyalarga o‘zgarmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sharipova G. Musiqa o‘qitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil.

2.Shakhlo Khakimovna Kharatova “Use of innovative technologies in the educational p rocess” Vol. 3 No. 3 (2022): Science and Education;

3. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari. Fanning o‘quv – uslubiy majmuasi. – SamDU, 2011 – yil.

4. Маҳмудова С. Modern educational technologies in music lessons// I INTERNATIONAL SCIENTIFIC SPECIALIZED CONFERENCE “International scientific review of the problems of pedagogy and psychology”. Boston.USA.April 18-19, 2018.

5. Mahmudova S. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni o‘zbek milliy musiqa madaniyatga qiziqtirish – T.: 2018. “Uzluksiz ta’lim” jurnal. № 2. 81-87 bet.

6. Маҳмудова С. Инновatsионные технологии обучения в системе музыкального образования – Т.: 2019.” Халқ таълими” журнали..№ 5. 139-142 бет.

Muxammadimin ABDULLAYEV,
Andijon davlat universiteti, ‘‘Umumiy pedagogika’’ kafedrasi v.b.dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARIDA MILLIY G‘URUR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanishning vosita va metodlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Milliy g‘urur, tuyg‘u, etnopedagogika, qadriyatlar, globallashuv, madaniyat, urf-odatlar, an’analar, e’tiqod, dunyoqarash, ma’naviyat, maqollar, ertaklar, topishmoqlari, dostonlar, an’analar.

В данной статье раскрыты средства и методы использования этнопедагогических ценностей в формировании и развитии чувства национальной гордости у учащихся общеобразовательных школ.

Ключевые слова. Национальная гордость, чувства, этнопедагогика, ценности глобализации, культура, обычаи, традиции, верования, мировоззрение, духовность, пословицы, сказки, загадки, былины, предания.

This article reveals the tools and methods of using ethnopedagogical values in the formation and development of a sense of national pride in students of a general secondary education school.

Key words. National pride, feeling, ethnopedagogy, values globalization, culture, customs, traditions, beliefs, worldview, spirituality, Proverbs, fairy tales, riddles, epics, traditions.

Milliy qadriyatlarimiz va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida ota-ona va farzand orasidagi o‘zaro munosabatlarga keng o‘rin ajratilgan. Bugungi globallashuv sharoitida o‘quvchilarda milliy madaniy dunyoqarashni shakllantirish orqali milliy g‘urur tuyg‘usini tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratish talab etilmoqda. Ma’lumki, milliy madaniyatning barcha jihatlari etnopedagogik qadriyatlar hisoblangan xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘z ifodasini topgan. Tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida yoshlarda vataparvarlik, xalqparvarlik va fidoiylik tuyg‘usini shakllantirishning negizini tashkil etgan milliy g‘ururni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida etnopedagogik qadriyatlarning mazmuni boyitilgan. Ushbu qadriyatlar ajdodlardan avlodolarga zamonlar osha yetib kelgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, etnopedagogik qadriyatlarning asosiy funktsiyasi ustuvor tarbiyaviy masalalarga yechim topishdan iborat.

Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o‘quvchilarning aqliy, ahloqi, estetik, ekologik, jismoniy madaniyati va mehnat ko‘nikmalari takomillashtiriladi. O‘zbek xalqi o‘zining betakror madaniyati, ma’naviy axloqiy qarashlariga ega. Etnopedagogik qadriyatlarda xalqning urf-odatlari, an’analari, e’tiqodi, dunyoqarashi, ma’naviyati, orzu-umidlari va intilishlari o‘z ifodasini topadi.

Etnopedagogik qadriyatlar xalq donishmandligining mahsuli hisoblanadi. O‘zbek xalqining asrlar davomida tarbiya sohasida to‘plagan tajribalari va pedagogik bilimlari o‘z ifodasini topgan. Unda o‘zbek xalqining tafakkur tarzi, g‘ururi, e’tiqodi yaqqol namoyon bo‘ladi. Har bir o‘quvchi ta’lim jarayonida etnopedagogik qadriyatlar vositasida

o‘zbek xalqining madaniyati bilan yaqindan tanishib, milliy g‘urur tuyg‘usiga ega bo‘ladi. Tengdoshlari, sinfdoshlari bilan muloqot jarayonida ushbu tuyg‘uning rivojlanishi va takomillashuviga muvaffaq bo‘ladi. O‘quvchilar o‘z xalqining qadriyatlari, shaxslararo munosabatlarni chuqur o‘zlashtiradilar. Xalqning donishmandligidan g‘urur hissini tuyadilar. O‘quvchilar ta’lim muassasiga kelgach turlicha madaniy munosabatlarning ta’sirida bo‘ladilar. O‘zbek xalqiga xos madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish natijasida, uni boshqa madaniyat ko‘rinishlari bilan qiyoslashga harakat qiladi. O‘z madaniy boyliklaridan faxrlanish natijasida milliy g‘ururga ega bo‘ladilar.

Jamiyatda to‘laqonli faoliyat ko‘rsatish, shaxslararo munosabat tajribasini muvafaqiyatli o‘zlashtirish uchun o‘quvchilar o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlarini egallashga ehtiyoj sezadilar. Ko‘p madaniyatli O‘zbekiston jamiyatida milliy-madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish, milliy g‘urur tuyg‘usiga ega bo‘lish uchun o‘quvchilarga didaktik vosita sifatida etnopedagogik qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan xalq og‘zaki ijodi namunalarini tizimli tarzda taqdim etib, ularni tahliliy o‘zlashtirish ko‘nikmasini shakllantirish lozim.

Milliylik va milliy g‘urur jamiyatning barcha a’zolari bilan tinch-totuv hamda o‘zaro kelishuv asosida yashash, bu jarayonda o‘z g‘ururini namoyon eta olish bilan belgilanadi. Ta’lim-tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishi faqatgina metodlar majmui orqali belgilanmaydi. Ushbu metodlarni ko‘p asrlar maboynida ajdodlarimiz turli didaktik vositalar bilan uyg‘un tarzda qo‘llab kelganlar. Mazkur etnopedagogik qadriyatlar bugungi kunda o‘quvchi yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish, vatanparvarlik, xalqparvarlik, fuqarolik hissini kuchaytirish uchun muhim hisoblanadi.

O‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanish maqsadida, ularni tanlash, tizimlashtirish, va o‘quvchilarga taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish talab etilmoqda. Bugungi kunda kombinatsiyalashtirilgan etnopedagogik ishlar o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday pedagogik chora tadbirlar o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarning o‘zaro hamkorligin taqozo etadi.

Etnopedagogik qadriyatlarni taqdim etish natijasida o‘quvchilarda milliy qiyofa shakllanadi. O‘quvchilarda etnopedagogik qadriyatlar vositasida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda ushbu qadriyatlarning umummadaniy qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlar bilan integratsiyalashuviga ham alohida e’tibor qaratiladi. Bunda milliy qahramonlarning faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Pedagoglar etnopedagogik qadriyatlar vositasida o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda turli mahsuldor metodlardan samarali foydalanishlari talab etiladi. Bunda o‘quvchilarning ijobiy xarakterdagi axborotlarni jadal o‘zlashtirishlariga e’tibor qaratiladi. Etnopedagogik qadriyatlarning o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilishi hech qanday isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Chunki etnopedagogik qadriyatlarda millat hayotining ezgu amallari o‘z ifodasini topgan. Etnopedagogik qadriyatlarda namoyon bo‘ladigan milliy g‘urur tuyg‘usi bugungi kun uchun ham alohida qimmatga ega. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar etnopedagogik qadriyatlarning asosiy ko‘rinishlari hisoblangan milliy g‘urur tuyg‘usi yaqqol ifodalangan dostonlar va ertaklarni yaxshi bilmaydilar. Ular o‘zbek xalqining asl qahramonalari, ularning dunyoqarashlari, yetakchi maqsadalari, ajdodlarimizning madaniy tafakkur tarzi, e’tiqodlari haqida yetarlicha ma’lumotga ega emas ekanlar.

O‘qituvchilarning ham bu sohadagi bilimlarini chuqurlashtirish taqozo etilmoqda. O‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirsh jarayoni ularning ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosligi va mentalitetini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. O‘qituvchilar o‘quvchilarda etnopedagogik qadriyatlar vositasida milliy g‘ururni shakllantirishda integratsiyalashgan darslarni loyihalash texnalogiyasini yaxshi bilishlari kerak. Agar

o‘quvchilarnda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish orqali g‘oyaviy qarashlari, e’tiqodi, madaniyatini singdirish maqsadiga erishish uchun etnopedagogik qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirilgan xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish imkoniyati kengaytirilsa, yoshlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik, o‘zligini anglash tuyg‘ulari kuchayadi.

Etnopedagogik qadriyatlar o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi, o‘qituvchilar esa undan zarur o‘rinlarda foydalana olishlar muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini yoshlikdan boshlab shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda etnopedagogik qadriyatlar ustuvor o‘rin egallaydi. Ular o‘quvchilar qalbiga ezgulikni singdirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. O‘quvchilar o‘zbek xalq maqollari, ertaklari, aytimlari, topishmoqlari, dostonlari, an’analari va urf–odatlarini yaxshi bilmaydilar.Yosh pedagoglar haqida ham huddi shunday fikrni aytish mumkin. Etnopedagogik qadriyatlarga oid turli-tuman materiallar o‘quvchilarning etnik o‘z-o‘zini anglashi va milliy g‘ururini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida milliy an’analarni boshqa xalqlarni an’analari bilan qiyoslash va ularning o‘ziga xos jihatlarini anglash imkonini beradi. Natija o‘quvchilarning milliy, madaniy dunyoqarashi kengayib, milliy g‘urur tuyg‘usi rivojlanadi.

Ijtimoiy ijod sohasida faoliyat ko‘rsatadigan pedagoglarning vazifalari biri o‘quvchilarni o‘zbek xalqining an’analari, urf-odatlari, qo‘shiqlari, ertaklari, afsonalari bilan yaqindan tanishtirish va ularni zarur vaziyatlarda boshqa xalqlarniki bilan qiyoslashdan iborat. Bunday qiyoslash o‘quvchilarning etnopedagogik qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirib, ularning mohiyatini anglashlariga ko‘maklashadi. Mazkur pedagogik chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan ko‘plab usullar, metodlar mavjud.

Etnopedagogik qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga singdirish uchun har bir dars va sinf soatlarida muayyan vaqt ajratish talab qilinadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zbek xalqining milliy, madaniy qarashlari xaqida so‘zlab, ularda milly g‘urur tuyg‘usini kuchayishini ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchi o‘quvchilarga etnopedagogik qadriyatlarning mohiyatini ochishga qaratilgan ijodiy topshiriqlar berib, ularni mustaqil izlanishga undashi lozim. Bunday topshiriqlarga ijodiy, bilishga asoslangan, evristik xarakterga ega bo‘lishi, o‘quvchilarni mustaqil bilim olish va izlanishga undashi, o‘qituvchilar va ota-onalarga savollar bilan murojaat qilishib mazkur jarayonda duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi nazarda tutiladi. O‘quvchilarga o‘z oldilariga qo‘yilgan topshiriqlar ustida chuqur o‘ylashlari entsiklopediyalar, internet materiallari bilan ishlay olishlari talab qilinadi. Mustaqil topshiriqlar sifatida “O‘zbek xalqining mexmon kutish an’analari”, “Navro‘z bayramini qanday nishonlaymiz”, “O‘zbek xalq ertaklarining asosiy qahramonlari” mavzularida referatlar yozish, rasmlarda ifodalash topshiriladi. Natijada etnopedagogik qadriyatlarni mustaqil o‘rganish, tahlil qilish, ulardan faxrlanish ko‘nikmalari rivojlanadi.Shu bilan bir qatorda o‘zbek xalqi hayoti va an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan ertaklar va dostonlar asosida turli tanlovlar, badiiy kechalar, sahna ko‘rinishlari tashkil etish tavsiya qilinadi. O‘quvchilarni ertak va doston syujetlari bilan bog‘liq rasmlarni chizdirishga ham qiziqtirish maqsadga muvofiq. O‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tekshirib, boshqalardan alohida ajralib turadigan ishlarni, o‘quvchilar orasida keng muhokama qilishi kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

O‘quvchilar orasida bir-birlarini ishlarini tahlil qildirish, munosib baholashga o‘rgatish, har bir ishning yutuq va kamchiliklarini aniqlay olish ko‘nikmasini shakllantirish natijasida, ularning etnopedagogik qadriyatlarni chuqurroq o‘rganishlari ta’minlanadi. O‘qituvchi esa o‘quvchilarning kamchiliklari haqida ularga ehtiyotkorlik bilan gapirishi, uni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsata olishi lozim. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchilar o‘quvchilarning mustaqil bajargan ishlarini takomillashtirish haqida aniq maslahatlar berishlari lozim. O‘qituvchi –o‘quvchi munosabalari jarayonida ta’lim oluvchilar o‘zbekona lutf, so‘zlashish madaniyati, shaxslararo munosabat me’yorlarini ham o‘zlashtirishlari

taqozo etiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar orasida munozara vaziyatlarni aniq tashkil etishi, hamda ushbu jarayonni samarali boshqarishi va aniq tuzatishlar kiritishi talab qilinadi.

Maktablarda xalq dostonlari va ertaklar, xalq qo‘shiqlari asosida turli tanlovlar festivallar, yosh baxshilar sayli kabi tadbirlarni o‘tkazishni keng joriy qilish natijasida o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish jadallashadi. Bunday tadbirlarda ishtirok etish uchun o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish, turli pedagogik vositalar yordamida ularda qiziqish va ehtiyojlarni vujudga keltirish sinf rahbarlari va o‘qituvchilarning asosiy vazifalari sarasiga kiradi. O‘quvchilarda Vatan va xalq tarixini o‘rganishga alohida qiziqish uyg‘otish pedagoglarning asosiy vazifalariga kiradi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarni xalq o‘yinlari bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish mumkin. O‘lka tabiati, tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar ham o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar haqidagi hikoyalar, afsonalar bilan, rivoyatlar bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday tadbirlar va pedagogik vositalar o‘quvchilarda o‘zbek xalqining an’analari, urf-odatlari, muqaddas qadamjolari, tarixiy obidalari, ulug‘ shaxslarga qiziqish va ulardan faxrlanish hissini uyg‘otadi. Natijada ularning aql-idroki, tafakkuri, madaniy dunyoqarashi kengayadi, milliy g‘urur tuyg‘usi rivojlanadi.

Darslarda milliy bayramlar haqida ma’lumot berish orqali ham o‘quvchilarning madaniy dunyoqarashi va milliy g‘ururini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytiriladi. Jumladan Navro‘z haqidagi ma’lumotlar orqali o‘quvchilar o‘zbek xalqining ushbu bayram bilan bog‘liq urf-odatlari va an’analaridan xabardor bo‘ladilar. Turli an’analar va urf-odatlar haqida xabardor qilishda mazkur voqelik bilan bog‘liq rasmlar, illyustratsiyalar, ko‘rgazmali vositalar, audio, video, vizual vositalardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Buning uchun ko‘rgazmalilikka asoslangan komplekss chora-tadbirlarni ishlab chiqish talab etiladi. Bu o‘quvchilarning o‘zbek xalqi ma’naviy, madaniy hayotini chuqurroq idrok etishlari uchun zarur hisoblanadi. An’anaviy etnik yondashuv orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish jarayonida, ularga umuminsoniy madanaiyat namunalari va qadriyatlar ham taqdim etiladi.

Etnopedagogik nazariya va kontseptsiyalarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, har bir o‘quvchida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirish uchun dastlab, etnopedagogik qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan xalq og‘zaki ijodi namunalarini taqdim etish ushbu sohada samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilar o‘zbek xalqining milliy, madaniy boyliklarini puxta o‘zlashtirishlari va ulardan faxrlanish hissini tuyishlari lozim.

Etnopedagogik qadriyatlarni o‘quvchilarga taqdim etish, murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, unda o‘zbek xalqi tomonidan to‘plangan madaniy boyliklarni o‘quvchilarga tizimli tarzda taqdim etish nazarda tutiladi. Ajdodlardan avlodlarga yetib kelgan etnopedagogik qadriyatlarni aniq pedagogik vaziyatlarda o‘quvchilarga taqdim etish orqali, ularda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratiladi. Har bir o‘quvchi madaniy boyliklar yordamida o‘z xalqining urf-odatlari, an’analari, ahloqiy me’yorlarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Madrimov B. O‘quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyalashda xalq dostonlarining o‘rni //Xalq ta’limi. – Toshkent, 2007. – №3. – B. 102-104.

2.Safarova R.G‘. Milliy tiklanish sharoitida O‘zbekiston maktablarida ona tili ta’limi nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dok. dis... T.: 1998. – 255 b.

3.Safarova R.G‘., Musayev U., Musayev P., Yusupova F., Nurjanova R. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo‘llari / Monografiya. T.: Fan, 2005. – 255 b.

Orzigul ASLONOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA VARIATIV TA’LIM MODELI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy pedagogika fanida variativ modellar haqida fikr bildirilib, variativ ta’lim modelining ta’lim oluvchilarning turli ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos kelish maqsadida o‘quv jarayoniga moslashuvchanlik va tanlovni kiritishni nazarda tutishi haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, mazkur model ularning rivojlanish maqsadlariga mos keladigan fanlar, kurslar va ta’lim usullarini tanlashda ko‘proq imkoniyatlar berishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Variativ, tizim, tuzilma, qiziqish, model, qobiliyat, tanlov, muqobil, metod, kollaborativ loyihalar, pedagogika,portfolio.

В данной статье высказано мнение о вариативных моделях в науке современной педагогики, а также высказано мнение, что вариативная модель образования предполагает включение гибкости и выбора в образовательный процесс с целью удовлетворения различных потребностей и способностей учащихся. учащиеся. Также было проанализировано, что данная модель дает больше возможностей в выборе предметов, курсов и методов обучения, соответствующих целям их развития.

Ключевые слова. Вариативный, система, структура, интерес, модель, способность, выбор, альтернатива, метод, совместные проекты,педагогика, портфолио**.**

This article expresses an opinion about variable models in the science of modern pedagogy, and also expresses the opinion that a variable model of education involves the inclusion of flexibility and choice in the educational process in order to meet the different needs and abilities of students. students. It was also analyzed that this model provides more opportunities in choosing subjects, courses and teaching methods that correspond to their development goals.

Key words. Variable, system, structure, interest, model, ability, choice, alternative, method, joint projects,pedagogy, portfolio.

Bugungi kunda pedagogika fanida variativ ta’lim modeli haqida fikrlar bildirilmoqda. Mazkur model turli xil yondashuvlarni, masalan, tabaqalashtirilgan ta’lim, loyihaviy metodikalar, fanlarni tanlash, onlayn-ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar hamda talabalarga o‘z ta’limida faol ishtirok etish imkonini beradigan boshqa shakllarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Mazkur model, shuningdek, ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirishga, ularning ta’lim natijalarini yaxshilashga hamda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Shuningdek, har bir talabaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’limga yanada individuallashtirilgan yondashuvni ta’minlaydi.

“Variativ” tushunchasi berilgan kontekstdagi har xil turlar yoki turli elementlarni anglatadi. Biron narsa “turli xil” deb ta’riflansa, bu unda turli xil jihatlar, variantlar yoki imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi. Ushbu atama ma’lum bir toifa yoki to‘plamda bir nechta alohida obyektlar, xususiyatlar yoki jihatlar mavjudligini ta’kidlash uchun ishlatilishi mumkin.

Variativ ta’lim modeli o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilar uchun tanlov va moslashuvchanlik imkoniyatlarini ta’minlashni nazarda tutadi. U o‘qitishning turli xil uslublarini, turli xil o‘quv uslublarini, shuningdek fanlarda yoki o‘quv dasturlarida tanlovni ta’minlashni o‘z ichiga olishi mumkin.

Variativ ta’lim modeliga misol sifatida ta’lim oluvchilar o‘z qiziqishlariga qarab tanlashlari mumkin bo‘lgan turli xil qo‘shimcha fanlar yoki tadbirlarni taklif qilish mumkin.

Masalan, ta’lim oluvchilar o‘z qobiliyatlari va qiziqishlarini namoyon etishlari mumkin bo‘lgan tasviriy san’at, musiqa, sport, informatika yoki boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘shimcha darslar bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, variativ model o‘qituvchilarga ta’lim oluvchilarga yondashuvlarni tabaqalashtirish va har birining individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradigan turli xil o‘qitish usullarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Bunday yondashuvlar ta’lim oluvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirishga, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga hissa qo‘shadi, shuningdek, ularning ta’lim tajribasini boyitgan holda keyingi bosqichga tayyorlashga yordam beradi.

Variativ ta’lim modeli ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularga turli xil o‘rganish va rivojlanish imkoniyatlarini taklif qilishga intiladigan ta’limga yondashuvdan iborat. Variativ ta’lim modelining bir nechta asosiy turlari mavjud:

1. Fanlar bo‘yicha variativlik: Variativ ta’lim modelining ushbu turi ta’lim oluvchilarga asosiy o‘quv rejasiga qo‘shimcha ravishda taklif qilinishi mumkin bo‘lgan turli xil fanlar yoki kurslar orasida tanlash imkoniyatini beradi. Misol uchun, talabalar o‘zlarining noyob qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan san’at, musiqa, sport, informatika yoki boshqa qo‘shimcha fanlarni o‘rganishni tanlashlari mumkin.

2. O‘qitish usullaridagi variativlik: Variativ ta’lim modelining ushbu turi o‘qituvchilarga ta’lim oluvchilarning ehtiyojlari va o‘qitish uslublarini inobatga olgan holda o‘qitishda turli metod va yondashuvlardan foydalanish imkonini beradi. Masalan, bu guruh loyihalari, individual topshiriqlar, o‘qitishda texnologiyadan foydalanish va har bir ta’lim oluvchining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa usullarni o‘z ichiga olishi mumkin.

3. Baholashdagi variativlik: Variativ ta’lim modelining ushbu turi ta’lim oluvchilarning o‘quv yutuqlarini baholashning turli usullarini hisobga oladi. U o‘qituvchilarga talabalarning o‘qishi va yutuqlari haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradigan portfolio, loyihalar, o‘z-o‘zini baholash, og‘zaki imtihonlar va boshqa baholash shakllarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Variativ ta’lim bosqichi odatda o‘quv rejasidagi maxsus tashkil etilgan davr yoki blok bo‘lib, uning davomida ta’lim oluvchilar turli fanlar yoki kurslardan tanlashlari mumkin. Bu ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va kasbiy maqsadlariga mos keladigan fanlarni o‘rganish imkonini beradi.

Bunday bosqich ta’limning ma’lum bir bosqichida muassasa o‘quv dasturiga kiritilishi mumkin, shuningdek, standart o‘quv rejasi doirasida qo‘shimcha ta’lim imkoniyatlari shaklida taqdim etilishi mumkin.

Variativ ta’lim bosqichi ta’lim oluvchilarning o‘quv tajribasini oshirish hamda ularga individual manfaatlariga mos keladigan sohalarda chuqur bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini berishni maqsad qiladi, bu esa pirovardida ularning o‘qishda va ishda muvaffaqiyatiga hissa qo‘shishi mumkin.

Variativ ta’limning jihatlari moslashuvchan va individuallashtirilgan o‘quv muhitini yaratishga hissa qo‘shadigan bir nechta asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi. Ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

1. Individual tanlov: Bu jihat ta’lim oluvchilarga ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va maqsadlarini hisobga olgan holda turli fanlar, kurslar yoki o‘quv dasturlari orasidan tanlash imkoniyatini berishni nazarda tutadi.

2. O‘qitishni tabaqalashtirish: variativ ta’lim doirasida o‘qituvchilar ta’limning barcha bosqichlarida ta’lim oluvchilar uchun qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash maqsadida talabalarning individual ehtiyojlariga mos ravishda o‘qitish usullarini moslashtirishga harakat qiladilar.

3. O‘qitish usullarining moslashuvchanligi: Bu jihat o‘qitishning turli xil uslublari va yondashuvlaridan foydalanishni nazarda tutadi, jumladan, kollaborativ loyihalar, o‘qitishda texnologiyalar, o‘quv qo‘llanmalari va qo‘shimcha akademik resurslar.

4. Individual baholash yo‘llari: Variativ ta’lim baholashning turli usullarini hisobga olib, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarga baholashning mos shakllarini, masalan, portfolio, loyihalar, og‘zaki imtihonlar yoki har bir talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi boshqa shakllarni tanlash imkonini beradi.

5. Tanlov kompetensiyalarini rivojlantirish: Variativ ta’lim, shuningdek, ta’lim oluvchilarning o‘quv trayektoriyalarini mustaqil tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu kelajakda ularga muhim qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Bu jihatlar birgalikda yanada dinamik, individuallashtirilgan va ta’lim oluvchining ehtiyojlariga javob beradigan o‘quv muhitini yaratish uchun xizmat qiladi.

Variativ ta’lim strategiyasi ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga qaratilgan moslashuvchan va xilma-xil ta’lim muhitini yaratish va amalga oshirishning tizimli yondashuvidan iborat. Variativ ta’lim strategiyasining ba’zi kalit elementlarini keltirib o‘tamiz:

1. Ehtiyojlarni aniqlash: Birinchi qadam bo‘lib ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini, qiziqish darajasini, akademik qobiliyatlarini va individual maqsadlarini tahlil qilish va tushunish hisoblanadi. Bu taklif qilinayotgan o‘qitishning qaysi variantlari eng foydali bo‘lishini aniqlash imkonini beradi.

2. Moslashuvchan o‘quv dasturini ishlab chiqish: Variativ ta’lim strategiyasi ta’lim oluvchilarga fanlar, kurslar va o‘qitish usullari bo‘yicha turli variantlarni taqdim etadigan o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Bu moslashuvchan dars jadvallari, qo‘shimcha fanlar va kurslar, shuningdek, topshiriqlarni bajarishning turli usullarini o‘z-ichiga olishi mumkin.

3. Resurslar va qo‘llab-quvvatlash bilan ta’minlash: Variativ ta’limning samarali strategiyasi o‘quv muhitidagi xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlovchi yetarli darajadagi resurslarning, shu jumladan qo‘shimcha o‘quv materiallari, texnologik vositalarni va o‘rgatuvchi dasturlarning mavjudligini nazarda tutadi.

4. Baholash va rivojlantirish: Strategiyaning muhim qismi bo‘lib tuzatish va takomillashtirish maqsadida variativ ta’lim modeli samaradorligini doimiy ravishda baholash hisoblanadi. Bu ta’lim oluvchilar, ota-onalar va pedagoglardan qaytar aloqalarni yig‘ishni, shuningdek, ta’lim natijalarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

5. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish: Variativ ta’lim strategiyasi, shuningdek, o‘qituvchilarni tabaqalashtirilgan ta’lim sohasida, yangi metodologiya va o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha o‘qitishni o‘z ichiga oladi, bu ularga individual ta’lim oluvchilarning ehtiyojlariga o‘z yondashuvlarini yaxshiroq moslashtirishga yordam beradi.

Ushbu va boshqa elementlar yanada moslashuvchan, individuallashtirilgan va samarali ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan variativ ta’lim strategiyasining asosini tashkil etadi.

Variativ ta’lim darsi ta’lim oluvchilar o‘zlarining qiziqishlari, qobiliyatlari va maqsadlariga qarab o‘qish uchun turli fanlar yoki yo‘nalishlardan tanlash imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘quv faoliyatidan iborat. Variativ ta’lim darsiga kiritilishi mumkin bo‘lgan bir nechta asosiy elementlarni aytib o‘tamiz:

1.Tanlovni berish: O‘qituvchi ta’lim oluvchilarga taklif qilinayotgan dars doirasida o‘rganish uchun bir nechta variantni tanlashni taklif qiladi. Masalan, talabalar turli fanlar, mavzular yoki o‘rganish usullari orasida tanlashlari mumkin.

2.Individuallashtirilgan topshiriqlar: O‘qituvchi darsni shunday tuzadiki, har bir ta’lim oluvchi o‘z afzalliklariga, o‘qitish uslubiga va ishonch darajasiga qarab material-

ga yondashishi mumkin.

3. Guruhda ishlash: Variativ ta'lim darsi, shuningdek,ta'lim oluvchilarning o'zlari tanlagan fan yoki o'rganish uslubiga ko'ra ma'lum bir mavzuni tadqiq qilish yoki loyihani bajarish uchun guruhlar yoki jamoalarda ishlash imkoniyatini ham o'z ichiga olishi mumkin.

4.Qaytar aloqa va refleksiya: Variativ ta'lim darsining muhim jihati bo'lib ta'lim oluvchilar bilan ular nimani o'rganayotgani, ularning qiziqishlari, nimani yoqtirishi yoki yoqtirmasligi va shu sohada o'qishni qanday davom ettirishi haqida suhbatlashish uchun vaqt ajratish hisoblanadi.

5.Resurslar va qo'llab-quvvatlash: O'qituvchi ta'lim oluvchilarga o'zlari tanlagan fan yoki mavzuni chuqurroq o'rganishga yordam beradigan qo'shimcha manbalar va materiallardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Umuman olganda, variativ ta'lim darsi ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlari va manfaatlariga javob beradigan o'quv muhitini yaratishni, ularga o'zlarining individual qarashlariga ko'ra o'z ta'lim yo'llarini tanlash imkoniyatini berishni nazarda tutadi.

1. Individual ta'lim: ta'lim oluvchining individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga asoslangan usul bo'lib, bu o'qitish metodikasini uning afzalliklari va qobiliyatiga moslashtirishga imkon beradi.

2. Guruhda ta'lim: ta'lim oluvchilar o'zaro fikr almashishlari, savollar berishlari va materiallarni muhokama qilishlari imkonini beradigan,o'quv materialini to'liq o'zlashtirishga yordam beradigan guruhlarda o'qitishga asoslangan usul.

3. Masofaviy ta'lim: ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning joriy ishtiroki zaruratisiz o'qitish va ma'lumot almashish uchun elektron aloqa vositalaridan foydalanishga asoslangan usul.

4. Loyihaviy ta'lim: loyihani bajarishga asoslangan yondashuv bo'lib, bu ta'lim oluvchilarga olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash, shuningdek, rejalashtirish, tashkil etish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

5. Interfaol ta'lim: ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydigan va tezkor qaytar aloqa imkoniyatini beradigan interfaol texnologiyalardan foydalanishga asoslangan usul.

6. Aralash ta'lim: an'anaviy va masofaviy ta'limni birlashtirishga asoslangan usul bo'lib, ta'lim oluvchilarga har ikkala ta'lim shaklining afzalliklaridan foydalanish imkonini beradi.

Variativ ta'limni amalga oshirish uchun turli xil faoliyat shakllari qo'llaniladi, masalan, loyiha faoliyati, individual va guruh topshiriqlari, talabalarning mustaqil ishi va hok. Shuningdek, ta'lim oluvchilarga o'z o'quv rejasini shakllantirish hamda mos kurslar va mavzularni tanlashda yordam berish maqsadida maslahatlar muhim jihat bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аслонова О.П. Зарубежные модели развивающего вариативного образования // Монография. – Qарши: Фан ва технологиялар, 2023. – 144 b.

2. Aslonova O. P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv xususiyatlarini rivojlantirish.// "Муғаллим һәм узликсиз билимлендириў. Илимий-методыкалиқ журнал". – Нөкис, 2020.- № 6. 130-134 b.

3. Аслонова О. П. Rivojlantiruvchi ta'lim mazmunining psixologik asoslari va uning o'qitish jarayonida namoyon bo'lish xususiyatlari.// "Xalq ta'limi". – T., 2022. – № 5.– 116-120 б.

Nilufar MAMATQULOVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktaranti

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING AXLOQIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK VOSITALARNING IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axloqiy faoliyatni shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari va ularning kasbiy-pedagogik faoliyatini mazmunli va sifatli tashkil etish, o‘quvchilarning bilimini oshirishga yo‘naltirilgan zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga o‘rgatishning zaruriy jihatlari yoritilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirishning zaruriy jihatlari ochib berilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablar pedagogik, psixologik va sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, oliy ta’lim muassasasi, kompetensiya, axloqiy bilim, o‘quvchi bilimi, zamonaviy texnologiya, intellekt, ma’naviy salohiyat.

В статье описаны возможности педагогического инструментария в формировании нравственной активности будущих учителей начальной школы и необходимые аспекты обучения их эффективному использованию современных технологий, направленных на осмысленную и качественную организацию их профессионально-педагогической деятельности и совершенствование знаний учащихся. . Раскрыты необходимые аспекты подготовки будущих учителей начальных классов с высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, формирования необходимых навыков и знаний для того, чтобы выпускники образовательных организаций стали современными специалистами. Требования к учителям начальных классов значительны по своей педагогической, психологической и социологической природе.

Ключевые слова. Учитель начальных классов, вуз, компетентность, нравственные знания, знания учащихся, современные технологии, интеллект, духовный потенциал.

The article describes the possibilities of pedagogical tools in the formation of moral activity of future elementary school teachers and the necessary aspects of teaching them to effectively use modern technologies aimed at the meaningful and qualitative organization of their professional-pedagogical activity and improving the knowledge of students. The necessary aspects of training the future primary school teachers with high intellectual and spiritual potential, the formation of the necessary skills and knowledge in order for the graduates of educational organizations to become modern professionals have been revealed. Requirements for primary school teachers are significant due to their pedagogical, psychological and sociological nature.

Key words. Primary school teacher, higher education institution, competence, moral knowledge, student knowledge, modern technology, intellect, spiritual potential.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish,odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikamizda ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga kata ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi

muhim ahamiyatkasb etadi. Shu bilan birga dunyo miqiyosida shunday o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqdaki,ushbu o‘zgarishlar butun boshli xalqni, millatni, elatlarni boringki, butun isoniyatning hayotini o‘zgartirib yubormoqda. Ushbu o‘zgarishlar jarayonida axloqiy madaniyat va axloqiy munosabatlarning o‘rni juda katta hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Yaxshi tarbiya ko‘rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o‘ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o‘z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Yoshlarning ta’lim-tarbiya olishlariga mas’ul bo‘lgan barcha o‘rinlarda xalq pedagogikasi xazinasidan foydalanish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘tarilishi orqali erishiladi.

Asosiy qism Arabchada axloq xulqning ko‘pligini anglatuvchi tushuncha bo‘lib, kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, ijtimoiy, shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabatlari, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni tartibga soluvchi barqaror, hayotiy tajribadan o‘tgan me’yorlar, qoidalar majmuasidir. O‘zbek xalqi azal-azaldan axloq deganda sog‘lom iymon-e’tiqodga ega, kuchli irodali, insof va adolatni o‘zining hayotiy tamoyiliga aylantira olgan kishilarni tushungan.Axloq juda keng tushuncha. Uning o‘ziga xos me’yorlari, qoidalari borki, ularga bee’tiborlik ushbu muhim ijtimoiy hodisaning ahamiyatini sayozlashtiradi. Aslida, axloq yordamida inson adabi boshqarib boriladi. Bu haqda zamonamizning buyuk va ulug‘ allomasi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf shunday deydi: “Axloq – barcha maxluqotlar bilan xusni xulqda bo‘lishdir. Axloqning asosini xilm, avf va sabr tashkil etadi. Xaloyiq senga qanday muomalada bo‘lishlarini istasang, sen ham ularga shunday muomala qilishing axloqdir. Ozorni to‘xtatib, ehsonni sochib; insofni ko‘rsatib, jafoni yo‘qotib; safoni topib, dunyoni ortga otib yubormoq axloqdir. Axloq – shahvat va g‘azab qo‘ziganda nafsni jilovlamoqdir”.

Shaxsning to‘liq shakllanishi uning axloqiylik darajasi bilan bog‘liq. Axloqiylik esa har bir insonning o‘zi va jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatga nisbatan munosabatida aks etadi. Axloqiylikning ayrim ko‘rinishlari insonning tashqi harakatlarida namoyon bo‘lsa-da, ayni paytda, uning tom ma’nodagi axloqiy sifatlari individning ichki ruhiyatida makon topadi. Shuning uchun ham axloqiylik har birimizning ichki hayotimizda yashaydi. Ana shunday sifatlar asosida biz tarbiya topamiz, o‘zimizni isloh qilishga ehtiyoj sezamiz, pirovard natijada real hayot va axloqiy ideal o‘rtasidagi chegaralarni qisqartiramiz.Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma’naviy ta’sir ko‘rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma’qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni etika fani o‘rganadi.

Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o‘rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma’naviy va ma’rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o‘tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o‘zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o‘zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o‘rtasidagi kurashda ifodalanadi.

Axloq muayyan jamiyat va davrda o‘zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so‘nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o‘ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me’yorlari ham bor. Bunday axloq me’yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta’minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi maktabga ilk qadam qo‘ygan o‘quvchilarning savodini chiqarishda, ularni shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisining sifatlari quyidagicha guruhlandi:

1-guruh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga DTSda belgilangan bilim, ko‘nikm, malaka, kompetensiyalarni shakllantirishga psixologik tayyorgarlik: jamiyat hayoti, yosh avlod tarbiyasida o‘zining alohida rolini anglab yetish. Hozirgi zamon o‘qituvchisi oldiga qo‘yiladigan talablarni bilish, pedagogik faoliyatga qobiliyatning mavjudligi, o‘qituvchilik kasbiga qiziqish, nerv sistemasining egiluvchanligi, chuqurligi va kuchliligi, undagi psixik jarayon his qilish va idrok, diqqat, tasavvur, fikrlash, xotira, nutq, iroda)larning optimal holatdaligi. Pedagoglik kasbiga va o‘quvchilar bilan muloqotga kirishishga bo‘lgan ehtiyojini anglash.

2-guruh. Shaxs sifatlari: insonparvarlik, ma’lumotlilik, ma’naviy dunyosining mazmuni, madaniyati, eruditsiyasi (iqtidori), o‘z bilimini doimo oshirib borish, pedagogik odobga egalik, talabchanlik va adolatlilik, axloqiy qiyofasi, o‘z o‘quvchilariga o‘qish, ishlash va yashashda namuna bo‘la olish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish.

3-guruh. Kasbiy sifatlar: o‘quvchi-yoshlarning o‘ziga xos va yosh xususiyatlarini bilish, har bir o‘quvchi shaxsini loyihalashtira olish; didaktik bilimlarning mavjudligi; o‘z o‘quv predmetini va unga doir so‘nggi yangiliklarni bilish, o‘quv reja, dastur, o‘quv qo‘llanmalar, darslik va qo‘shimcha adabiyotlarni bilish; ta’lim vazifalari, funksiyalari va tashkil etish tamoyillarini bilish; o‘quv dasturiga tuzatishlar kiritishni bilish, eskirgan ma’lumotlarni olib tashlash, o‘rniga yangi, zamon talablariga mos, jonajon o‘lka tarixi, madaniyati, xalq an’analari xususiyatlariga mos keladigan materiallarni qo‘ya olish; o‘quv ishlarini rejalashtirishni bilish (kalendar va dars rejalari); o‘quvchilarning ta’limi, tarbiyasi va rivojlanishini ta’minlovchi, ta’limning eng ta’sirchan, noan’anaviy shakl va metodlarini tanlay olish va ijodiy qo‘llay olish ko‘nikmasi; xalqaro aloqalar imkoniyatlaridan foydalana bilish ko‘nikmasi; ta’lim jarayonida, auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilishga doir bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi; o‘quv-tarbiyaviy ishlarni samarali olib borishda erishgan yutuqlarida to‘xtab qolmaslik, faol ijodiy izlanishda davom etish.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi qiyofasida quyidagilar bo‘rtib turishi kerak: – bolaparvarlik; – o‘z kasbini sevishi; – pedagogik faol bo‘lish; – o‘zi ustida doimiy ishlashi. Bunday yondashuv asosida oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash mapqsadga muvofiq bo‘ladi.Shu jihatdan xalqaro pedagogik tajribalarida qabul qilingan quyidagi konseptual yo‘nalishlarga e’tibor berish lozim: a) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga kasbiy, psixologik va pedagogik bilim berish; b) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik ko‘nikma bilan qurollantirish;g) bola bilan ishlash psixologiyasini shakllantirish.

Ushbu yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash kutilgan samarani berishi shubhasizdir. Ayni paytda, har bir o‘qituvchi faoliyati davomida o‘zining kasbiy qiyofasini takomillashtirib borishini unutib bo‘lmaydi. Bizning yondashuvimizga binoan bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zamonaviy yondashuvlardan xabardor bo‘lishi kerak. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qiyofasida pedagogtk, psixologik va estetik malakalik bo‘rtib turishi kerak. Bu borada quyidagi pedagogik malakalarni egallash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

– bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik vazifani qo‘ya olishi, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta olishi kerak;

– imkon qadar har bir o‘quvchi bilan individual ishlash uslubiga ega bo‘lishi shart;

– o‘quv materiallari bilan ishlash ko‘nikmasini egallash bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kasbiy tayyorlash. O‘zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

– bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik qonuniyatlar va texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish;

– bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini intellektual va ma’naviy axloqiy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish; – dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

– ta’lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o‘qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o‘rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag‘batlantirish; – pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini ‘‘hayot davomida o‘qish’’ tamoyili asosida takomillashtirib borish;

– ilmiy-tadqiqot va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha xususiy sektorning salmog‘ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim sohasida davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

– ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

Pedagogik olimlarning fikricha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quyidagi funksional komponentlarni bilishi kerak:

1. O‘quv materiallarini tayyorolash va taqdim etish.
2. O‘quvchilarni bilim va tarbiya olishga qiziqtira olishi.
3. O‘quvchilar shaxsida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf eta olishi.
4. Muntazam ravishda o‘quvchilarni kuzatib borishi.

Mazkur yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tay-

yorlashda muhim ahamiyatga ega.

Tajribali pedagog olimalardan A.K.Markovo yondashuviga ko‘ra bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyati to‘rt yo‘nalishdan iborat.

1. Kasbiy psixologik va pedagogik bilimlarni egallash.
2. Kasbiy pedagogik malakani egallash.
3. Kasbiy psixologik ko‘nikmalarni egallash.
4. Shaxsiy fazilatlar egasi bo‘lish.Biznincha, ushbu tavsiyalar nazariy va amaliy jihatdan asoslarga ega. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonini tashkil etishda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy, psixologik va estetik jihatdan tayyorlashga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hozirgi zamon rivojlanish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modellashtirish masalasiga ahamiyat berish dolzarb bo‘lib turibdi. Unga ko‘ra, oliy pedagogik ta’lim jarayoni o‘ziga xos model ko‘rinishiga ega bo‘lishi kerak. Chunki modellashtirish to‘rt jihatga ega bo‘ladi:

– model bu o‘quv materiallarini tizimli taqdim etish;
– model muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etib borish;
– model ta’lim oluvchini hamisha ob’ekt sifatida bilish;
– model yangi ma’lumotlarni o‘z vaqtida o‘quv jarayoniga kiritib borish.

Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash ishlarini modellashtirib olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020 yil 23 sentabr) 5-bobida o‘qituvchilarning huquqiy maqomi belgilangan. Mazkur huquqiy maqomga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatga quyidagi asoslarga binoan yo‘naltirilishi kerak:

– chuqur kasbiy tayyorgarlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish;
– ta’lim oluvchilar huquqlariga rioya qilish;
– kafolatlangan ish sharoitidan foydalanish;
– o‘quv dasturlarini tuzishda mualliflik dasturlarini ishlab chiqishni bilish;
– zamonaviy pedagogik shakllarni, o‘qitish va tarbiya vositalarini erkin tanlash;
– innovatsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish; – sog‘liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tish; – ta’lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ana shu huquqlar asosida faoliyatga yo‘naltirilishi kerak. Ayni paytda, mazkur Qonunda o‘qituvchilarning quyidagi majburiyatlari ham belgilab qo‘yilgan:

– ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilish;
– o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi;
– axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;
– voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi bilan birgalikda olib borishi;
– o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi;
– tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi.

Mazkur majburiyatlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo‘naltirishning asoslari bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyatga quyidagi

mexanizmlar asosida yo‘naltirilishi kerak:

a) mutaxasssilik fanlarini o‘qitish jarayonida;

b) maxsus kurslar vositasida;

v) mustaqil ta’lim vositasida;

g) ustoz-shogird an’anasi vositasida. Hadislarda: “Beshikdan to qabrgacha ilm izla”, deyilishida juda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish esa insonni ma’naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi.Ta’lim-tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi maktab o‘quvchilarining kundalik hayoti tashkilotchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Qiziqish uyg‘otish, o‘quvchilarni o‘zi ortidan ergashtirish faqatgina irodasi mustahkam odamning qo‘lidan keladi, bunda shaxsiy faollik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sinf, bolalar jamoasi kabi murakkab organizmga pedagogik rahbarlik tarbiyachini topqir, zehnli, qat’iyatli va har qanday vaziyatni mustaqil hal qilishga tayyor turishga majbur qiladi. Pedagog – bu bolalarni o‘z ortidan ergashishga undovchi, taqlid uchun o‘rnakdir.Zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar qatorida ma’naviyat yana yetakchi o‘ringa qaytmoqda. O‘zining shaxsiy xulqi, hayotga munosabati bilan ustoz ma’naviy hayotda o‘quvchilarga o‘rnak ko‘rsatishi, ularda insoniy fazilatlar, haqiqat va ezgulikning oliy maqsadlarini tarbiyalashi lozim. Bugungi kunda ko‘plab odamlar o‘z farzandlarining o‘qituvchisi e’tiqodli inson bo‘lishini talab qilmoqda, zero, ular o‘z dilbandlarini manaviy-axloqiy tarbiyalashni unga ishonib topshirishini anglab yetishgan.

O‘qituvchining xarakteridagi ruhiy ziyraklik – unga o‘quvchilar ahvolini, kayfiyatini his qilish, yordamga ko‘proq muhtoj bo‘lib turganlariga o‘z vaqtida yordam qo‘lini cho‘zishga imkon beruvchi o‘ziga xos barometrdir. O‘qituvchining tabiiy holati – bu o‘z tarbiyalanuvchilarining buguni va kelajagi uchun kasbiy bezovtalik va shaxsiy mas’uliyatdir. Bundan tashqari, o‘qituvchining kasb odobi – o‘quvchilar bilan muloqotda me’yorga rioya qilish haqida ham alohida aytib o‘tish joiz. Kasb odobi – bu tarbiyachining aql, hissiyot va umumiy madaniyatni maqsadli ifodalash qobiliyatidir. Uning negizida o‘quvchining shaxsiyatiga hurmat yotadi. Bu o‘qituvchini odobsizlikdan ogohlantiradi, muayyan vaziyatlarda eng yaxshi ta’sir vositasini tanlashga undaydi.O‘qituvchilik kasbida shaxsiy fazilatlar kasbiy fazilatlardan ajralmas sanaladi. Ularning orasida: o‘quv fanini, fanni o‘qitish metodikasini o‘zlashtirish, psixologik tayyorgarlik, umumiy bilim, keng madaniy dunyoqarash, pedagogik mahorat, pedagogik mehnat texnologiyalarini egallash, tashkilotchilik malaka va ko‘nikmalari, pedagogik xushmuomalalik, pedagogik texnika, muloqot texnologiyalarini o‘zlashtirish, notiqlik san’ati va boshqalar bor. O‘z mehnatiga mehr qo‘yish – pedagog bo‘lishdagi eng zaruriy fazilatdir. Uning tarkibiy qismlari sifatida – vijdoniylik va fidokorlik, tarbiya natijalariga erishishdan quvonch, o‘ziga va o‘z malakasiga doimiy ravishda ortib boruvchi talabchanlikni aytish mumkin. Zamonaviy o‘qituvchi shaxsiyatini ko‘p jihatdan uning bilimi, madaniyati qay darajada yuksakligi belgilab beradi. Zamonaviy dunyoda erkin harakat qilishni istagan o‘qituvchi juda ko‘p narsani bilishi kerak.

Shuning uchun biz uning muhim kasbiy fazilatlari sifatida mehnatsevarlik, ishchanlik, intizomlilik, mas’uliyatlilik, maqsad qo‘yish va unga erishish yo‘llarini tanlay olish, uyushqoqlik, qat’iyatlilik, o‘z kasbiy darajasini tizimli va rejali asosda muntazam oshirib borish, o‘z mehnati sifatini muntazam takomillashtirishga intilish va boshqa qobiliyatlarni tan olishimiz kerak.O‘qituvchilik kasbini sevish pedagogik axloqning zarur talablaridan biri hisoblanadi. O‘z kasbini sevgan kishigina butun kuch – g‘ayratini, qalb qo‘ri va dil haroratini bu ishga bag‘ishlaydi va o‘z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi.Shuningdek, bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo‘lish o‘qituvchilik kasbi, o‘qituvchi axloqiy

qiyofasida juda muhim ahamiyat kasb etadi.O‘qituvchi halollik, rostgo‘ylik, axloqiy poklik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlarga ega bo‘lishi pedagogik odobining muhim talab – qoidasidir. Muallim deyarli har kuni o‘quvchilar bilan uchrashadi, savol – javob qiladi, ularning yaxshi xulqi, ezgu ishlarini ma’qullaydi, bilimini baholaydi, nojo‘ya xatti - harkati uchun tanbeh beradi. Albatta, o‘qituvchining fikri, mulohazalarida nisbiylik, sub’ektivlik alomatlari mavjud.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini axloqiy faoliyatni shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari milliy tarbiyalash jarayoniga yangicha yondashuv metodologik samaradorlikni taqozo etadi. Biz esa milliy ruhda tarbiya berishning bugungi davr talabiga xos bo‘lgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarinng ongiga singdirib borishimiz zarur. Eng muhimi yurtimiz kelajagini mustahkamlash uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini milliy ruhda tarbiyalash orqali ularda milliy tafakkur, milliy ong, milliy mafkura, o‘zligimizga bo‘lgan hurmat, milliyligimizning bugungi ko‘rinishlarini saqlash va davom ettirish kabi ko‘plab jarayonlarni amalga oshiramiz.Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani shakllantirishni alohida maqsad qilib qo‘ymasak va bu muammoni hal etishning yangi usullarini izlamasak, an’anaviy oliy pedagogik ta’lim tizimida bu muammo samarasiz hal qilinmoqda. Darhaqiqat, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida axloq, xususan, ijtimoiy axloq masalasiga jiddiy e’tibor berilishi mamlakat va millat taqdirida alohida o‘rin egallashidan darakdir.Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o‘rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma’naviy va ma’rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o‘tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o‘zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o‘zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o‘rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o‘zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so‘nishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva N.J. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mas’uliyatni shakllantirish pedagogik muammo sifatida ko‘tariladi. International scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337

2. O‘roqov Sh. Ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari//Xalq ta’limi. – Toshkent: 2016, №5. – B.55-60. (13.00.00; №2).

3. O‘roqov Sh. Bo‘lajak kollej o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-metodik jihatlari//SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. – Samarqand: 2015. 4-son. – B.132-135. (13.00.00; №6).

4. Madayev O. “O‘quvchilar bilimini baholashda vaqtdan samarali foydalanish usullari”. Toshkent 2007-y. - B. 51.

5. Qodirova F. Pedagogik kadrlarga ilg‘or pedagogik texnologiyalar haqida. Metodika. 2014–y. – B. 23.

I.M. SATTAROVA,
Andijon davlat universiteti, ‘‘Umumiy pedagogika’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

TALABALARNI RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATGA YO‘NALTIRISH

Annotatsiya

Maqolada o‘qitishning rivojlantiruvchi texnologiyalari orqali talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatga yo‘naltrish, mustaqil ish ijodkorligini bilish, faolligini, yosh mutaxassislar to‘qnashishlari mumkin bo‘lgan hayotiy va kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun muhim bo‘lgan fikrlashning tizimliligini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Rivojlantiruvchi texnologiyalar, ijodiy mustaqil faoliyat, ijodkorlik, bilish faolligi, yosh mutaxassis, kasbiy vazifa, Uchinchi Renessans poydevori, yuksak intellektual, ma’naviy salohiyat

В статье речь идёт о ориентации студентов на творческую самостоятельную деятельность посредством развиваюших технологий обучения,развития самостоятельного трудового творчества, познавательной активности, системы мышления, что важно для успешного решения жизненных и профессиональных задач, стояших перед молодыми специалистами.

Ключевые слова. Развивающие технологии, творческая самостоятельная деятельность, творчество,познавательная деятельность, молодой специалист, профессиональная задача, основы Третьего Возрождения, высокий интеллектуальный, духовный потенциал

The article is about directing students to creative independent activities through the developmental technologies of teaching, developing independent work creativity,cognitive activity, the systematic thinking that is important for successfully solving life and professional tasks that young professionals can face considered

Key words. Developmental technologies, creative independent activity, creativity, cognitive activity, young specialist, professional task, foundation of the Third Renaissance, high intellectual, spiritual potential

Ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo‘lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o‘quv – tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Ushbu o‘quv faoliyatini tashkillashtirish shakli bir qator murakkab muammolar bilan bog‘langan.

Ulardan bir nechtasiga to‘xtalib o‘tamiz. Eng avvalo bular faol ish ko‘nikmalariga odatlantirish bo‘yicha, talabalarni haqiqiy vaqt manbalarini va ulardan unumli foydalanishni aniqlash bo‘yicha, butun bir oliy maktabning o‘quv jarayonida talabalar o‘quv bilish faoliyati va ilmiy ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha aniq uslublarni mavjud emasligidadir.

Ko‘pincha o‘quv jarayonida o‘quv fanining xususiyatiga va mutaxassisligiga bog‘liq

bo‘lgan mustaqil ishning tavsifining differensiyalashuvi yetarli darajada mavjud bo‘lmaydi. Bundan tashqari, alohida o‘rganilayotgan fanning maqsadli amaliy vazifa kuzatilmaydi.

O‘qitishning rivojlantiruvchi texnologiyalaridan foydalanish yo‘li bilan talabalarni ijodiy mustaqil faoliyatlarini tashkillashtira oladigan, ularga kasbiy yo‘nalishlarini tanlashga yordam beradigan, o‘qituvchilarni tayyorlashga kam e’tibor qaratiladi. Bu talabalarni ijodiy mustaqil faoliyatlarini tashkillashtirish bo‘yicha zamonaviy oliy maktabning barcha muammolari emas. Faol-faoliyatining eng kam bo‘lmagan muhim jihatlaridan biri bo‘lib mustaqil ish ijodkorligini, bilish faolligini, yosh mutaxassislar to‘qnashishlari mumkin bo‘lgan, hayotiy va kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun muhim bo‘lgan fikrlashning tizimiligini rivojlantirish hisoblanadi.

Shu o‘rinda Prezidentimizning fikrlari naqadar haq ekanligini ko‘rib turibmiz: “… Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm – fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Bo‘lg‘usi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida talabalarni faol faoliyati asosiy o‘rinni egallaydi. Ta’kidlab o‘tish joizki, uzoq vaqtgacha faol faoliyati muammosi maktablarda o‘quv jarayoniga muvofiq ravishda hal etilib kelingan. O‘quv yurtlarida muammoni o‘quv jarayoniga muvofiqlash kechroq hal etildi.

Rivojlantiruvchi ta’lim mohiyatini ifodalashda biz, shaxsning – aqliy, irodaviy va hissiy sifatlari ijtimoiy o‘zaro bog‘liq va individual ifodalanishi hisoblanadi degan holatdan kelib chiqdik. Bu shuni anglatadiki, shaxsning bunday xususiyati, ya’ni ijodiy mustaqillik, ta’lim va tarbiya jarayonida shakllanib boradi. Muammo tadqiqotining zamonaviy holati ijodiy mustaqillikning amaliyroq bo‘lgan tarkiblari: motivatsiyali, mazmuniy-harakatli va irodaviy tarkiblari to‘g‘risida ta’kidlashga imkon beradi. Barcha tarkiblar o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqada va haqiqiy o‘quv jarayonida ularni ajratib tashlash mumkin emas. Sanab o‘tilgan tarkiblarni bo‘lish tadqiq qilinuvchi tushunchani mohiyatini chuqurroq o‘rganish maqsadida shartli ravishda o‘tkazish mumkin.

Rivojlantiruvchi faol faoliyatni ikkinchi tarkibi bo‘lib mazmuniy-harakat hisoblanadi. U talabalarni yetakchi bilim va bilim olish yo‘llarini o‘z ichiga oladi. Bilimlarni to‘ldirishga shakllangan qat’iy intilish va faoliyatning yangi yo‘llarini egallash faqatgina, agarda talaba ularni mustaqil topish ko‘nikmasiga ega bo‘lsa, aniq yetakchi bilimlar tizimiga ega bo‘lgan shartdagina bo‘lishi mumkin.

Yetakchi bilimlarga yangi bilimlarni egallash uchun asos bo‘ladiganlar taaluqli bo‘ladi va fanning o‘zida negiz hisoblanadi.

Bilimni egallash – bu nafaqat tushunish va eslab qolish emas, balki amaliy vazifalarni yechish uchun qo‘llay olishi, bilimni va faoliyat yo‘lini yangi holatga o‘tkaza olishdir.

Mazmunli harakat tarkibining asosiy qismi bo’lib bilim olish yo’llari: aqliy, umumiy va maxsus tashkil etuvchi qismlar hisoblanadi. Aqliy yo’llarga shunday fikrlash harakatlari, ya’ni taqqoslash, solishtirish, tahlil va umumlashtirishlar taalluqli bo’ladi.

O‘quv faoliyatida talabalarning mustaqilligi o’quv mahnat ko’nikmalarini shakllantirish

bilan bog‘liq. Oxirgi umumiy ko’nikma tarkibiga quyidagilar: mustaqil ishni rejalashtira olishi, uni tejamli tashkillashtirishi, mustaqil nazorat qilishni amalga oshirishi va belgilangan sur’atda ishlay olishi kiradi.

Agarda talaba bilimlarni egallash jarayonida, shuningdek ularni qo’llash bosqichida qiyinchiliklarni yenga olishni o’rganish shartida, talabalarda ijodiy mustaqillikni shakllantirish mumkin. Irodaviy jarayon faoliyat bilan uzviy bog‘liqlikda bo’ladi, “iroda boshlanmasi, insonni harakat qilishga bo’lgan ilk istagi kabi, ehtiyojdan kelib chiqadi.” Bundan kelib chiqadiki, mustaqil faoliyatning motivatsiyali va mazmuniy-harakat tarkiblari irodaviy jarayonlar bilan mustahkam bog‘liqlikda bo’ladi.

Faol faoliyatni tashkil etishda o’qituvchining vazifasi hisobga olinsa, talabalar mustaqil ishini tashkillashtirishda ularning ehtiyojlarini hisobisiz ham tuzib bo’lmaydi. Shunga bog‘liq ravishda savol tug‘iladi, talabalarning o‘zlari qay darajada shaxsiy mustaqil ishlari bilan qoniqqanlar. Oxirgi yillar tadqiqoti, har bir uchinchi talaba mustaqil ishni tashkillashtirilishi, uning natijalari, o‘qituvchi bilan qaytar aloqa, nazorat bilan qoniqmaganliklarini ko‘rsatmoqda.

Talabalarning faol faoliyatni tashkillashtirishning ijobiy jihatlari sifatida ular tomonidan shaxsning ijodiy o‘zini o‘zi ko‘rsatish imkoniyatlarini; o‘zini o‘qituvchi sifatida sinab ko‘rish imkoniyati; qo‘shimcha bilimlarni olish sifatida yangini tanish; fikrlash madaniyatini rivojlantirish; materialni chuqurroq o‘zlashtirish; shaxsni individual sifatlarini rivojlantirishni taqdim etilishini ko‘rsatmoqdalar. Shunday qilib, talabalar mustaqil ishini ta’limiy vazifasi nuqtai nazaridan shu bilan birga aqliy rivojlanish tomonidan, va yana shaxsni o‘zini o‘zi faoliyatga undashi va pedagogik qoniqish nuqtai nazaridan uning ijobiy jihatlarini ta’kidlamoqdalar.

Shu bilan bir qatorda faol faoliyatni jarayonida talabalar duch keladigan qiyinchiliklar ham mavjud. Bulardan ayrimlari quyidagilar: mustaqil ishlash ko‘nikmalarini yo‘qligi; nazariy bilmlarni amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmalarini yetishmasligi tashkil etadi. Bu mustaqil ishlarni tashkillashtirish muammosi jiddiy turganligidan dalolat beradi. Bu holatni o‘zgartirish maqsadida mustaqil ishlarni maqsadini va mazunini boyitish muhim hisoblanadi, bu esa o‘z navbatida talabalarda motivatsiyani o‘zgarishiga olib keladi. Bunda faol faoliyatnining asosiy yo‘nalishlari, ya’ni: joriy yoki imtixon topshirish niyatidan aniq kasbini, binobarin moddiy hayotiy holatni haqiqiy egallash tomoniga o‘zgaradi. Bunday holatda o‘quv jarayonining umumiy strategiyasi ham o‘zgaradi. Hozirgi vaqtda talabalarning asosiy o‘quv vaqtlari auditoriya o‘quv mashg‘ulotlariga to‘g‘ri keladi. Ularning hajmi katta va talabalar jismoniy kuch imkoniyatlariga va haqiqiy vaqt byudjetiga binoan doimiy va ma’suliyatli shug‘ullanish imkoniga ega emaslar.

Ammo zamonaviy ta’lim jarayonini jadallashtirish sharoitida faqat an’anaviy vositalarni qo‘llash yo‘li bilan erishib bo‘lmaydi, bunday holatda faqat faol o‘qitish usullari, jumladan pedagogik va uslubiy birlashmada keng qo‘llab-quvvatlanishni olgan, ishbilarmon o‘yinlar tan olinadi. Ularni qo‘llash, aqliy qiyinchiliklarni chaqiruvchi, bilish istagini uyg‘otuvchi, yangi bilimlarni mustaqil va faol o‘zlashtirish uchun sharoit yaratuvchi bilish-izlanuvchan xususiyatdagi vazifalarni berib talabalarni ijodiy mustaqil ishlarini tashkillashtirshga imkon beradi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, faol o‘qitish usullarini qo‘llash an’anaviy ta’lim jarayonini bir xilligini o‘zgartiradi, talaba ma’ruzada aytilganlarni qayta tiklaydi va bunda faol mustaqil ishlashga yo‘nalish paydo bo‘lmaydi. Natijada talabalar, nazariy o‘rganib, bilimlarni amalda qo‘llay olmaydilar.

“…Biz barchamiz “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” degan yagona

maqsad atrofida birlashib, mas’uliyat va javobgarlikni chuqur his etgan holda, fidokorona mehnat qilib, o‘z orzu-maqsadlarimizga, inshoolloh, erishamiz.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishda amaliy ta’limda rivojlantiruvchi ta’limning alohida o‘rni mavjuddir. Rivojlantiruvchi ta’lim, uzluksiz ta’limning davlat miqyosidagi muhim vazifasi sifatida qaralayotgan bir paytda, jamiyatimiz bosqich-ma-bosqich rivojlanishining hal qiluvchi tomonlaridan biridir.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “…Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bolib dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz…”

Hozirgi kunda o‘qituvchilar va tadqiqotchilar oldida mustaqil ishlarni tashkillashtirish doirasida shunday ta’lim tizimini ishlab chiqish vazifalari turibdi, ya’ni bunda talabalarda bilimlarni mustaqil izlab topishga, nostandart vazifalarni mustaqil yechishga qiziqish paydo bo‘ladi, bu esa mustaqillik va ma’suliyatlilik sifatlarni shakllantirishga imkon beradi. Ushbu vazifalarni mukammal o‘ylangan ta’lim usullarini tanlash yo‘li bilan hal etish mumkin, bunda talabalar o‘rganilayotgan vaziyatga kirishadilar, faol faoliyatga intiladilar, muvaffaqiyat holatini boshidan o‘tkazadilar va shunga muvofiq o‘zlarini tutishlarini motivlashtiradilar. Bu barcha talablarga bizning fikrimizcha ma’lum darajada ta’limning faol usullari, jumladan o‘yinli texnologiyalar javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh. M.“ Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent.”O‘zbekiston”-2017 y 14-15 bet

2. Mirziyoyev.Sh. M. “Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq.T.”O‘zbekiston” NMIU. 2016 y.14-bet

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.5-6 bet, 38-bet.

4. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.T.: “Ma’naviyat”,2008.173 b.

5.Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat- T.: TDPU “Nizomiy”, 2003.

6. Фарберман Б.Л. Передовые педагогические технологии. – Т.: ФАН, 2000

Maloxat MAXMUDOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti,‘‘Informatika’’ kafedrasi katta o‘qituvchi, PhD
Muslima HUSANOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

BO‘LAJAK MATEMATIKA VA INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA WEB TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada web texnologiyalar asosida bo‘lajak matematika-informatika o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli texnologiyalar, uslubiy, ta’lim, o‘qituvchi, Google classroom, didaktik, ta’lim, qobiliyat, talaba, kompyuter.

В данной статье рассматривается вопрос организации учебного процесса с использованием современных методов обучения при разработке методической подготовки будущих учителей математики и информатики на основе веб-технологий.

Ключевые слова. Цифровые технологии, методические, образование, учитель, Google-класс, дидактика, образование, способности, ученик, компьютер.

This article examines the issue of organizing the educational process using modern teaching methods when developing methodological training for future mathematics and computer science teachers based on web technologies.

Key words. Digital technologies, methodological, education, teacher, Google class, didactics, education, abilities, student, computer.

Mamlakatimizda zamon talablari asosida ta’lim jarayonini tashkil etish, jumladan, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. YUNESKO, YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilga kelib ta’limning yangi kontseptsiyasi, shuningdek, ta’lim sohasidagi jamiyatning rivojlanish tendentsiyalari, zamonaviy rivojlanish, globallashuv va jahon tizimining inson hayoti va faoliyatining turli sohalarida integratsiyasi asosiy harakatlantiruvchi kuchdir. Ta’limni rivojlantirishga olib keladigan muhim faoliyat sifatida tan olingan bo‘lib, ta’lim sohasida malakali kadrlar tayyorlash va bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonidagi yuqori darajadagi ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish zarur.

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi mutaxassislarni sohada yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishga tobora katta talablar qo‘ymoqda. Bu raqamli jamiyatda ta’limning zamonaviy didaktik vositalarini kengroq joriy etish va uning samaradorligini yanada oshirishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarning uzluksiz va jadal rivojlanishi ushbu jarayonga bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash va etuk mutaxassis sifatida kasbni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘qituvchilar ushbu sohada chuqur bilim va tajriba orttirishlari uchun o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari

to‘g’risida”gi farmonini aytish mumkin. Ushbu farmonning ikkinchi bo‘limi beshinchi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo‘nalishlari” bandida Respublikamizda ta’lim tizimini raqamlashtirishning ustivor vazifalari to‘liq belgilab berilgan.

Ta’lim va tarbiyaning eng dolzarb vazifasi o‘quvchilarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Bunday muammolarni hal qilish uchun o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va ularni boshqa zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg’unlashtirish zarur. Ta’lim muassasasi oldida o‘quv jarayonini eng yangi kompyuter uskunalari va dasturiy ta’minoti bilan ta’minlash zarur.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, “bulutli hisoblash” ni o‘quv jarayoniga joriy etish ta’limni raqamlashtirish muammosini bartaraf etishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda o‘quv jarayonida keng tarqalgan “bulutli hisoblash” atamasi IT sohasida 2008 yildan beri qo‘llanilmoqda. O‘quv jarayonida bunday texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchilar uchun IT sohasidagi bilimlarini yuqori darajaga ko‘tarish va ta’lim sifatini oshirish uchun ajoyib vositalardan hisoblanadi. Bular web-2.0, web-3.0 xizmatlari va Google xizmatlari kabi innovatsion IT-ilovalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

O‘quv jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida uslubiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun google xizmatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda: Internet sizga sinfni tashkil etishda tarmoq xizmatlari va Google dasturlaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil qilishga imkon beradi. Shuningdek, o‘quv guruhi a’zolarining birgalikdagi ishi Google xizmatlaridan foydalanish ko‘nikmalari va malakasini oshiradi. O‘qituvchilar o‘z resurslarini rivojlantiradilar, elektron ta’lim ob’ektlarini yaratadilar va ma’lumotlar almashadilar. Yangi ta’lim standartlari joriy etilishi bilan vazifalar ham tubdan o‘zgaradi.

O‘quv jarayonida o‘z-o‘zini tarbiyalash makonini tashkil etishning samarali vositalaridan biri bu LMS – Learning Management System (ta’limni boshqarish tizimi) ning imkoniyatlaridan foydalanishdir. Ko‘pgina LMSlar orasida keng qo‘llaniladigan tarkiblardan biri bu Google Classroom. Google Classroom-bu o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun bulutli platforma. Platforma o‘qituvchilar va talabalar hamkorligi asosida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy ta’limda darslarni tashkil etishning samarali usullaridan biri bu “teskari ta’lim”, “aralash ta’lim” texnologiyasidir. Ta’limni raqamlashtirish jarayonida “teskari ta’lim”, “aralash ta’lim” texnologiyasidan foydalanish o‘quv jarayonini faollashtirish va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish uchun Google Classroom funksiyalaridan samarali foydalanishi mumkin.

Ta’lim jarayonida Google Classroom platformasidan foydalanish ta’lim mazmuniga yangicha yondashuvlar, ta’lim usullarini ishlab chiqish, raqamli ta’lim tizimini joriy etish va masofaviy ta’limni tashkil etishga yordam beradi. Google texnologiyasining asosiy xususiyatlari o‘quvchilarni iste’molchi sifatida emas, balki faol ijodiy ishtirokchilar sifatida ta’lim jarayonining markaziy qismiga aylantirishga yordam beradi. Internetga ulangan har qanday brauzerdan Google ilovasiga kirish ko‘plab ilovalar xizmatlaridan bepul ta’minlaydi. Hozirgi kunda ta’lim sohasida keng qo‘llaniladigan Google ilovalari: Google Assistant, Google tarjimoni, Google guruhlari, Google taqvim, Google hujjati, Google taqdimoti, Google rasmlari, Google jadvali, Google shakllari, Google Jambord va boshqalar.k tashkil etilgan.

Google Classroom-da kurslar yaratish, fanlarga turli kurslarni qo‘shish, o‘quvchilarni darslarga taklif qilish, sinf topshiriqlarini yaratish, talabalarni baholash va topshiriqlarni

qabul qilish kabi vazifalar mavjud. Google platformasidan foydalanish sinfda o‘qitish mazmunini yangilash, o‘qitish texnologiyasini kengaytirish, tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyasini joriy etish va masofaviy ta’limni tashkil etishga yordam beradi.

O‘qituvchilar Google Classroom bulutli ta’lim platformasi bilan ishlash bo‘yicha asosiy imkoniyatlarga: kurslar yaratish, talabalarga topshiriq va sharhlar yuborish, hamda fanga oid fikr-mulohazalarni olishlari mumkin. Har bir foydalanuvchi Google Classroom platformasi bilan ishlaganda juda oson boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Barcha ma’lumotlar Google serverlarida: YouTube’dagi video darslar, Google Drive’dagi elektron darsliklar, Google Docs’dagi yozma ishlar saqlanadi.

Google ilovalari internet texnologiyasi asosidagi yangicha elektron ta’limini joriylashtirishni taklif etmoqda. Microsoft kompaniyasining Word, Excel, Power Point, kabi mashxur dasturiy vositalariga bugungi kunda Google kompaniyasinng Google Apps(Disk), Google Hujjatlar, Google elektron table, Google Taqdimot kabi ilovalari raqabatdoshlik qilib, ularning ommabopligi o‘sib bormoqda.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta’lim oluvchilar faoliyatini sezirarli darajada yuqori natijalarga erishish, ular tomonidan egallagan bilim, malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab etadi.

Google texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, u o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga nafaqat ta’lim mazmuni iste’molchisi, balki uning faol yaratuvchisi sifatida jalb qilish imkonini beradi, o‘quvchilarning ta’lim jarayonining markazida bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi.

Google Internetga ulangan har qanday brauzer orqali kirish mumkin bo‘lgan bir qator ilovalar va xizmatlarni ishlab chiqadi va taqdim etadi: Google Calendar: onlayn kalendar; Google Docs: onlayn ofis; Gmail: bepul elektron pochta; Google Xaritalar: xaritalar to‘plami; Google saytlari: wiki texnologiyasidan foydalangan holda bepul xosting; Google Tarjimon: tarjimon; YouTube: videoxosting. Ushbu Google ilovalari ta’lim o‘quvchilari va o‘qituvchilariga samarali muloqot qilish va hamkorlik qilish uchun zarur vositalarni taqdim etadi.

Google xizmatlarining ta’lim uchun asosiy afzalliklari:

Uskunaga minimal talablar (Internetga ulangan bo‘lishi zarur);

Google texnologiyalari maxsus dasturiy ta’minotni sotib olish yoki texnik xizmat ko‘rsatishni talab qilmaydi (ilovalarga veb-brauzer oynasi orqali kirish mumkin);

Google talabalar va ta’lim muassasalari tomonidan foydalaniladigan barcha operatsion tizimlar va mijoz dasturlarini qo‘llab-quvvatlaydi;

Barcha Google vositalari bepul.

Bulutli texnologiyalarning ta’lim jarayonida ulardan foydalanish maqsadga muvofiqligini tasdiqlovchi didaktik imkoniyatlarni shakllantirish o‘quv jarayonini boshqarish afzalliklarini ko‘rsatadi:

– o‘qituvchilar va talabalarning katta jamoasi uchun birgalikdagi ishlarni tashkil etish;

– talabalar va o‘qituvchilar uchun har xil turdagi hujjatlarni almashish va tahrirlash qobiliyati;

– xizmat ko‘rsatuvchi foydalanuvchining taqdim etilayotgan joyiga nisbatan hududiy majburiyligi yo‘qligi sababli yaratilgan mahsulotlarni o‘quv jarayoniga tezkor kiritish;

– interfaol darslar va jamoaviy o‘qitishni tashkil etish;

– talabalar tomonidan “auditoriya hajmi” va “darslar o‘tkazish vaqti” bo‘yicha cheklovlar bo‘lmagan holda mustaqil ishlarni bajarish, shu jumladan jamoaviy loyihalar;

– qayerdaligidan qat‘i nazar, tengdoshlari bilan o‘zaro hamkorlik va birgalikdagi ish;

– muayyan fan sohalarida veb-yo‘naltirilgan laboratoriyalarni yaratish (yangi resurslarni qo‘shish mexanizmlari, modellashtirish vositalariga interaktiv kirish, axborot resurslari, foydalanuvchini qo‘llab-quvvatlash va boshqalar);

– nazoratning turli shakllarini tashkil etish;

– ishlatilgan ta’limni boshqarish tizimlari (LMS) bulutiga o‘tish;

tadqiqotchilar uchun amaliy modellarga kirishni tashkil qilish, ishlab chiqish va tarqatish uchun yangi imkoniyatlar.

Elektron muhitni loyihalash uchun bulutli texnologiya vositalardan foydalangan holda o‘quv modullarini yaratishingiz va barcha trening ishtirokchilari o‘rtasida interaktiv hamkorlikni tashkil qilishingiz mumkin. Demak, ta’lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning asosiy didaktik afzalligi talabalar va o‘qituvchilarning birgalikdagi ishini tashkil etishdir.

Xulosa qilib, shuni ta’kidlash mumkinki axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitishning an‘anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarini ijodiy va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirishda, umuminsoniy va ta‘limiy qadriyatlarning mohiyatini ochib berishda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar asosida o‘qituvchilarda Google.com ilovalari, Web-xizmatlari, internet tarmog’idan kasbiy faoliyatda qo‘llay olish metodik tayyorgarligini rivojlantirishda ko‘nikma va malakalari shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g’risida”gi farmonida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob. 2-§. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish

2. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p.4-5. http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf. (Муаллиф томонидан таржима қилинган.)

3. Абдрахманова Ж. Е. Методические рекомендации для работы в платформе Google Classroom // Нур-Султан-2019.

4. Чайнокова Г.Р. Персональная образовательная среда преподавателя на платформе google classroom как средство формирования аудитивной компетенции у студентов технического ВУЗа // Cyberleninka.ru − 2019.

5. M.A.Maxmudova., M.L Husanova Bo‘lajak informatika fan o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalrning imkoniyatlari Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat va sun’iy intellekt uchun dasturiy vositalar, axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2023 yil 16-17 iyun 16-19 bet

Safiya QALANDAROVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi “Tillar” kafedrasi dotsenti p.f.f.d.

CHET TILIDA SHAXSIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim tizimida bugun dolzarb hisoblangan shaxsiy-kommunikativ kasbiy kompetensiya asosida ta’limni turini tashkil etish, uning o‘ziga xos jihatlari, afzalliklari yuzasidan izlanishlar natijasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxsiy-kommunikativ kompetensiya, kasbiy raqamli ta’lim, ta’lim standartlari, raqobatbardosh kadr, kommunikativ kompetensiyasi kasbiy ishbilarmonlik, kasbiy yetuklik mehnat faoliyat, ijodkorlik.

В данной статье описаны результаты исследования по организации типа образования на основе личностно-коммуникативной профессиональной компетентности, который считается актуальным сегодня в системе высшего образования, его специфические аспекты и преимущества.

Ключевые слова. Личностно-коммуникативная компетентность цифровое образование, образовательные стандарты, конкурентоспособные кадры, коммуникативная компетентность, профессиональное предпринимательство, профессиональная зрелость, трудовая деятельность, креативность.

This article describes the results of a study on the organization of a type of education based on personal-communicative professional competence, which is considered relevant today in the higher education system, its specific aspects and advantages.

Key words. Personal and communicative competence, digital education, educational standards, competitive personnel, communicative competence, professional entrepreneurship, professional maturity, labor activity, creativity.

Rivojlanayotgan dunyoda global o‘zgarishlar va raqamli ta’lim islohotlari davrida nafaqat davlat ta’lim standartlari asosidagi bilimlarga ega bo‘lgan kadrlarga, balki turlicha kasbiy muammolarni yuqori madaniy darajada bartaraf qila oladigan, tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan, o‘zida sifatli kasbiy munosabatlarni aks etadigan va sifatli ish darajasini amalga oshira oladigan mutaxassislarga talabning mavjud bo‘lishi ayon bo‘lib qoldi. Ma’lumki XXI asr texnika asri hisoblanadi. Ilm-fanda texnikaning taraqqiyoti hozirgi kunda katta ahamiyatga ega. Bu taraqqiyotning kelajagi albatta sifatli va yuqori salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashni taqozo qiladi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarni zamonaviy dunyoda raqobatbardoshligini ta’minlash va kelgusida kasbiy munosabatlarga tayyorgarlik davrida talabalarning kommunikativ kompetensiyasi o‘z ichiga zamonaviy kommunikativ bilimlar yig‘indisini olishi va shaxslararo o‘zar munosabatlar uchun nutqiy xulqiy qoidalarni ham oladi. Kommunikativ kompetensiya asosida kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar nazariyasi va psixologiyasi bo‘yicha bilimlar yotadi. Bu bilimlar esa o‘z ichiga munosabatlar vositasini, me’yorlarini, qoidalarini, etiketning o‘ziga xos jihatlarini, munosabatlar o‘rnatish va davom ettirish usullarini, o‘z-o‘zini nazorat qilish usullarini oladi. Chet tilida kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar strukturasidagi kommunikativ

kompetensiya kasbiy munosabatlarda nima qilishni tushunish va bilishnigina emas, balki muammoni hal qilish maqsadida ushbu bilimlarni qo‘llay olishni anglatadi. Ushbu kontekstda ta’kidlash mumkinki, shaxsning kommunikativ kompetensiyasi – vaziyatlarni tahlil qilishni, muhitga singib borishni, munosabatlar jarayonini boshqarishni o‘z ichiga oladi. Bularning hammasiga madaniy tajriba, tilni egallash, munosabatlar tajribasiga ega bo‘lish, madaniy-ma’rifiy bilimlarga ega bo‘lish, hurmat va o‘z-o‘zini hurmat yordamida erishiladi. Ushbu jarayonlarda qo‘llaniladigan kommunikativ vazifalar quyidagicha ta’riflanadi: informatsion vazifa (so‘rovnoma, xabar, sezgi), regulyativ (undash, taklif qilish, maslahat berish), emotsiyaviy-baholovchi (fikr, ishonch), etiket (murojaat, fikr ifodasi, suhbatni davom ettirish va tugatish) Ko‘pchilik tadqiqotchilar kompetensiyalar tizimidagi kasbiy (amaliy/ijtimoiy/sohaga yo‘naltirilgan) komponentning dolzarbligini alohida ko‘rsatib o‘tadilar C.T.Qalandarova “ijtimoiy kompetensiya”ni “o‘zga insonlar, o‘zga madaniyat vakillari bilan hamjihatlikda harakat qila olish, tolerantlilik, ijtimoiy ma’suliyatlilik, moslashuvchanlik, o‘zini o‘zi rivojlantirish va mukammallika erishish layoqati” deb atagan. L.A. Chuprina “kasbiy yetuk shaxs”ni – mehnatni intellektuallashtirishga tayyor turgan, mehnat faoliyatida ijodiy yonashuvchi, mehnat sharoitlariga moslasha oladigan, doimiy ravishda o‘zini o‘zi rivojlantirish va mukammallika erishuvchi inson deb ta’riflaydi. S.V. Krasnova “kasbiy kompetensiya”ni ta’kidlaydi va unga kasbiy va ijtimoiy-kommunikativ bilimlarni, layoqatni, ko‘nikmalarni hamda xodimning individual qobiliyatlarini kiritadi. ye.Yu. Petrищeva kasbiy komponentni “sohaga doir kompetentlik” deb ataydi va uni quyidagicha ta’riflaydi: “sohaga doir kompetentlik – bu mehnatga aqliy va nazariy jihatdan tayor bo‘lishlik, shaxsiy layoqat va sifat ko‘rsatkichlarining kombinatsiyasi, madaniyatga doir murakkab hatti-harakatlarni amalga oshira olish layoqati, vazifalarni hal qilish ko‘nikmalari, bilimlar majmuasi va kasbiy muhim sifat ko‘rsatkichlari mehnatning natijadorligini ta’minlovchi bilim va layoqatlarning yig‘indisidir”. Sohaga doir kompetenlilik strkuturasida u quyidagi komponentlarni ajratib ko‘rsatadi:

- insonlar bilan ishlash va ularni boshqarish uchun psixologik va ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgaligi;
- g‘oyaviy-ma’naviy yetuklik;
- sohaviy bilim, layoqat va ko‘nikmalarning tizimi;
- sohaga doir vazifalarni hal qilishga intilishi va layoqati.

A.K. Markova “sohaga doir kompetenlik”ni mustaqil ravishda va ma’suliyat bilan harakat qilishdagi psixologik holat deb ta’riflaydi.

Sh.S.Sharipov “ijtimoiy-tashkiliy komponent” haqida yozadi. Bu komponentga u tashkilotchilikka doir ko‘nikmalarni, qarorlarni rejalashtirish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini, boshqa odamlarni tushuna olishni, ishga layoqatlilikni, o‘zini nazorat qila olishlikni, ijodiy yondashuvni, oldindan ko‘ra bilishlikni kiritadi. Yana bir boshqa mualliflar “ijtimoiy kompetensya”ni ijobiy tafakkur, muammo va mojarolarni hal qila olish, uddaburonlik, madaniyatlararo va gender muloqotga layoqatni eplash va guruhda hamjihatlik asosida hamkorlik qila olish qobiliyatlaiga ega bo‘lishlik deb tariflaydilar.

Informatsion texnologiyalar davrida muvaffaqiyatli ravishda ishlab-chiqarishga doir shaxsiy ko‘nikmalarni “insonga xos layoqatlar va imkoniyatlar” SOFT SKILLS deb atash urf bo‘lib bormoqda. Bu esa: ijodiy tafakur, noto‘g‘ri qaror qabul qila olish, yuqori darajadagi ishlab-chiqarish, his-tuyg‘uga doir yetuklikka erishish, yangilikni egallash

uchun o‘qish-o‘rganish va yangi g‘oyalarni qabul qilishlik demakdir. Demak SOFT SKILLSni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Hamjihatlikda hatti-harakat ko‘nikmalari (mojarolarni hal qila olishlik, jamoa ishlash, hamkorlikda ishlashga harakat qilish)

2. O‘zini nazorat qila olish (o‘zini- o‘zi baholash, tartib-intizom, stresslarga chidamlilik).

3. Munosabatlar ko‘nikmalari (vazifalar qo‘yishga moyillik, hamsuhbatini tinglay olish).

4. Tashkiliy ko‘nikmalar (muammolarni hal qila bilish, tashkilot miqyosida tafakkurga ega bo‘lishlik, muammolar vaziyatlarni hal qila olish).

I.L. Plujnik madaniyatlararo muloqotdagi “kasbiy-ahloqiy kompetensiya”ga quyidagicha ta’rif beradi: O‘zga madaniyatlar muhitida kasbiy faoliyatni amalga oishirishni bilish, o‘zga mamlakatda qabul qilingan adekvat ravishdagi odob-ahloqqa rioya qilish, o‘zga kasbiy madaniyatlar tajribasi asosida o‘zining shaxsiy kasbiy tajribasini oshira bilish, o‘zga kasbiy madaniyatlarga nisbatan tolerantli bo‘lish, konstrkutiv kompromisslar topa bilishlikdir. Ushbu kompetensiyalarni qo‘llashning asosiy vaziyatlari deb u quyidagilarni keltirib o‘tadi, ya’ni: maslahatlar berish, suhbatlar o‘tkazish, intervyu, muzokaralar, so‘rovnoma, majrorolarni hal qilish, ma’lumotlar berish.

Fikrlar ko‘rsatib o‘tadiki, “mutaxassis bir madaniyatdan boshqasiga qancha marotaba o‘tsa,u shuncha kasbiy moslashuvga moyil bo‘ladi”. Uning fikricha kosmopolitizm va bilim saviyasi o‘rtasida korrelyasiya bo‘lishidan ijobiy samara mavjud. Z. Skribs va G. Kendall bu kabi kosmopolitizmning kommersial va amaliy foyda bo‘lishini va u “international fuqarolar”, xalqaro biznes-elita kelib chiqishining manbai deb ta’kidlaydilar.

Undan tashqari quyidagi komponentlarning muhimligi aytib o‘tilgan:

– Pragmatik (vaziyat va mavzuga doir jumlalar tuza olish layoqati),

– ijtimoiy (insonlar bilan hamkorlikda turli strategiyalarni qo‘llash),

– strategik (turli kommunikativ vazifalarni amalga oshirish maqsadida muhim natijador strategiyalarni tanlab olish).

I.V. Shukurova mutaxasisining kompeterda ishlash layoqatini ta’kidlab o‘tadi, lekin bunga nisbatan ta’rif bermaydi. Mutaxasis o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun internet-texnologiyalarini egallashi lozim.

T.N. Persikova kasbiy madaniyatni o‘rganishdagi quyidagicha mezonlarini keltirib o‘tadi, ya’ni: stol atrofida o‘zini tuta bilish qoidalariga rioya qilish, vaqt, qadriyat va me’yorlarni, diniy va ta’lim metodlarini, mehnaitga munosabatni, hamkorlik mezonlarini saqlash. U milliy-madaniy tafovutlarga rioya qilgan holda, kasbiy munosabatlarda qo‘shimcha kuchga, tarafdorlarga ega chiqish mumkin. Qadriyatlar o‘rtasidagi tafovut madaniyatlararo muloqotda muammolar keltirib chiqaradi, shuning uchun o‘z madaniyatining o‘ziga xosligini to‘g‘ri anglash, o‘zga madaniyatlarga nisabatan hurmat va e’tiborda bo‘lishni talab qilinadi. Halqaro kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar ishlab chiqarish tizimidagi o‘zaro munosabatlarni taqozo qiladi va bunda har bir madaniyat axloq-odobni boshqarib turuvchi bilimlar, me’yorlar, tajribalar yig‘indisi sifatida vujudga keladi. Kasbiy munosabatlarni amalga oshiruvchi mutaxassislar axloqiy strategiyani shakllantirishda qiyinchiliklarga uchrashi mumkin, chunki o‘zga madaniyat vakillariini tushuna olish uchun streotiplarni bartaraf qilish lozim.

Pedagogik kontekstda shaxsiy-kasbiy kompetensiya ta’lim va tarbiyaning vazifalarini amalga oshirishga tayyorlikni, ya’ni: talabalar bilan ijobiy ta’limiy va hissiyot aloqaga kirishga tayyor bo‘lishlik, hamkasblar bilan kasbiy munosabatlarda bo‘lishlik, turli qiyinchiliklarni bartaraf qila olishlikdir. V.A. Slastenin buni o‘qituvchining “kas-

biy mahorati” deb atagan, va bu tavsifga “MeN” deguvchi sub’ektning faoliyatga kirishuvchanligi, ijodga moyilligi; muayyan darajadagi bilim olguncha rivojlanish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarining yig‘indisini kiritgan.

Demak, tadqiqotlar tahlili ko‘rsatishicha, kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lish degani bu kommunikativ va tashkiliy qobiliyatlar, kommunikativ o‘z-o‘zini nazorat qilish, mojaroli vaziyatdan ustalik bilan chiqib keta olish asosida tilga oid bilimlarni real munosabatlar jarayonida qo‘llay bilish layoqati hisoblanadi. Bu shaxsning shunday sifat ko‘rsatkichidirki, bu sifat unga sintaktik (belgilar), semantik (mazmun) va pragmatk (qadriyat)ga doir ma’lumotlarga ega bo‘lgan holda faol ishlashni ta’minlaydi, atrof-olamga adekvat ta’sir qilishni taqozo qiladi.

Tilga doir hodisa va strukturalar haqidagi tizimli bilimlar chet tilidagi kasbiy kompetensiya darajasiga o‘z-o‘zidan o‘ta olmaydi, chunki talabalar o‘z oldilaridagi quyidagicha vazifalarning yechimini topishlari lozim: hamkasbiga maslahat bermoq, telefon orqali muayyan ma’lumotlarni yetkazish, hamkorini tabriklash v.sh.k. Murakkabroq vazifalarni birin-ketin hal qilishi barobarida talaba chet tilida kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar ta’limining dinamikasiga ega bo‘ladi, motivatsiyasini oshiradi. Turli tadqiqotchilarning chet tilida kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini shakllantirish kontekstida shaxsiy-kasbiy kompetensiya deb biz talaba shaxsining real kasbiy hamkasblari bilan chet tilida kasbiy va ishlab-chiqarish faoliyatida ijtimoiy-adekvat hamjihatlikdagi hamkorlikka tayyorligini va shunga bo‘lgan layoqatini tushunamiz. Shaxsiy-kasbiy kompetensiya tavsifiy, kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar, ijtimoiy tavsiflari, turli hamkorlari, eng asosiysi xorijiy hamkorlari bilan hamkorlikni ta’minlaydigan sifat ko‘rsatkichlari majmuasidir. Buning uchun mutaxassisdan quyidagilar talab qilinadi:

Ijodiy yondashuv;	**O‘zini o‘zi baholashning ob’ektivligi, mustaqil ravishda nazariy va amaliy xulosalar chiqaishga layoqatli bo‘lish.**	**O‘zgaruvchan mehnat shart-sharoitlariga moslashuvchan bo‘lish;**	**Jamoada ishlash uchun olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilish layoqati.**

Madaniyatlararo kasbiy munosabatlarda shaxsiy-kasbiy kompetensiya bu nutq madaniyati, mulozamat, emotsiyaviy chidamlilik, real vaziyatlarda odamlarni tinglay olish va bilimlarni qo‘llay bilish, til vositalari, holat va dalillardan to‘g‘ri foydalana olish darkor deganidir.

Shaxsiy-kasbiy kompetensiyani egallash mutaxasisga kasbiy vaziyatlarda o‘zini to‘g‘ri yo‘naltirish va boshqarishga yordam beradi. Kasbiy-shaxsiy kompetensiyaning asosiy muhim tarkibiy qismlari bo‘lib ijtimoiy tajriba, faoliyat vositalaridan foydalana olish kabilar hisoblanadi va bu layoqatlar asosan kasbiy faoliyat davrida egallanadi.

Shunday qilib, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, chet tilida kasbiy ishbilarmonlik munosabatlar madaniyatini egallash kontekstida shaxsiy-kasbiy kompetensiyaning quyidagi kriteriyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– kognitiv kriteriya, bu orqali kasbiy faoliyatda bilimlardan foydalanish, kasbiy jamoada axloq-odob algoritmini egallash, natijadorlik bilan boshqarish va o‘ziga o‘zi to‘g‘ri baho bera olish;

– ijtimoiy faoliyatga doir kriteriya, turli strategiyalarni qo‘llashni bilish va qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallash, maqsadni to‘g‘ri aniqlash va qarorlar qabul qila olish, boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish, majoralarni va qiyinchiliklarni bartaraf qilish;

– Kasbiy-integrativ kriteriya – refleksiv faoliyatga yo‘naltirilganlik va turli kommunikativ vazifalar yechimi uchun strategiyalarni tanlab olish, maqsadga intilish, o‘zini nazorat qila olish, ziyraklik va zakovat kabi layoqatlardar foydalanish natijasida namoyon bo‘ladi.

Ta’kidlash muhimki, kommunikativ kompetensiya qo‘lay hayot kechirish va shaxs rivoji uchun nafaqat talabalik davrida, balki mutaxassislik bo‘yicha ishlash davrida ham zarur, bu holat esa nutqni, etiketni rivojlantirish bo‘yicha o‘quv kurslarining vujudga kelishiga olib keldi, lekin bu harakatlar hamon yetarlicha emas. Ma’lumki, jamiyatdagi kommunikativ jarayonlar yaratuvchanliknning, anglashning, yangi global tendensiyalarning barqaror bo‘lishi uchun yetakchi kuchga aylanib bormoqda. Kommunikativ kompetensiya chet tilida kasbiy munosabatlarning komponenti sifatida zamonaviy kasbiy faoliyatning va zamonaviy oliy ta’limning zarurriy komponentiga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘raev B.Z. Case-study texnologiyasining qo‘llash asosida bo‘lajak mutaxassis kadrlar kasbiy kompetentligini baholashning interfaol usullari “Zamonaviy ta’lim” jurnali. – T., 2015. 1son, – 2935 b.

2. Vaxobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish − zamonaviy ta’lim paradigmasi sifatida// Zamonaviy ta’lim. №10. – T., 2016. − 5 b.

4. Поляков О.Г. Сыли профилноориентированного обучения иностранному языку: теоретические аспекты // ИЯШ, 2007, № 5. – С. 25.

5. Ўзбек лингводидактикаси тараққиёт йўлида // Чет тилларни ўқитиш замонавий технологияси масалалари: Республика илмийуслубий конференция материаллари. – Т., 2007, 36 б.

7. Ахмедов О.С., Бегов Ф.Р. Энглиш он эсономисс, бусинесс анд тахатион – Т., 2019. – Т., 2019.

8. С.Т.Қаландарова. Касб таълими.Илмий-услубий, амалий, маърифий журнал 2022-йил, 4-сон

Bekjon BEKBOYEV,
Samarqand shahari, Prezident maktabi Tarix fani o'qituvchisi

TARIX FANINI O'QITISHDA "BLITS SO'ROV" TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilar tomonidan o'zini-o'zi baholash tizimi bo'lgan blits-so'rov tizimi haqida bilib olishingiz mumkin. Blits so'rov tizimining eng afzal tarafi bu baholash tizimi orqali sinfdagi barcha o'quvchilarni qamrab olish mumkin.

Kalit so'zlar. Yuksak ma'naviyat, mustaqil fikr, blits so'rov, izchillik, ijtimoiy siyosat, yakka baho.

В этой статье вы можете узнать о системе блиц-опроса, которая представляет собой систему самооценки читателей. Наиболее предпочтительным аспектом системы блиц-опросов является то, что через систему оценок можно охватить всех учащихся в классе.

Ключевые слова. Высокая духовность, независимое мышление, блиц-опрос, последовательность, социальная политика, индивидуальная оценка.

In the article, you can learn about the blitz survey system, which is a reader self-assessment system. The most preferred aspect of the blitz survey system is that it is possible to reach all students in the classroom through the grading system.

Key words. High spirituality, independent thinking, blitz survey, consistency, social policy, individual assessment.

Davlatimiz mustaqillikka erishgach, boshqa ko'pgina sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham islohatlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi. Zero, vatanimizni yuksak taraqqiyotga erishish uchun yuksak ma'naviyatli, har tomonlama bilimli , dadil, mustaqil fikrli kadrlarni tayyorlash zamon talabidir. Ushbu talabdan kelib chiqib, 2020- yil 29- sentyabrda "O'zbekıston respublıkasınıng ta'lım to'g'rısıdagı qonun"i qabul qilindi.

Qonunning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, yuqori malakali, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbolli vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Ta'lim sohasida islohatlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi. Hozirgi kunda o'quvchi yoshlar davr talabi o'laroq texnika olamiga to'liq moslashib, pedagogik texnologiyalar orqali o'z bilim va ko'nikmalarini oshirib bormoqda. Ushbu maqolamiz orqali o'quvchi yoshlarimizga samarali pedagogik texnologiyalardan biri bo'lgan "Blits so'rov" ini havola etmoqdamiz.

Tarix fani darslarida qo'llash mumkin bo'lgan innovatsion texnologiya -"Blits so'rov" haqida malumot:

Ushbu texnologiya o'quvchilarlarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan keraklisini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu

texnologiya shunga to‘liq sharoit yaratib beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich:

• o‘qituvchi dars mashg‘ulotining strukturasi haqida, mashg‘ulotning bir necha bosqichda o`tkazilishi haqida o‘quvchilarga ma’lumot beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarilishiga aniq vaqt berilishi, o‘quvchilar esa berilgan vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

11-sinf O‘quvchilari uchun, Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari mavzusida blits so‘rov. (O‘QUVCHIGA)

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Harakatlar mazmuni
					Barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi
					O‘zbekistonda «Keksalarni e’zozlash yili»
					O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umri 67 yoshni tashkil
					O‘zbekiston aholisi 32,65 million kishidan oshdi.
					har yili 1-sinf o‘quvchilariga bepul o‘quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi.
					O‘zbekistonda «Sog‘lom ona va bola yili» deb e’lon qilindi.
					O‘zbekistonda «Sihat-salomatlik yili»
					16 yoshgacha bolalari bo‘lgan barcha oilalarga beriladigan har oylik nafaqalar ko‘paytirildi.
					O‘zbekistonda «Ijtimoiy himoya yili»
					O‘zbekistonda 2- jahon urushi qatnashchilari 2 mln so‘mdan mukofotlandilar. <?>

O‘qituvchi hamma o‘quvchilarga alohida-alohida yuqorida keltirilgan namunadagidek tarqatma material beradi va o‘quvchilardan uni sinchiklab o`rganishlarini so‘raydi, tarqatma materialga har bir o‘quvchi o‘z ism familiyasini yozadi.

O‘qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya’ni tarqatma materialda berilgan harakatlarni ketma-ketligini (harakatlar mazmuni bo‘limida berilgan voqealar ketma-ketligini, agar voqealar 10 ta bo‘lsa, 1 dan 10 gacha; 15 ta bo‘lsa, 1 dan 15 gacha; 1- sodir bo‘lganidan to oxirigacha ketma- ketlikda)to‘g‘ri belgilash kerakligi; belgini esa qog‘ozdagi alohida ajratilgan bo‘lim “yakka baho” ga raqamlar bilan qo‘yish kerakligini tushuntiradi.

Qo‘yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

2-bosqich:

O‘qituvchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi. O‘quvchilarda qiyinchilik tug‘ilsa, yordam beradi yoki qaytadan tushuntiradi;

Har bir o‘quvchiga tarqatma materialdagi “yakka baho” bo‘limiga shu yerda berilgan harakatlardan o‘zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya’ni berilgan harakatlardan uning fikricha qaysi biri birinchi bo‘lishi, qaysi esa ikkinchi bo‘lishini va hakozo. Bu vazifani bajarish uchun o‘qituvchi savollar miqdori va darajasiga qarab taxminan 7-10 daqiqa vaqt ajratadi.

11-sinf O‘quvchilari uchun, Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari mavzusida blits so‘rov. (O‘QUVCHIGA)

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Harakatlar mazmuni
				6	Barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi.
				7	O‘zbekistonda «Keksalarni e’zozlash yili»
				1	O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umri 67 yoshni tashkil
				8	O‘zbekiston aholisi 32,65 million kishidan oshdi.
				9	har yili 1-sinf o‘quvchilariga bepul o‘quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi.
				10	O‘zbekistonda «Sog‘lom ona va bola yili» deb e’lon qilindi.
				5	O‘zbekistonda «Sihat-salomatlik yili»
				2	16 yoshgacha bolalari bo‘lgan barcha oilalarga beriladigan har oylik nafaqalar ko‘paytirildi.
				3	O‘zbekistonda «Ijtimoiy himoya yili»
				4	O‘zbekistonda 2- jahon urushi qatnashchilari 2 mln so‘mdan mukofotlandilar.

3-bosqich:

O‘qituvchi o‘quvchilardan 5 yoki 6 kishidan iborat(sharoitga qarab) kichik guruhlar tuzishlarini so‘raydi. Guruhlar o‘quvchilarning xohishlariga qarab, yoki raqamlar bo‘yicha tashkil etilishi mumkin (O‘qituvchi guruhni o‘zi shakllantishi maqsadga muvofiqdir, sababi darsda ortiqcha shovqin bo‘lishning oldini olinadi va turli darajada bilimli o‘quvchilarga qarab guruhlarga ajratadi).

Kichik guruhlardagi o‘quvchilarning har biri o‘z qog‘ozidagi yakka baho bo‘limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar. Keyin 3 kishida 3 xil bo‘lgan ketma-ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib bahslashib holda, o‘zlariga tarqatilgan qog‘ozdagi “guruh bahosi” bo‘limidagi raqamlar bilan belgilab chiqadilar.

O‘qituvchi kichik guruhlardagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir o‘quvchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifani bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.

11-sinf O‘quvchilari uchun, Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari mavzusida blits so‘rov. (O‘QUVCHIGA ishlash uchun)

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Harakatlar mazmuni
2				6	Barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi
10				7	O‘zbekistonda «Keksalarni e’zozlash yili»
1				1	O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umri 67 yoshni tashkil

7				8	O‘zbekiston aholisi 32,65 million kishidan oshdi.
4				9	har yili 1-sinf o‘quvchilariga bepul o‘quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi.
8				10	O‘zbekistonda «Sog‘lom ona va bola yili» deb e’lon qilindi.
5				5	O‘zbekistonda «Sihat-salomatlik yili»
3				2	16 yoshgacha bolalari bo‘lgan barcha oilalarga beriladigan har oylik nafaqalar ko‘paytirildi.
6				3	O‘zbekistonda «Ijtimoiy himoya yili»
9				4	O‘zbekistonda 2- jahon urushi qatnashchilari 2 mln so‘mdan mukofotlandilar.

4-bosqich:

• Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, o‘qituvchi dastlab o‘quvchilar varag‘iga qarab ularni haqiqatdan belgilaganini tekshirib, keyin harakatlar ketma-ketligi bo`yicha to‘g‘ri javobni e’lon qiladi, ya’ni o‘quvchilardan ularga tarqatilgan qog‘ozlardan “ to‘g‘ri javob” bo‘limini topishni va unga o‘qituvchi tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligida raqamlarni yozishni so‘raydi.

11-sinf O‘quvchilari uchun, Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari mavzusida blits so‘rov. (O‘QUVCHIGA)

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Harakatlar mazmuni
2		2		6	Barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi.
10		7		7	O‘zbekistonda «Keksalarni e’zozlash yili»
1		1		1	O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umri 67 yoshni tashkil
7		10		8	O‘zbekiston aholisi 32,65 million kishidan oshdi.
4		4		9	har yili 1-sinf o‘quvchilariga bepul o‘quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi.
8		8		10	O‘zbekistonda «Sog‘lom ona va bola yili» deb e’lon qilindi.
5		5		5	O‘zbekistonda «Sihat-salomatlik yili»
3		3		2	16 yoshgacha bolalari bo‘lgan barcha oilalarga beriladigan har oylik nafaqalar ko‘paytirildi.
6		6		3	O‘zbekistonda «Ijtimoiy himoya yili»
9		9		4	O‘zbekistonda 2- jahon urushi qatnashchilari 2 mln so‘mdan mukofotlandilar.

5-bosqich:

O‘qituvchi “to‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), kattadan kichikni ayirgan “yakka baho” bo‘limiga chiqqan farqni yozishni so‘raydi. “Yakka baho” bo‘limidagi sonlarni yuqoridan pastga

qarab qo‘shib chiqib, umumiy natijani hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

11-sinf O‘quvchilari uchun, Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari mavzusida blits so‘rov. (O‘QUVCHIGA)

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Harakatlar mazmuni
2		2	4	6	Barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi.
10		7	-	7	O‘zbekistonda «Keksalarni e’zozlash yili»
1		1	-	1	O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umri 67 yoshni tashkil
7		10	2	8	O‘zbekiston aholisi 32,65 million kishidan oshdi.
4		4	5	9	har yili 1-sinf o‘quvchilariga bepul o‘quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi.
8		8	2	10	O‘zbekistonda «Sog‘lom ona va bola yili» deb e’lon qilindi.
5		5	-	5	O‘zbekistonda «Sihat-salomatlik yili»
3		3	1	2	16 yoshgacha bolalari bo‘lgan barcha oilalarga beriladigan har oylik nafaqalar ko‘paytirildi.
6		6	3	3	O‘zbekistonda «Ijtimoiy himoya yili»
9		9	5	4	O‘zbekistonda 2- jahon urushi qatnashchilari 2 mln so‘mdan mukofotlandilar.

22

6-bosqich:

• Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi kattadan kichikni ayirish orqali natija hisoblanadi, chiqarilgan farqlar soni “guruh xatosi” bo‘limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy son kelib chiqadi.

11-sinf O‘quvchilari uchun, Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari mavzusida blits so‘rov. (O‘qituvchiga tekshirish uchun)

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Harakatlar mazmuni
2	-	2	4	6	Barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi.
10	3	7	-	7	O‘zbekistonda «Keksalarni e’zozlash yili»
1	-	1	-	1	O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umri 67 yoshni tashkil
7	3	10	2	8	O‘zbekiston aholisi 32,65 million kishidan oshdi.
4	-	4	5	9	har yili 1-sinf o‘quvchilariga bepul o‘quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi.
8	-	8	2	10	O‘zbekistonda «Sog‘lom ona va bola yili» deb e’lon qilindi.
5	-	5	-	5	O‘zbekistonda «Sihat-salomatlik yili»
3	-	3	1	2	16 yoshgacha bolalari bo‘lgan barcha oilalarga beriladigan har oylik nafaqalar ko‘paytirildi.
6	-	6	3	3	O‘zbekistonda «Ijtimoiy himoya yili»
9	-	9	5	4	O‘zbekistonda 2- jahon urushi qatnashchilari 2 mln so‘mdan mukofotlandilar.

7-bosqich:

O‘qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo‘yicha tushuncha beradi, ularni alohida-alohida izohlaydi.

Ushbu texnologiyada baholash tartibi quyidagicha:

O‘quvchilarning javoblari o‘qituvchi tomonidan berilgan “to‘g‘ri javob” ning 56 foizdan 71 foizgacha to‘g‘ri kelsa, demak, “qoniqarli”; 71 foizdan 85 foizigacha to‘g‘ri kelsa, “yaxshi”; 86 foizdan 100 foizigacha to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, “a’lo” deb belgilash mumkin.

“Blits so‘rov” o‘yinidan namuna

Quyidagi namuna faqatgina o‘qituvchida bo‘lib, bu faqat o‘quvchilar yakka tartibda va jamoaviy tarzda topshiriqni ishlab bo‘lgach, to‘g‘ri javoblarni e’lon qilish va yillar bilan qayta ko‘rib chiqish uchun. Bu texnologiyani ilk marotaba qo‘llash jarayonida biroz vaqt ko‘proq ketadi, ammo o‘quvchilar texnologiya bilan yaxshi tanishgach, juda tezlik bilan bajarishadi, hozirda mening o‘quvchilarim 5 daqiqadan 7 daqiqagachacha bo‘lgan muddatda topshiriqlarni bajara olishadi.

11-sinf O‘quvchilari uchun, Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari mavzusida blits so‘rov. (O‘QITUVCHIGA tekshirish uchun)

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Harakatlar mazmuni
1994		2			Barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi
2015		7			O‘zbekistonda «Keksalarni e’zozlash yili»
1990		1			O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umri 67 yoshni tashkil
2018		10			O‘zbekiston aholisi 32,65 million kishidan oshdi.
1997		4			har yili 1-sinf o‘quvchilariga bepul o‘quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi.
2016		8			O‘zbekistonda «Sog‘lom ona va bola yili» deb e’lon qilindi.
2005		5			O‘zbekistonda «Sihat-salomatlik yili»
1996		3			16 yoshgacha bolalari bo‘lgan barcha oilalarga beriladigan har oylik nafaqalar ko‘paytirildi.
2007		6			O‘zbekistonda «Ijtimoiy himoya yili»
2017		9			O‘zbekistonda 2- jahon urushi qatnashchilari 2 mln so‘mdan mukofotlandilar.

Mazkur namuna o‘qituvchining o‘zida bo‘ladi , jadval o‘quvchilar tomonidan bajarilib bo‘lishgach, bajarilganligi tekshirilib, o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri javob aytiladi va tekshiriladi.

Yakka baho ustuniga qo‘yilgan yillar faqat o‘qituvchining o‘ziga kerak, ya’ni voqealar jarayonini o‘quvchilarga tushuntirish yoki isbotlash uchun zarurdir.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, mazkur pedagogik texnologiya orqali auditoriya o‘quvchilarini baholashda to‘liq qamrab olish mumkin, guruhlarda ishlash jarayonida o‘quvchilarda liderlik qobiliyatlarini kuchaytiradi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning tarixiy voqealarni tahlil qilish imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar :

1. Musurmonov Raxmatilla. (2022) Zamonaviy ta’lim metodlari – ta’lim samaradorligi kafolati .

2. O‘tkir Tolipov, Dilnoz Ro‘ziyeva. (2019). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”i. 2020.

Malohat AXMEDOVA,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti, “Pedagogika” kafedrasi dotsenti
Mustafo ABDULLAYEV,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti, “Pedagogika” kafedrasi tadqiqotchisi

TALABALARNING CHAQIRIQQA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYORGARLIKNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish ta’limda talabalarning mustaqil o‘quv topshiriqlarini rivojlantirishda kredit-modul tizimiga o‘tishning amaldagi holati va istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, professor-o‘qituvchi, talabalarning chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish faniga qiziqishi hamda aniq belgilangan baholash tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Metodika, pedagogik xususiyatlar, oliy ta’lim, chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayorgarlik, tashkil etish, o‘qitish metodikasi, zamonaviy o‘qitish talablari, o‘quv topshiriqlari, nutqiy kompetensiya

В статье рассматривается текущее состояние и перспективы перехода на кредитно-модульную систему организации и обучения допризывной начальной подготовки в развитии самостоятельных учебных заданий учащихся в образовании. Профессорско-преподавательский состав обосновывает заинтересованность студентов в организации предварительной подготовки и ее преподавании, а также целесообразность введения четко определенной системы оценок.

Ключевые слова. Методика, педагогические особенности, высшее образование, допрофессиональная начальная подготовка, организация, методика обучения, современные требования к обучению, учебные задачи, речевая компетентность.

The article reflects on the current state and prospects of the transition to a credit-module` system in the development of independent educational assignments of students in education, the organization of primary education and its teaching until the call. It is based on the fact that it is advisable for the teacher-Professor, students to be interested in the subject of the organization and teaching of primary education up to the call, as well as to introduce a well-defined assessment system.

Key words. Methodology, pedagogical features, higher education, pre-vocational primary training, organization, teaching methodology, modern teaching requirements, educational tasks, speech competence.

Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish ta’limida talabalarning mustaqil o‘quv topshiriqlarini rivojlantirish, ta’limning kredit texnologiyasini joriy etish samaradorligi va sifatini ta’minlash uchun kredit texnologiyalari, standartlari, o‘quv dasturlari, lavozim tavsiflari, o‘quv kurslari mazmunini tanlash tamoyillari, o‘qitish tamoyillari va usullari, o‘quv jarayonini tashkil etish, talabalarning mustaqil ishi (TMI) kredit tizimi ostida. Rasmiy manbalarda “kredit” “tushunchasi” talaba o‘qituvchining o‘quv ishlari miqdorining yagona o‘lchov birligi «sifatida talqin etiladi. Bitta kredit akademik davrda haftada bir akademik soatlik talabalar auditoriyaida ishlashga teng. Ma’ruza, amaliy (seminar) va studiya mashg‘ulotlarining

har bir akademik soati talabaning (TMI) bakalavr darajasida ikki aloqa soati (100 daqiqa), to‘rt aloqa soati (200 daqiqa) magistr talabasining (MMI) magistrda mustaqil ishi bilan birga bo‘lishi shartdarajasi.

Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitishda kredit tizimida nazariy bilimlarni oshiruvchi mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish usullari asosida kreditda o‘qitish texnologiyasi – bu o‘quv jarayonini tashkil etish usuli bo‘lib, unda talabalar o‘quv traektoriyasining ketma-ketligini alohida rejalashtirish imkoniyatiga ega. O‘qitishning kredit texnologiyasining mohiyati shundaki, o‘quv ishlarining mehnat intensivligi o‘qitiladigan material hajmini tavsiflovchi kreditlarda hisobga olinadi. Ta’limning kredit texnologiyasining asosiy vazifalaridan biri talabalarning mustaqil ishlari rolini oshirishdir.

Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga kredit texnologiyasini joriy etishdan maqsad:

– milliy ta’lim tizimining xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashuvi;

– o‘quv jarayoni sub’ektlarining akademik harakatchanligini ta’minlash.

TMI ta’lim sifatini oshirish va bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy zaxiralaridan biridir. O‘qitishning kredit tizimiga ko‘ra, u o‘rganilayotgan kursning umumiy mehnat intensivligining uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan ta’limning kredit tizimini joriy etish sharoitida talabalarning mustaqil ishlarini to‘g‘ri va samarali tashkil etish muammosi juda dolzarbdir. Shunday qilib, oliy o‘quv yurtlarida kredit texnologiyasini joriy etish universitetda o‘quv jarayonini tashkil etishni tubdan qayta ko‘rib chiqishni, o‘qitish texnologiyasidagi o‘zgarishlarni va ularni uslubiy qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi, talabalarning mustaqil ishlarini (TMI) faollashtirishga e’tibor qaratishga imkon beradi.

TMI – bu mustaqil o‘rganish uchun ajratilgan, o‘quv-uslubiy adabiyotlar va tavsiyalar bilan ta’minlangan, testlar, nazorat varaqalari, kollokviumlar, referatlar, insholar va hisobotlar shaklida nazorat qilinadigan mavzularning aniq ro‘yxati bo‘yicha ishlash. TMIning barcha doirasi talabadan har kuni mustaqil ishlashni talab qiladigan vazifalar bilan tasdiqlanishi kerak. TMI soatlariga o‘quv rejasining yeng qiyin masalalari bo‘yicha konsultatsiyalar, uy vazifalari, hisobotlar va TMIning boshqa turdagi vazifalari kiradi. Talabaning mustaqil ishi (TMI) mazmuni, albatta, fanning ish dasturi va o‘quv dasturida aks etadi.

Talabalarning mustaqil ishi-bu jarayonda o‘qituvchilarning bevosita ishtirokisiz talaba tomonidan yangi bilim va ko‘nikmalarni faol, maqsadga muvofiq o‘zlashtirish usuli.

Talabaning mustaqil ish qobiliyatini rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyati va tashabbusini tarbiyalash, shuningdek, umuman talabalarning mustaqil ishlarining normal ishlashini ta’minlaydigan tashkiliy chora-tadbirlar quyidagi shartlarga asoslanishi kerak:

–mustaqil ish o‘zining mavzu yo‘nalishiga xos bo‘lishi kerak;

– mustaqil ish samarali, uzluksiz monitoring va uning natijalarini baholash bilan birga olib borilishi kerak.

Talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish uchun oliy maktab o‘qituvchisi bilishi kerak va uni tashkil etish tamoyillariga rioya qilish tavsiya etiladi: tizimlilik va izchillik prinsipi; faoliyat prinsipi; individual yondashuv prinsipi; mavjudlik prinsipi; ko‘rinish prinsipi; ilmiy asoslangan vaqt hisoblash va uy vazifalarini dozalash.

Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitishda kredit tizimida nazariy bilimlarni oshiruvchi mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish usullari. Talaba-

larning mavzusi va mazmuni mustaqil ishi davlat ta’lim standarti, amaldagi o‘quv dasturlari, fanlarning namunaviy va ishchi o‘quv dasturlari, asosiy adabiyotlar: darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va uslubiy qo‘llanmalar va qo‘shimcha adabiyotlar bilan belgilanadi.

Oliy ta’limdagi mustaqil ish – bu o‘quv jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos vositasi, kasbiy faoliyat usullarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etish va o‘zini o‘zi tarbiyalash vositasi.

Mavjud ilmiy psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili turli xil yondashuvlarni va “talabalarning mustaqil ishi” tushunchasining noaniq ta’rifini ko‘rsatadi. TMI o‘quv va ilmiy bilish shakli sifatida, ta’limni tashkil etish shakli sifatida, o‘qitish usuli sifatida, ijodiy fikrlash usuli va o‘qitish vositasi sifatida qaraladi.

Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitishda kredit tizimida nazariy bilimlarni oshiruvchi mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish usullari. Mustaqil ishlarni bajarish uchun zarur shart-sharoit va sharoitlarni yaratadigan tadbirlar har bir talabaning:

– axborot resurslari (ma’lumotnomalar, darsliklar, alohida vazifalar banklari, o‘quv dasturlari, amaliy dasturlar paketlari va boshqalar.);

– uslubiy materiallar (ko‘rsatmalar, qo‘llanmalar, ustaxonalar, ish daftarlari va boshqalar.);

– nazorat materiallari (testlar, vaziyatli vazifalar);

– moddiy resurslar (laboratoriya, o‘lchov asbob-uskunalari va boshqalar.);

– vaqt resurslari; konsultatsiyalar; individual ta’lim traektoriyasini tanlash imkoniyati (fakultativ fanlar orqali o‘quv dasturlari);

– talaba tomonidan mustaqil ravishda olingan nazariy va/yoki amaliy natijalarni (konferensiyalar, olimpiadalar, musobaqalar) jamoatchilik muhokamasi imkoniyati.

TMI talaba faoliyatidagi ko‘payish va ijodiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi va uch darajada amalga oshirilishi mumkin:

1) reproduktiv faoliyat (o‘quv materialini o‘zlashtirish va ko‘paytirish, namuna bo‘yicha bajariladigan mustaqil ishlarni tayyorlash: muammolarni hal qilish, jadvallar, diagrammalarni to‘ldirish; bunday ishning maqsadi bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikma, ko‘nikmalarni shakllantirishdir);

2) reproduktiv va amaliy faoliyat (o‘z tajribasi asosida o‘quv materialini o‘zlashtirish, materialni amalda, faoliyatda, mustaqil ish paytida tekshirish, reja, referatlar, annotatsiya amalga oshiriladi);

3) ijodiy faoliyat (talaba mustaqil ravishda bajarilgan ish vositalari va usullarini tanlashi, o‘quv materialini tanqidiy baholashi va undan samarali fikrlash va faoliyat uchun foydalanishi kerak, muddatli ishlar va tezislar shu darajada bajariladi).

TMI shakllari:

Xulosa – A10 formatidagi 12-4 sahifada, TNR shriftida 14 ta mavzuni tanqidiy ko‘rib chiqish yoki taqdim etish. Tuzilishi an’anaviy: sarlavha sahifasi, kirish, asosiy qism, xulosalar, foydalanilgan manbalar ro‘yxati. Abstrakt guruhda muhokama uchun o‘rtaga qo‘yilishi mumkin.

Hisobot 3-5 daqiqa davom yetadigan mavzuning asosiy qoidalarining qisqacha mazmuni.

Sinopsis – bu standart formatdagi ish kitobining 2-4 betida asosiy tushunchalarni ajratish bilan berilgan mavzuning qisqacha tavsifi.

Glossariy – berilgan mavzu bo‘yicha tushuncha va atamalar lug‘ati bo‘lib, jadvalda joylashtirilgan.

Keys – bu guruh tahlili paytida yechimni talab qiladigan vaziyat. Guruh 3-4 kishidan iborat bo‘lib, ular muammoni mustaqil muhokama qiladilar va uni hal qilish yo‘llarini ishlab chiqadilar. Qaror natijalari umumiy guruhda yakuniy hisobotning taqdimoti shaklida taqdim etiladi. Hisobot – bu o‘rganish davomida olingan natijalar, asosiy muammolar va ishlab chiqish bo‘yicha takliflarning yozma va og‘zaki tavsifi. Taqdimot – bu turli xil texnik vositalar yordamida ham, ularsiz ham ma’lumotlarni taqdim etish shakli. Qoida tariqasida, yangi g‘oyalar, loyihalar, xizmatlar va boshqalar. taqdim etiladi. Unda matn, unga illyustratsiyalar kiritilgan va yagona grafik uslubda yaratilgan.

Loyiha – bu shaxsan yoki guruhda amalga oshiriladigan kerakli ma’lumotlarni qidirish, yig‘ish va tahlil qilishni o‘z ichiga olgan mavzu bo‘yicha tadqiqot.

Bahs – bu mavzuning oldindan tayyorlangan masalalarini xulosa bilan muhokama qilish.

Talabaning mustaqil ishi uchun vazifalar aniq shakllantirilishi, o‘rganilayotgan fan mavzulari bo‘yicha farqlanishi va ularning hajmi o‘quv dasturida ajratilgan soatlar bilan belgilanishi kerak. Vazifalarning quyidagi turlari tavsiya etiladi: eslatma olish; adabiyotlarni mavhumlashtirish; maqolalar, kitoblarga annotatsiya qilish; ilmiy va uslubiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish; ma’ruza xulosasi, xulosani tavsiya yetilgan adabiyotlar bilan qo‘shish; mustaqil, nazorat va tezis ishlarini bajarishda TMI nazorat ishi; mavzu bo‘yicha insho yozish berilgan muammo; hisoblash va grafik ishlarni bajarish (GIB); amaliyot davomida materiallarni kuzatish va yig‘ish bo‘yicha vazifalarni bajarish; o‘qituvchi tomonidan oldindan belgilangan mavzu bo‘yicha ilmiy nashrni analitik tahlil qilish; ma’lum bir mavzu bo‘yicha statistik va faktik materiallarni tahlil qilish, hisob-kitoblar qilish, statistik materiallar asosida diagramma va modellarni tuzish.

TMIni to‘g‘ri va samarali tashkil etish uchun quyidagi shartlar katta ahamiyatga ega:

– o‘qituvchilarni o‘qitishning kredit tizimi bo‘yicha mustaqil ishlarni samarali tashkil etishga tayyorligi;

– har bir fan uchun o‘quv-uslubiy majmuaning mavjudligi, shu jumladan kursning bosma va elektron shaklda tavsifi, talaba tomonidan TMIning mustaqil rivojlanish darajasini nazorat qilish shakllari va vositalari, ularning mazmuni va o‘tkazish vaqti ko‘rsatilgan, talaba uchun butun o‘quv jarayoni uchun qo‘llanma. o‘qish davri;

– o‘quv, didaktik va o‘quv materiallarining mavjudligi, kitobxonani zarur adabiyotlar bilan ta’minlash;

– intizomning maqsad va vazifalariga, murakkablik darajasiga va amaliyotga bo‘lgan talabga qarab TMI shaklini tanlash;

– TMI uchun vazifalarning asosiy maqsadlari talabalar uchun aniq bo‘lishi kerak, o‘quv vazifalari yangilik elementlarini o‘z ichiga olishi kerak, ularni amalga oshirish algoritmlarini o‘z ichiga olishi kerak;

– kompyuter va telekommunikatsiya uskunalarining mavjudligi;

- TMI vazifalarni individualizatsiya qilishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak, shuningdek, har bir talabaning tayyorgarligi va qobiliyatini hisobga olish kerak;

– innovatsion texnologiyalardan foydalanish (talabalarning turli xil axborot manbalaridan yerkin foydalanishlarini ta’minlaydigan va elektron o‘quv vositalaridan foydalanish uchun maqbul sharoitlar yaratadigan texnik vositalar to‘plami);

– TMIni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanish talabalarning bilim faolligini

eng samarali rag‘batlantirishga imkon beradi;

– talabalarning mustaqil ish bo‘yicha optimal yuklamasi;

– TMI monitoring tizimi shaxsiy, rivojlantiruvchi yo‘nalish va ijodiy xarakterga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lishi, birinchi navbatda talabaning o‘ziga kerakli va foydali bo‘lishi kerak;

– fanlararo mustaqil ish va loyihalarni amalga oshirish;

– ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, talabalarning yashash va dam olish sharoitlarini yaxshilash va boshqa tashkiliy, subektiv omillar.

– TMI kompyuter va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilishi va ularni amalga oshirish quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin: elektron darslik, kompyuter o‘quv dasturlari, nazorat dasturlari, namoyish dasturlari, kompyuter modellari va boshqalar.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining zamonaviy amaliyotida talabalarning mustaqil ishi samaradorligini oshirish uchun turli usullardan foydalaniladi. Ular orasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin: talabalarga mustaqil ish usullarini o‘rgatish; talabalarning bilim faoliyatini o‘z-o‘zini tartibga solishni shakllantirish; kelgusi o‘quv va kasbiy faoliyat uchun o‘quv materiallarini o‘zlashtirish zarurligini namoyish etish orqali mustaqil ishni rag‘batlantirish; TMI uchun vazifalarni farqlash va individuallashtirish; barqaror ijobiy faoliyatni shakllantirish bilishga munosabat; TMIning uslubiy ta’minoti; TMI uchun turli xil vazifalar; TMI majburiy nazoratini tashkil etish; TMI natijalarini tabaqalashtirilgan baholash; didaktik imkoniyatlarga ega kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, TMIning juft va kichik guruhli shakllari va usullarini joriy etish va boshqalar. Kredit texnologiyasi sharoitida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мукашева А.К., Мустафина М.Н., Шатанова Р.К. Самостоятельная работа студентов в кредитной системе обучения https://cyberleninka.ru.

2. Axmedova M.E. Meliboyeva R.N. Bekmirov T.R.Nurmatov A.N.Kasbiy pedagogika. Darslik. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. Toshkent - 2022. 250 bet.

3. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер. – М.: Педагогика, 1981. –186 с.

4. Axmedova M.E. Rasulova G.K. Kredit-modul tizimida o‘zbek tili ta’limda mustaqil o‘quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish metodikasi. Uslubiy ko‘rsatma, “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. Toshkent – 2022. 83 bet.

5. Аванесов, в. сек. Теория и методика педагогических измерений: лекции [Электронный ресурс] — Режим доступа: http://www.studmed.ru/docs/document4772/c.

6. Акулова, А. А. конструирование ситуационных задач для оценки компетентности учащихся: учебно-методическое пособие для педагогов школ.

7. Bloom, B.S., (Ed.). 1956. Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals: Handbook I, cognitive domain. New York: Longman.

8. Касаткина, Н. Ситуационная задача как средство оценивания уровня сформированности профессиональных компетенций будущих педагогов / Н. Сек. Касаткина. - Текст: непосредственный / / образование: прошлое, настоящее и будущее : материалы III Междунар. конф. (г Краснодар, Август 2017 г).

Dilshod TEMIROV,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bosh mutaxassisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM-TARBIYA SIFATI VA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING MONITORING SHAKLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratining monitoring shakli, "ijtimoiy nazorat" va "jamoatchilik nazorati" tushunchalarining farqlanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Umumta'lim maktablari, ta'lim sifati, jamoatchilik, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy nazorat, ota-onalar, pedagoglar, davlat, jamiyat, boshqaruv organlari, ta'lim siyosati, bilim darajasi, pedagogik monitoring.

В данной статье рассматривается контрольная форма общественного контроля, отличие понятий "социальный контроль" и «общественный контроль» в обеспечении качества и эффективности образования в общеобразовательных школах.

Ключевые слова. Общеобразовательные школы, качество образования, общественность, общественный контроль, социальный контроль, родители, педагоги, государство, общество, органы управления, образовательная политика, уровень знаний, педагогический мониторинг.

This article discusses the monitoring form of public control, the difference between the concepts of "social control" and "public control" in ensuring the quality and efficiency of education in general education schools.

Key words. General education schools, quality of education, public, public control, social control, parents, pedagogues, state, society, governing bodies, educational policy, level of knowledge, pedagogical monitoring.

Ta'lim muassasalarining missiyasi, avvalo, ta'lim oluvchilarga ta'lim va tarbiya berishni ta'minlashdan iborat bo'lgan funksiyasining murakkabligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ta'lim muassasasini faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishiga imkon beruvchi huquqiy asosi ham uning xususiyatlari sirasiga kiradi. Bizning mamlakatimizda ta'limni ijtimoiy farovonlikning muhim negizi sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini e'tirof etish joiz.

Ta'lim siyosatini shakllantirish, ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilishda jamoatchilikning ishtirokini rivojlantirish davlatning ta'lim sohasidagi siyosatining yaqin kelajakdagi ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Ta'limni boshqarishga oid tadqiqotlarning son jihatidan salmoqliligi shundan dalolat beradiki, ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish muammolarini tadqiq etish jahon miqyosida e'tibor qaratilayotgan muammolar sirasiga kiradi.

Davlat siyosati prinsiplari ichida boshqaruvning ta'lim muassasalarini bu jarayonda ishtirok etish uchun pedagoglar, ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari yoki ta'limni boshqarishning davlat organlarining qonuniy vakillari ishtirokini ta'minlovchi o'zini o'zi boshqarish prinsiplari asosida qurilgan demokratik, davlat va jamoatchilik xarakterida-

gilari ajralib turadi.

Bir vaqtning o‘zida ta’lim tizimi fuqarolik jamiyatining bo‘lajak faol sub’ektlarini tayyorlashning eng qudratli instituti va instrumenti bo‘lib, ko‘p jihatdan uning siyosati mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sur’atlarini belgilaydi.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati bo‘lmagan yoki jamoatchilik nazorati yetarli darajada kuchga ega bo‘lmagan mamlakatda fuqarolik jamiyati shakllanishini ham tasavvvur qilish qiyin. Shuning uchun mamlakatimiz Konstitutsiyasida jamoatchilik nazoratining mamlakatimiz fuqarolari davlat boshqaruvida ishtirok etishlarining muhim vositasi ekani e’tirof etilmoqda.

“Jamoatchilik nazorati” va “ijtimoiy nazorat” tushunchalari o‘rtasidagi tafovut avvalo, shundaki, “ijtimoiy nazorat” tushunchasi mazmun doirasiga ko‘ra “jamoatchilik nazorati” tushunchasidan kengroq. Bu tushuncha tarkibiga “jamoatchilik nazorati” tushunchasidan tashqari davlat nazorati va fuqarolik nazorati ham kiradi. Chunki ular ham mohiyatan ijtimoiy nazoratning ko‘rinishlaridir.

Fuqarolik jamiyati jamoatchilik nazorati rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishining sababi shundaki, tom ma’nodagi samarali, mustaqil va xolis jamoatchilik nazoratini iqtisodiy va siyosiy jihatdan erkin fuqarolar va ularning birlashmalarigina amalga oshirishi mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va modernizatsiyalash sharoitida jamoatchilik nazorati mazmunida ana shunday o‘zgarishlar o‘z ifodasini topadi. Bu esa faoliyat sub’ekti bo‘lgan har bir shaxs o‘z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish bilan birga, boshqalardan, davlat hokimiyati organlaridan ularning zimmasidagi majburiyatlarni, vazifalarni bajarishlarini talab qilishi mumkinligini anglatadi.

Jamoat tashkilotlari davlat hokimiyati organlari bilan birga nazorat ishlarini olib borishlari va zarur hollarda davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borishlari ham mumkin. Bu ikki vaziyat bir-birini inkor qilmaydi.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda huquqiy me’yorlar poydevor vazifasini bajaradi. Huquqiy me’yorlarning asos vazifasini bajarishi jamoatchilik nazoratining har bir qadami mavjud qonunlar asosida qo‘yilishini taqozo etadi.

Jamoatchilik nazoratining mohiyat jihatidan huquqiy nazorat ekani fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismi bo‘lgan huquqiy davlatning mohiyatiga to‘la mos keladi. Ayni paytda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, huquqiy davlatni yaratish yo‘lida amalga oshirilayotgan jamoatchilik nazoratining o‘zi ham mavjud qonuniy me’yorlarga asoslanishi lozim.

Jamoatchilik nazorati quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

– u jamiyat va uning alohida institutlarini boshqarish, jamiyatning barcha a’zolari ehtiyojlari va manfaatlarini uyg‘unlashtirish shakli sifatida namoyon bo‘ladi;

– mamlakatdagi turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini uyg‘unlashtirishda va bu manfaatlar o‘rtasida nizolar kelib chiqishining oldini olishda muhim vosita hisoblanadi.

– jamiyatdagi tezkor hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalarni bajarishda jamiyatning kuch-g‘ayratini birlashtirish va muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.

– jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy me’yorlarning bajarilishini kafolatlaydigan vosita hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega bo‘lsa ham, uni ilmiy tushuncha sifatida fanga ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan bo‘lgan T.Tard olib kirdi. Uning talqinida

mazkur tushuncha jinoyatchining xulq-atvorini me'yoriy qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo'llaniladigan usullar majmuini ifodalagan. Keyinroq, bu tushunchaning mazmuni ancha kengaydi. Bunday kengayish amerikalik sotsiologlar E.Ross va R.Park tadqiqotlari tufayli yuz berdi. Ularning talqinida jamoatchilik nazorati individga uning xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlarga mos keltirish maqsadida o'tkaziladigan ta'sirni anglatadi.

Amerikalik sotsiolog T.Parsons tavsifida jamoatchilik nazorati sanksiyalar yordamida deviant xulq-atvorga ta'sir o'tkazish orqali uni me'yoriy holatga keltiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, jamoatchilik nazorati ijtimoiy tizimning o'zini o'zi tartibga solish usulidir. Mazkur usul huquqiy me'yorlar yordamida hamda mazkur tizimning tarkibiy qismlari orqali tartib va barqarorlikni ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Jamoatchilik nazoratining xarakteri, mazmuni, yo'naltirilganligi mazkur ijtimoiy tizimning xarakteri, mohiyati va tipi bilan belgilanadi. Jamoatchilik nazorati ibtidoiy, arxaik jamiyatlarda hozirgi rivojlangan industrial jamiyatlardagiga nisbatan mutlaqo o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi. Arxaik jamiyatlarda u sodda tuzilmaga ega bo'lsa, industrial jamiyatlarda murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Jamoatchilik monitoringining boshqa tadqiqot usullaridan afzalligi shundaki, uning yordamida ijtimoiy ko'rsatkichlarning keng doirasi bo'yicha olinadigan ma'lumotlarni muntazam to'ldirib va uyg'unlashtirib borish imkoni paydo bo'ladi. Axborotlarni ana shunday to'ldirish va uyg'unlashtirish asosida muntazam yangilanib turuvchi axborot banki yaratiladi. Ayni mana shu afzalligi jamoatchilik monitoringining keng tarqalishi uchun asos yaratmoqda.

Jamoatchilik monitoringi jamoatchilik faolligining yangi shakli bo'lib, muayyan tizimlar to'g'risida muntazam va ilgarilab boruvchi axborot olish imkonini beradi. Olingan axborotlarda tizimning holati monitoring ko'rsatkichlari yordamida ifodalanadi. Monitoring ko'rsatkichlari komplekslik va integrativlik mezonlari asosida shakllanadi.

Komplekslik tushunchasi tizimning turli tarkibiy qismlari to'g'risida axborot olishni anglatsa, integrativlik mezoni olinayotgan axborotning o'sha tarkibiy qismlari o'zaro ta'sirini ifodalashni ta'minlaydi. Mazkur axborotlar tizimdagi miqdoriy va sifat o'zgarishlarni o'zaro aloqadorlikda ifodalaydi.

"Monitoring" tushunchasi muayyan ob'ektlarning holati to'g'risida maxsus tashkil etilgan tizimli kuzatishni anglatadi. Masalan, atrof-muhitni monitoring qilish tabiatdagi ob'ektlarning holati va ulardagi o'zgarishlarni kuzatishni anglatadi.

Jamoatchilik monitoringi nodavlat notijorat tashkilotlar va umuman, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat hokimiyati organlari faoliyatining amaldagi qonunchilikka mos yoki mos emasligini nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladi. Jamoatchilik monitoringi davlat hokimiyati organlari faoliyatiga baho berish bilan birga, zarur bo'lgan hollarda ularni korreksiya qilish imkonini ham yaratadi.

Jamoatchilik monitoringi quyidagi tamoyillarga asoslanib o'tkaziladi:

– tizimlilik va xolislik;

– qonuniylik va ochiqlik;

– olinayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni jamoatchilik monitoringidan o'tkazishning maqsadi mazkur dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirish bo'yi-

cha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bunday tavsiyalar monitoring natijalarini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish asosida qabul qilinadi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni jamoatchilik monitoringidan o‘tkazish texnologiyasi o‘zaro bog‘liq va muayyan ketma-ketlikda tashkil etilgan harakatlar yig‘indisi bo‘lib, ularni amalga oshirish manfaatdor shaxs va tashkilotlarga, birinchi navbatda, nodavlat notijorat tashkilotlarga ijtimoiy ahamiyatga molik mazkur dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bunday ishtirok aholiga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Jamoatchilik monitoringi bir necha usullardan foydalanib o‘tkaziladi. Bunday usullar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: statistik tahlil; byudjet tahlili; huquqiy tahlil; so‘rovnomalar; intervyu.

Monitoring o‘tkazish dasturi muammoli vaziyatni tavsiflashni ham qamrab oladi. Monitoring ana shu vaziyatni statistik ma’lumotlar, ommaviy axborot vositalarida chop etilgan ma’lumotlar, shuningdek, boshqa manbalardan olingan ma’lumotlar asosida tahlil qilishni nazarda tutadi. Ana shunday tahlil asosida ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarning mazmuni, maqsadga yo‘naltirilganligi muammoni hal qilish uchun belgilangan tadbirlarning yetarli yoki yetarli emasligi, asoslanganligi, amalga oshirish mexanizmlari mavjudligi, jamoatchilik fikri hisobga olingani yoki olinmaganligi, uni tuzishda jamoatchilikning ishtirok etish darajasi baholanadi.

Jamoatchilik monitoringidan o‘tkazishning tashkiliy shakli tashabbuskor tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan loyiha hisoblanadi. Loyihada jamoatchilik monitoringini tashkil qilishning asosiy bosqichlari ifodalangan bo‘ladi: tayyorgarlik ko‘rish bosqichi, jamoatchilik monitoringi bo‘yicha tadbirlarni tashkil qilish bosqichi, yakunlovchi bosqich.

Foydalanilgan manbalar:

1. Кузнецова Е.М. Социальный контроль: сущность и методы реализации: Монография. – Saarbrücken: LAP LAMBERT Academic Publishing GmbH & Co. KG, 2012. – 185 с.

2. Оргета-и-Гассет Х. Избранные труды / Х. Оргета-и-Гассет. – М.: Весь мир, 2000. – 704 с.

3. Милованов В.П. Неравновесные социально-экономические системы: синергетика и самоорганизация / В.П. Милованов. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 264 с.

4. Мейтус В.В., Мейтус В.Ю. Политическая партия: стратегия и управление / В.В. Мейтус, В.Ю. Мейтус. – М.: Эльга, 2004. – 400 с.

5. Акинфиева Н.В., А.П. Владимирова Государственно-общественное управление образовательными системами. Учебно-методическое пособие / Саратов, 2001. 54 с.

6. Моисеев А.М. Основы стратегического управления школой: учебное пособие/А.М.Моисеев, О.М.Моисеева. – М.: Центр педагогического образования, 2008. - 256с. С.78

7. Токвиль А. Старый порядок и революция. - СПб.: Алетейя, 2018. - С.151.

Valixoja ATAXOJAEV,
ped.f.n, dotsent,
Doniyor G'ANIEV,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti p.f.n, dotsent

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim – tarbiyaning zamonaviy masalalarida ta'lim texnologiyalari – maqsadi vazifalari mazmuni bugungi kundagi amalga oshirish darajasi, modul elementlari, amaliyotga tatbiq qilishning zamonaviy ko'rinishlari masalalariga e'tibor qaratilgan. Aloxida urg'u pedagogik texnologiyaning zamonaviy tizimi takomillashtirish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik texnologiya, texnologiyadagi tizim, modul elementlari, zamonaviy yondashuv, zamonaviy ta'lim-tarbiyaning xususiyatlari.

В данной статье основное внимание в современных вопросах воспитания уделено вопросам содержания образовательных технологий – целевым задачам современного уровня реализации, модульным элементам, современным видам их внедрения в практику. Особое внимание уделяется вопросам совершенствования современной системы педагогической технологии.

Ключевые слова. Педагогическая технология, система в технике, модульные элементы, современный подход, особенности современного образования-воспитания.

In this article, the content of the tasks of educational technologies – goals in modern issues of education is focused on the issues of the level of implementation today, modular elements, modern manifestations of implementation in practice. The emphasis on Aloxida is on the issues of improvement of the modern system of pedagogical technology.

Key words. Pedagogical technology, system in technology, modular elements, modern approach, features of modern education.

Pedagogik texnologiyalar xaqida fikrlar bildirganimizda uning tarixini respublikamiz miqiyosida kirib kelishi, uning empirimik darajasiga ta'riflar berish maqsadga muvofiqdir.

PT ning dolzarbligi, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga olib kelishi davlatimizning qarorlarida, Prezidentimizning nutqlarida ayniqsa so'ngi 3 yil davomidagi isloxotlar, yangilanishlar, innavatsion yondashuvlar, respublikamiz bo'yicha barcha soxalardagi faollik yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ilmiy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki ta'lim-tarbiya jarayonidagi yangiliklar, yutuqlar, ayniqsa yoshlarimizning qobiliyatlari o'sib borayotganligi – jaxon fan olimpiadalaridagi yutuqlari, yurtboshimiz tomonidan ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar,yutuqlarini raxbatlantirish davlat, prezident darajasida rag'batlantirilishi samarali mexanizm bo'lmoqda.

Pedagogik texnologiya tizimi aniq va ravshan belgilangan xoldagi vazifa uni takomillashtirish, jadallashtirish, samaradorlikni oshirishni taqozo etadi.

PT tizimining (1) – modul elementi empirik asos;

2-modul elementi uning moxiyatiga kirish;

3-modul elementi PT takomillashtirish;

4-modul elementi uning natijaviy darajalari;

5-modul elementi jaxon ta’lim-tarbiya tizimi tajribalari bilan taqqoslash;

6-modul PT takomillashtirishning imkoniyatlarini, yo‘llarini, vositalarini izlab topish.

Mutaxassis - olimlar fikrlariga quloq soladigan bo‘lsak, masalan, Yunesko, BMT vakili “zamonaviy texnologiya ta’limni modernizatsiyalashda xarakatlantiruvchi kuchdir”, deb baxo bersa, ushbu fikrni amalga oshirishga nazariya bilan amaliyotni bog‘lash masalasi bo‘yicha Yapon olim Sakatote, palak olimi Brunerlar quyidagicha ta’rif berilgan: “O‘qitish texnologiyasi bu o‘qitishni maqbulliligini ta’minlovchi ma’lum yo‘l-yo‘riqlar tizimi bilan bog‘liq bilimilar soxasi” deb ta’riflashgan. (Bu ta’rifga polyak olimi DJ Bruner xam qo‘shilgan.)

Rus olimasi N.F.Talьzina bu PT ta’riflariga o‘zgacharoq fikr bildirgan: “Belgilangan o‘quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat”.

Eng mukammal ta’rifni PTga rus akademigi V.Bespalko bergan, uning ta’rificha: “PT – bu o‘qituvchi maxoratiga bog‘liq bo‘lmagan xolda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash loyixalashdir”.

PT ga O‘zbekistonlik olimlaridan K.Abdukarimov yana mukammalroq, mantiqiy to‘laroq, lo‘ndaroq ta’rifni quyidagicha bildirgan: “ Milliy dasturbu yangicha pedagogik texnologiyaning o‘zi”, “Pedagogik texnologiya- pedagogik maxorat to‘g‘risidagi fan”.

Menimcha, (A.V) uning moxiyatida maqsad, vazifalar, amalga oshirish bosqichlari mukammal belgilangan, amalga oshirilish tizimi aniq va ravshan belgilangan.

PT tizimi (1) xaqida gap ketganda o‘qitish, o‘qish, uqish xaqida gap ketganda gavdalanadi. Endi tarbiya jarayoni bilan bog‘liq PT bo‘lsa, bunda o‘ziga xos barkamol avlod tarbiyasi moduli xaqidagi tizimni (2) tasavvur qilamiz.

Tizimning yana bir tomoni, dunyo PT va TT (ta’lim texnologiyalari) o‘rtasidagi munosabatlar tizimi (3) bugungi davrning muxit qirralaridan xisoblanadi.


Tizim (4) davr, vaqt ko‘rinishda fikr yuritsak bu muayyan vaqtda doimo tartibli xarakatdir. Bunda - bo‘shliq bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, ya’ni tanaffus yo‘q.

Bu xarakatlarning barchasi yuqori sifatni ta’minlashga qaratilgan, buning uchun bu ta’lim yoki tarbiya jarayonlarini modernizatsiyalashning – bu degani ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi kuch, qudrat, quvvat olib kirishni jadallashtirish, takomillashtirishga aloxida e’tibor bilan qarashni taqazo etadi.

Shunday qilib, PT- amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan nazariy bilimlarni pedagogik tizimini loyixasi va uni zamonaviy modernizatsiyasi deb ta’riflasak xato bo‘lmaydi. Bu masalaga Edgar-F’era, yapon olimi Sakamote, polyak olimi Bruner, rus olimlaridan akademik V.Bespalko, o‘zbek olimlaridan N.Saiydahmedov, H.Abdukarimov va boshqalar bu masalada alohida o‘z o‘rinlariga ega.

Sxema ko‘rinishida ifodalasak (N.Sayidaxtov) fikricha quyidagicha ko‘rinishga ega:

Ijtimoiy buyurtma (IB)



Bunda:

I. Blok – didaktik yoki tarbiya masalalari.

II. Blok – DJ (didaktik jarayon yoki tarbiya jarayoni).

I.Blokda: 1- Talaba yoki o‘quvchi.

2- Maqsadlar: umumiy yoki xususiy.

3- DTS xaqidagi o‘quv rejalar, dasturlar, darsliklar, qo‘llanmalar, metodik ishlanmalar moduli.

II. Blok: 4- elementi- DJ yoki tarbiya jarayoni.

5- modul elementi - o‘qitishning yoki tarbiyalashning zamonaviy texnik vositalari.

Pedagogik tizimning moxiyati nimalarda o‘z aksini moxiyatini ko‘rish imkoniyatini beradi?

Bunda pedagogik tizimning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan modul elementlari- vositalar, usullar, jarayonlari- vositalar, usullar jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta’sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirildi.

Endi pedagogik (ta’lim-tarbiya) ko‘zi bilan qaratadigan bo‘lsak jamiyatda shaxsning fazilatlarini sifatli shakllantirish maqsadi belgilanib olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo‘lishi kerak. Biroq maktab o‘zgapsa tizim xam albatta o‘zgarishi shart.

Masalan “KTMD” jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini xis etadigan xar tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Ushbu milliy dastur bizda ta’lim va tarbiya soxasidagi davlat buyurtmasi sifatida qabul qilinayapti, faqat DTS gina ta’lim va tarbiyaning maqsad va vazifalarini belgilab beradi, yoki oliy, o‘rta maxsus kasb-xunar ta’limi uchun PT ning mavjudlik shartlari kafolatlanadi.

Bunda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan intirativ elementlarni ko‘rsatib o‘tishni ochib berdi; ular:

1-element –talabalar;

2-element – ta’lim - tarbiyaning maqsadi (umumiy, xususiy);

3-element- ta’lim - tarbiyaning mazmuni;

4-element- ta’lim (tarbiya) jarayoni yoki didaktik jarayon;

5-element- pedagogik yoki o‘qitishning texnikaviy vositalari;

6- element- ta’lim va tarbiyaning tashkillashtirish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, PT da uning nazariy va amaliy bilimlarini, ma’no moxiyatini mutaxassis olimlar xam amaliyotga oshiruvchi o‘qituvchilar xam bu jarayonni takomillashtiruvchi olimlarni izlab topishlari ularni ommalashtirishni, modellashtirishni taqazo etadi. PT dagi chet el boy tajribalarini jadal sur’atlar bilan chuqur ta’lili qilib qo‘llashni qattiq talab qilinadi. PT tizimli yondashuvda, masalan birga gurux yoki sinfdagi barcha fan o‘qituvchilari barchasi PT ni qo‘llash olishlari shart bo‘ladi, shundagina jamoa tizim asosidagi xarakatlar loyixasi amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev — O‘zbyekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 07.12.2017 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 07.02.2017 yil PF-4947-sonli farmoni.

3. Yo‘ldashev J., Xasanov S. Pedagogik texnologiyalar. T: “Iqtisod-moliya”, 2009 yil.

4. Воинова М.Г. Педагогические технологии и педагогическое мастерства. T: “Iqtisod-moliya”, 2006 yil.

5. Gulboev A., Ataxojaev V., Mamajonov I. Pedagogik maxorat. Buxoro: “Durdona”, 2019-yil.

Sadoqat BERDIYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Gulisa RAXMONOVA,
Axborot texnalogiyalari va menejment universiteti o‘qituvchisi

INTEGRATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim muassasalari bakalavriyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba yoshlarning integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash katta ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Kasbiykompetentlik, kompetensiya, qobiliyat, salohiyat, “o‘qituvchi-o‘quvchi” o‘zaroaloqasi, o‘z-o‘zinirivojlantirish, rahbarlik, faoliyat.

В статье высказывается мнение, что высшие учебные заведения придают большое значение определению основных направлений развития профессиональной компетентности студенческой молодежи, обучающейся по направлению бакалавриата, на основе интегративного подхода

Ключевые слова. Пофессиональная компетентность, компетентность, способности, потенциал, взаимодействие «учитель-ученик», саморазвитие, лидерство, активность.

The article considers that it is of great importance to identify the main areas of development of professional competencies of students studying in The Bachelor’s degree of higher education institutions on the basis of an integrative approach.

Key words. Professional competence, competence, ability, potential, “eacher-student ” interaction, self-development, leadership, activity.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat uchun hartomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlayoladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo‘lish degan xulosaga kelinadi. “Kompetentlik” so‘zining ma’nosi xabardorlik, obro‘, o‘z sohasi bo‘yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo‘lish bilan belgilanadi. Kompetensiya –shaxsiy sifat bo‘lib, turli xil vaziyatda pedagogic faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko‘nikma va malaka hisoblanadi.

Ta’lim va tarbiya jarayoni o‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o‘zida aks etiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat.Ta’lim va tarbiya jarayonida yoshlar tomonidan to‘plangan bilim,odob,urf-odat,madaniyat va mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashi,salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga,yoshlarda davrtalabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo‘ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogic faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo, pedagogning o‘zida yangicha bilim berish,o‘zgarib boruvchi mehnat va hayot

sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug‘ullana olish ko‘nikmalari tarkib topgan bo‘lishi lozim. Bizning fikrimcha, ta’lim–tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. O‘qituvchi o‘quvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ham shunday bilimga ega bo‘lishi kerak” deb ta’kidlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish to‘g‘risidagi yuqoridagi fikrlarni tahlil qilish quyidagi asosiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi:

birinchidan, kasbiy kompetensiya o‘qituvchilarning integrativ va o‘quv faoliyati bo‘lib, pedagogik faoliyat sifatining ko‘rsatkichidir;

ikkinchidan, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish nafaqat yakuniy, balki o‘qituvchilar va talabalarning o‘quv jarayonida integrative yondashuv asosida o‘zgarishi jarayonidir;

uchinchidan, kasbiy kompetensiyaning rivojlanishi o‘qituvchining tafakkurini shakllantirish jarayoniga ta’sir qiladi.

Integrativ yondashuv elementlarini tanlash va amalga oshirishda talabalarning o‘quv faoliyati hisobga olinishi kerak. Oddiy qoida shundan iboratki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida talabalar yangi bilimlarni egallaydilar, so‘ngra noan’anaviy usullardan foydalanish orqali olingan bilimlar mustahkamlanishi kerak.

Integrativ yondashuv elementlarining ikki asosiy shakli, ya’ni hamkorlikda va individual tarzda kasbiy-kasbiy faoliyatni tashkil etuvchilari aniqlandi.

Hamkorlikda kasbiy-kasbiy faoliyat yurita olish kompetentligini tashkil etuvchilari:

– qo‘shma kasbiy va uslubiy faoliyat: kasbiy va uslubiy faoliyatning ushbu turi o‘qituvchi va talabaning bevosita o‘zaro ta’siri bilan tashkil etiladi, o‘qituvchi talabalarga mustaqil uslubiy faoliyatni amalga oshirishda amaliy yordam beradi, ma’lum ko‘rsatmalar, maslahatlar beradi, shu asosda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi;

– o‘qituvchi: kasbiy, uslubiy va pedagogik faoliyati davomida talabalar tomonidan mustaqil o‘zlashtirish uchun qo‘shimcha o‘quv materiallari va ularning mazmuni bo‘yicha mustaqil ishlar va vazifalar tayyorlaydi va ularni bajarish uchun talabalarga tegishli uslubiy ko‘rsatmalar beradi;

– talaba o‘qituvchi ko‘rsatmalari asosida mustaqil kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. Amaliy ish usullari, vositalari va shakllarini o‘qituvchi bilan kelishgan holda tanlaydi, amaliyish va ijodiy vazifalarni bajaradi;

usullar, shakllar, vositalar: o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mustaqil ish usullari, vositalari va shakllaridan foydalanish asosida talabalar texnologik jarayonlar va texnik ob’yektlarga oid topshiriqlarni mustaqil tanlaydilar va ijodiy bajaradilar;

– o‘qituvchi nazorati: o‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan harakatlarni tahlil qiladi. Talaba kasbiy-uslubiy ishlar jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlaydi, amaliy ish metodlarini namoyish yetadi.

– tuzatish: o‘qituvchi tomonidan aniqlangan xatolar bartaraf etiladi va amaliy ishning eng yaxshi usullari ko‘rsatiladi;

– natija: bitiruvchilar ko‘rsatmalar asosida mustaqil ishlayoladigan, ijodiy fikrlaydigan, jarayon va ishlanmalarni samarali amalga oshiradigan malakali mutaxassislar bo‘ladi.

Individual tarzda kasbiy-kasbiy faoliyat yurita olish kompetentligini tashkil etuvchilari:

– individuallik: talaba kasbiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirishda olingan bilim,ko‘nikma va malakalardan foydalangan holda individual oladi;

– talaba: olingan vakolatlar asosida mustaqil ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadi.

– kasbiy va uslubiy faoliyatni amaliy faoliyatiga mos ravishda amalga oshirishi,

shakl, usul, vositalarni tanlashi;

– motivlar: talaba o‘z xohish-istaklari, ma’naviy ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasbiy-uslubiy faoliyatni amalga oshira oladi. Iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiy ob’yektlarni imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlaydi va tegishli masalalar yechimini topadi;

– o‘z-o‘zini nazorat qilish: talaba o‘quv jarayoni bilan bog‘liq kasbiy va uslubiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatiga tanqidiy munosabatda bo‘lib, xatolardan xulosa chiqaradi. Mustaqil faoliyat samaradorligini oshirish uchun maqbul usullardan foydalanadi;

– ijodkorlik: talaba o‘z xulosalari asosida kasbiy va uslubiy faoliyatni amalga oshirishda sezilarli o‘zgarishlarni amalga oshiradi;

– natija: talaba o‘zining intellectual qobiliyati va uslubiy qobiliyatiga muvofiq kasbiy va uslubiy faoliyatni amalga oshirishga qodir, ijodiy fikrlashga ega, jarayonlar va pozisiyalarni mustaqil tanlaydi, mustaqil ijodiy ish olib boradi.

Integrativ yondashuv va interfaol metodlar avvalo pedagog ongida qaysidir bir yo‘nalishdagi faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida namoyon bo‘ladi. Har bir yondashuv alohida fan, ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishi bilan o‘zgarib boradi. Bugungi kunda metodlar o‘zgarishining haqqoniy zamini ishlab chiqarish jarayonlaridagi ko‘pgina kasbdagi ishchilar mehnatining mazmuni va xarakterining kompleks mexanizasiyalash va avtomatlashtirish sur’atining oshishi bilan bog‘liq.

Jadal rivojlanib kelayotgan jamiyatda, kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish, har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shungay yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

Kompetensiya inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa, “faoliyatdan nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli, kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik–mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kompetentlik va kompetensiya inson umri davomida, faoliyatida u bilan hamohang yashaydigan tushunchalardan biri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Kompetentlik - bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, rahbarlikni faoliyatiga sindirib borishdir. Kompetensiya esa bu-qobiliyat har qanday faoliyatda o‘z qobiliyat va iqtidorlarini ko‘rsata bilishdir.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

– murakkab jarayonlarda;

– noaniq vazifalarni bajarishda;

– bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;

– kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda;

Pedagogning kompetentligi–bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O‘z sohasini, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir.

Pedagogik kompetensiyaning shakllanishbosqichlari:

1. Qobiliyatni aniqlash.
2. Tarbiyalashvashakllantirish.
3. Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish).
4. Ishonch(mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish).
5. Rahbarlik cho‘qqisi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyo qarashga ega bo‘lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo‘lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo‘lishi, o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘otishi, o‘quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo‘lgan narsalarni o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo‘lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini o‘ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,03.01.2020y.,09/20/1059/4265-son

2. Ochilov M.Muallim qalb me’mori “O‘qituvchi” 2001yil.

3. Sultonova G. A. Pedagogik mahorat.-T.:Nizomiy nomli TDPU, 2005,-149b.

4. Muslimov N. A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.:Fan va texnologiyalar, 2013.

5. Akbar T :Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. –№. 8. – C. 160-167.

Shohista ERMATOVA,
Namangan davlat universiteti, "Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

OLIY TA'LIMDA ERKIN VOHIDOV HAYOTI VA IJODINI O'RGATISHNING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyatini sog'lomlashtirish, ularga bilimlarni tayyor holda berishdan ko'ra mustaqil fikrlashga yo'naltirish va ta'lim jarayonida talabalarni mute ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko'tarishning yangi-yangi yo'llari qidirilayotgani hamda shoir Erkin Vohidov ijodini oliy ta'lim muassalarida o'qitilishining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar. Lirik asarlar, estetik ta'sir, qahramonlik dostoni, asar matni mohiyati, tanqidiy fikrlash, erkparvarlik tuyg'ulari.

В данной статье ищутся новые пути повышения духовности молодого поколения, направления его к самостоятельному мышлению, а не предоставления готовых знаний, воспитания учащихся из немых исполнителей в свободных участников образовательного процесса, Подчеркнуто образовательное и воспитательное значение преподавания творчества поэта Эркина Вахидова в высших учебных заведениях.

Ключевые слова. лирические произведения, эстетический эффект, героический эпос, суть текста произведения, критическое мышление, чувства патриотизма.

In this article, new ways are being sought to improve the spirituality of the young generation, to direct them to independent thinking rather than giving them ready-made knowledge, and to raise students from mute performers to free participants in the educational process, and the educational and educational importance of teaching the work of the poet Erkin Vahidov in higher educational institutions is highlighted.

Key words. Lyrical works, aesthetic effect, heroic epic, essence of the text of the work, critical thinking, feelings of patriotism.

Globallashuv jarayonlari kuchaygan uchinchi ming yillikning dastlabki 100 yilligi insoniyat tarixiga "axborot asri" sifatida kirib keldi. Ko'z o'ngimizda zamonaviy dunyoning geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasida tub burlishlar yasaydigan chuqur jarayonlar ro'y bermoqda. Bu esa ertangi kun egalari bo'lmish yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yanada kengaytirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash, albatta, badiiy adabiyotsiz amalga oshishi mumkin emas. Bo'lajak pedagoglarda milliy adabiyotimiz, xususan, otashnafas shoir Erkin Vohidovning ijodini o'qita olish metodikasini mustahkamlashimiz ana shu rivojlanishga katta ko'makdir.

Adabiyotshunos olim B.To'xliyev: "Aslida adabiyot o'qitishning bosh yo'nalishi ta'limning turli bosqichlarida talabalar ongiga badiiy asarning mo'jizakor ta'sir kuchini amaliy jihatdan ta'minlashga qaratilgan" deya bejiz aytmagan. So'z talabaning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatgandagina unda zavq uyg'otadi, bu bilan insonni tarbiyalaydi ham.

She’r his-tuyg‘uni junbushga keltirib, faol estetik kechinmalar uchun zamin yaratadi, shaxs dunyoqarashining tarkibiy qismi bo‘lmish e’tiqodga sayqal beradi, olijanob xatti-harakatlarga otlantiradi .

She’riy matnni maromiga yetkazib ifodali o‘qish, ya’ni muallifni tuyib o‘qish va bu mutolaadan huzur ola bilish she’r qay darajada idrok etilganiga baho berishning bosh omilidir. She’rxon she’rni ifodali o‘qiy olmadimi yoki undan ta’sirlanmadimi, demak, nimanidir yetarli tushunmagan, obrazli ifodalarni hisobga olmagan bo‘ladi. Bu, o‘z-o‘zidan, she’riy matnning mohiyatiga kirishga ham ma’lum darajada aks ta’sir ko‘rsatadi. Lirik asarlar ustida ishlash darslarining mas’uliyatli lahzalaridan biri matnni, albatta, o‘qituvchi tomonidan yoddan ifodali o‘qilishi va talabalarning uni tinglay olishidir. Shunda hamma talabalar bir necha daqiqa she’rdan olingan estetik ta’sir og‘ushida qoladi. Mutolaadan keyingi bir necha soniyalik tin olish o‘qituvchiga shunday imkoniyatni beradi.

S.Ahmedov ham lirik asarlar haqida gapirib: “Lirika ijodkor qalbi oniy bir tezlikda his etgan sezgining, mavjud muhitga estetik munosabatning mevasidir. Shoir tashqi olamdan olgan taassurotlari natijasida vujudga kelgan fikrini his-tuyg‘ularga o‘rab yana yuzaga chiqaradi, kitobxonda fikr tug‘ilishiga sabab bo‘ladi”, – deya ta’kidlaydi . Adabiyot mashg‘ulotlari ko‘ngil darslari sifatida shoirning asariga singdirilgan ana shu hislarini tinglovchiga tuydirish, uni ruhan muvozanatdan chiqarish, o‘zgani tuyish va tuyganlarini so‘z bilan ifodalab bera olishga yo‘naltirishdan iboratdir. Bunday ishlar asar matni yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar ko‘magida amalga oshiriladi.

Lirik turga mansub asarlar ustida ishlashni shoir Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” nomli falsafiy, fojeaviy va qahramonlik dostoni misolida quyidagicha ko‘rish mumkin:

Tug‘ilgansan ozod, mudom
Ozod bo‘lib qol!
Nazrul ISLOM
Bu dunyoning
Quvonchi kam,
Dard-u g‘ami — ziyoda,
Ammo g‘amdan qochmoqning ham
Tadbiri ko’p dunyoda.
Kimning dildosh
Bor ulfati,
Dardin unga to‘kadi.
Yolg‘izlarning bor kulfati
Dil tubiga cho‘kadi.
Kim najotni sokin tunning
Uyqusidan so‘raydi.
Kim g‘amini
Nikotinning –
Tutuniga o‘raydi.
Dil zahmiga malham topar
Kim habib,
Kim tabibdan.
Kim qochmoqqa aylar safar
G‘am atalgan raqibdan.
Gar bularning

Yo‘q imkoni
So‘nggi chora etmoq bor.
Kulfat to‘la bu dunyoni
Shartta tashlab ketmoq bor.
Lek olamda bir dard borki,
Unga sira najot yo‘q.
Bu azobga kim duchorki,
Unga kun yo‘q,
Hayot yo‘q.

Amaliy mashg‘ulotlarda asar matnidan parcha yod olishni topshiriq qilib berish maqsadga muvofiq. Asar matni ustida ishlashdan oldin dostondan parchalar yoddan ifodali aytib beriladi. So‘ngra quyidagi savol va topshiriqlar ko‘magida talabalar asar matni mohiyatiga kirishga yo‘naltiriladi:

1. Nima sababdan tanqidchi Ibrohim G‘ofurov doston haqida: “Menga u ko‘p jihatlardan bugungi o‘zbek she’riy tafakkurining – lirik tafakkurining cho‘qqisi bo‘lib ko‘rinadi”,- deb yozgan?

2. Asar epigrafiga nima uchun Hindistonda isyonkorlik timsoli bo‘lgan shoir Nazrul Islomning so‘zlari tanlab olingan (bunda o‘z hayoti bilan o‘rnak bo‘la olgan shoirning hayotiga nazar solinadi).

3. Asarga nima uchun “Ruhlar isyoni” deb nom berilgan? Siz asarni qanday nomlagan bo‘lar edingiz?

4. “Lek olamda bir dard borki, unga sira najot yo‘q” misrasini ilk marotaba o‘qiganingizda shoir qanday dardni nazarda tutgan deb o‘yladingiz? Siz uchun ozodlik nima?

5. “Abadiyat haqida rivoyat” fasli qahramoni siz bo‘lganingizda obi hayot bulog‘ining suvidan icharmidingiz?

6. “Mangu hayot uchun o‘zing yaraysanmi odamzot?” so‘rog‘ida mangu hayot uchun kurashgan qaysi hukmdorlar ko‘zingiz oldiga keldi?

7. Shoir nega allaqaysi nima? Isyon faqat mavjud tuzum uchun norozilik ifodalaydimi? “Haqsizlikka ko‘ndi olam, Ammo shoir ko‘nmadi” misralari bilan Cho‘lponning “Haq olinur zamonga murojaat qiladi? Hozirgi zamonamizda bo‘lganda voqealar qanday tus olardi? Isyon, berilmas” misralarida qanday o‘xshashlik bor?

8. Dostonning yana qaysi misralari isyonkor ruhda deb o‘ylaysiz?

9.Fidoiylik deganda siz nimani tushunasiz? O‘z hayotingizda guvoh bo‘lgan qanday fidoiylikni aytib bera olasiz? Fidoiylik faqat hayotini qurbon qilishmi?

10. 1926-yilda Kalkuttada bo‘lib o‘tgan imonlar to‘qnashuviga kimlar aybdor deb hisoblaysiz?

11. “Yetti asr avvalgidek bo‘lsa edi zamonlar, Balki Xusrav Dexlaviydek Bitar edi dostonlar” misralarida shoir nima demoqchi?

12 “Zo‘rlar zulmiga u Tan bermadi xech qachon. O‘zni o‘tga otdi aniq, Joni borki, kurashdi, Umri uning mangu yoniq Qo‘shiqlarga tutashdi” misralaridan Nazrul Islomni qanday inson sifatida tasavvur qildingiz?

13. “Shoir bo‘lsang, Bo‘lsin qalbing. Elga qurbon bo‘lgudek” misralarida siz qaysi o‘zbek shoirini ko‘rasiz?


14. Bir kun seni
Ozod ko‘rgim keladi,
Istibdodning zanjirini

Barbod ko‘rgim keladi” misralarini shoir qaysi millatga qarata aytgan deb o‘ylaysiz?

Asar matni yuzasidan taqdim etilgan mazkur savol va topshiriqlar ko‘magida uning mohiyatiga kirishga urinilarkan, o‘qituvchining vazifasi alohida e’tiborga loyiq javoblarni rag‘batlantirish, kichik-kichik qo‘shimcha savollar yoki yo‘naltiruvchi fikrlar bilan vaziyatga aniqlik kiritish, kemtik fikrlarning to‘ldirilishini boshqalardan so‘rash kabilardan iborat bo‘ladi. O‘qituvchi imkon qadar o‘z fikrini o‘rtaga tashlamasligi, agar bunga zarurat tug‘ilganida ham hal qiluvchi xulosa yoki hokim fikr shaklida emas, shunchaki bir variant sifatida aytishi mumkin. Agar u yoki bu savollarga auditoriyada javob topilmasa, uni ochiq qoldirgan, keyingi darsgacha u haqda o‘ylab ko‘rishni taklif etgan ma’qul. Aks holda, talabalar o‘qituvchisining fikr aytishini kutadigan, fikrlamaydigan o‘ylamaydigan tanballarga aylantirib qo‘yish mumkin.

Bu she’rga adabiyot tanuv ilmidagi nazariy o‘lchovlardan ko‘ra ruhiyat mezonlari bilan yondashish ma’qulroq bo‘ladi. Unda qahramon tuyg‘ulari ifodasi ko‘ngil kishisi bo‘lgan she’rxonni muvozanatdan chiqaradi, qalbini junbishga keltiradi. Bunday bezovta vaziyatda she’rxon ham samimiy bo‘ladi.

Dostonga xos poetik tafakkur nihoyasida shoir Nazrul Islom kabi o‘t bo‘lib el dardi ila yongan, erk tilagida qalam tebratgan shoirlarga o‘zini ruhdosh, qismatdosh his etadi, ulug‘lar ko‘ngil berib yashagan e’tiqodga maslakdosh ekanini baralla kuylaydi. Ayni g‘oya doston qismlarini birlashtirib turuvchi “shoir obrazi” orqali talaba ko‘ngliga ta’sir ko‘rsatadi, el dardida bedor yashashga da’vat qiladi, salmoqdor poetik umumlashma esa kitobxon qalbini zabt etadi.



Asar mazmun-mohiyatini chuqur o‘zlashtirgan holdagina talabalar uning tahliliga kirishishlari mumkin. Tahlil darsini “Zinama-zina” usulida tashkil qilish esa ta’lim samaradorligini ta’minlashda katta imkoniyatlar beradi. Avvalo, talabalar e’tibori asar sarlavxasiga qaratiladi. Keyingi pillapoyalar davomida asar tahlili yuqoridagi savollar asosida olib boriladi. Dostonning o‘ziga xos kompozitsiyasini talabalar aniq tasavvur etishlari uchun ushbu chizmadan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Dastur talabiga ko‘ra talabalar XX asrda yashab ijod etgan so‘z san’atkorlari hayoti bilan ijodi haqida tushunchaga ega bo‘lishdan tashqari badiiy asarlarni janrlarga

ko‘ra farqlay olishlari ham, janr tabiatiga bog‘lab tahlil qilishlari ham talab qilinadi. Ekranda drama va komediya janriga nazariy sharh berilgan slayd ko‘rsatilgach, talabalar diqqati “Zinama-zina” usulida quyidagi muammoli savollarni bajarishga qaratiladi.

Badiiy asar tahlili ustida ishlash jarayonida qahramonlarni baholash uchun talabalarning tanqidiy tafakkuri ishga tushadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi ostida insonning mustaqil fikrlash tarzi yotadi va uning asosini turfa axborotlar tashkil etadi. Tanqidiy tafakkur tushunchasi zamirida qo‘yilgan masalaga ishonchli dalillar yordamida mustaqil ravishda yondashuv nazarda tutiladi.

Mazkur pedagogik hodisaning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, unda talabalar ta’lim jarayonidagi faoliyatlarini o‘zlari aniq, obyektiv maqsaddan kelib chiqqan holda mustaqil tarzda loyihalashtiradilar, xatti-harakati, fikrlari to‘kislashib borishi asnosida rivojlanishnlarining darajasini ham namoyish etadilar. Ayni zamonda zarur yakuniy natijaga ham muvaffaq bo‘ladilar. Talabalarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o‘rgatadigan darslar an’anaviy darslardan tubdan farq qiladi. Bunday darslarda talabalar o‘qituvchining aytganlarini bajaradigan obyektdan dars jarayonida faol harakatlanuvchi subyektlarga aylanadilar. Ular oldilariga qo‘yilgan murakkab masalalar, savollar, topshiriqlar ustida o‘ylanadilar, izlanadilar, qayta-qayta badiiy matnga murojaat qiladilar, bir-birlari bilan fikr almashadilar, badiiy asar va undagi obrazlarni har xil rakurslarda tahlilga tortadilar. Bu jarayonda, o‘z-o‘zidan talabada badiiy matnga nisbatan ijodiy munosabat shakllanadi. Chunki asarning mohiyatiga kirilgani sari u anglanadi, anglangani sari ruhiyatda ma’lum tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Ruhiyatda qahramonlarga nisbatan muhabbat yoki nafrat, achinish yoxud g‘azablanish hissi, ularga ko‘maklashish, dardlarini bo‘lishish ehtiyoji paydo bo‘ladi.

Talaba ko‘nglida badiiy matn muhokamasi asnosida paydo bo‘lgan bunday tuyg‘ular uni asarning mohiyatiga chuqurroq kirishga, oqibatlarning sabablarini yaxshiroq o‘rganishga, qahramonning shaxsi, xatti-harkatlarini taftish qilishga undaydi. Shu asnoda badiiy asar qahramonlariga munosabat bildiriladi va baholanadi. Adabiy ta’lim uchun asar yoki undagi timsollarga nima uchun shunday baho berilganligini asoslab berish o‘ta muhimdir. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchi kuzatuvchi, muvofiqlashtiruvchi, yo‘naltiruvchi va umumlashtiruvchi mavqeni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –Toshkent, 2018. B.233

2. Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o‘rganish: Adabiyot o‘qituvchilariga yordam. – T.: O‘qituvchi, 1986. 8-bet

3. Xujamberdieva Sh.K. Ta'lim bosqichlarida Erkin Vohidov ijodi va hayotini o‘qitish usullari: fil. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD)... diss. – Toshkent, 2019.

4. Xujamberdieva Sh. O‘quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini oshirishda xalq shoiri Erkin Vohidov asarlarining o‘rni // Yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va xalq og‘zaki ijodining o‘rni: respublika ilmiy-uslubiy anjuman materiallari. – Namangan, NVPKQTMOI, 2012.- B. 40-42.

5. Xujamberdieva Sh. Yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashda Erkin Vohidov ijodining o‘rni // Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan – образование и воспитание молодежи: традиционной научно-практической конференции. – Московский государственный университет имени М.В.Ломоносова филиал МГУ имени в городе Тошкент, 2014. -Б. 185-189.

O‘g‘iljon ATANIYAZOVA,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti
Professional Ta’lim Markazi magistri

BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH JARAYONINI

Annotatsiya

Maqolada xalqimizda bolalarga qadr-qimmat, burch va ma’suliyatni his etish halollik va rostgo‘ylik, yaxshilik kabi xislatlarga ega bo‘lish lozimligi qadim-qadimdan pandnasihat vositasida uqtirilgan. Ushbu maqolada oilada bolalarni milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalashning shakl, usul va yo‘llari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Xalq og‘zaki ijodi, milliy qadriyatlar, maqollar, matallar, topishmoqlar, tarbiya.

В статье говорилось, что в нашем народе детям необходимо обладать такими качествами, как чувство собственного достоинства, долга и ответственности, честность и правдивость, доброта. В данной статье речь пойдет о формах, методах и способах нравственного воспитания детей в семье средствами национальных ценностей.

Ключевые слова. Устное народное творчество, национальные ценности, пословицы, поговорки, загадки, воспитание.

It has long been taught in our nation that children should have dignity, duty and responsibility, honesty and integrity, kindness. This article discusses the forms, methods and ways of moral upbringing of children in the family through national values.

Key words. Folklore, national values, proverbs, sayings, riddles, education.

Xalqning asrlar davomida tarkib topgan tajribasida tarbiyaning mohiyati, uning shakl va metodlaridan yoshlarga aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyada qanday foydalangani, ular yoshlarni oilaviy hayotga tarbiyalashda qanday amalga oshirilgani kabi masalalar bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xalq hamma vaqt insonni shakllantirishda tarbiyaning mohiyatini tushunib yetgan va tarbiyani oilada farzand tarbiyasi, farzand tarbiyasida ota-onaning ibrati, oilada aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasi va hunar o‘rgatish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Kelajak mevasi hisoblanmish bolajonlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash azal-azaldan ota bobolarimizdan milliy meros bo‘lib kelayotgan urf-odat hamda an’analarni unut bo‘lib ketmasligi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Qadriyatlar ta’rifidan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta’riflash mumkin: Umuminsoniy qadriyatlar – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va hususiyatlar bilan bog‘liq holdagi qadriyat shaklidir. Umuminsoniy qadriyatlar millatning tarixi yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati orqali namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida umuminsoniy qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy hodisani ifodalaydi. Shunday ekan, bolalarga ta’lim berar ekanmiz, avvalo ularga o‘zlarining “men”ini his qilishni o‘rgatishimiz lozim. Buning uchun albatta ularni xalqimizni boshqa xalq va elatlardan ajratib turuvchi urfodatlar hamda qadriyatlari bilan tanishtirib, ushbu qadriyatlarni ongida singdirib borishimiz lozim bo‘ladi. Ona tilimizga bo‘lgan hurmat ana shunday muhim qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi. Chunki har bir millat va Davlat borki, uning

o‘zining milliy tarixiy til vositasi mavjud. Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e’tiborga olib ta’lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’lim sohasida ham shu asosda keng qamrovli ishlar olib borilayotganligini ta’kidlash joiz. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining har bir guruhida “Kichik kutubxona”lar tashkil etilganligi ham buning yorqin misoli bo‘la oladi.

Ushbu kutubxonalarda asosan o‘zbek xalqining og‘zaki ijod namunalari asosida yaratilgan kitoblar keng o‘rin egallagan. Lekin afsuski, aytish joizki ba’zi bir “o‘zbek” tilida yozilgan ertaklar borki, uni bolalarga o‘qib berishga ham hijolat tortadi kishi. Chunki bu kitoblarning ba’zilarida chetdan kirib kelgan so‘zlar ham tez-tez uchrab tursa, yana ba’zilarida millatimizga hos bo‘lgan andisha, sharmhayo kabi muhim chegaralardan biroz chetga chiqilgan. Mening fikrimcha bolalar uchun mos ertak topish maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uchun bugunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Bunday vaziyatlarda tarbiyachining qanchalik kreativ ekanligi muhim ahamiyatga ega.

Xalqning asrlar davomida tarkib topgan tajribasida tarbiyaning mohiyati, uning shakl va metodlaridan yoshlarga aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyada qanday foydalangani, ular yoshlarni oilaviy hayotga tarbiyalashda qanday amalga oshirilgani kabi masalalar bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xalq hamma vaqt insonni shakllantirishda tarbiyaning mohiyatini tushunib yetgan va tarbiyani oilada farzand tarbiyasi, farzand tarbiyasida ota-onaning ibrati, oilada aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasi va hunar o‘rgatish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Xalqning tajribasidan ma’lumki, tarbiya jarayoni murakkab va ko‘p qirralidir. Zero, inson tarbiyasi bilan bola tug‘ilgan kundan boshlab shug‘ullaniladi. Qadimgi yunon faylasufi Suqrotdan so‘radilar: Siz kattalardan ko‘ra yoshlar tarbiyasiga ko‘proq ahamiyat berasiz. Buning sababi nima? Suqrot shunday deb javob berdi:

Yoshlar daraxt niholiga o‘xshaydilar, qanday egsang shunday egiladilar, mening va’z-nasihatlarimni toshga muhr o‘ygandek ko‘ngillariga joylashtirib oladilar. Shuning uchun men ularning tarbiyasiga ko‘proq e’tibor beraman. Agar bola boshidan tarbiya qilinmay, tarbiyaning vaqti o‘tgan bo‘lsa, bunda ularni qayta tarbiyalash zarur bo‘ladi. Lekin xalq tarbiyaning bir kunlik emas, balki bir umrlik ekanligini doimo ta’kidlab kelgan va bu haqda hikmatli fikrlar bildirgan: Shu bilan birga xalq har bir bolaning yaxshi inson bo‘lib shakllanishida to‘g‘ri tarbiya bilan birga nasl-nasab ham muhim ahamiyat kasb etishini anglab yetgan. Bolalar tarbiyasida tarixiy tajribalardan kelib chiqqan holda xalq tarbiyaning bir butun, yaxlit tizimini yaratdi. Bunda o‘git-nasihatning ahamiyati kattaligi ta’kidlangan. Bu metod asosida tarbiyalashda xalq maqollaridan o‘rinli foydalanilgan. Qadr-qimmat, burch va ma’suliyatni his etish halollik va rostgo‘ylik, yaxshilik kabi xislatlarga ega bo‘lish lozimligi pand-nasihat vositasida uqtirilgan. O‘git-nasihat ertaklarda ham ko‘p qo‘llanilgan. Chunki ertaklar hayot maktabi bo‘lib, ularda pand-nasihatning natijasi, yechimi o‘zini namoyon etadi. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlarida namuna ko‘rsatish metodi ham ko‘p qo‘llaniladi. “Ravshanxon” dostonida ham ota, kampir, aka-ukalarda barcha ijobiy xislatlar mavjud bo‘lib, insonparvarlik namunasini ko‘rishimiz mumkin.

Ming yillar davomida dono fikr, o‘tkir haqiqat, teran mazmun, so‘z xazinasining boyliklarini o‘zida mujassamlashtirgan son-sanoqsiz va rang-barang maqollarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Chunki har bir oilada ukalar akalarga, qiz ona, opalariga qarab tarbiya oladi, voyaga yetadi. Lekin yaxshi odamlar yaxshilarni

ko‘paytirsa, yomonlar oz bo‘lsa-da yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta’sir etadi. Demak, ota-ona va kattalarning ibratli fe’l-atvor va xatti-harakatlari shu oiladagi bolalarga ijobiy ta’sir qilgani kabi ularning nojo‘ya xatti-harakatlari bolalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi yosh bolalar, o‘z tabiatlariga ko‘ra, ko‘pincha kattalarga taqlid qiladilar. Shuning uchun ham o‘z oilalaridagi kattalar misolida ijobiy va salbiy fe’l-atvorga ega bo‘lishlari mumkin. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlarida ilgari surilgan metodlardan eng muhimlari rag‘batlantirish va qoralash metodidir. Bundan tashqari o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarida ishontirish metodidan ham foydalanilgan.

Bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini ularga yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni farqlash, jamiyatning axloqiy va madaniy qadriyatlari, shuningdek ma’naviy-axloqiy sifatlar-saxiylik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, tinchliksevarlik haqida ma’lumot olishlariga yordam beruvchi o‘zbek xalq ertaklari, topishmoq, maqol va matallar bilan to‘ldirib borilishiga katta e’tibor qaratish lozim. Bolalar yoshligidanoq xalq og‘zaki ijodi janrlari bilan tanishtiriladi. Bular – ona allasi, o‘yinlar – bolalar bilan ermaklar (“Chapaklar”, “Qo‘l harakatlari”, “Hayvonlar harakatlariga taqlidlar”), maqollar, matallar, topishmoqlar, ertaklar. Xalq og‘zaki ijodi bolajonlarning bilish faolligi, mustaqilligi, individualligi, hissiyotlari, atrof-olamga munosabati, nutq ko‘nikmalari rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasi va oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining turli shakllaridan maqsadli va tizimli foydalanish ularning ruhiy va jismoniy jihatdan kamol topishiga zamin yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va mahallalardagi ta’lim-tarbiya jarayonida yuqorida qayd qilingan tashkiliy va pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni amalga oshirish bolalarni alla vositasida ma’naviy axloqiy tarbiyalashda, balog‘at yoshidagi qizlar va yosh onalarda allalardan tarbiya vositasi sifatida foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va metodik tayyorgarlikni rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda ta’lim-tarbiya metodlari, usullari keng qo‘llanilganki, o‘zining amaliyligi, avloddan-avlodga o‘tib, tajribada sinalganligi va hayotiyligi bilan tarbiya tizimida katta ahamiyatga egadir. Biz bu borada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo‘llanilgan metod va usullar, farzand tarbiyasida ota-ona ibrati, oilada bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va hunar, estetik va jismoniy tarbiyasida xalq hikmatlari, maqol va iboralar, hikoyatlar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlarda xalq foydalangan metod va usullarni hozirgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo‘llash muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Камилова Г. А., Курбанова Г. Р., Джаббарова С. З. Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений //Academy. – 2020. – №. 5 (56). – С. 25-27. 2. Жабборова С. З. Особенности труда в дошкольном возрасте //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).

3. Джаббарова С. З. Этическое воспитание детей в семье через национальные ценности //Проблемы науки. – 2021. – С. 61.

4. Jabborova S. Z. Forms, methods and ways of moral education of children in the family by means of national values //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 820-823.

Ravshanxon DJURABOEVA,
Qori Niyoziy nomidagi Respublika pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining tadqiqotchisi, Andijon Masinasozlik institutining asissenti, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazining Andijon shaxar bo'linmasi rahbari

RAHBAR XODIMLARNING BOSHQARUV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK MODELI

Annotatsiya

Maqolada rahbar xodimlarning boshqaruvchilik qobiliyatini rivojlantirishda muhim bo'lgan kompetensiyalar, pedagogik-psixologik tizimli yondashuvlar yoritib berilgan. Shuningdek, boshqaruv madaniyatini yanada takomillashtirishda ishlab chiqilgan modellar tahil qilingan.

Kalit so'zlar. Rahbar xodim, kompetensiya, model, ijtioiy madaniyat, kadrlar bilan munoabat, ta'lim, siyosat

В статье освещаются компетенции, педагогико-психологические системные подходы, которые важны для развития управленческих способностей руководящего персонала. Также были проанализированы модели, разработанные для дальнейшего совершенствования культуры управления.

Ключевые слова. Ведущий сотрудник, компетенция, модель, социальная культура, отношения с персоналом, образование, политика

The article highlights competencies, pedagogical-psychological systematic approaches that are important in the development of managerial abilities of managerial personnel. Also, the models developed in the further improvement of the management culture have been modified.

Key words. Management employee, competence, model, positive culture, communication with personnel, education, politics

Zamonaviy pedagogika fanida modellashtirish usuli keng tarqalgan. "Model" tushunchasining turli xil ta'riflari mavjud. L.B. Itelson quyidagi ta'rifni beradi: "model – bu boshqa moddiy obyektlar tizimining elementlari munosabatlari orqali moddiy obyektlarning bir tizimi elementlarining o'zgarmas munosabatlarining izomorfik xaritasi".

V.A. Stoffning so'zlariga ko'ra, "keng ma'noda model haqiqatning u yoki bu qismini soddalashtirilgan (sxematik yoki idealizatsiya qilingan) va vizual shaklda takrorlaydigan aqliy yoki amalda yaratilgan tuzilma sifatida tushuniladi".

V.G. Afanasev fikricha, modelning asosiy fazilatlari quyidagicha bo'ladi:

1) muvofiqlik, asl tizimga o'xshashlik;

2) maqsadga muvofiqlik, ya'ni uning parametrlarini tizim uchun belgilangan maqsad bilan, kutilgan natija bilan bog'lash;

3) modellashtirish ishtirokchilarining subyektiv baholari va afzalliklariga nisbatan betaraflik;

4) asl tizimning ba'zi tafsilotlari va parametrlaridan mavhumlik.

Modellashtirish bilishning o'ziga xos usuli sifatida tadqiqot obyektini oraliq tizim orqali ko'paytirishga imkon beradi. Yu.K. Babanskiy ta'rificha, "o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon haqidagi bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi, ularni yanada yaxlit

tavsiflash yo‘llarini bashorat qiladi, komponentlar orasidagi to‘liq aloqalarni belgilaydi”.

Modellashtirishning quyidagi bosqichlari ajralib turadi.

1. Muammoning mohiyatini tushuntirish, maqsadlarni belgilash, vazifalarni belgilash zarur yechimlar.

2. Ijtimoiy jarayonlarni mavhum matematik tilga tarjima qilish, ya’ni jarayonning sifat tarkibining miqdoriy ifodasini topish.

3. Raqamli ma’lumotlarni kiritish, elektron modelni yaratish.

4. Komponentlar, boshqaruv obyekti va subyektining o‘zaro ta’siri.

5. Grafik tasvir.

Pedagogik tizimlarni modellashtirishning uslubiy asosi ijtimoiy tizimlarni modellashtirish muammolari bo‘yicha tadqiqotlardir. Ushbu tadqiqotlar asosida ijtimoiy tizimlarni o‘rganish usuli sifatida modellashtirishning quyidagi xarakterli xususiyatlarini ajratish mumkin:

– modelning asosiy xususiyati uning mosligi, asl tizimga o‘xshashligi, o‘xshashlik darajasi esa turli ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin;

– o‘rganilayotgan tizim modeli uning mohiyatini, tarkibini, tuzilishini, funktsiyalarini, integral, tizimli omillarini, butun tarixini aks ettirishi kerak;

– modellashtirish haqiqatda hali mavjud bo‘lmagan tizimlarni, yaratilishi kerak bo‘lgan tizimlarni o‘rganishga imkon beradi;

– modellashtirish – bu uchlik muammosining yechimi va shunga mos ravishda uch bosqichning birligi vazifasini bajaradi: haqiqiy tizim parametrlarini o‘rganish va shu asosda uning modelini qurish; model tadqiqotlari; modelning o‘rganilgan xususiyatlarini asl nusxasiga ekstrapolyatsiya qilish kerak. Shuni hisobga olingki, bunday tizimning tarkibiy qismi sifatida inson xatti-harakati nafaqat tashqi ta’sirlar, balki uning ichki holati bilan ham belgilanadi.

Model kompetensiyaga asoslangan, texnologik, aksiologik, madaniy, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslanadi. Bunga quyidagilar kiradi: boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari; ushbu jarayonni qurish tamoyillari; rahbar xodimning boshqaruv madaniyatining tarkibiy qismlari; boshqa ta’lim tashkilotlari va muassasalar; umumiy ta’lim va boshqaruv sharoitida rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bosqichlari va texnologiyalari va modelni amalga oshirish natijasida uning shakllanish darajasi.

Keling, biz ishlab chiqqan modelning alohida elementlarini tavsiflaylik. Maqsad rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini uning barcha tarkibiy qismlarining birligida shakllantirishdir. Maqsad vazifalarni belgilaydi:

1. Boshqaruv faoliyatini yuqori sifatli bajarish zarurligini shakllantirish (boshqaruv madaniyatining motivatsion komponenti).

2. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar tizimini shakllantirish (boshqaruv madaniyatining kognitiv komponenti).

3. Faoliyatni ixtiyoriy tartibga solish asosida boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish (boshqaruv madaniyatining operatsion va ixtiyoriy tarkibiy qismlari).

Bundan tashqari, model umumiy ta’lim sharoitida rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayonini pedagogik qo‘llab-quvvatlash tamoyillarini taqdim etadi: boshqaruv faoliyatining mavjud tajribasiga tayanish; individual yondashuv; treningda tanlov; refleksivlik; ta’limni aktuallashtirish natijalari; innovatsion yondashuv.

Modelning navbatdagi bloki boshqaruv madaniyatining tarkibiy qismlarini aks ettiradi: motivatsion, kognitiv, operatsion, ixtiyoriq, ularning shakllanishi turli xil ta’lim

muassasalarida amalga oshiriladi, shuningdek, modelda namoyish etiladi. Bular universitetlar, kollej va texnikumlar, malaka oshirish markazlari, kasb-hunar maktablari.

Modelga umumiy ta’lim sharoitida rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bosqichlari va texnologiyalari bo‘lgan texnologik blok kiradi.

Umumiy ta’lim sharoitida rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish ketma-ket 4 bosqichdan iborat algoritm bilan belgilanadi.

1-bosqich – tahliliy:

– rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatining u yoki bu tarkibiy qismlarining shakllanish darajasini, ularning ta’lim imkoniyatlarini, shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilish;

– rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda qo‘shimcha ta’lim imkoniyatlarini aniqlash.

2-bosqich – loyihalash:

– rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayonini tashkil etish bo‘yicha tadbirlarni rejalashtirish;

– boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning mazmuni va texnologiyalarini loyihalash;

– resurslarni tanlash.

3 bosqich – faoliyatli:

– umumiy ta’lim sharoitida rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

4-bosqich – refleksiv:

– rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyati rivojlanish dinamikasini baholash;

– ushbu jarayonni tashkil etish bo‘yicha harakatlarni tuzatish.

YUNESKO hujjatlarida ta’lim texnologiyasi ta’lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan texnik va inson resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘qitish va ta’limning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli sifatida qaraladi.

B.T. Lixachev nuqtai nazaridan pedagogik texnologiya – bu shakllar, usullar, vositalar, o‘qitish usullari, ta’lim vositalarining maxsus to‘plami va tartibini belgilaydigan psixologik va pedagogik munosabatlar majmui; bu pedagogik jarayonning tashkiliy va uslubiy vositasi.

V.M. Monaxovning so‘zlariga ko‘ra, pedagogik texnologiya talabalar va o‘qituvchilar uchun qulay sharoitlarni so‘zsiz ta’minlash bilan o‘quv jarayonini loyihalash, tashkil etish va o‘tkazishda birgalikdagi pedagogik faoliyatning puxta o‘ylangan modelidir.

Pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy vositalarning tizim umumiyligi va ishlash tartibi pedagogik texnologiya deb tushuniladi.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasining turli xil ta’riflarini umumlashtirib, G.K. Selevko uni ko‘rib chiqishning uchta jihatini aniqlaydi:

1) ilmiy: pedagogik jarayonlarni o‘qitish va loyihalashning maqsadlari, mazmuni va usullarini o‘rganadigan va rivojlantiradigan pedagogika fanining bir qismi;

2) protsessual-tavsiflovchi: jarayonning tavsifi (algoritmi), rejalashtirilgan o‘quv natijalariga erishish uchun maqsadlar to‘plami, mazmuni, usullari va vositalari;

3) protsessual-samarali: texnologik (pedagogik) jarayonni amalga oshirish, barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy pedagogik vositalarning ishlashi.

Hozirgi vaqtda texnologiyalarning ikkinchi guruhi katta ahamiyatga ega, ularning asosiy xususiyatlari, Ye.V. Bondarevskayaning fikriga ko‘ra: dialogik, faol, ijodiy tabiat,

talabaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga, unga mustaqil qaror qabul qilish erkinligini ta’minlashga, ijodkorlik, tarkib va usullarni tanlashga qaratilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining asosini ta’lim muloqoti, qidiruv xarakterining mustaqil kognitiv faoliyati, o‘yinlarni modellashtirish, muammoli ta’lim holati tashkil etadi.

Shaxsiy yo‘nalishga mos keladigan o‘quv texnologiyalarini qurish faoliyat va aloqa usullarini, uning sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tabiatini o‘zgartirishni talab qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning quyidagi asosiy funktsiyalarini ajratib ko‘rsatamiz:

– motivlar va moyilliklarga asoslangan kasbiy faoliyatni ongli ravishda tahlil qilish;

– haqiqat muammosi va to‘qnashuvi – bevosita sezilmaydigan to‘qnashuvlar va undagi nomuvofiqliklar haqidagi tasavvur;

– standartlarga tanqidiy munosabat;

– ko‘zgu va ma’no yaratish;

– atrof-muhitga ochiqlik va kasbiy innovatsiyalar;

– normativ vazifa chegarasidan tashqariga chiqib, dunyoga ijodiy o‘zgaruvchan munosabat;

– o‘z-o‘zini anglash uchun intilish, ularning niyatlari va turmush tarzini kasbiy faoliyatda amalga oshirish uchun;

– kontent elementlarini shaxsiy-semantik tarkibga bo‘ysundirish, ya’ni shaxsiy ma’no bilan ta’minlash.

1) ilmiy: pedagogik jarayonlarni o‘qitish va loyihalashning maqsadlari, mazmuni va usullarini o‘rganadigan va rivojlantiradigan pedagogika fanining bir qismi;

2) protsessual-tavsiflovchi: jarayonning tavsifi (algoritmi), rejalashtirilgan o‘quv natijalariga erishish uchun maqsadlar to‘plami, mazmuni, usullari va vositalari;

3) protsessual-samarali: texnologik (pedagogik) jarayonni amalga oshirish, barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy pedagogik vositalarning ishlashi.

So‘nggi yillarda ishbilarmonlik o‘yinlari, ayniqsa, keng qo‘llanila boshlandi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, mutaxassislarni tayyorlashning norasmiy tizimiga bo‘lgan ehtiyoj universitetlarning o‘quv jarayonida o‘yinlarni modellashtirishdan keng foydalanishni rag’batlantirdi.

Ishbilarmonlik o‘yinlari sizga turli xil ishlab chiqarish vaziyatlarini taqlid qilishga, taklif etilayotgan modellar sharoitida harakat usullarini loyihalashga, muayyan amaliy muammoni hal qilish uchun nazariy bilimlarni tizimlashtirish jarayonini namoyish etishga imkon beradi.

Ishbilarmonlik o‘yini, qoida tariqasida, maxsus fanlarda o‘tkaziladi va ko‘pincha fanlararo xarakterga ega. Bu o‘qitishning predmet tabiati va ish uchun integratsiyalashgan kasbiy bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj o‘rtasidagi ziddiyatni yo‘q qiladi. O‘yinda bir nechta odatiy ishlab chiqarish vazifalari qisqa vaqt ichida hal qilinadi.

Universitetlarda ishbilarmonlik o‘yinlarining joriy etilishi va keng qo‘llanilishi materialni assimilyatsiya qilishning katta samarasi bilan ma’lum fanlarni o‘rganish uchun ajratilgan vaqtni 30-50 foizga qisqartirish imkonini beradi. Shunday qilib, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda ishbilarmonlik o‘yinlarining rolini baholab, quyidagi parametrlarni ajratish mumkin:

– ishbilarmonlik o‘yinlarida haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar modellaridan foydalanish o‘quv jarayonini rahbar xodimlar va mutaxassislarning amaliy faoliyatiga iloji boricha yaqinlashtirishga imkon beradi;

– ishbilarmonlik o‘yinlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uning muayyan rollarni bajaradigan ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladi va turli rollarning manfaatlari bir-biriga to‘g’ri kelmagani uchun qaror ziddiyatli vaziyatlarda qabul qilinishi kerak;

– ishbilarmonlik o‘yinlarini o‘tkazish – bu o‘rganishning jamoaviy usuli, o‘yin natijasida o‘z o‘yinchilar guruhining fikrini himoya qilish va boshqa guruhlarni tanqid qilishda jamoaviy fikr shakllanadi;

– ishbilarmonlik o‘yinida o‘yinchilarning ma’lum bir hissiy kayfiyati maxsus vositalar yordamida yaratiladi, bu esa tinglovchilarni o‘rganilayotgan muammoni hal qilishga faol jalb qilishga yordam beradi.

Umumiy ta’lim sharoitida rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayonida vaziyatlarni loyihalash texnologiyasi samarali bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda vaziyatni tushunishda ikkita asosiy yondashuv mavjud.

1. Vaziyat ma’lum bir bosqichda hayotiy faoliyatning tashqi sharoitlari to‘plami sifatida ko‘rib chiqiladi. Vaziyatning tuzilishi, bunga asoslanib, faoliyatni amalga oshiruvchi aktyorlarni, uning vaqtinchalik va fazoviy jihatlarini o‘z ichiga oladi.

2. Vaziyat hayotda birlashadigan sub’ektiv va ob’ektiv elementlar tizimidir. Shu bilan birga, tashqi sharoitlar yoki shaxsiyatning ustunligiga qarab, ob’ektiv va subyektiv vaziyatlar mavjud. A.N. Leontiev obyektiv holatlar mavzusi va ulardagi harakatlari uchun hayotiy ahamiyat va ma’noni baholash bilan bog’liq “shaxsiy ma’no” tushunchasini ta’kidlaydi.

Shunday qilib, vaziyat har doim subyekt mavjudligining fazoviy-vaqtinchalik xususiyatidir. Bu talabani yangi xulq-atvor uslubiga ega bo‘lishni, oldingi hayotiy faoliyatni tushunish va qayta ko‘rib chiqishni talab qiladigan yangi sharoitlarga qo‘yadigan maxsus pedagogik mexanizmdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Соколова, И. И. Социально-профессиональный портрет педагога [Текст] : науч. докл. / И. И. Соколова, Н. М. Александрова, А. С. Мищенко и др. - СПб.: Учреждение РАО НПО, 2009.

2. Соколовская, Е. А. Андрагог... в поисках смысла [Текст] / Е. А. Соколовская, Т. В. Шадрина // Андрагог в открытом обществе: материалы российско-польского семинара / под ред. Е. А. Соколовской, Т. В. Шадриной. - СПб.; Иркутск; Плоцк, 2000. - С. 4-6.

3. Солдаткин, В. И. Взгляд на создание информационно- образовательной среды открытого образования российской федерации [Текст] / В. И. Солдаткин // Тезисы докладов X Всероссийской конференции «Телематика-2003». - СПб, 2003.

4. Сорокин, П. А. Социальная и культурная динамик а[Текст] / П. А. Сорокин. - СПб., 2004. - С. 19.

Muxayyo MO‘MINOVA,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (Kontent tahlil)

Annotatsiya

Maqolada rahbar xodimlarning boshqaruvchilik qobiliyatini rivojlantirishda muhim bo‘lgan XX asrning 80-yillaridan boshlab Strategik maqsadni belgilash pedagogikaga oid ilmiy tadqiqotlarning obyekti bo‘lib qolganligi, inson omilining ustuvor o‘rin tutishi, shaxsni tarbiyalash va o‘qitishga individual yondashuvlar Strategik maqsadni tadqiq qilish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqqanligi, pedagogika fanida maqsadni belgilash muammosini tadqiq qilish bir nechta yo‘nalishlar, ya’ni ta’limning umumiy maqsadlari, shuningdek, ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarni aniqlashtirishdek holatlarni qamrab olishi haqida so’z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Strategik, shaxs, o‘qituvchi, o‘quvchi, pedagog, rahbar, ta’lim, tarbiya, maqsad, masala, faoliyat.

В статье отмечается, что с 80-х годов XX века стратегическое целеполагание стало объектом научных исследований в области педагогики, приоритетность человеческого фактора, индивидуальные подходы к воспитанию и обучению личности вынесли на повестку дня необходимость исследования стратегического целеполагания, исследование проблемы целеполагания в педагогической науке имеет несколько направлений, а именно: образования общего назначения, а также, упоминаются такие случаи, как разъяснение учебно-воспитательных целей.

Ключевые слова. Стратегический, человек, учитель, ученик, педагог, руководитель, образование, обучение, цель, проблема, деятельность.

Since the 80s of the 20th century, when the leader was important in the development of managerial abilities of employees, the definition of a strategic goal has become an object of scientific research on pedagogy, the priority of the human factor, individual approaches to the education and training of the individual led to the agenda of the need to research a strategic goal, , it is mentioned that it covers cases of clarification of educational and educational goals**.**

Key words. Strategic, person, teacher, student, educator, leader, education, training, goal, problem, activity.

Muammoni tadqiq qilishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri – umumiy o‘rta ta’lim maktablari (bundan keyin – UO‘TM) faoliyatini boshqarishga maqsadli yondashish samaradorligini belgilovchi mezonlarni aniqlash sanaladi. Ijtimoiy tarbiya samaradorligini oshirishga jiddiy e’tibor qaratilayotgan mavjud sharoitda tarbiyaviy maqsadlar mazmunini aniqlash nihoyatda muhimdir.

Pedagogikada “maqsad” tushunchasini ifodalashga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Mazkur tushunchani ifodalashga didaktik hamda ta’lim-tarbiyaviy nuqtai nazardan yondashilganligi bilan ular bir-biridan farqlanadi.

Bir guruh olimlarning fikrlaricha, ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarga umumiy metodlar yordamida erishilsa-da, ular o‘z tarkibiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Ta’limiy maqsadlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonini aks ettiradi. Bunda o‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtiradilar, o‘zlarida ularni qo‘llash ko‘nikma va malakalarini hosil qiladilar, ya’ni sifat o‘zgarishlari

yuz beradi. Tarbiyaviy maqsadlar shaxsda uning ta’lim olishi natijasida shakllanuvchi sifatlarning o‘ziga xosligini belgilaydi.

Tarbiyaviy maqsadlarning asosiy natijasi shaxsning atrof-muhitga, o‘ziga hamda subyektlarga munosabatlarini shakllantirishdan iborat. Ta’lim-tarbiyaviy maqsadlar o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lib, hech qanday baxsni talab qilmaydi.

Strategik maqsadni belgilashda xronologik muammo tamoyiliga muvofiq yoritilgan tarixiy, zamonaviy, milliy hamda xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilish ustivor vazifalar hisoblanadi. Yana bir vazifa – tahlil qilinuvchi tadqiqotlarning ta’lim muassasasi rahbari faoliyati, xususan, maqsadni belgilash faoliyatiga ta’sirini to‘g‘ri anglashdan iborat.

Boshqaruvchi (rahbar) muayyan tarbiyaviy masalalarni hal etish uchun, eng avvalo, ularning tartibini tuzib olishi, pedagogik vositalarni tanlashi kerak. Bu o‘rinda ro‘yxat emas, balki vositalar majmui va ularning o‘zaro munosabatlarini aniqlanishi muhimdir. Vositalar maqsadga erishishni kafolatlay olishi lozim.

Vositalarning maqsadga muvofiq tanlanganligi tarbiya tizimining asosi sanaladi. Maqsadga muvofiq tanlangan vositalarni ta’lim jarayonida qo‘llash o‘qituvchi (tarbiyachi) uchun bir qadar oson kechadi. O‘zgaruvchan vaziyatda tarbiyaviy vositalar majmuini aniqlash ta’lim muassasasi ichki nazoratining oddiy usuli sanaladi.

Shaxs modeli tarbiyaning ijtimoiy etaloni sifatida bir guruh pedagog olimlar tomonidan “qurol”, “mezon”, boshqa guruh vakillari tomonidan esa “muqobillar” (“ko‘p variantlilik”) sifatida e’tirof etiladi. Bizning fikrimizcha, model o‘z natijasiga ko‘ra ideal maqsad sifatida tasavvur etiluvchi davomiylikka asoslanuvchi jarayondir.

Xilma-xil maqsadlar turli mezonlarni talab qiladi, zero, birgina vosita turli maqsadlarni tekshirib, barcha hayotiy vaziyatlar uchun universal va yaroqli bo‘la olmaydi. Shaxsda aks etishi zarur bo‘lgan ma’naviy-ahloqiy sifatlarning ko‘pligi ularning o‘lchovlarini pedagogik nuqtai nazardan umumlashtirishni taqozo etadi. Biroq, ma’naviy-ahloqiy sifatlar, jumladan, bilimlilik, mehnatsevarlik, mas’uliyat, estetik madaniyat, dunyoqarash, jismoniy rivojlanish kabi holatlarni birgina mezon bilan o‘lchash va baholash mumkin emas.

Shaxsning shakllanishi to‘g‘risida gap borganida xususiy pedagogik ishlab chiqarish, shu jumladan, ta’lim muassasasi rahbari va pedagogning layoqati ko‘zga tashlanadi. Bizning nazarimizda, bu, shubhasiz, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ifoda etuvchi muhim maqsadlardir. Shu o‘rinda ta’lim muassasasida shaxs rivojlanishining barcha darajalarida maqsadni taxmin qilish asosiy o‘rin tutadi degan bahsli taklifni ilgari surish mumkin.

Shunga ko‘ra ta’lim predmetlarining mazmunida aks etuvchi umumiy maqsadlarni aniqlashtirib olish, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida esa alohida o‘quv va tarbiyaviy imkoniyatlarni ochib berish muhim.

So‘nggi yillarda ko‘plab pedagogik tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ular negizida tanlov va muqobillik asosida yangi o‘quv darsliklari va metodik qo‘llanmalar yaratildi, ta’lim va tarbiya maqsadining xususiy-predmetli va umumiy-predmetlararo munosabatlari o‘rganildi.

Bu maqsadlar ikki o‘lchovda: 1) jarayonning borishi (o‘quv predmeti, dasturi) ni hisobga olish; 2) tashkiliy daraja (yosh davri) mohiyatini o‘rganish asosida aniqlashtirilganligini anglatadi. Asosiy e’tibor shaxs ta’limi va tarbiyasi maqsadlarining yaxlitligi, majmuaviyligiga erishishga qaratilishi zarur.

Yaxlitlik maqsadlarni rejalashtirishda tizim hosil qiluvchi belgi sanaladi. Maqsadlarning yaxlitlanishi muqobil maqsadlarni aniqlash uchun sharoit yaratilganligini

anglatadi. Yetakchi tarbiyaviy vositalarni belgilash, ularni predmetlar bo‘yicha alohida yosh bosqichlarida qo‘llash darajasini aniqlash dolzarb sanaladi.

UO‘TM rahbari faoliyatiga bu g‘oyani tatbiq etish maqsadni aniqlashning quyidagi yo‘nalishlarini belgilab beradi: 1) muassasaning tizim sifatidagi holatini inobatga olish; 2) pedagogik jamoaning o‘ziga hos jihatlarini nazarda tutish;

3) o‘quvchilarning muayyan kontingentiga tayanib ish ko‘rish; 4) o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga tayanib ish ko‘rish.

Maqsad mohiyatini yoritishdan avval “maqsad” tushunchasining g‘oyaviy ahamiyati va uning pedagogikada qo‘llanilishini aniqlab olish lozim. Bu o‘rinda quyidagi uch ahamiyatli jihat inobatga olinadi:

– maqsad inson faoliyatida kutilayotgan istiqbol natijaning ideal, subyektiv obrazi;

– maqsad ayni bir faoliyat natijasida aks etadi (u garchi ongda aks etsa-da, biroq natijaning obrazi sifatida namoyon bo‘lmaydi);

– maqsad barcha muhim omillarni ifodalovchi faoliyatning amaliy natijasi va ideal obrazidir, shuning uchun maqsadni tanlashda pedagogik jamoa va o‘qituvchining maqsadlari muayyan sharoitlarga mos kelishi muhimdir.

Bizning fikrimizcha, UO‘TM faoliyatini boshqarish maqsadlarining shakllanishida bir necha daraja ko‘zga tashlanadi. Ya’ni, pedagogik jamoa – o‘qituvchi – o‘quvchi – ota-onalarning ta’limiy maqsadlari. Ta’lim maqsadlarining bunday darajalarda qabul qilinishi kutilayotgan natijaga erishish imkoniyatini oshiradi.

UO‘TM maqsadni amalga oshirish, ta’lim maqsadlarining o‘zaro aloqadorligi hamda o‘qish motivlari O.E.Lebedevning ishlarida dolzarb muammolar sifatida tadqiq etilgan.

Muallifning fikricha, har qanday pedagogik faoliyat muayyan shaxsni shakllantirishga yo‘naltiriladi va u ta’lim muassasasi jamoasi oldiga jamiyat tomonidan qo‘yilgan ijtimoiy maqsad sanaladi. Bu maqsad pedagogik mezonlarda aks etuvchi barcha faoliyatning taxmin qilinayotgan natijalarini Strategik maqsadlarda aniqlashtiradi. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri ta’lim maqsadlari tarkibiy tuzilmasini aniqlashdan iborat. Bu o‘rinda quyidagi unsurlarni alohida ko‘rsatish mumkin:

1) o‘quvchilarni anglash faoliyatidan ijodiy faoliyatga o‘tishlariga imkon beruvchi usullardan foydalanish;

2) o‘quv materiali mazmunini o‘rganishda ijodiy yondashish.

Ta’lim jarayonining tarbiyaviy jihati o‘quvchilarni mustaqil faoliyat yuritishga o‘rgatish, o‘qituvchining yordamisiz anglash vazifalarini bajarishga intilish ko‘nikmalarini shakllantirishda ko‘zga tashlanadi.

Pedagogika fanida birinchi bo‘lib O.E.Lebedev ta’lim maqsadlari majmui hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikni o‘rganishga harakat qildi va buning natijasida “maqsadlar zanjiri” yoki “maqsadlar daraxti”ni asosladi. Unga ko‘ra bir darajadagi maqsadlarning o‘zaro aloqadorligi ta’lim davrida, muayyan predmet bo‘yicha darsdan darsga o‘sib boruvchi va predmetlar o‘rtasidagi munosabat aloqalari negizida aks etuvchi maqsadlarning rivojlanishida ko‘zga tashlanadi yoki ta’lim jarayonida muayyan maqsadlarni amalga oshirish bilan bir necha predmetlarning mazmunida aks etadi.

Tadqiqotda ta’lim maqsadlari: asosiy va xususiy (alohida) tarzda turlanadi. Asosiy maqsadlar sirasiga quyidagilar kiradi: umumiy o‘rta ta’lim bilimlarini shakllantirish; ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirish; ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; o‘quvchilarda ma’naviy-ahloqiy sifatlarni tarbiyalash; mehnat faoliyati motivlarini

shakllantirish; ijtimoiy faoliyat motivlarini shakllantirish; o‘quv, faoliyat, o‘quv predmetlari maqsadini shakllantirish.

Bizning fikrimizcha, bu kabi asosiy maqsadlar o‘z navbatida o‘quvchi shaxsining maqsadli faoliyatda subyekt sifatidagi ishtirokini ham qamrab oluvchi o‘quv hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga yondashuvni ham ifodalaydi. Shunga ko‘ra, ta’lim maqsadlarini umumiy ta’lim maqsadlarining tabiiy, o‘zaro harakati, shuningdek, muayyan fanlar mazmuni bilan bog‘liq tarbiya natijasi deya ifodalash mumkin.

Pedagog olimlar tarbiya maqsadlarini o‘quv fanlari mazmuniga sun’iy ravishda bog‘lash va har bir o‘quv materialini o‘rganishda ta’limning barcha maqsadlarini amalga oshirishga urinish kabi harakatlarning tashkil etilishiga keskin qarshilar. Zero, bu holat rasmiyatchilikka olib keladi va o‘quv-tarbiya jarayonida ko‘plab salbiy hodisalarni yuzaga keltiradi, ahloqan yetuk bo‘lmagan shaxsni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Demak, ta’lim maqsadlari muayyan tizimni ifodalaydi, pedagogik mezonlar va tushunchalar – bilim, ko‘nikma, malaka, atrof-muhitga munosabat, g‘oyalar, dunyoqarash va o‘quvchi shaxsining ularga muvofiq keluvchi sifatlari esa uning unsurlari sifatida aks etadi. Mavjud faoliyat obyektlarini tasniflash malakasi – ta’lim tizimida keng yoyilgan malakalardan biri, uning shakllanishi vazifaviy, faoliyat tizimini aniqlovchi bilimlar bilan bog‘liq.

Maqsad mazmuni va metodlarini belgilashning pedagogik faoliyatga ko‘rsatuvchi ta’siri maqsad va pedagogik faoliyat o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishning natijasi sifatida e’tirof etiladi. Ikki tomonlama aloqa uni amalga oshirish vositasi bo‘lishi lozim. Mavjud pedagogik holatlar faoliyat natijalarini baholashga bo‘lgan yondashuvlar mazmunini o‘zgartirish lozimligidan dalolat beradi. Ya’ni pedagogik o‘zgarishlarning markazida o‘qituvchining ta’siri yo‘naltirilgan, tarbiya obyekti bo‘lgan shaxs, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari va ideallari yotishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 23-b

2. Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2007. 26-b.

3. Лазарев В.С. Руководство педагогическим коллективом: модели и методы. – М.: Педагогика, 1995. С. 158.

4. Лебедев О.Е. Реализация целей общего среднего образования. Проблемы структуры. – М.: Педагогика, 1984. – С. 264.

5. Лизинский В.М. Психолого-педагогический и управленческий дневник директора школы. – М.: Педагогический поиск, 1997. – С. 64.

6. Internet resurslari: Общественные науки в Узбекистане https://core.ac.uk/download/162464783.pdf

Shokir OCHILOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

O'QUVCHILARGA SERVIZ XIZMATI YO'NALISHINI FANLARARO O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada andragogik yondashuv asosida kattalar ta'limining adaptiv tizimini takomillashtirish Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari Texnologiya fani "Serviz xizmati yo'nalishi"ni fanlararo o'qitishda o'quvchilarga o'ziq-ovqatlarga ishlov berish texnologiyalari, taom tayyorlashning turlari, qaynatib pishirish, bug' holatda pishirish, qovurib pishirishda ularning oziqaviy qiymatlari foydali va zararli jihatlarini tushuntirishdan iborat.

Kalit so'zlar. Serviz xizmati, fanlararo aloqadorlik, oziq-ovqat, kimyoviy jarayon, bug'lanish, qaynash, qovurish, jismoniy mashq, oziqaviy qiymati, salomatlik, kartoshka.

В данной статье в междисциплинарная образования общеобразовательных средних школ технологического направления "Сервис-сервисной направление" учащихся, изучаются технологии обработки пищевых продуктов. Виды приготовления пищи, варка, приготовление на пару, жарка, их пищевая ценность, объясняется их полезная и вредная стороны.

Ключевые слова. Обслуживание, междисциплинарное, питание, химический процесс, приготовление на пару, варка, жарка, физические упражнения, пищевая ценность, здоровье, картофель.

In this article, as part of the interdisciplinary education of secondary schools in the technological direction "Service-Service Direction," students study food processing technologies, types of food preparation, cooking, steaming and frying, their nutritional value, and an explanation of their beneficial and harmful aspects.

Key words. Service, interdisciplinarity, nutrition, chemical process, steaming, boiling, frying, exercise, nutritional value, health, potatoes.

Ilmiy texnika taraqqiyotiga tayangan inson faoliyati atrof-muhitga katta ta'sir qilayotgan bir sharoitda tabiat qonunlarini yaxshi bilib, unda kelajakni oldindan ko'ra bilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Inson faoliyatining tabiatga ta'siri natijasida tuzatib bo'lmaydigan falokatlar keltirmasligi uchun uning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish zarur. Buning uchun esa tabiat va uning doimiy qonunlari to'g'risida atroflicha tushunchaga ega bo'lib, uni amaliyotda sinab, qo'llay bilish kerak, hamda tabiat va uning qonuniyatlari to'g'risida aniq bilimga ega bo'lish zarur.

STEAM ta'limiy yondashuvi o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o'quvchida qiziquvchanlikni rivojlantiradi.

Maktab texnologik ta'limi jarayonida yuqori sinf o'quvchilariga Serviz xizmati yo'nalishida, oziq-ovqat mahsulotlari (go'sht, kartoshka, sabzi, va h.z.) mahsulotlaridan turli xil taomlar tayyorlash, meva va sabzavotlarni va poliz ekinlarini uzoq muddatga sifatli saqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

O'quvchilarga oziq-ovqat mahsulotlari ionlashtiruvchi nurlanish yordamida qayta ishlanib, ularning sifati va oziqaviy qiymatini saqlash jarayonini tushuntirishda fanlararo bog'lanish asosida o'qitsih zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Kimyo fanida turli xil zararli zamburug', sporalar va bakteriya, parazit va hashoratlarni yo'q qiluvchi kimyoviy moddalar o'rganililadi.

Fizika fanida ionlashtiruvchi nurlabishlar, qisqa to'lqinli radiatsiyaviy nurlantirishlar,


gamma, rentgen va ultrabinafsha nurlar, temperatura, bosim, konveksiya, qaynash, bug‘lanish, kondensatsiya, nisbiy namlik o‘rganadi.

Jismoniy tarbiya fanida kishining ovqatlanishdan oldin va ovqatlanishda keyin qaysi mashqni qachon bajarishi kerakligi o‘rganiladi.

Bugungi kunda tabiatda iqlimning o‘zgarishi nafaqat inson salomatligiga, balki butun tabiatda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga ham salbiy ta’sirlarini ko‘rsatmoqda. Havo harorati ko‘tarilishi yoki pasayishi havodagi namlikning ortishiga yoki kamayishiga olib keladi. Bu esa yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarida turli xil kasalliklar ya’ni zararli zamburug‘ sporalari, bakteriyalar, parazit va hashoratlarning ko‘payishiga olib keldi. Meva sabzavot, poliz ekinlarini o‘z vaqtida tabiiy va kimyoviy usullar bilan o‘g‘itlash yoki oziqlantirish ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umumta’lim maktablari 7-sinf Texnologiya fani “Serviz xizmati yo‘nalishida “Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibi”, “Taom tayyorlashning xavfsizlik texnikasi va sanitariya gigiena qoidalari” mavzulari STEAM ta’lim dasturi asosida o‘qitishda kundalik faoliyatimizda iste’mol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarimizning sifati, oziqaviy qiymati va ovqatlanish madaniyatlarini zamon talablari asosida o‘qitish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Yuqorida keltirilgan muammolarni o‘rganish, tahlil etish va har tomonlama asoslangan yechimga kelish mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda to‘g‘ri yondashuvni tanlashga imkon beradi.



1-rasm. **Serviz xizmati yo‘nalishini o‘qitishda o‘quvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasining tanlash modeli.**

Ushbu modeldagi birinchi o‘ziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasini o‘quvchilarga o‘qitishda mahsulotlarining yetishtirish, tayyor bo‘lgan mahsulotlarni tashish va saqlash vaqtida sifatini yo‘qotish holatlari ko‘zatilmoqda. Bu, mahsulotlarning sifatsizligiga va oziqaviy qiymatinining kamayishiga olib kelmoqda.

Mahsulotlarning foydali xususiyatlari va salomatlik uchun xavfsizligini kafolatlagan holda, ularni saqlash muddatini ikki, uch, hatto, o‘n barobarga uzaytirish mumkinmi degan savol paydo bo‘ladi. Ko‘plab davlatlarda, allaqachon, mahsulotlarni uzoq vaqt saqlashda kimyoviy yoki muzlatish usullaridan ancha samarali, xavfsiz va zamonaviy bo‘lgan tinch atom texnologiyalaridan foydalanmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari ionlashtiruvchi nurlanish yordamida

qayta ishlanib, ularning tarkibidagi tez chirishiga sabab bo‘luvchi zararli zamburug‘ sporalari, bakteriya koloniyalari, parazit va hashoratlar 99 foizgacha yo‘q qilinadi. Bu mahsulotlarning ta’mi va xushbo‘yligini o‘zgartirmagan holda saqlash muddatini bir necha bor oshirish imkonini beradi.

Tabiatlardagi bug‘lanishlarning foydali va zararli tamonlarini STEAM ta’limiy yondashuv asosida texnologiya fanida qo‘llay olish, ta’lim manbalari va ulardan foydalanishning uslubiy jihatlarini “Serviz xizmati” yo‘nalishida oziq –ovqat taomlarini bug‘lab, qovurib, qaynatib pishirish jarayonlari batafsil bayon qilish ta’lim samaradorligini ancha oshiradi.

Bug‘da tayyorlash – bug‘lash odatda qaynoq suvga solingan oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash jarayonidir. Bunday usullar mantiqasqon yoki bug‘da pishirishdan foydalanish mumkin. Bug‘da pishirishda mahsulotlarning foydali xususiyatlari va vitaminlar saqlanib qolinadi.

Qaynatish usuli – hammaga ma’lum, qulay va oson bo‘lgan usullardan biridir. Bu usulda mahsulotlar suv to‘ldirilgan qozongan solinadi va pishguncha qaynatiladi. Qaynatish jarayonida suz ustidagi ko‘piklar va yog‘lar olib tashlanib turulsa ovqatimiz tiniq va mazzali bo‘lib pishadi.

Qovurush usuli – oziq-ovqat mahsulotlarini tashqi qismi qizarishi uchun kam vaqt ichida yuqori bo‘lgan temperaturada tayyorlash jarayoni.

Mamlakatimizda hozir kunda kartoshka eng ko‘p iste’mol qilinmoqda. Kartoshkani bug‘lash, qovurish, qaynatish yo‘llari orqali tayyorlash mumkin. Kartoshkalar tarkibida 80 kilokaloriya, 2 gramm oqsil, 0,4 gramm yog‘ 18,1 gramm karbonhidrat mavjud.

Qaynatilgan kartoshkalar tarkibi inson tana a’zolari uchun foydali bo‘lgan moddalarga juda boy. 100 gramm qaynatilga kartoshkada taxminan 80 kaloriya, 15 gramm uglevodlar, 1,5 gramm oqsil va faqat 0,1 gramm yog‘ bo‘ladi.

Oziqlanish qiymatlari bilan umumiy taomlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

– kartoshka pirogi 100 gramm uchun taxminan 200 kilokaloriyani o‘z ichiga oladi;

– kartoshka bilan qovurilgan piroglar - allaqachon 250 kilokaloriya;

– go‘sht bilan qovurilgan – 130 kilokaloriyadan ortiq;

– bir tomchi o‘simlik yog‘i bilan qo‘ziqorin bilan qovurilgan – 120 kilo-kaloriyadan ortiq;

Eng mazzali ovqatlar kabi qovurilgan kartoshka ham zararli hisoblanadi. Kartoshkaning qovurilishi natijasida uning tarkibidagi vitaminlar va boshqa foydali elementlar yo‘qoladi. Kartoshka yog‘ bilan to‘yinishi natijasida tarkibida kalorya miqdori kamayadi. 100 gramm qovurilgan kartoshka tarkibida uglerod miqdori 24 grammni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatgichda diabetga chalingan insonlar qovurilgan kartoshka iste’mol qilishi taqiqlanadi. Yuqori qon bosimi bo‘lgan bemorlarda kartoshkani ko‘p miqdorda iste’mol qilish holati kuzatiladi.

Bugungi kunda inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri-bu noto‘g‘ri ovqatlanishdir. Texnologiya fani “Servis xizmati yo‘nalishi”da o‘quvchilarni fanlalaro aloqadorlikda taom tayyorlash sirlarini o‘qitish bilan birga ushbu taomning oziqaviy qiymati (kaloriyasi)ni tushuntirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuqorida ko‘rsatilgan mavzularni o‘qitishda yoki uy ishi vazifalarini bajarishda kunlik ovqatlanish grafigini ishlab chiqish. Ushbu grafik asosida yosh bolalarga, o‘rta yoshli kishilarga hamda yoshi katta kishilarning bir kunlik ovqatlanishi ertalabki, peshingi va kechki dasturxonni tuzash va taomlarni va kunlik oziqaviy qiymati (kiloriya)larini hisobga olgan holda tanavvul qilish madaniyati va ovqatlarni hazm qilishni jismoniy mashlarni bajarish funksiyalarini o‘rgatish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov Sh.B. Forning students ekologikal competence physics lessons // J. Eastern european scientific. – Germany, ausgabe, №6. 2018. –p 134-138.

2. Ochilov Sh. B. Improving the methodology for the development of environmental competencies of students in the interdisciplinary teaching of physics //J. Acadecia An International Multidisciplianary Reserd. №10 -2021. –p. 1269-1273.

3. Eshniyozov O.E., Bobomirzayev P.X., Bobokulov Z.R., Ochilov Sh.B. Qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil etish texnologiyasi // O‘quv qo‘llanma. –Samarqand. SamDU nashriyoti. -2021. 250 b.

Alisher OTAQULOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

SHAXS SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH – MUHIM IJTIMOIY PEDAGOGIK VAZIFA SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada shaxs sotsiolingvistik kompetensiyalar mazmuni va uning tarkibiy qismlari haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga sotsiolingvistik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini to'g'ri tashkil etishning pedagogik shartlar, pedagogning vazifalar va talabalarda sotsiolingvistik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining natijalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Shaxs, sotsiolingvistik kompetensiya, ijtimoiy muhit, talaba, pedagogik shart, ijtimoiy ong, ijtimoiy faoliyat, lingvistik kompetensiya.

В статье анализируются сведения о содержании социолингвистической компетенции личности и ее компонентах. А также описываются педагогические условия правильной организации процесса формирования социолингвистических компетенций, задачи педагога и результаты процесса формирования социолингвистических компетенций студентов.

Ключевые слова. Личность, социолингвистическая компетентность, социальная среда, студент, педагогические условия, общественное сознание, социальная активность, лингвистическа компетентность.

The article analyzes information about the content of a person's sociolinguistic competence and its components. It also describes the pedagogical conditions for the correct organization of the process of forming sociolinguistic competencies, the tasks of the teacher and the results of the process of forming sociolinguistic competencies of students.

Key words. Personality, sociolinguistic competence, social environment, student, pedagogical conditions, social consciousness, social activity, linguistic competence.

Bugungi kunda yurtimizda kattalar ta'limini rivojlantirish, kattalar uchun qo'shimcha ta'limning mavjud tashkiliy shakllarini tushunish, tartibga solish, uslubiy asoslar va ilmiy-metodik vositalarni ishlab chiqish eng dolzarb masalalardan biri Shaxs ijtimoiy kompetensiyalari uning jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Shu bilan birga jamiyatdagi turli jarayonlar, munosabatlar, shaxs ijtimoiy faoliyati uning ma'naviyatida o'z aksini topadi. Demak, insonning sotsiolingvistik kompetensiyalari uning til sohasiga doir bilimlari va ushbu bilimlardan foydalanish orqali o'zlashtirgan ijtimoiy ko'nikmalari, tajribalarini o'z ichiga oladi.

Sotsiolingvistik kompetensiyalar quyidagi insoniy fazilatlarni o'z ichiga qamrab olishi bir qator tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlab ko'rsatilgan:

- til o'rganishga bo'lgan qiziqish va tilga hurmat;
- suhbatdoshiga nisbatan hurmat;
- suhbatdoshiga nisabatan empatiya;
- ixtimoiy sezgirlik;
- dilkashlik;
- ijtimoiy faollik;
- mustaqillik;
- ochiqko'ngillilik;

• ijodkorlik;
• tafakkur tezligi.

Ayrim sotsiolog olimlar tadqiqotlarida shaxs ijtimoiy faolligining muhim ikki aspekti haqida to‘xtaladilar. Ya’ni ijtimoiy faollikning hamkorlik hamda avtonomlik aspektlari. Hamkorlik shaxsning ijtimoiy faoliyatida jamoa a’zolari bilan hamkorlikka kirishishida ifodalansa, avtonomlik ijtimoiy faoliyat davomida o‘z pozitsiyasini qat’iy himoya qila bilishida o‘z aksini topadi.

Ijtimoiy muhitda shaxs faolligi, uning yo‘nalishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, shaxs faollik zonalaridagi yondashuvlar turlicha talqin etiladi. Masalan, aynan shaxsiy zona uchun maqbul bo‘lgan faoliyat shakli va mazmuni kasbiy zona uchun nomaqbul hisoblanashi mumkin. Yoki kasbiy zona uchun qulay yondashuvlar boshqa ijtimoiy zonalardagi faoliyat tarziga mos bo‘lmasligi mumkin. O‘z navbatida har doim ham kasbiy va ijtimoiy zonalardagi qarashlar shaxsiy zonaga muvofiq kelavermaydi. Demak, sotsiolingvistik kompetensiyalar ham turli zonalardagi muloqot hamkorlar uchun turli tavsifda amalga oshiriladi. Masalan, menejerlar, liderlar, bo‘ysunuvchilar, hamkasblar, hamkorlar bilan kechadi muloqot shakllar va mazmuni bir-biridan farqlanadi.

Sotsiolingvistik kompetensiyalar shaxsiy motivatsiya va individual tavsifdagi tajribalar sifatida alohida tarzda rivojlanmasdan, uning rivojlanishi uchun albatta nutqiy ko‘nikmalar hamda ijtimoiy muhit talab etiladi. Ya’ni ijtimoiy muhit kommunikativ jarayonning faol kechishi sotsiolingvistik kompetensiyalar tarkib topishi va rivojlanishi uchun muhim o‘rin tutadi.

Shaxs ijtimoiy-kommunikativ modelini o‘rganib chiqqan olim D.Eyler inson xulq-atvorining 6 toifasini ajratib ko‘rsatadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Turli hissiy kechinmalarni kasbiy yoki shaxsiy darajada verbal va noverbal ifodalash.
2. Muloqot jarayonida fikrni to‘g‘ri talqin etish.
3. Metakommunikativ kompetensiyalarni tavsiflash.
4. Kommunikativ jarayonda o‘ta sezgirlik.
5. Muloqot vaziyatini tahlil qila bilish.
6. Turli vaziyatlar, muloqot natijalarining tahlilidan to‘g‘ri foydalana bilish.

Tahlillar jarayonida sotsiolingvistik kompetensiyalarning strukturaviy elementlari sifatida quyidagi komponentlarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

– birinchi komponenti: ijtimoiy muhitni to‘g‘ri baholay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish. Ya’ni har bir inson o‘zini o‘rab turgan olamda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va psixologik holatni kuzata bilish, tahlil qila bilish va to‘g‘ri baholay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

– ikkinchi komponent: atrofidagi insonlar bilan kommunikativ jarayonlarni to‘g‘ri baholay bilish. Buning uchun har bir inson o‘zini o‘rab turgan insonlar bilan muloqot jarayonini to‘g‘ri baholay olishi, insonlarning o‘ziga bo‘lgan munosabatini obyektiv baholashi hamda kommunikativ jarayonni maqsadga muvofiq tashkil etish yo‘llarini o‘zlashtira bilishi ham talab etiladi.

– uchinchi komponent: muayyan subyektlar bilan muloqot qilish, maqsadli muloqotni tashkil eta bilish,empativ ko‘nikmalarga ega bo‘lish, suhbatdoshi e’tiborini torta bilish,, jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘la olish;

– to‘rtinchi komponent: shaxsning individual xususiyatlari, ya’ni ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyaning mavjudligi, subyektning tashkilotchilik, qt’iylik, ijodkorlik, faollik, maqsadlilik, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish, qiziquvchanlik, xushmuomalalik,

kuzatuvchanlik, prinsipiallik, hamkorlik qilishga tayyorlik, halollik va odoblilik kabi individual xususiyatlarga egalik. Ushbu sifatlar bilan birga mustaqillik, qat’iylik, mas’uliyatlilik va o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch kabilar ham muhim hisoblanadi;

beshinchi komponent: konstruktiv kompetensiyaga egalik. Ushbu kompetensiya o‘z tarkibiga insonlar bilan muloqot jarayonini to‘g‘ri tashkil eta olish, faoliyat jarayonini rejalashtirish va ushbu rejaga muvofiq faoliyatni tashkil etish, jamoani va uning faoliyatini tashkil etishda faol ishtirok eta olish, kommunikativ jarayonni to‘g‘ri tashkil eta bilish, nutqni maqsadga muvofiq va leksik meyorlar asosida qura bilish kabilar kiradi.

Sotsiolingvistik kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni quyidagi pedagogik shartlarga amali qilib tashkil etilgandagina samarali bo‘ladi:

birinchi shart: o‘qituvchi va ota-onalar talabalar ongini rivojlantirishga, hayoti davomida mas’uliyatli tanlov qilishga, fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodiy faoliyat yuritish, mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlasalar va zaruriy imkoniyat yaratib berilishi;

ikkinchi shart: talabalarning dars va darsdan tashqari vaqtlarini qulay ijtimoiy muhitda amalga oshirishlari uchun zaruriy shart-sharoit mavjud bo‘lishi;

uchinchi shart: ta’lim jarayonini zaruriy va qulay texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilishi;

to‘rtinchi shart: ta’lim va tarbiya jarayonining talabalar individual va yosh psixologik xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi;

beshinchi shart: talabalarning ijtimoiy hayoti yuksak emotsional tuyg‘ularni tarkib toptirishga qaratilishi;

oltinchi shart: psixologik ta’sir, kuzatish, diagnostik va korreksion jarayonlar maqsadga muvofiq tashkil etilishi.

Talabalar jamoasi orqali har bir a’zoda sotsiolingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda o‘qituvchi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

birinchidan, jamoada qulay psixologik muhitni yaratish, ularning o‘zaro va kattalar bilan samarali o‘zaro munosabatlarini tashkil etish;

ikkinchidan, tengdoshlarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatlarini shakllantirish, muloqot qobiliyatini rivojlantirish;

uchinchidan, hissiy o‘z-o‘zini boshqarish uchun zaruriy shart-sharoit yaratish va talabalarni o‘z-o‘zini tarbiyalash, his-tuyg‘ularini anglash va boshqarishga tayyorlash;

to‘rtinchidan, til birliklaridan o‘zaro muloqot jarayonini takomillashtirishda samarali foydalana bilish, ijobiy ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirishda to‘g‘ri foydalana bilishga o‘rgatish.

Talabalarda ta’lim-tarbiya jarayonida sotsiolingvistik kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni kelajakda ularning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari va samarali ijtimoiy faoliyat yuritishlari uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurullaeva Sh.U. Pedagogik mahorat va kompetentlik: mazmuni, shakllantirish metodikasi va rivojlantirish yo‘llari // Pedagogik mahorat. ¹ 1. 2021. B. 19-22.

2. Rajabova L. Integrativ-differensial yondashuv asosida bo‘lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o‘qitish metodikasi // Mug‘allim hyem uzluksiz bilimlendirio‘. ¹ 4. -2021. B. 67-70.

3. Селевко Г.К. Компетентности и их классификация //Народное образование. №4. 2005. С. 138-144.

Mirshohid MURODOV,
O'zbekiston-Finlandiya
Pedagogika instituti dotsenti

MUSIQA TA'LIMIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI AMALGA OSHIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Musiqa ta'limida fanlararo integratsiya imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish ta'lim-tarbiya mazmunini boyitish, uning samaradorligini ta'minlashning didaktik omillari haqida fikr yuritilgan.
Kalit so'zlar. Integratsiya, musiqa ta'limi, tarbiya, samaradorlik, didaktik omil, bilim, ko'nikma, malaka.

Правильное использование возможностей межпредметной интеграции в музыкальном образовании, является дидактическим фактором обогащение содержания образования и обеспечение его эффективности.
Ключевые слова. Интеграция, музыкальное образование, воспитание, эффективность, дидактический фактор, знание, умение опыт.

Correct use of the possibilities of interdisciplinary integration in music education is a didactic factor in enriching the content of education and ensuring its effectiveness.
Key words. Integration, music education, education, effectiveness, didactic factor, knowledge, skill, experience.

Umumta'lim maktablarida o'tiladigan "musiqa madaniyati darslarining tashkiliy tuzilishi o'quvchilarni passiv ishtirokchi sifatida emas, bevosita ta'limiy vazifalarni bajaruvchi faol ishtirokchilar sifatida qatnashishi hamda mashg'ulotlarni tabiiy ravishda bir necha fanlar negizida olib borilishi taqozo etadi. Darslarni dastur talablari darajasida o'tilishini ta'minlash uchun o'qituvchining musiqa san'atining bir necha yo'nalishlari bo'yicha olgan bilm, malakalari va kasbiy tayyorgarligi, tajribasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ham har qanday musiqachi yoki musiqa bo'yicha "tor" mutaxassislikka ega bo'lgan "nopedagoglar" musiqa darslarini metodik va pedagogik jihatdan to'g'ri o'tolmasliklari tabiiy holdir.

Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limining poydevori qo'yiladi, ya'ni bu davrda o'quvchilar musiqiy va musiqiy nazariy bilmlar bo'yicha umumiy tushuncha va ma'lumotlarni egallaydilar. Chunki, umuta'lim maktablaridagi musiqa ta'limi "musiqachi" tayyorlshni ko'zda tutmaydi. Yetti yillik tahsil davomida o'quvchilar musiqa nazariyasi bo'yicha eng zarur, elementar qoidalarni o'zlashtiradilar, musiqa san'atining turli janr va uslublarda yozilgan, turli xarakter, ijrochilik an'analariga mansub kuy qo'shiqlar , mumtoz va maqom asarlarini, shuningdek, zamonaviy kompozitorlar, qardosh xalqlar va chet el musiqasiga mansub namunalar, jahon musiqa san'atining eng buyuk namoyondalari ijodi va faoliyati bilan qisman bo'lsada tanishadilar. Bu faoliyatda ularning musiqiy madaniyati bilan birgalikda musiqiy tafakkuri, dunyoqarashi, axloqiy va estetik kamoloti shakllanadi. Aynan mana shu jarayonda ta'limning sifati, uni qiziqarli va metodik jihatdan rang-barangligi, ilg'or pedagogik texnologiyalar tadbiq etilgan hamda fanlararo aloqadorlik imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda tashkil eti-

lishi uning mazmunini yanada boyuitishga olib keladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar bolalar dunyosiga mos qo‘shiqlar o‘rganadilar, o‘yin-raqs kuylari bilan tanishadilar, amaliy ijrochilikning ilk ko‘nikmalarini egallaydilar. O‘quvchilarni musiqani sehrli olamiga olib kirish musiqa san’atining olam, inson, turli mavjudotlar, tabiatni tasvirlashdagi keng imkonmiyatlari bilan tanishtirish bosh maqsad hisoblanadi. Musiqa darslarida o‘rganiladigan kuy-qo‘shiqlar repurtuari biz yashayotgan olamning barcha jihatlarini qamrab olgan desak also xato bo‘lmaydi. Unda insonning ruhiy kechinmalari, obod turmush, farovon kelajak haqidagi orzu- umidlari aks etgan qo‘shiqlar bilan birga, jamiyat va tabiat hodisalari, manzaralari, ko‘rinishlari, hayvonot va nabotot olami, ularga hos xususiyatlar, shuningdek yuksak insoniy tuyg‘ular, fazilatlar aks etgan asarlarga keng o‘rin berilgan. Umumta’lim maktablarining musiqa fani dasturiga kiritilgan asarlarning mavzu va mazmuni, nazariy va adabiy, tarixiy ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tinglash, kuylash uchun tavsiya etilgan asarlar ko‘lami juda keng. Bu esa, o‘z navbatida sinf dasturini bir muncha qisqartirgan holda amalga oshirilishiga olib keladi. Dars soatlari va mavzular doirasining kengligi o‘qituvchi tomonidan darslarini tezlashtirib o‘tish metodidan foydalangan holda, har bir darsni rejalashtirishda faoliyatlarini va ularda amalga oshiriladigan tarbiyaviy vazifalarni aniq hisobga olishi lozimligini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda:

1.Fanlararo aloqa metodiga tayangan holda boshqa fanlarga oid bilm va tushun–chalardan o‘z o‘rnida va unumli foydalanish, masalan, qo‘shiq matnini o‘rganishda ona tili, chiroyli yozuv, badiy ifodali o‘qish imkoniyatlaridan, nota yozuvlarini o‘zlashtirishda tasviriy san’at, folklor asarlarini tinglash va kuylash jarayonida adabiyot, folklorshunoslik manbalariga murojaat qilish mumkin.

2. Musiqiy qobilyatlarni o‘stirish, bunda musiqani eshitish, ritmni his qilish, diqqatni bir nuqtaga jamlash, eslab qolish (xotira), o‘quvchilarni yosh va induvidial qobilyat va xususiyatlariga ko‘ra ish tutish lozim bo‘ladi.

3.Musiqiy nazariy bilmlarni o‘zlashtirish, musiqa savodiga oid bilm va tushunchalarni, asarini tinglash va tahlil qilish, vokal-xor malakalrini e’gallash;

4.Musiqa janrlariga tavsif bera olish, kuy va uning tuzilishi haqida tushunchaga ega bo‘lish;

Amaldagi dasturga muvofiq qo‘shiq kuylash va musiqa tinglash jarayonida musiqa savodidan uning lad-tonalligini (major yoki minor), o‘lchovini, ritmini, xarakterini aniqlash, qo‘shiq kuylashda ovozni sozlash (vokal-xor), qo‘shiqni badiiy-g‘oyaviy mazmunini anglagan holda ifodali (ona-tili, adabiyot, musiqa tarixi) kuylash, amaliy faoliyatlarda olib boriladi. O‘zbek xalq kuy va qo‘shiq namunalarini tinglash va o‘rganishda “O‘zbek xalq musiqasi” o‘quv filmidan foydalanish, sinf fonotekasidan namunalar tinglash, tahliliy suhbat o‘tkazish, bu jarayonda savol- javob munozaralarga keng o‘rin berish mumkin. Ayniqsa, adabiyot darsida o‘rganiladigan folklor mavzuiga bog‘lab o‘zbek xalq musiqasi uning ajralmas qismi ekanligini tushuntirish o‘quvchilarga kengroq bilm va tushuncha olish imkonini beradi. Qardosh xalqlar musiqa san’ati bilan tanishtirish jarayonida ulardagi mushtarak jihatlarning o‘zaro yaqin aloqadorligi xususiyatlariga to‘xtalib o‘tish yaxshi natija beradi. Masalan, 6-sinfda III-chorak mavzusi “Sharq xalqlari mumtoz musiqasi ” deb nomlanadi va chorak davomida o‘quvchilar qadim-qadimdan bir-birlariga yaqin tarixiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqada bo‘lib kelgan arab, turk, ozarbayjon, turkman, eron, xitoy, yapon, hind, qozoq, qirg‘iz, tojik xalqlari musiqa madaniyati haqida umumiy bo‘lsada bilm va tushunchalarni o‘zlashtiradilar. Bu mavzudagi darslarni o‘tish davomida sharq xalqlari musiqa madaniyati (maqom, mugom, mug‘am,raga), cholg‘u sozlari (rubob, setor, ud, arfa, ud, nay, qo‘buz, qobuz, g‘ijjak va hokazo)ning nomlanishi, qurilishi, tovush sadosidagi o‘xshashliklar, raqslar, milliy kiyimlardagi mushtarak jihatlarga alohida


to‘xtalish kerak bo‘ladi.

7-sinfda “O‘zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari” Qashqadaryo-Surxandaryo, Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llari, Xorazm maqomlariga oid mavzular o‘rganiladiki, “Shashmaqom” ga oid tushunchalarni berishda bu o‘lmas san’at tojik va o‘zbek xalqlarining azaliy madaniy-musiqiy hamkorligining ramzi ekanligi, ulardagi cholg‘ularni ham bir xil o‘xshashlikda, ko‘plab xalq qo‘shiqlarini ikki tilda, bir ohangda aytilishi (kki tillilik) xususiyatlarini tushuntirishi bolalarda baynalminallik his-tuyg‘ularini shakllanishida ham ijobiy ahamiyat kasb etadi. Bizga ma’lumki, adabiy matnga asoslangan qo‘shiqchilik janrlari adabiyot fanida ham keng o‘rganiladi. Masalan, qo‘shiq, alla, yalla, lapar, mavsum, ma’rosim qo‘shiqlari, ayniqsa dostonchilik ijodiyoti folklorshunoslik yo‘nalishida juda keng o‘rganilgan. Folklorshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot va o‘quv uslubiy manbalarda ushbu janrlar adabiy janrlar sifatida o‘rganilgan, ularning, yirik ijrochilik, an’anaviylik xususiyatlari, ijro uslublari, janr mohiyati atroflicha yoritilib berilgan. Zikr etilgan janrlarning o‘xshashlik va farqli jihatlari, har bir hududiy vohaga oid mahalliy aholining etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘rganilgan. Shunday ekan, musiqa madaniyati darslarining sinflar bo‘yicha har bir yillik, chorak mavzulari asosida darslarni tashkil etish, o‘qitishda o‘qituvchi darslikda berilgan o‘quv materiallarini sinchiklab o‘rganib chiqishi va ularni o‘quvchilarga etkazishda qanday usul va vositalardan foydalanish, qaysi fanga oid qo‘shimcha ma’lumotlar dars mazmundorligi, qiziqarliligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkinligini va ulardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlab olishi lozim bo‘ladi. Bunda :

– darslikdagi o‘quv materiallarining (nazariy, amaliy) o‘zaro bog‘lanish nuqtalarini belgilab olishi;

– fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning faol yo‘l, usul, vositalarini tanlash va dars jarayonida mohirona foydalanishi;

– darslikdagi o‘quv materiallari mazmunida o‘rganiladigan bilm, ko‘nikma va malakalar darsning bosh mavzusiga yo‘naltirilgan, qolgan yordamchi materiallar uni to‘ldirish, o‘quvchilarni umumiy musiqiy dunyoqarashi, tafakkurlarini kengaytirishga xizmat qilishi lozim. Musiqa madaniyati esa shaxsning madaniy, ma’naviy kamoloti darajasini tekshirish bir qator komponentlar uyg‘unligini taqozo etadi. Buni qo‘ydagicha izohlash mumkin:



Bunday bilm va malakalarga ega bo‘lgan shaxsda o‘z-o‘zidan ma’naviy barkamollikning eng oily ko‘rinishlari qaror topadi. Shunday ekan:

– darslarni fanlararo aloqadorlikda tashkil etishda turli fanlarga oid bilm, tushuncha, ma’lumotlar, misollar, o‘xshatishlar, iqtiboslar mavzu mazmuniga mos, uni yanada mazmunli, tushunarli, kengroq ko‘lamda tushunilishiga xizmat qilsin;

– fanlarga tegishli ma’lumotlardan foydalanish shunday moslashtirilishi kerakki, ulardan birini o‘rganish, ikkinchisini o‘rganishga ko‘maklashishi;

– umimiy tushuncha, ko‘nikma va malakalrni shakllantirishga bir xil yondashishni amalga oshirish;– musiqiy, musiqiy nazariy bilmlarni o‘zlashtirishda boshqa (ona tili, adabiyot, tarix, matematika, fizika, pedagogika, psixologiy kabi) fanlar bo‘yicha ham bilmlarni mustahkamlash;

– musiqa faniga oid bilm, ko‘nikma va malakalrni egallashda boshqa fanlarga oid bilm, ko‘nikmalardan foydalanaolish;

– darsda o‘quv fanlariaro mavzuga daxldor muammolarni o‘rtaga tashlash va o‘quvchilar tomonidan mustaqil hal qilinishga erishish;

– oddiydan murakkabiga tamoyili asosida muammoli o‘qitishga e’tiborni kuchaytirish.

Mutaxassis o‘qituvchi fanlarni bog‘liqlik darajasi, imkoniyatiga ko‘ra ular bo‘yicha kerakli bilm va tushunchalarga ega bo‘lishligi talab etiladi. Musiqa fanlarini o‘qitishda matematika, tarix, falsafa, mantiq, ona tili va adabiyot, jismoniy madaniyat kabi fanlarga tabiiy ravishda ko‘proq murojaat qilinadi. Bu esa musiqa o‘qituvchilarini ushbu fanlar taraqqiyotida sodir bo‘layotgan o‘zgarish va yangiliklardan doimiy ravishda xabardor bo‘lish va o‘z bilmlarini oshirib borishlari zarurligini ko‘rsatadi.

Maktab ta’limida musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning ta’lim mazmunini boyitishga qo‘shadigan hissasi ijtimoiy, tabiiy, texnik va amaliy bilmlarning birlashishini yaqqol ifodalagan va har bir fanning zamonaviy yutuqlari, rivojlanish darajasi va ushbu fanlar bo‘yicha o‘qituvchining qay darajada bilmlar zahirasiga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алибекова Р. И. Методические рекомендатсии. Русская словестност Отслова к словестности. 2-э издмстереотип. – М.: Дрофа,-58 стр,

2. Qudratov I.,Abdukarimova E. Musiqa ta’limida fanlararo aloqadorlik. Uslubiyqo‘llanma, Samarqand, 2015 y.

3. Soipova D.Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. –T.: Fan va texnologiyalar. 2009-yil.

4. Qudratov I. Musiqa ta’limida fanlar integratsiyasi. Samarqand chet tillar instituti nashriyoti, 2023-yil.

Jasurbek ISAKOV,
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti,
"Arxitektura va qurilish" kafedrasi v.b professori

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING BOSHQARUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK MAHORAT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv jarayonini takomillashtirishda metodik g'oyalar yoritilgan. Shuningdek, Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti, o'quvchi, metod, pedagog, ko'nikma, strategiya, faolik.

В статье освещаются методические идеи по совершенствованию управленческого процесса общеобразовательных школ. Также изложена эффективная организация педагогических образовательных процессов на основе современных информационных технологий.

Ключевые слова. Общее среднее образование, ученик, метод, педагог, навыки, стратегия, активность

The article covers methodological ideas in improving the management process of general secondary schools. It is also stated that the effective organization of pedagogical educational processes on the basis of modern information technology.

Key words. General secondary education, student, method, educator, skill, strategy, activism.

Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g'oyalar bayon etiladi, talabalarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Universitet hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xil, murakkabdir.

Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko'p uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar, puxta tayyorgarlik, ayrim shaxsiy sifatlar bo'lishi kerak. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi, avvalo, sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomalada o'zini tuta olishi zarur. Shuningdek, o'qituvchida talabalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik, kuzatuvchanlik, keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjud bo'lishi zarurdir.

Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

• fan sohalarini axborotlashtirishni;

• O‘quv faoliyatni intellektuallashtirishni;

• integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;

• ta’lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

• masofaviy o‘quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini;

• pedagoglar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishini;

• ta’lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonlariga joriy etilishi:

• talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;

• o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga;

• o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;

• interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;

• sun’iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga;

• axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;

• o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo‘yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat’iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages” fundamental asoslarini hisobga olib, o‘quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta’minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o‘rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to‘ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko‘rgazmalilik, faollashtirish (o‘qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o‘qitish natijalarini o‘zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma’lum bir faning o‘ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o‘zaro bog‘liqliligi, o‘zaro aloqadorliligi, turli tumanligi, amalga oshirilishi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy nazariy, ko‘rgazmali-amaliy), diqqati (qat’iyliligi, boshqaga ko‘chishi), motivasiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko‘rgazmalilik, o‘z vaqtida qayta aloqa yordamida o‘quvchilarning yuqori darajadagi motivasiyalarini doimiy ravishda rag‘batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini hisobga olib, o‘quv fani mazmuni hamda o‘quv masalalari murakkablik darajasi talabalarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o‘quv materialini o‘zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta’sirlanishdan himoyalash) kiradi.

O‘quv jarayonida o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish O‘qituvchilarga:

• internet tarmog‘i yordamida u yoki bu o‘quv fanlardan to‘plangan tajriba va uslublarni boshqa kasbdoshlari bilan almashish;

• bir vaqtning o‘zida turli toifadagi talabalar uchun har xil o‘qitish uslublarini amalga oshirish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish;

• O‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi nazorat topshiriqlaridan mashq sifatida foydalanish natijasida talabalarda fan bo‘yicha egallangan bilimlarni ko‘nikma va malaka darajasiga yetkazish;

• qo‘lda bajariladigan ishlarni kamaytirish hisobidan talabalarga yakka tartibda ishlash va o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini yaratish;

• bolalarni mustaqil bilim olish jarayonini samarali tashkil etish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

O‘qitishda o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish talabalarda:

• O‘z xohishlariga qarab o‘qish holatlarini tanlash;

• tayyorgarliklar va psixofizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zlariga mos o‘qish metodlari va bayon etish usullarini tanlash;

• oldin o‘rganilgan materiallarga qaytish, o‘qish jarayonini to‘xtatib qo‘yish va unga ixtiyoriy vaqtda murojaat qilish;

• turli jarayonlarning dinamikasini va mexanizmlarni o‘zaro ta’sirini kuzatish;

• O‘rganilayotgan obyektlarni boshqarish va ularning mos natijalarini ko‘rib borish;

• kompyuterda muloqot qilish psixologik xarakterdagi to‘siqlardan holi bo‘lishga (kulgu bo‘lmaslik, jur’at etmaslik, uyalmaslik kabilar) olib kelishi;

• tayyorgarlik darajalari yetarli bo‘lgunga qadar kompyuterdan sabr bilan foydalanish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

O‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning ta’lim sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o‘tish munkin:

• fanlarni o‘zlashtirilishni yaxshilanishi;

• tarmoq savodxonligini ortishi (Kompyuter va Internet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar);

• O‘rganishga bo‘lgan munosabatni yaxshilanishi;

• mustaqil ta’lim va tadqiqotlar malakasini takomillashishi;

• amaliy malaka samaradorligini oshirish.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishini, o‘z fanini innovatsion yondoshuv asosida o‘qitishni, interaktiv usul va vositalardan unumli foydalanishi, fanning muhim muommolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini talabalarga yetkaza olishi va nihoyat talabalarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o‘rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi avvalo axborot texnologiyalari malakalarini egallashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 485 bet.

2. Usmonov M. T. Information Security Policy. International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 70-73.

3. Usmonov M. T. Information War. International Journal of Academic and Applied

Nargiza MO‘MINOVA,
MTTDMQTMOI PhD dotsent

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy yondashuvlari, maktabgacha ta’lim sifati toifasining asosiy xususiyatlarini va yosh hususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish nazarda tutilgan.

Kalit so’zlar. ta’lim sifati, farovonlik, bola, ta’lim, tarbiya, tajriba, rivojlanish, mahorat, shakillantirish, imidj.

Современные подходы к повышению качества образования в организациях дошкольного образования, основные характеристики категории качества дошкольного образования. Предложен подход, учитывающий возрастные особенности.

Ключевые слова. качество образования, благополучие, ребенок, образование, обучение, опыт, развитие, умение, образование, имидж.

Modern approaches to improving the quality of education in preschool education organizations, the main characteristics of the category of quality of preschool education.An approach that takes into account age characteristics is proposed.

Key words. quality of education, well-being, child, education, training, experience, development, skill, education, image.

Maktabgacha ta’lim – ijtimoiy farovonlikning hal qiluvchi omil. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha tarbiya tizimiga kadrlar tayyorlash sifatini baholash muammosi juda murakkab. Ushbu muammoni hal qilmasdan, maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadiga, davlatning kadrlar salohiyatini shakllantirishga erishib bo‘lmaydi. Mutaxassislar o‘zlarining afzalliklari va kamchiliklariga ega bo‘lgan “maktabgacha ta’lim sifati” ni aniqlashning ko‘plab variantlarini taklif qilishdi, ammo bu yoki boshqa usulda tasvirlangan hodisaning mohiyatini aks ettiradi.

Mavjud ta’riflarning ma’nolarini tahlil qilish “maktabgacha ta’lim sifati” toifasining quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishimizga imkon beradi:

– tarbiyalanuvchilarning bilim va ko‘nikmalari darajasini belgilangan standartga muvofiqligi;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini har tomonlama baholash talablari belgilangan standartlarga muvofiqligi;

– o‘quv-tarbiya jarayonining turli ishtirokchilarini (jamiyat, davlat, talabalar, ish beruvchilar) talablarini qondirish darajasi.

Maktabgacha ta’lim sifati o‘quv-tarbiya jarayoni – ta’lim xizmati va uning natijasi sifati – tarbiyalanuvchini tayyorlashdan iborat. Bu ikki tomonlama ta’lim sifatining ichki va tashqi tarkibiy qismlari o‘rtasidagi tafovutda o‘zini namoyon qiladi.

Maktabgacha ta’lim sifatining ichki tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

– o‘quv jarayonining shartlari;

– o‘quv jarayonini amalga oshirish sifati;

– o‘quv jarayoni natijalarining sifati;

– pedagogika va kadrlar siyosati bilan bog‘liq ichki tarkibiy qismlar.

Maktabgacha ta’lim sifatining tashqi tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

– ta’limning tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalarining ta’lim-tarbiya talablariga muvofiqligi;

– davlat ta’lim standartlariga muvofiqligi;

– maktabgacha ta’lim tashkiloti imidji;

– zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiqligi.

Maktabgacha ta’lim sifati va uning samaradorligini oshirishdagi pedagogik muammolarni aniqlash tadqiqot vazifalaridan biri ekanligini inobatga olib, dastlab, maktabgacha ta’lim sifatining mazmun-mohiyati, falsafiy-pedagogik tahlili, rivojlanish bosqichlari hamda uning samaradorligini ta’minlovchi boshqaruv bo‘yicha tahlillar olib borish nazarda tutildi. Mavzuni nazariy jihatdan ko‘rib chiqishda, ta’lim sifati muammosiga to‘xtalib o‘tildi va bu, birinchi navbatda, “sifat”, “ta’lim sifati”, “samaradorlik”, “ta’lim sifatini oshirish” kabi asosiy tushunchalar mohiyatini tahlil qilishni talab qiladi.

“Ta’lim” oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo‘naltirilgan umumiy jarayon bo‘lib, u ijtimoiy institut, jamiyatning ijtimoiy quyi tuzilmalaridan biri hisoblanadi.

“Sifat” atamasiga oid turli nuqtai nazarlarni umumlashtirish natijasida bu atamani har tomonlama ifodalashga xizmat qiladigan ta’riflarning bir qator maqbul variantlarini keltirish mumkin.

“Ta’lim sifati” esa, butun ta’lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchiga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, ta’lim muassasalari faoliyati ijtimoiy, iqtisodiy, uslubiy va texnologik muhitining o‘zgarishi bilan izohlanadi. Ta’lim sifati xususiyatlari yaxlitligi ta’lim oluvchi BKMlarining shakllanishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar kombinatsiyasidan iborat bo‘lib, samarali o‘quv jarayoni bilan amalga oshiriladigan, o‘qitish jarayonlarini o‘quvchilarda tayanch va umumfan kompetensiyalarini takomillashtirish, kreativligini shakllantirishga qaratilgan maxsus ijtimoiy, pedagogik, psixologik jarayon deb ta’kidlash mumkin.

Ta’lim va uning sifatiga yuqorida keltirilgan qarashlar bu davrning eng muhim nazariy g‘oyalari davlatchilik asoslarida shakllangan komil inson tushunchasi va uning rivojlanishi turli ilm-fan tarmoqlarining birgalikdagi o‘zaro natijasiga asoslanadi, degan xulosa chiqarishimizga imkon berdi.

XIV - XVI asrlarda ta’limga alohida e’tibor berilib, uyg‘onish davri nazariy qarashlari yanada takomillasha borgan. Ta’lim inson kamolotini ta’minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur vosita sifatida qaralgan. Yuqori darajada ta’lim xususiyatlarini egallagan shaxs olgan ilmini amaliy faoliyatda samarali foydalanish sari yo‘naltiradi. Alisher Navoiyning “Mahbub ul qulub” asarida ilm olib uni ishlatmagan inson urug‘ sochib hosilidan bahra olmagan kishiga qiyoslanadi. Demak, o‘sha davr qarashlari ham bugungi kunda o‘quvchilar bilim olishining talablari, bilim, ko‘nikma va malakalari ta’lim sifati samaradorligini ko‘rsatuvchi asos ekanligini ko‘rsatib bergan.

Ta’lim sifati bo‘yicha yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

ta’lim sifati keng qamrovli ijtimoiy-pedagogik jarayon bo‘lib, ta’limning holati va natijalarini aniqlovchi hodisa;

ta’lim sifatiga inson ehtiyoji hamda jamiyat va davlat manfaatlarini qondiruvchi xususiyatlar yig‘indisi;

ta’lim sifati va undagi o‘qitish maqsadlariga erishishni tashxislashning usullarini

aniqlash, o‘zgarishlarni tahlil qilish va samarali usullarni amaliyotga tatbiq qilish dolzarb vazifalardan biri.

Ta’lim sifati bilan bir qatorda ta’lim samaradorligi tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bu tushunchalar bir-biridan farq qilib, sifat natijaning maqsadga nisbati bilan belgilansa, samaradorlik esa, natijaning xarajatlarga, sarflangan resurslarga nisbati bilan belgilanadi. Ta’lim sifati samaradorligi tushunchasi, birinchi navbatda, “samaradorlik” tushunchasiga murojaat qilishni talab qiladi. Tadqiqot obyekti bo‘yicha tahlil qilingan adabiyotlarning aksariyatida samaradorlik tushunchasiga to‘xtalganda, uni “unumdorlik” tushunchasi bilan

Bu fikrda unumdorlik maktabgacha ta’limni boshqarishga nisbatan bildirilmoqda, unumdorlik berilgan yuqoridagi izohdan kelib chiqib, ta’lim sifati samaradorligiga ta’lim jarayonidagi unumli boshqaruvni amalga oshirish orqali erishish mumkinligini anglash mumkin. Maktabgacha ta’lim jarayonida sifatli samaradorlik o‘qitish davomida o‘qituvchining maqsadli, yuqori natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv harakatlarida o‘z aksini topadi.

Shu o‘rinda ta’lim-tarbiya jarayonida pedagog-tarbiyachining samarali boshqaruv harakatlari rejasiga maqsadni belgilash, tashxislash, bashorat qilish, loyihalash, rejalashtirish, tashkillashtirish, axborotlashtirish, nazorat qilish, baholash va o‘zgartirish kiritish hamda tugallangan jarayon tahlili kabilarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta’lim sifati samaradorligining belgilangan strategiyalarini amalga oshirishda eng samarali vosita sifatni boshqarish bo‘lib, pedagogika sohasida xozirgi kungacha ushbu muammoni hal qilish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimining maqsadi ta’lim standarti asosida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda ta’limni tashkil etish va ma’naviy barkamol, intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish asosiy maqsad qilib belgilangan. Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muassasa darajasini uning sifati belgilab beradi va muassasa nufuzini oshirish uning sifatini aniqlash, baholash va ta’minlashda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviylashtirish tarbiyalanuvchilarni nafaqat bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga, balki shaxsiyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirish zarurligini ham taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining rivojlanganlik darajasini uning sifati belgilab berishini inobatga olgan holda, ta’lim sifatini oshirish uchun birinchi navbatda, sifatli ta’lim berishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash muhimdir.

Tadqiqot mavzusiga oid izlanishlar davomida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar va ularning ta’sir darajalari aniqlanib, sifatni oshirishda yangi innovatsion yondashuvlarni joriy etish va undan kutilayotgan natijalar bashorat qilindi, uni amalga oshirish uchun barcha turdagi resurslarni jalb qilgan holda, innovatsion mexanizm va tuzilmalar ishlab chiqish muhim vazifalardan sanaladi.

Maktabgacha ta’limdagi o‘zgarishlarni yaxshiroq tushunish uchun, avvalo, uning an’anaviy tizimdagi mavjud asosiy ko‘rinishlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa, zamonaviy ta’lim paradigmasini amalga oshirishda bir qator to‘siqlar mavjudligini aniqlashimizga imkon berdi.

Maktabgacha ta’lim sifati – ta’lim muassasasi darajasiga ko‘ra, quyidagi asosiy mezonlarga ega bo‘ladi:

– tarbiyalanuvchilarning ta’lim-tarbiya va hayotiy ehtiyojlariga muvofiq ravishda o‘qitishni ta’minlaydigan o‘quv-uslubiy dasturlari majmuining mavjudligi;

– maktabgacha ta’lim dasturlari tarkibidagi amaliyotga yo‘naltirilgan qismning kuchli buyurtmachilar talablariga muvofiq kelish darajasi;

– tarbiyalanuvchilarning o‘quv-tarbiya natijalaridan qoniqish darajasi va hokazo.

Tadqiqotda taqdim qilinayotgan mexanizmda ushbu mezonlarning inobatga olinishi nafaqat muassasa darajasida, balki mintaqaviy darajada ham sifatni ta’minlashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi tamoyillar, mezon va ko‘rsatkichlar orqali ta’lim tashkilotining monitoringi amalga osiriladi. Buning natijasida esa, maktabgacha ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi salbiy omillar o‘z vaqtida bartaraf etiladi. Kutilayotgan natijalar asosida sifatni ta’minlovchi samarali choralar qo‘llanilib, uning davlat va xalqaro darajadagi talablarga muvofiqligi ta’minlanadi.

Ta’lim-tarbiya berish sifati ta’lim jarayoni, uning samarali natijalari va o‘lchovini ifodalaydigan ajralmas jarayon bo‘lib, uning maqsadi jamiyat maqsadlariga mos kelishi lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaraydigan bo‘lsak, ta’lim-tarbiya sifatini ichki va tashqi xususiyatlarga ajratish mumkin.

Ta’lim tashkilotiga bevosita ta’siri bilan birga bilvosita ta’sir qiluvchi omillar – mamlakat iqtisodiyoti, mintaqaning ijtimoiy-madaniy va siyosiy hayoti, fan yutuqlari va boshqalar ham o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ta’lim-tarbiya sifati – davlat, jamiyat va shaxsning ta’lim ehtiyojlarini qondira oladigan, zamonaviy talablarga javob beradigan, kombinatsiyalashgan pedagogik nazariya sifatida qaraladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi omillar va to‘siqlarni bartaraf etish uchun bugungi kunda mamlakat maktabgacha ta’lim tizimining asosiy vazifasini belgilab olish muhim.

Bu shaxs, jamiyat va davlatning dolzarb va istiqbolli ehtiyojlarini ta’minlash orqali ta’limning zamonaviy sifatini oshirish hamda ta’lim jarayonini rivojlantirish va ta’lim sifatini ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatida tegishli darajadagi zarur pedagogik sharoitlar ta’minlansa, tashkilotlarda tarbiyalanuvchilarga ta’lim-tarbiya berish sifati yaxshilanishi va yuqori natijalar kafolatlanishi mumkin.

Ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlaridan biri ta’lim salohiyati, psixologik-pedagogik fan va subyektlarning ta’lim amaliyoti integratsiyasini ta’minlash hamda rivojlantirishga qaratilgan MTTlarda doimiy malaka oshirish tuzilmasiga o‘tish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-oktyabrdagi “Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 888-son Qarori.

2.A.V.Shin. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari. Ped.fan. doktori dis. avtoreferat – T.: 2022. -10 b.

3.Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство.-Т.:2005й

4.СаидахмедовН.С. Янги педагогик технологиялар.-Т.: Молия нашр., 2003.

5.Фаберман Б.И. Передовые педагогические технологии.- Тошкент, 2

Shaxloxon KATTAXODJAEVA,
Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor mutahassislarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish instituti “maktabgacha va musiqiy ta’lim” kafedra katta ‘qituvchisi

MAKTABGACHA 5 YOSHLI BOLALARNI FONEMIK TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TA’LIM MAZMUNI VA USULLARI

Annotatsiya

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning eshitish qobiliyatlari ya’ni fonemik idrokini rivojlantirish ularning nutqini ravon bo‘lishida psilogik xamda fiziologik hususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar. Savodxonlik, bola, ta’lim, tarbiya, tajriba, rivojlanish, nutq, ijodiy faoliyat, pedagogik jarayon, mahorat, fonemik idrok, o‘yin, maktabgacha yosh.

К развитию слуховых и речевых способностей детей старшей группы, то есть фонематического восприятия, предполагается подходить с учетом их физиологических и псилогических особенностей.

Ключевые слова. Грамотность, ребенок, образование, воспитание, опыт, развитие, речь, творческая деятельность, педагогический процесс, навык, фонематическое восприятие, игра, дошкольный возраст.

The development of auditory and speech abilities of children of the older group, that is, phonemic perception, is supposed to be approached taking into account their physiological and psilogical characteristics.

Key words. Literacy, child, education, upbringing, experience, development, speech, creative activity, pedagogical process, skill, phonemic perception, game, preschool age.

Insoniyat dunyoga kelar ekan uning eng muhim aqliy funksiyasi nutqi hisoblanadi, chunki nutq ijtimoiy aloqa vositalaridan biri bo‘lib, u bolalarda fonematik idrok va eshitishning shakllanishi bilan ta’minlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning buzilishiga olib keladigan sabablardan biri, maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning yoshiga mos bo‘lmagan holda noto‘g‘ri joylashishi hamda fonemik idrokning shakllanmaganligidir. Fonemik idrok-bu so‘zning tovush tuzilishini ajratish va o‘rnatish uchun maxsus aqliy harakat bo‘lib, uning shakllanishi, shuningdek fonemik tahlil va sintezning rivojlangan ko‘nikmalari maktabgacha yoshdagi bolalarda yozuv jarayonlarining rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Fonemik jarayonlarning rivojlanmaganligining eng asosiy belgisi tovushlarni ko‘payishi natijasida ularning aralashib ketishi bo‘lib, buning oqibatida bolalarda fonemik idrokning buzilishi sodir bo‘ladi, ammo ovozni to‘g‘ri takrorlamaslikda ham fonemik eshitish va fonemik idrokning yetishmasligi katta muammolarga sabab bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilik nutqshunos olimlarning fikricha fonemik idrok yetishda hech qanday buzilishi bo‘lmagan bolalar barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishlari va erta gapira boshlashlarini ta’kidlaydi, chunki ular atrofdagi fonemalarni to‘g‘ri idrok yetadilar. Fonemik idrok yetishda hatto kichik muammolarga duch kelgan bolalarda xam tovushni ko‘payishi natijasida nutqni tushunishda buzilishlar yuzaga keladi, chunki ularga bir-biriga o‘xshash tovushli fonemalarni ajratish qiyin jarayon bo‘lib xisoblanadi. Shuning uchun «tun-kun, qayiq-ayiq» kabi so‘zlar bolalar uchun bir xil yeshitiladi va ularni takrorlashda

asta-sekinlik bilan fonemik idrok buzilishi natijasida muammolar yuzaga kela boshlaydi, keyinchalik esa xuddi shu muammolar katta yoshda yozma nutqqa o‘tkaziladi.

Shunday qilib, nutq nuqsonlarini bartaraf yetish uchun birinchi navbatda bolaning fonemik idrok etish jarayonlarini tuzatish kerak. O‘zbek tilidagi fonemalarni quloq bilan aniq eshitib farqlash qobiliyatining mavjud emasligi bolaning ovozni tahlil qilish va sintez qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtira olmasligiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida, savodxonlikni to‘liq o‘zlashtirishga salbiy ta’sir qiladi.

Fonemik idrokni rivojlantirish bo‘yicha metodlar hamda qo‘llanilishi zarur bo‘lgan usullar nutqning fonetik va fonemik rivojlanmaganlik sharoitida tuzatish juda muhim hisoblanadi.

Fikrimizcha fonemik idrokni shakllantirish uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish hamda so‘zning tovush tuzilishidagi yo‘nalishini shakllantirish bo‘yicha metod va usullarni bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak, biz ularning so‘zning nutq sifatida qanday bilimlari borligini aniqlashimiz zarur deb bildik chunki ko‘pgina adabiyotlarda hatto maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ham nutq oqimidan so‘zlarni ajratish qobiliyati juda sust darajada rivojlanganligi yoki umuman yo‘qligi haqida ham ma’lumotlar mavjud ekanligiga guvoh bo‘ldik. «So‘z nutqning eng asosiy bo‘laklaridan biri xisoblanib, insonlarning uzaro aloqa-aralashuvida, fikrlashuvi va muloqotida eng muhim vazifani bajaradi. Demak, so‘z fikr bayon kilishda eng muhim rol o‘ynaydi shuningdek ushbu fikrni gap bilan ifodalaydi, gap esa o‘z navbatida so‘zlardan tuziladi.”.. Gap bilan so‘z bir-biri bilan zich boglangan dialektik birlik hisoblanadi. Tilning asosiy materiali so‘z bo‘lib, u turli ma’nolarni ifodalashga xizmat kiladi. Predmet va voqea-hodisalar yoki ular orasidagi munosabatning kishi ongida aks etishi so‘zning ma’nosi deyiladi. So‘z tilning narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim ma’noviy birlik bo‘lib, o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan borlikdagi narsalar haqidagi tushunchani ifodalaydi va ular o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish orqali, turli grammatik ma’no va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligida muayyan shakl va vazifa bilan voqiyalangan ko‘rinishiga aytiladi. So‘z gap uchun qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi, lekin, undan farkli ravishda, xabar yoki tugal fikrni bayon qilmaydi.

O‘zida leksik va grammatik ma’noni birlashtirgan holda So‘z muayyan so‘z turkumiga mansub bo‘ladi, o‘z tarkibida muayyan til tizimida oldindan tayin bo‘lgan barcha grammatik ma’nolarni ifodalaydi. Biroq, pedagoglar guruhda, mashg‘ulot jarayonida ko‘pincha “so‘z” atamasini ishlatadilar, shu bilan birga unga hech qanday izoh bermaydilar. Bolalar bog‘chasining o‘rta guruhida ovozli nutq madaniyatini shakllantirish bo‘yicha oltita mashg‘ulotni kuzatish shuni ko‘rsatdiki, tarbiyachi bitta mashg‘ulotda (15 daqiqa) ushbu atamani turli vaziyatlarda 16 dan 21 martagacha ishlatadi: “mening so‘zlarimni tinglang, so‘zni baland ovozda ayting, ushbu so‘zni takrorlang, so‘zni sekin gapirish kerak, bu so‘z anglatadi..., Bu so‘zni eslang va hokazo.

Ushbu atamani tez-tez ishlatish tarbiyachining nutqini bolalar uchun tushunarsiz qilmadi. Ular ushbu atamani o‘z ichiga olgan ko‘rsatmalarni qabul qildilar va berilgan ko‘rsatmalarga muvofiq harakatlarni amalga oshirdilar. Shuni aytib o‘tish joizki, hech bir bola o‘z nutqida bu atamani ma’nosiga qiziqib ichiga kirib bormaydi. Bunday jarayonda biz maktabgacha 5 yoshdagi bolalar “so‘z” atamasining ma’nosini tushunadimi yoki tarbiyachi tomonidan berilgan ko‘rsatmalarning umumiy ma’nosiga e’tibor qaratadimi yoki yo‘qmi aniqlash vazifasiga kirishdik va bolalarning so‘zdagi nutq birligi sifatida tasavvurlari qanday ekanligini o‘rganishga harakat qildik. Ushbu holatni o‘rganish va hal qilish uchun biz bolalarning bilimlari bo‘yicha bir qator vazifalarni o‘z ichiga olgan

aniqlovchi eksperimental tajribalar o‘tkazdik. Biz bolalarga alohida vazifa berdik ushbu vazifaga ko‘ra bolalar ikki guruhga bo‘linishdi birinchi guruh bolalari rasmli plakatga qarab u yerdagi jarayonni so‘zlar bilan ifodolab berishlari kerak edi, ikkinchi guruh bolalari esa xuddi shu rasmga qarab hohlagan bir so‘zni aytishi kerak edi, ba’zi bolalar “men bilmayman”degan javob berdi, ba’zilari sher aytib berdi, ba’zi bolalar esa umuman nima javob qilishini bilmay turishdi, ko‘rsatmalarimiz ular uchun juda murakkab ko‘rindi chunki nutq mashg‘ulotlarida bolalar hech qachon so‘zlarni o‘zlari o‘ylab topmaganlar, ular faqat tarbiyachidan keyin so‘zni takrorlashgan yoki biron bir harakatni amalga oshirishgan: ular so‘zni turli xil ovoz kuchi, intonatsiya bilan talaffuz qilishgan. Biz ko‘rsatmalarni biroz o‘zgartirdik.

1) “To‘p” so‘zini baland ovoz bilan ayting.

2) Sekin “ayiq” deb ayting.

3) Qanday so‘z aytishni taxmin qiling: (rasmga qarab)

Bizning guruhda katta qizil rangli .... nima bor? (to‘p) Siz qanday so‘z aytdingiz? Bolalarga “Bir so‘z ayting.” bolalar tushunishi osonroq tuyuldi va bu javoblarga ijobiy ta’sir qildi. Biroq, o‘n sakkizta bolaning hech qaysi biri o‘zgartirilgan ko‘rsatmalar bilan so‘zni mustaqil ravishda nomlay olmadi. Shunday qilib, biz o‘tkazgan eksperiment shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha besh yoshli bolalar so‘z haqida alohida tasavvurga ega emaslar: ular “so‘z” atamasining ma’nosini anglamaydilar, ammo uni o‘z ichiga olgan ko‘rsatmalarda ular vaziyatga yoki yuriqnomaning umumiy ma’nosiga e’tibor berish natijasida vazifalarni bajarishadi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar so‘zga obyektning hususiyatlaridan biri sifatida murojaat qilishadi: “so‘z va uning tovush tuzilishi bola tomonidan narsaning bir qismi sifatida va uning boshqa hususiyatlaridan ajralmas hususiyati sifatida qabul qilinadi”.

Bolalarning so‘zning individualligi va uzunligi haqidagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida, ularning talaffuziga e’tiborni, diqqatini rivojlantirish uchun biz so‘zlarni “o‘lchash” va ularni uzunligi bo‘yicha taqqoslashdan foydalandik. Bolalar yordamchi sifatida ishtirok etgan o‘yinlarda so‘zlar modellashtirishni boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib, bolalarga so‘z nomlarini almashtirish vazifasini qabul qilishda ular qo‘llarida ushlab turgan o‘yinchoq “yordam berdi”, shu orqali bolalarni nutqning boshqa qismlariga tegishli so‘zlarni almashtirishga o‘rgatmasak, keyingi bosqichda jumlalarni modellashtirishni o‘rgatishimizda muammolarga uchrashimiz mumkin. Maktabgacha katta yosh guruh bolalariga savodxonlik mashg‘ulotlarida so‘zni nutq birligi sifatida anglashi va “so‘z” atamasini o‘zlashtirishi, ularda so‘zning tovush tuzilishini yo‘nalishlarini shakllantirish, so‘zni nutq oqimidan maxsus (so‘z) sifatida ajratishga qaratilgan jarayonlarga alohida ahamiyat berishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.

2. Grosheva I.V, yevstafeva L.G, Maxmudova D.T, Nabixanova sh.B, Pak S.V, Nazarova V.A, Isxakova M.R, Abdunazarova N.F. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T:2022

3. M.Isxaqova va boshqalar “Savodxonlikka o‘rgatish” – T.:2018.

4 Кабачок.И.В, “Развитие фонематического восприятия у детей старшего дошколного возраста. Опубликовано- М.: 2023.

Xusnora MAMATOVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o‘qtuvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA ARTTEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada estetik tarbiya muammosi shaxs rivojlanishida ustuvor muammolardan biri hisoblanadi va ta’lim tizimida sezilarli tarzda olg‘a surilvotgan masala bo‘lib kelmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida art-pedagogikadan estetik mashg’ulot tasviriy san’at va musiqa darslarida tarbiyalanuvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda integrativ yondoshuvning roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Sa’nat, go‘zallik mehnat, estetik did, ota-onaga hurmat, estetik tarbiya, ta’lim, estetik dunyoqarashi.

В статье отмечается, что проблема эстетического воспитания является одной из приоритетных проблем в развитии личности и продолжает существенно продвигаться в системе образования. Эстетическое обучение из арт-педагогики в дошкольных образовательных организациях освещается роль интегративного подхода в эстетическом воспитании воспитанников на уроках изобразительного искусства и музыки.

Ключевые слова. Искусство, красота, труд, эстетический вкус, уважение к родителям, эстетическое воспитание, образование, эстетическое мировоззрение.

Today, the problem of aesthetic education is one of the priority problems in the development of a person and is being significantly promoted in the educational system. The role of an integrative approach in the aesthetic education of students in art-pedagogy, aesthetic training, visual arts and music lessons in preschool educational organizations is highlighted.

Key words. Art, beauty, work, aesthetic taste, respect for parents, aesthetic upbringing, education, aesthetic outlook.

O‘zbekiston respublikasida estetik tarbiya muammolariga avvaldan katta e’tibor berib kelinmoqda va u yosh avlodning tarbiyasi komil insonni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga qaratilgan. Ayniqsa, art-pedagogik va art-terapevtik texnologiyalardan foydalanishga alohida ahamiyat berilib, Rossiya art-terapiya assotsiatsiyasi tomonidan ta’lim oluvchilarning psixoemotsional holatiga terapevtik va korreksion ta’sirni hisobga olgan holda musiqiy terapiya, vokaloterapiya, izoterapiya, biblioterapiya, imagoterapiya usullaridan kompleks foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini estetik tarbiyalashda badiiy ijodning musiqa va tasviriy san’at turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish, musiqiy pedagogika va psixologiya vositasida ta’lim oluvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirishga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, maktabga tayyorlov guruh yoshidagi bolalarda surat asosida hikoya qilish bilan ishlashga o‘rgatish orqali ularning estetik ongi va dunyoqarashini tarkib toptirish, art-pedagogika vositasida bolalarning estetik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy maqsadlariga erishishda yordam beradigan faol yo‘nalish va texnologiyalarni izlashdan maqsad – ma’naviy boy, ijodiy fikrlaydigan, barkamol rivojlangan fuqaro shaxsini tarbiyalash bo‘lib, bu muammoga ijtimoiy va pedagogik jihatdan muhim va mohiyatli deb qarashimizga imkon beradi. Art-peda-

gogika ilmiy va pedagogik amaliyotlarda nisbatan yangi yo‘nalish texnologiya sanaladi. Matbuot va axborot materiallariga murojaat qilganimizda art-pedagogika resurslaridan to‘liq foydalanilmayotganining guvohi bo‘lamiz. Art-pedagogika psixolog va psixoterapevtlar tomonidan qo‘llanilib kelinayotgan art-terapiya o‘rnida ishlatilib kelinmoqda, ya’ni tarbiyalanuvchilarning xulqi, ularning shaxsi va xarakterini korreksiyalashda, dars jarayonida yaxshi munosabat muhitini o‘rnatishda, bolalar va kattalar munosabatini korrektirovka qilish va hokazolarda. Ko‘pincha, art-terapiya san’atning vizual doirasi, ya’ni ko‘z bilan ko‘riladigan narsa deb tushiniladi. Ushbu texnikaning samaradorligi shundaki, u hissiyotlar bilan tajriba o‘tkazishga, ularni ramziy darajada o‘rganishga va ifoda etishga imkon beradi. Art-terapiya bu sizning ongsizligingizga sayohat. Tushlar singari, u odamga qalbining yashiringan narsalarni ochib beradi.

Art-terapiya jarayonida odamning o‘z travmatik tajribasi, tajribasi va kasalliklariga va kasalliklarga munosabati o‘zgaradi. Art terapiya usullari quyidagilarga yordam beradi:

O‘z-o‘zini tasvirlash va ijobiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish;
O‘z his tuyg‘ularingizni o‘rganish va ifoda etish;
Muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
Oila a’zolarini hissiy jihatdan yaqinlashtirish;
Ijodiy faoliyatning har xil turlari uchun qobiliyatlarni rivojlantirish;
Ichki potentsialingizni ochib berish.
Bugungi kunda artterapiyaning eng keng tarqalgan turlari quyidagilar:
Art-terapiya (Art-terapiya) yoki izoterapiya.
Musiqa terapiya (musiqa terapiya).
Raqs terapiya.
Dramaterapiya.
Yertak terapiyasi.
Biblioterapiya (ijodiy yozuv).

Izoterapiya va yertak terapiyasi kabi mashhur sohalar haqida batafsilroq to‘xtalamiz.Izoterapiya ushbu sohada yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, tasviriy san’at – rasmning barcha turlari, mozaykalar, kollajlar, niqoblar, modellashtirishning barcha turlari, qo‘g‘irchoqlar, fotosuratlar va boshqa ko‘plab narsalar mavjud. Bu juda ko‘p sonli texnik, texnik va texnikaga ega bo‘lgan eng rivojlangan yo‘nalish. Aynan chizilgan rasmdan boshlab psixoterapevtik yo‘nalish sifatida art-terapiya tarixi boshlandi. Izoterapiyaning afzalliklari – kontrendikatsiyalarning yo‘qligi, nisbatan qulay foydalanish, materiallarning boyligi, boshqa har qanday psixoterapiya sohalari bilan birgalikda foydalanish qobilyatidir. Bu ko‘pincha maktabdan boshlab o‘z faoliyatimizni doimiy ravishda baholashga odatlanib qolganligimiz bilan bog‘liq. Lekin men hursand bo‘lishga shoshildim-hech kim sizning ishingizga baho bermaydi.

Art-terapiya sizning his-to‘yg‘ularingizni ifoda etish, o‘zingiz haqida rasm chizish orqali aytib berish uchun kerak va buning uchun qo‘lingizda cho‘tkani qanday tutishni o‘rganish kifoya. Shuning uchun, siz nafaqat terapevt mashg‘ulotlarida, balki uyda ham, faqat bo‘yoqlar bilan bo‘yash kerakligini eslash mumkin. Bo‘yoq bilan rasm chizish qalamga qaraganda qiyinroq, chunki chizish jarayonini boshqarish ancha qiyin, demak, hissiyotlar yaxshiroq ishlangan. Boshqa yo‘nalish, ertak terapiyaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uning yoshidan qat’iy nazar, ichki bolani tarbiyalash, inson qalbini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Ertak yordamida siz nafaqat qalbingizda sodir bo‘layotgan narsalarni ko‘rish va tushinish, balki ertakning oxirini ham o‘zgartirishingiz

mumkin. Odatda, ertak terapiyasining quyidagi turlari ajratiladi: tanlangan yoki tuzilgan yertakni tahlil qilish va talqin qilish, ertak arxetipidan foydalanish, ertaklar (bibliotterapiya), metitatson yertaklar, sahnada ertak o‘ynash, yertak chizish, ertak sayohati, qo‘g‘irchoqlar.

Ertak terapiyasida turli janrlar qo‘llaniladi: masallar, ertaklar, afsonalar, dostonlar va latifalarning o‘zi. Shuningdek, zamonaviy janrlardan foydalaniladi: detektiv hikoyalar, romantik romanlar va fantaziya. Har bir inson o‘z qiziqishiga mos janrni tanlaydi. Art-terapiya yakka tartibda ham, guruhda ham yaxshi ishlaydi. Ushbu usul ko‘pincha bolalar va kattalar bilan ishlashda qo‘rquvni tasvirlash qog‘ozga o‘tkazilganda qo‘rquvni chizish texnikasi qo‘llaniladi, so‘ngra bu qo‘rquvni chizish texnikasi qo‘llaniladi, so‘ngra bu qo‘rquvni chizgan kishi xohlagan narsani rasm bilan bajaradi. Pedagog va olimlar V.P.Anisimov, N.Yu.Sergeeva, M.Yu.Alekseeva art-pedagogika va art-terapiyani quyidagicha tushunishadi: shakllangan san’at vositasida tarbiyalashning eski stereotip tushuntiruvchi ko‘rgazmali metodlariga (an’anaviy, avtoretar) alternativ sifatida; turli pedagogik masalalarni yechishda san’atning universal yo‘llari, umumiy mexanizm, tamoyil va qonuniyatlarini o‘rganuvchi pedagogika fanining amaliy yo‘naltirilgan yangi yo‘nalishi sifatida; bolaning badiiy madaniyati asoslarini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi jarayonning (rivojlanish, tarbiyalash, o‘qitish va korreksiyalash) barcha komponentlarini o‘zida mujassam etgan san’at vositalari birligi sifatida; bu alohida yondashuv bo‘lib, unda urg‘u san’atni o‘rganishdan subyektiv tajribaga (refleksiya) ko‘chadi, ya’ni tarbiyalanuvchilarning o‘zining holati, sezgisi, jonkuyarligi, tafakkur yuritishi, olamga va o‘z-o‘ziga munosabati sifatida ko‘rsa bo‘ladi.

Hozirgi paytda fanda art-terapiya fanlararo bilim sohasi sanaladi, u o‘zida tibbiyot, pedagogika, madaniyatshunoslik, psixologiya va boshqa ilm sohalarini mujassamlaydi. Uning mohiyati san’atning subyektga terapevtik va korreksion ta’siri sanaladi va u tarbiyalanuvchining psixik travma olgandagi holatini badiiy-ijodiy faoliyat orqali yechishga qaratilgan.

Art-pedagogikaning asosiy maqsadi – nafaqat rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalarni, sog‘lom bolalarni ham garmonik har tomonlama rivojlantirishdan iborat va u korreksion-shaxsiy va faoliyatli yondashuvlarga tayanadi; tarbiyalanuvchilarning turli ruhiy sifatlari hamda shaxsning badiiy madaniyatini shakllantirish xususiyatlarini rivojlantirish, uning mikro va makro muhitda jamoaviy va madaniy faoliyatda ishtirok etishi, turli tajavvuzlarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratiladi. Rivojlanishida muammosi bor bolalarga art-pedagogika dunyoni uning barcha turfaliligi va go‘zalligida ko‘rishga hamda faoliyatning badiiy turlarida dunyoni o‘zgartirishga o‘rgatadi. San’at dunyoni anglashda ijobiy manba sanaladi, u bolada kreativlik qobiliyatini dunyoga keltiradi. Shuning uchun uni ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning samarali vositasi sifatida qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анисимов В.П. Арт-педагогика как система психологического сопровождения образовательного протсесса // Вестник ОГУ. №4 (2003) -146 с.

2. Медведева Е.А. Сотсиокултурное становление личности ребенка с проблемами психического развития средствами искусства в образовательном пространстве: дис. д-ра псих. наук. / Е.А. Медведева. – Нижний Новгород.: Арт-пресс, 2007. – 186 с

3. Сергеева Н.Ю. Содержание понятия «артпедагогика» // Известия ВГПУ, – № 1. 2008. – С. 24 -28.

Durdona AMANOVA,
MTTDMQTMOI “Maktabgacha va musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI MUSIQA RAHBARLARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING METODIK MODELI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda eng samarali usullar va texnologiyalarni tanlash, maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modelini ishlab chiqish va bu modelni qo‘llashning afzalliklari, usullari keltirib o‘tilgan. Ushbu metodik model musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam berish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, maqolada metodik model mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ijodkorlik, kasbiy kompetensiya, model, pedagogik modellashtirish, metodik model, praksiologik diagnostika, pedagogik shart-sharoitlar.

В данной статье осуществляется выбор наиболее эффективных методов и технологий развития профессиональной компетентности музыкальных руководителей дошкольной образовательной организации, разработка методической модели развития профессиональной компетентности музыкальных руководителей дошкольной образовательной организации, а также отмечены преимущества и способы применения этой модели. Данная методическая модель призвана способствовать развитию профессиональной компетентности музыкальных руководителей и содержание методической модели освещено в статье.

Ключевые слова. Креативность, профессиональная компетентность, модель, педагогическое моделирование, методическая модель, праксиологическая диагностика, педагогические условия.

This article selects the most effective methods and technologies for developing the professional competence of music directors of a preschool educational organization, develops a methodological model for the development of professional competence of music directors of a preschool educational organization, and also notes the advantages and methods of application of this model. This methodological model is designed to promote the development of professional competence of music directors and the content of the methodological model is covered in the article.

Key words. Creativity, professional competence, model, pedagogical modeling, methodological model, praxeological diagnostics, pedagogical conditions.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar, innovatsion o‘zgarishlar, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta’lim sifat va samaradorligini oshirish yo‘lida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun katta mas’uliyat yuklab, yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida pedagoglar oldida ulkan vazifalarni qo‘ymoqda.

Ma’lumki, inson oldida muayyan muammo turgandagina, u ijod qilishga ehtiyoj sezadi. Musiqa rahbari faoliyati ana shunday ijodkorlikni talab qiladi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati musiqa rahbari faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog‘liq. Pedagogik faoliyat ta’lim va tarbiya oluvchilar shaxsi, dunyoqarashi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga qaratilgan ko‘plab pedagogik masalalarni yechishdan iborat harakatdir. Musiqa rahbari faoliyatidagi ijodkorlik ana

shu masalalarni yechish usullari, ularni hal qila olish yo‘llarini qidirib topishda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik ijodkorlikning manbai pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba – muammoli vaziyatlarni qo‘ya olish va ularni tarbiyalanuvchilar bilan hamkorlikda yechishda namoyon bo‘ladi. Bunda har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogi ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalana olishi zarur. Jumladan musiqa rahbarlari ham o‘z faoliyatlarida ta’lim texnologiyalardan foydalangan holda mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish tajribasini egallashlari kerak. Interfaol metodlardan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya jarayonida foydalanish musiqa rahbarlaridan faollik, pedagogik mahorat, ijodkorlikni talab qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida biz pedagogik modellashtirishga murojaat qilishimiz zarur.

Pedagogik nazariya va amaliyotda modelni yaratish – pedagogik tizim, jarayon yoki vaziyatni va ularni yoritishning asosiy yo‘llarini yaratishning maqsadlarini, umumiy g‘oyasini ishlab chiqishdan iborat.

Model – bu zamonaviy ta’lim tizimiga kiritilgan ilmiy bilim va shaxsni rivojlantirish imkoniyatini ta’minlaydigan hodisani, mahsulotni yoki protsedurani, mexanizmni yoki vositani o‘rganishni osonlashtiradigan ideal namunadir. Pedagogik modellashtirish – bu kasbiy va pedagogik faoliyatning bir turi bo‘lib, uning tarkibida pedagog har qanday hodisa yoki protsedura, jarayon yoki mexanizm, sharoit yoki tendensiya, resurs yoki tizim, pedagogik vosita yoki usul, shakl yoki determinatsiyaning ma’lum bir ideal namunasini yaratadi, bu tizimli ravishda o‘rganish, o‘lchash, aniqlash, to‘ldirish, tizimlashtirish, tasniflash imkonini beradi.

Bizning tadqiqotimiz uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning modelini ishlab chiqish zarur. Modelda biz uchun zarur bo‘lgan faoliyat turini uni loyihalashtirish va amalga oshirish zanjirida real amalga oshirish imkonini beradigan pedagogik shart-sharoitlarni tanlab olish muammosi alohida ahamiyatga ega. Biz maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni loyihalashtiriladigan modelning asosiy strategik maqsadi deb belgiladik. Maqsad quyidagi vazifalar bilan muayyanlashtirilgan:

1. Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijobiy natija beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va tekshirish.

2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini praksiologik diagnostika qilish.

3. Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlanganlik mezonlari va darajalarini aniqlash.

4. Amalga oshirish davomida modeldan olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish.


Ta’lim jarayonida modelni ishlab chiqish tanlash bilan boshlandi. O‘ziga xos ilmiy kategoriya sifatida yondashuv nafaqat har qanday nazariyaning rivojlanish asosi, ta’limning maqsadi ishga nisbatan turli yechim topa olish malakasini rivojlantirish ham hisoblanadi. Ya’ni, bilimlar biror narsani qila olishga o‘rganish uchun zarur va buning uchun esa – buni qanday qilishni bilib olish zarur. Binobarin, ta’limning maqsadi amal qilish, harakat qilish malakasini rivojlantirish hisoblanadi. Bilimlar esa amaliy jarayonlarga o‘qitish, o‘rgatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Muayyan tur vazifalarini yechish jarayonlarining tizimi amal qilish tarzi deb ataladi. Demak, o‘qitishning pirovard maqsadi

amaliy jarayonlar usulini rivojlantirishdan iborat. Fanlar asoslariga har qanday o‘qitish bir vaqtning o‘zida tegishli aqliy jarayonlarga o‘qitish ham hisoblanadi, aqliy ishni rivojlantirish esa muayyan bilimlarni o‘zlashtirmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Bizning tadqiqotimiz uchun keltirilgan yondashuvlarda maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlariga faoliyat obyektlari, tajribasi ta’lim jarayonining muhim va ajralmas qismi hisoblangan faol ishtirokchilari sifatida qaraladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modelini ishlab chiqish uchun biz eng mos keladigan pedagogik texnologiyalarini saralab olish va ularni jarayonga moslashtirish vazifasini belgiladik. Biz jarayonni musiqa rahbarlari oldiga izchil va maqsadga yo‘naltirilgan holda bilish vazifalarini qo‘yish va ularni yechishda bilimlarni faol o‘zlashtiradigan va kasbiy voqelikka “sho‘ng‘ib” ketadigan, bilish faolligi va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yordam beradigan muammoli ta’lim texnologiyasiga tayanib qurdik. Hozirgi davrda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar ta’lim jarayonining pedagogik ta’minotini ham o‘zgarishini va ta’limni individuallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish, idrokning, bilish faoliyatini, moyilliklarning, ehtiyojlarning va qiziqishlarning o‘ziga xos hususiyatlarini hisobga olishni taqozo yetadi.

Yuqorida bayon etilgan nazariy materiallar asosida biz maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik modelini yaratdik.



1-rasm. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining metodik modeli.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida biz an’anaviy, ham noan’anaviy ta’lim berishning vositalari, shakllari, metodlaridan foydalandik. Ma’ruzalar, seminar-treninglar, master-klasslar, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil va ilmiy-tadqiqodchilik ishlari hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni tashkil qilish shakllari hisoblanadi. Muammoli ta’lim, faol ta’lim metodlari, ijodiy izlanishlar maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish

jarayonida biz qo‘llagan asosiy metodlar sifatida, didaktik materiallar, dastur, o‘qitishning texnik vositalari ta’limning asosiy vositalari sifatida qo‘llanildi.

Kasbiy kompetensiyani takomillashtirish komponentlari rivojlanish jarayonida kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganlik, o‘z bilimlari, malakalari va ko‘nikmalarini olishga bo‘lgan shaxsiy ehtiyoj uning asosi hisoblanadi va bu shuningdek kasbiy o‘z imkoniyat, qobiliyat va salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish ehtiyojida ham ifodalanadi. Ehtiyojlarning mavjudligi har qanday faoliyatning oldindan qo‘yiladigan zarur shart-sharoitlarini tashkil etadi, biroq o‘z holatida ehtiyoj faoliyatga muayyan yo‘naltirilganlik xossasini bera olmaydi. Komponentlar kasbiy faoliyatning xususiyatlari va shart-sharoitlari haqidagi va kompetentlikni rivojlantirishga nisbatan bilimlar, tasavvurlarga asoslanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining modeli maqsad, vazifalar, tamoyillar, bosqichlar (diagnostika, amaliy, analitik), shakllar, metodlar, vositalar, pedagogik shart-sharoitlar, mezonlar va natijani o‘z ichiga oladi. Kasbiy-pedagogik faoliyatda musiqa rahbarlari olingan bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar, pedagogik intuitsiya, hayotiy tajribalariga tayanib, kasbiy vazifalarni yechishga mustaqil, ijodiy yondashuv, o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini ijodiy mulohaza qilib tushunib o‘z texnologiyalarini yaratishga harakat qilishadi. Bizning fikrimizcha, bu musiqa rahbarlariga kasbiy faoliyatda o‘z ijodiy potensiallarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi va bu istalgan (kerakli) natijani – maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarining zarur bo‘lgan darajasiga erishishini belgilaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modelida biz qo‘yidagi bosqichlarni taklif qilamiz:

1-bosqich – diagnostika: individual qobiliyat va kasbiy kompetensiyalarni baholash (so‘rovnomalar o‘tkazish, natijada musiqa rahbari qaysi sohalarda bilimini oshirishni hohlashi, kasbiy faoliyatda qanday qiyinchiliklar borligi aniq bo‘ladi; individual ish rejasi tuzadi, mustaqil ta’lim uchun mavzu tanlaydi).

2-bosqich – amaliy: musiqa rahbarining kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirish (uslubiy maslahatlar, seminarlar, muammoli guruh ishida ishtirok etish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va malaka oshirish kurslari, zamonaviy musiqa rahbarining raqobatbardosh shaxsini shakllantirishga hissa qo‘shadigan tadbirlar, uslubiy qo‘llanmalar xulosalarini ishlab chiqish).

3-bosqich - analitik: musiqa rahbarining kasbiy mahorat darajasini baholash (ta’lim faoliyatidagi shaxsiy yutuqlar, bolalarning musiqiy faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish natijalari orqali musiqa rahbarlarining kasbiy mahoratini o‘sishini monitoring qilish), musiqa rahbarining maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi).

Shunday ekan, musiqa rahbarlari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarini modellashtirish musiqa rahbarlarini tarbiyalanuvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, faollik, tezkorlik, zukkolik ko‘nikmalarini va musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishga tayyorlash talablari asosida ishlab chiqilgan, ilg‘or metodlardan foydalanish bosqichlari va funksiyalari aks ettirilgan andoza deb qarash mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modeli – bu musiqa rahbarlarining kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, ya’ni nafaqat pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun musiqa rahbarlarining tayyorgarligini rivojlantirish, balki ularning o‘zini-o‘zi rivojlantirish va kasbiy kompetensiyasi yo‘nalishidagi ehtiyojlarini qondirish jarayonini tashkil etish andozasi bo‘lishi zarur.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, musiqa rahbarlari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modelini amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini kasbiy kompe-

tensiyasi komponentlarining o‘zaro aloqasini va ularning mantiqiy izchilligini ta’minlashni va integrativ yondashuvni nazarda tutuvchi jarayon sifatida tashkil etish muhim hisoblanadi.

Mazkur metodik model maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlari shakllarining o‘zaro bog‘liqligi, aloqadorligi va integrativligini ta’minlash hamda ularni innovatsion rivojlantirishni nazarda tutadi. Mazkur modelda belgilangan maqsad musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat. Bunda musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga oid bilimi, ko‘nikma va malakalari hamda kasbiy tayyorgarligi shaxsiy xislatlari, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlari, qobiliyati va kompetentligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham modelda maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha maqsadga erishish yo‘lida amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biri sifatida keltiriladi.

Mazkur modelda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, fan va texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar, yangi islohotlar, shaxs ehtiyojlari va zamonaviy talablarni o‘rganish, rivojlantirish yo‘nalishidagi vazifalarni belgilash ham uning komponentlari sifatida keltirilgan bo‘lib, qayta aloqani ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish davlat, jamiyat va shaxsning rivojlanib borayotgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish uchun yangi vazifalar belgilash va amalga oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 9-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-son buyrug‘i.

3. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari”. O‘quv metodik qo‘llanma - Toshkent, 2015 yil.

4. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish. p.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss.-Toshkent: MTTRMQTMOI, 2021.-175 b.

5. Matyakubov I.B. “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish” nomli dissertatsiya ishi. Toshkent 2021 yil.

6. Панько Елизавета Александровна, Воспитатель дошкольного учреждения: Психология: пособие для педагогов дошк. учреждений: 2-е изд., перераб. и доп. / Е. А. Панько. — Мн.: Зорны верасен, 2006. — 264 с.

7. Козырев Н.А., Козырева О.А. Педагогическое моделирование как продукт и метод научно-педагогического исследования // Современная педагогика. 2015. №8 [Электронный ресурс].

Nargiza FOZILOVA,
Toshkent Shahridagi Puchon universiteti 1-kurs magistranti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINI MEDIASAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada mediata'lim mamlakatimizning ta'lim sohasida, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida munosib o'rin egallashi haqia fikr yuritilgan. Shuningdek, mediata'limning maqsadi yoshlarda mediaga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish, uni o'quv muassasasidan (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab, oliy o'quv yurtlarini) keyingi hayotda ommaviy axborot vositalarining kreativ foydalanuvchisiga aylantirishi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Mediata'lim, media axborot, innovatsion resursla, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mediapedagoglar va nazariyotchilar, mediata'limning ustuvorligi.

В статье говорилось о том, что медиаобразование занимает достойное место в образовательной сфере нашей страны, в том числе в системе дошкольного образования. Также даны рекомендации о том, что целью медиаобразования является формирование у молодежи критического отношения к СМИ, превращение ее из образовательного учреждения (дошкольных образовательных организаций, школы, высших учебных заведений) в творческого пользователя СМИ в дальнейшей жизни.

Ключевые слова. Медиаобразование, медиа-информация, инновационные ресурсы, информационно-коммуникационные технологии, медиапедагоги и теоретики, приоритет медиаобразования.

The article reflects on the worthy place of the media education in the educational sphere of our country, including in the preschool education system. Recommendations have also been made that the purpose of mediation is to form a critical attitude towards media in young people, to transform it from an educational institution (preschool organizations, schools, higher education institutions) into a creative user of the media in the afterlife.

Key words. Media education, media information, innovative resource, information and communication technologies, mediapedagogs and theorists, the priority of mediata education.

Axborot sohasiga taraqiyotning strategik resursi sifatida qaralmoqda. Jahon taraqiyotining hozirgi bosqichida globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib kelmoqda. Jumladan axborot maydonida u yaqqol namoyon bo'lib, uzviy bog'liq holda kechmoqda. Jamiyatning global axborotlashuvi ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining o'zagini tashkil etib, taraqiyotning bosh omiliga aylanmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanishi maktabgacha ta'lim tarbiya jarayoniga yangiliklarni faol joriy etishni o'z ichiga oladi, bu yesa uning faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday holda maktabgacha ta'limdagi innovatsion jarayonlar bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim muhitini yaratish va rivojlantirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim amaliyotida bolalarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish uchun nafaqat mazmuni, balki ta'lim-tarbiya texnologiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu innovatsion resurslardan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'lib, ular ta'limning mavjudligi, o'zgaruvchanligi va maktabgacha yoshdagi bolalar-

ning faolligi va harakatchanligini oshirishga yordam beradi.

Mediata’limning o‘zi nima, uning mohiyati va xususiyatli jihatlari nimada ekanligi borasidagi so‘nggi yillarda pedagogik muhitda eng dolzarb masalaga aylandi. Maktabgacha ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy shartlaridan – bolalar kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini biladigan, u bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, maktabgacha ta’lim muassasalarida kompyuterlardan foydalanishning sanitariya me’yorlari va qoidalarini, ularni qo‘llashning axloqiy qoidalarini biladigan bola shaxsini tarbiyalashdir. Shu bois, inson hayotining xususan, bolalar hayotining barcha sohalariga mediaaxborotning kirib kelishidan tashvishlangan jamiyatning ehtiyoji media ta’lim zaruratini keltirib chiqardi. Mediapedagoglar va nazariyotchilar orasida eng nufuzlilaridan biri L.Masterman (L.Masterman) bugungi olamdagi mediata’limning ustuvorligi va dolzarbligining 7 sababini asoslab bergan:

Media iste’molining yuksak darajasi hamda zamonaviy jamiyatlarning ommaviy axborot vositalari bilan to‘lib-toshganligi.

Medianing mafkuraviy muhimligi, va sanoat tarmog‘i sifatida ularning auditoriya ongiga ta’siri.

Media axborot miqdorining tez o‘sishi, uni boshqarish hamda uning tarqalishi mexanizmlarining kuchayishi.

Asosiy demokratik jarayonlarga medianing suqilib kirishi jadalligi.

Barcha sohalarda vizual kommunikatsiya va axborot qiymatining ortishi.

Maktab o‘quvchilari (talabalar)ni kelajakdagi talablarga mos yo‘nalish bilan o‘qitish zarurati.

Axborotni xususiylashtirishning o‘sib borayotgan milliy va xalqaro jarayonlari.

Shunday qilib, media (ommaviy kommunikatsiya vositalari) kishilar hayotida va ta’lim jarayonida kundan-kunga katta-rol o‘ynamoqda.

Mediata’limning maqsadi yoshlarda mediaga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish, uni o‘quv muassasasidan (maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, oliy o‘quv yurtlarini) keyingi hayotda ommaviy axborot vositalarining kreativ (ijodkor) foydalanuvchisiga aylantirishdir.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyachilarining mediasavodxonligini rivojlantirish uchun: maktabgacha ta’lim tashkilotlarni kompyuter texnikasi bilan jihozlash; kompyuter o‘quv dasturlari bankini tizimlashtirish; didaktik va metodik materiallar tayyorlash; ta’lim jarayoni va boshqarish uchun dasturiy ta’minot faoliyati; va Internetga kirish xususiyatlaridan to‘liq foydalanish; maktabgacha ta’lim saytini yanada rivojlantirish; maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachi-o‘qituvchi va xodimlarining media madaniyatini takomillashtirish yanada yaxshi natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, mediata’lim mamlakatimizning ta’lim sohasida, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimida munosib o‘rin egallashi lozim. Bu vazifani bajarishda maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari faoliyatini samarasini oshirish beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Федоров А.В. Современный мир и медияобразование. Журнал «Медияобразование» №2 2008г. Г. Тагенрог.

2. Paxrutdinov Sh.I. Barqaror taraqqiyot va rahbar mas’uliyati. T., Akademiya 2011.

Kamoliddin DAVKAROV,
Qarshi davlat unversiteti, erkin tadqiqotchisi

ZILZILA OQIBATIDA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN VAZIYAT

Annotatsiya

Maqolada zilzila o'zi nima, sodir bo'lganda qanday salbiy oqibatlarga olib keladi, zilzila oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar, buning zararli oqibatlari va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Zilzila, tektonik zilzilalar, vulqon zilzilalari, ag'darilish, o'pirilish zilzilalari, texnogen, deformatsiyalanish

В этой статье что такое землетрясение, каковы негативные последствия при его возникновении, ситуации, которые могут возникнуть из-за землетрясения, его вредные последствия и даны рекомендации.

Ключевые слова. Землетрясение, тектонические землетрясения, вулканические землетрясения, опрокидывания, афтершоки, техногенные, деформации.

In this article, what is an earthquake, what are the negative consequences when it occurs, situations that can arise due to an earthquake, its harmful consequences, and recommendations are given.

Key words. Earthquake, tectonic earthquakes, volcanic earthquakes, overturns, aftershocks, man-made, deformations.

Zilzila-tabiatda sodir bo'ladigan eng havfli hodisalardan biridir. YUNESKO ma'lumotiga ko'ra zilzila-yuzaga keladigan iqtisodiy zarar va insonlar halokati bo'yicha tabiiy ofatlarning ichida birinchi o'rinni egallaydi.

Avvalo zilzila to'g'risida mukammal ma'lumotga ega bo'lish uchun o'tmishda va hozirda bo'layotgan zilzilalarning statistik ko'rsatgichlariga e'tibor bersak zilzilani qayd qilish bundan to'rt ming yil avval boshlangan bo'lib, shu vaqt mobaynida 671 ta halokatli zilzilalar qayd qilingan. Shulardan 82 tasi 20 asrga to'g'ri keladi. Zilzilalarning davriyligiga e'tibor beradigan bo'lsak 1 yilda 8 balli (Rixter shkalasi bo'yicha) zilzila bitta; 7 dan 7,9 balli - 18 ta; 6 dan 6,9 balli- 120 ta bo'lishi kuzatilgan. Nisbatan kuchsiz bo'lgan zilzilalar ko'proq uchraydi, ya'ni 3-4 balli zilzila bir yilda 49 mingtagacha bo'lishi aniqlangan.

Yer silkinishlar va uning oqibatlari.

Tabiiy ofatlar ichida eng xavflisi va daxshatlisi bu-yer silkinishidir. Yer sikinishi-yer osti zarbasi va yer ustki qatlamining tebranishi bo'lib, tabiiy ofatlar, texnologik jarayonlar tufayli yuzaga keladi. Yer ostki zarbasining paydo bo'lish o'chog'i, yerning ostki qatlamidagi uzoq vaqt yig'ilib qolgan energiyaning yo'qoriga otilib chiqish jarayoni tufayli yuzaga keladi. O'choqning ichki qismi markazi gipotsentr deyiladi, yerning ustki qismidagi markazi epitsentr deyiladi. Misol uchun aytishimiz mumkinki tinib turgan ko'lmak suvga bir bo'lak toshni uloqtirsak, tosh tushgan suv sathi kattaroq to'lqin hosil qiladi va undan keyingi to'lqinlar maydalashib ketadi. Manashu katta to'lqinini biz epitsentr deb atashimiz mumkin bo'ladi.

Yer silkinishi yuzaga kelish sabablariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

– Tektonik zilzilalar;
– Vulqon zilzilalari;
– Ag‘darilish, o‘pirilish zilzilalari;
– Texnogen (insonning muhandislik faoliyati bilan bog‘liq) zilzilalar.

Qiya sathlarida tog‘ jinslarining katta bo‘laklarini ag‘darilishi yoki tog‘larning o‘pirilishi natijasida yuzaga keluvchi yer silkinishlar ag‘darilish zilzilalari deyiladi. Bu yer silkinishning tarqalish maydoni kichik, ko‘p xollarda talofotsiz bo‘ladi

Zilzila kuchi ikki xil kuch bilan o‘lanadi.

1. Ballarda; 2. Magnitudada. Dunyoning juda ko‘p davlatlarida yer silkininish 12 balli xalqaro o‘lchov birligida o‘lchanadi.

Zilzila kuchini aniqlash shkalasi (ballarda):

I. Sezilmaydigan zilzilalar. Yer tebranishining kuchi insonlar sezadigan darajaga yetmaydi. Uni faqat tebranishni qayd qiluvchi maxsus asboblar - seysmograflar yordamida qayd qilish mumkin.

II-III Seziluvchi zilzilalar. Zilzila kuchini binoning ichida xarakatsiz xolatda bo‘lgan, ayniqsa yuqori qavatlarda bo‘lgan ayrim insonlar sezishi mumkin.

IV. Yerning kuchsiz tebranishi. Zilzilani bino ichida bo‘lgan insonlarning ayrimlari, ochiq joyda bo‘lganlardan faqat tinch xolatda turganlargina sezadi. Tebranish go‘yo ma’lum masofadan yuk mashinasi o‘tgandek tuyuladi. Sinchkov kuzatuvchi osma xolatda bo‘lgan predmetlarning yengil tebranishini ilg‘ab oladi, binolarning yuqori qavatlarida tebranish nisbatan kuchliroq bo‘ladi.

V. Sezilarli tebranish. Bino ichida bo‘lgan insonlarning aksariyat qismi, ochiq joydagilarning ozchiligi sezadi. Ba’zan uyqudagilar ham uyg‘onadi. Uy derazalari, eshiklar, idishlar yengil zirillaydi. Osma xolatda bo‘lgan anjomlar tebranadi. Idishlardagi suyuqliklarda chayqalish paydo bo‘ladi. To‘xtab turgan avtotransportdagilar ham sezishi mumkin.

VI. Uyg‘onib ketish. Zilzilani bino ichidagi insonlarning xammasi sezadi. Uyqudagilarning aksariyat qismi qo‘rquv aralash uyg‘onadi. Ayrimlar zudlik bilan ko‘chaga otlanadi. Hayvonlar bezovta bo‘ladi. Osma soatlar to‘xtab qoladi. Mustahkam asosga ega bo‘lmagan ayrim buyumlar yiqiladi yoki suriladi. Yaxshi maxkamlanmagan eshik va derazalar ochilib-yopiladi. Idishlardagi suyuqliklar kuchli chayqaladi, qisman to‘kiladi.

VII. Binolar shikastlanadi. Ko‘pchilik insonlarda qattiq qo‘rquv paydo bo‘ladi. Avtomobil boshqarayotganlar ham sezadi. Tepalik va tog‘ oldi zonalarida ko‘chki, o‘pirilish bo‘ladi. Suv yuzida to‘lqinlar paydo bo‘lib loyqalanadi. Quduq suvlari sathi, miqdori o‘zgarishi kuzatiladi. Yer osti suvlari sizib chiqish xollari bo‘ladi.

VIII.Binolarning kuchli shikastlanishi. Insonlarni qo‘rquv va sarosima bosadi. Daraxt shohlari sinadi, tuproqda bir necha santimetrli darzliklar paydo bo‘ladi. Yangi suv xavzalari paydo bo‘ladi. Quvurlar payvandlangan joylaridan uzilib ketadi. Haykallar va yodgorliklar joyidan siljiydi. Yer osti suvi xarakati keskin o‘zgaradi. Yangi buloqlar paydo bo‘ladi.

IX.Binolarning batamom shikastlanishi. Aholining barchasini vahima bosadi. Hayvonlar kuchli ovoz chiqarib, betartib harakat qiladi. Yer osti quvurlari uziladi, temir yo‘llar qiyshayadi, suv omborlari shikastlanadi. Tuproqda 10 sm gacha darzliklar paydo bo‘ladi. Qoyalar qulaydi, ko‘chkilar yuzaga keladi. Haykallar, ustunlar yiqiladi.

X.Inshootlarning batamom buzilishi. Suv omborlari, to‘g‘onlar, ko‘priklarda buzilish bo‘ladi. Yer yuzasi yoriladi, to‘lqinsimon past-balandliklar paydo bo‘ladi. Yer osti inshootlari buziladi. Qoyalarda tosh ko‘chishi yuzaga keladi. Kanal, ko‘l va daryolarda suvlar

kuchli chayqaladi, yangi suv xavzalari paydo bo‘ladi.

XI.Talofat. Puxta qurilgan inshootlar: ko‘priklar, uylar, to‘g‘onlar, temir yo‘llar jiddiy shikastlanadi. Yer yuzasida keng yoriqlar, uzilish, siljish kabi deformatsiyalanish kuzatiladi. Tog‘ oldi zonalarida kuchli ko‘chkilar yuzaga keladi.

XII.Yer relyefining o‘zgarishi. Barcha yer usti va osti inshootlari to‘liq shikastlanadi. Yoriqlar paydo bo‘lib relyef butkul o‘zgaradi. Daryo o‘zanlari o‘zgaradi. Yirik tog‘ ko‘chkilari bo‘ladi. Yangi ko‘llar paydo bo‘ladi. Qayd qilingan 12 balli shkala mutloq shkala bo‘lmasdan keyingi izlanishlar davomida takomillashtirilib borilmoqda. Har bir tebranishda turmush sharoitida kuzatish mumkin bo‘lgan ayrim xususiyatlargagina to‘xtalib o‘tildi.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, tabiiy ofatlardan biri bo‘lgan zilzila qanday yuzaga kelishi to‘g‘risida ko‘plab adabiyotlarda ma’lumotlar mavjud bo‘lsada, maqolada zilzilaning har bir ballari bo‘yicha hamda ularning oqibatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, zilzilalar dunyo miqyosidagi eng xavfli tabiiy ofat xisoblanadi. Zilzila yuqori ballarda sodir bo‘lgan hududda vayronagarchilikka sabab bo‘lib, insonlarning sog‘lig‘i, moddiy va ma’naviy hayoti hamda atrof tabiiy muhitning yomonlashuviga sabab bo‘luvchi halokatli hodisadi ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirildi. Shuningdek zilzila oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar to‘g‘risida ma’lumotlar berildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib quyidagi takliflarni berib o‘tsak:

– aholini zilziladan oldin, zilzila vaqtida va zilziladan so‘ng to‘g‘ri harakat qilishlarini muntazam ravishda o‘rgatib borish;

– tashkilot, muassasa va korxonalarda zilzila vaqtida to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha maxsus-taktik o‘quv mashqlari va Fuqaro muhofazasi kunlarini muntazam o‘tkazib borish;

– ommaviy axborot vositalari yordamida zilzila va uning ayanchli oqibatlari ruknida ko‘rsatuvlar, roliklar, radioeshittirishlar va maqolalar ko‘plab chiqarish;

– respublikamiz barcha viloyatlarining chekka hududlarida, aholi ko‘p to‘planadigan maskanlarda zilzila bo‘yicha profilaktik tadbirlar, seminarlar va davra suhbatlarini muntazam o‘tkazib borish shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi “Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatdagi Favqulodda vaziyatlarning tavsifi to‘g‘risida”gi 455-sonli qarori.

2. Kadirov E.V. Mavlyanov «Tabiiy muhitni muhofazalashning ekologik asoslari» 1999 y.

3. «Aholini va hududlarni tabiiy xamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish» to‘g‘risidagi 1999 yil 20 avgustdagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni.

4. www. LexUz

5. www. mchs.gov.ru

6. www.ziyo net.uz

Saodat TUYCHIYEVA,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti, psixologiya f.n., dotsent

MAXSUS PSIXOLOGIK XIZMAT FAOLIYATIDAGI PSIXOLOGLAR PROFESSIONALIZMINING PSIXOLOGIK KONTSEPTSIYASI

Annotatsiya

Maqolada maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining psixologik kontseptsiyasining va ularning xizmat faoliyatidagi superprofessionalizm darajasiga erishish mutaxasislardan ko'nikmalar oshirish to'g'risida qisqacha mazmun keltrilgan.

Kalit so'zlar. Kontseptsiya, professionalizm, maxsus psixologik xizmat, psixolog faoliyati, ekstremal sharoitlar, favqulodda vaziyatlar, psixologik va akmeologik tadqiqotlar.

В данной статье представлен краткий обзор психологической концепции профессионализма психологов в деятельности специальной психологической службы и повышения квалификации специалистов для достижения уровня суперпрофессионализма в их служебной деятельности.

Ключевые слова. Концепция, профессионализм, специальная психологическая служба, деятельность психолога, экстремальные условия, чрезвычайные ситуации, психолого-акмеологические исследования.

This article provides a brief overview of the psychological concept of professionalism of psychologists in the activities of a special psychological service and professional development of specialists to achieve a level of superprofessionalism in their professional activities.

Key words. Concept, professionalism, special psychological service, psychologist activity, extreme conditions, emergency situations, psychological and acmeological research.

Bugungi kunda barcha sohalarda professional psixologlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Chunki har bir tashkilotlardagi mehnat unumdorligi undagi sog'lom psixologik iqlim, xodimlarning psixologik holati va shaxslararo munosabatlar tizimi, ularning shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatidagi muammolar, yosh davrlaridagi qiyinchiliklar, mavsumiy inqirozlar kabi ko'plab muammolarni mutaxassis yordamisiz yengish qiyinligini tushunishmoqda. Ayniqsa, ob'ektiv sharoitlar maxsus, ekstremal va favqulodda vaziyatlarda psixologik murakkab ob'ektlar bilan samarali ishlashga qodir bo'lgan yangi turdagi psixologlarga ehtiyojni tug'dirmoqda. Psixologlar insonlarga shaxsiy munosabatlarda uyg'unlikni topishga, yaqinlarini yaxshiroq tushunishga, keskin vaziyatdan tezda chiqish yo'lini topishga yordam beradi. Biroq maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologning asosiy yo'nalishi ekstremal va favqulodda sharoitlardagi eng murakkab kasb hisoblanib, bunda har bir shaxsni ma'naviy va psixologik qo'llab-quvvatlashdan iborat. Chunki bu psixologlar asosan huquqni muhofaza qilish organlari, jazoni ijro etish tizimi, maxsus xizmatlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining shaxsiy tarkibi va bo'limlari bilan ishlashadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ijrochi psixologlar faoliyatning ekstremal sharoitlariga olib keladigan, maxsus psixologik kompetentsiyalarni talab qiladigan murakkab ob'ektlar bilan ishlaydilar. Masalan, jinoyatchi va mahkumlar psixologik jihatdan murakkablik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turishadi va shu sababli ular bilan Res-

publika Jazoni ijro etish xizmati psixologlari va xodimlarining o‘zlari ishlashlari lozim. Chunki ular maxsus va ekstremal sharoitlarda rivojlanishi mumkin bo‘lgan shaxslar bilan kasbiy deformatsiya va salbiy aksentsiyalarda faoliyat yuritadilar. Bunday psixologlarga talabning yuqoriligi, shuningdek, faoliyatining murakkabligi va mas’uliyatliligini hisobga olgan holda ular professionalizmini shakllantirish va rivojlantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etadi. Maxsus xizmat faoliyatining psixologik kontseptsiyasi juda konstruktivligi sababli mazkur psixologlar professionalizmini shakllantirish va rivojlantirishga yondashilganda albatta uni tizimlashtirilgan, umumlashtiruvchi bilimlar asosida amalga oshirish lozimdir.

Professionalizm tushunchgasining fanlararo bog‘liqlik muammosi bugungi vaqtda turli fan doirasidagi tadqiqotchilar tomonidan tegishli ekanligiga da’vo qilinadi, biroq ustuvorlik ko‘proq psixologik fanlar – mehnat psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi va akmeologiyasi, kasblar psixologiyasi kabilarda kuzatiladi. Masalan, A.A.Bodalev va E.A.Klimovlar professionalizmning psixologik mohiyati, uning tarkibiy qismlari, aloqalari, professionalizmni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini tadqiq qilishgan. Keyingichalik taniqli rus psixolog olim A.K.Markova “Professionalizm psixologiyasi” nomli asarida insonning o‘z faoliyatida professionallik darajasiga jarayonida inson ruhiyatining o‘zgarishini ochib berishga harakat qilgan.

Shu o‘rinda ta’kidalsh joizki, ko‘pgina psixologik va akmeologik yo‘nalishlardagi tadqiqotlarda professionalizm asosiy tadqiqot ob’ekti bo‘lgan. Bu tadqiqotlarda ko‘p yillar davomida muayyan maqsadlar bilan operativ harakatdagi shaxsning professionalizmi ta’riflari keltirilib, uning umumiy psixologik tuzilmasi va rivojlanishining psixologik sharoitlari tavsiflangan. Shuningdek, kasbiy faoliyatning muayyan sohalarida mutaxassislarning shaxsiy xususiyatlari tadqiq qilingan. Professionalizm muammosi boshqa kasbiy sohalarda ancha oldin o‘rganilishiga qaramay, psixologik va akmeologik yo‘nalishlardagi tadqiqotlarda boshqaruv va pedagogik faoliyat sub’ektlarining professionalizmi aniqlandi. Ularda professionalizm modellari ishlab chiqilib, professionalizmni shakllantirishning o‘ziga xos psixologik qonuniyatlari aniqlangan. Masalan, boshqaruv psixologiyasida boshqaruv subyektlari, ya’ni menejmentlar professionalizmining psixologik asoslari ishlab chiqilgan.

Keyinchalik esa mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi muammosi oid psixologik ishlanmalar yaratila boshlangan. Shuningdek, professionalizm psixologiyasi va amaliy psixologik tadqiqotlarga tegishli bo‘lgan professionalizm muammosining falsafiy, ijtimoiy va kadrlarni o‘rganishga oid fanlararo bog‘liqlik jihatlari tadqiq qilingan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, professionalizm muammosini ishlab chiqishda tushuntirish va bashoratli xususiyatlarga ega bo‘lgan umumlashtiruvchi xarakterdagi psixologik tadqiqotlar yetishmasligi mavjud. Shu bilan birga, maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmini umumlashtiruvchi psixologik kontseptsiyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq maxsus psixologik tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Biroq shu kunga qadar amalga oshirilgan psixologik tadqiqotlar tahlili maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining psixologik kontseptsiyasini yaratish yo‘llarini aniqlash imkonini berdi. Bu o‘rinda “kontseptsiya” muhim ilmiy yoki ilmiy-amaliy muammoning umumlashtirilgan tavsifi va yechimlarini aks ettiruvchi empirik tadqiqotlar va amaliyot bilan tasdiqlangan asosli nazariy qarashlarning yagona aniqlovchi mazmun bilan birlashtirilgan tizim hisoblanadi. Demak, kontseptsiya - bu ilmiy nazariyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan tushuntirish xususiyatlariga ega umumlashtiruvchi nazariy bilimlarning maxsus shaklidir.

Bugungi kunda kontseptsiyaning izchilligi va qiymati uning ilmiy nazariyaga yaqinligi bilan belgilanadi degan barqaror fikrlar mavjud. Ilmiy nazariya kabi kontseptsiyalarga aniq mazmun talablari qo‘yilmaydi, shuning uchun ilmiy tushunchalar turlari juda xilma-xildir. Masalan, psixologiyada kontseptsiyalar odatda har xil miqdordagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan tavsiflovchi sifat shaklida taqdim etiladi. Unda tushuntirish va tasviriy funktsiyaning mavjudligi asosiy deb hisoblangan.

Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining kontseptsiyasi yuqorida aytib o‘tilgan yondashuvlar asosida ishlab chiqildi. Bunda kontseptsiya shakli va mazmuni maxsus ilmiy nazariyaning muhim tarkibiy qismiga yaqin bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yaqinlik nafaqat kontseptsiyaning tushuntirish va tasviriy funktsiyasini, balki bashoratli, ya’ni ma’lum hodisa va jarayonlarning o‘zgarishi yoki rivojlanishini tushuntirish va bashorat qilish imkoniyatini ham talab qiladi. Maxsus nazariyaga yaqinlik, shuningdek, mazkur soha qonuniyatlarini kontseptsiyaga kiritishni talab qiladi.

Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining psixologik kontseptsiyasining asosiy g‘oyasi shundaki, professionallik xizmat faoliyati psixologlarining o‘zini o‘zi anglashi va o‘zini namoyon qilishining eng yuqori shakllaridan biridir. Professionalizmga erishish asosan psixologlarning eng kam qondirilgan ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi. Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining psixologik kontseptsiyasining asosiy qoidasi – bu katta shaxsiy salohiyatga yo‘naltirilgan xizmat faoliyatida psixologlarning o‘zini o‘zi anglash va mukammallikka intilish, shaxsiy-kasbiy rivojlanishida yuqori natijalarga, ya’ni professionalizmga erishish istagi bilan ajralib turadi. Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining psixologik kontseptsiyasining mazmuni umumlashtiruvchi psixologik bilim va psixologik tamoyillarni mantiqiy asoslash qoidalariga qaratilgan.

Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining psixologik kontseptsiyasining eng muhim tushunchalari va ta’riflari – bu xizmat faoliyati, professionalizm, shaxs va faoliyatning professionalizmi, kompetentsiya maydoni, professionalizmning psixologik invariantlari, professional.

Faoliyat professionalizmi yuqori kasbiy mahorat va kompetentlikni, samarali psixologik ko‘nikma va malakalarning xilma-xilligini, ayniqsa ijodiy yechimlarga asoslangan asoslarni, zamonaviy algoritmlarni va kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullarini aks ettiruvchi maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologning mulki sifatida belgilanadi. Faoliyat professionalizmi maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlariga professionalizmni yuqori va barqaror samaradorlik bilan amalga oshirishga imkon beradi.

Shaxs professionalizmi esa – bu shaxsiy-kasbiy va shaxsiy-ishbilarmonlik fazilatlarining yuqori darajasini, professionalizmning invariantlari va ijodkorlikni aks ettiruvchi, talablarning etarlicha yuqori darajasi, motivatsion sohaning holati va yuqori barqaror samaradorlik bilan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qiymat yo‘nalishlari bilan ajralib turadigan maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologning mulki hisoblanadi.

Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining psixologik kontseptsiyasining daliliy asosini umumiy psixologiya, mehnat va kasblar psixologiyasi, menejment psixologiyasi va professionallik psixologiyasi muammosi bo‘yicha akmeologiya bo‘yicha olib borilgan nazariy va empirik tadqiqotlar tashkil etdi. Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining psixologik kontseptsiyasining tipologiyasi va tasniflari tanlangan asoslarda farqlanadi

Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlarning professionalizmi maxsus tizim bo‘lib, u bosqichma-bosqich shakllanadi va faol kasbiy faoliyat doirasida ishlaydi. Bunda bu psixologlarda moslashuvchanlik, mustaqillik, invariantlik (o‘zgarmaslik), erkin resurslarni to‘ldirish, dinamiklik, ma’lum darajaga yetganda muayyan o‘lchov va standartlarni oshirishga intilish, harakatlarining bir tomonlama yo‘nalishi, yakuniy natijaning ko‘payishiga olib keladigan tizimdagi say-harakatlarining integratsiyasiga egalik kabi xususiyatlar murakkab sharoitlarda samarali kasbiy faoliyatni ta’minlaydi. Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining tizimini shakllantiruvchi omil – bu kerakli professionalizm darajasiga erishish maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Chunki maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar ma’lum bir darajadagi professionalizmini yanada oshirishga harakat qiladilar. Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining psixologik kontseptsiyasining muhim tarkibiy qismi professionalizmni rivojlantirishning psixologik usul-vositalarini tizimlashtirish va tavsiflashdan iboratdir.

Maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining taqdim etilgan psixologik kontseptsiyasi ularning shaxsiy va kasbiy xususiyati to‘g‘risidagi mavjud bilimlarining aksidir. Albatta ushbu muammo bo‘yicha keyingi tadqiqotlar olib borilishi, yangi daliliy asos va natijalar olinishi bilan maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmining ushbu psixologik kontseptsiya to‘ldiriladi, takomillashtiriladi va tuzatiladi.

Inson kamoloti masalasining tahliliy jihatlari uzoq tarixiy davrdan buyon tadqiqotchilarning diqqat markazidagi muammolardan ekanligi tahlillarimizda qayd etdildi. Ushbu masalani madaniy muhit va ta’lim jarayoni sub’ektlari misolida tadqiq etish yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazishga erishdik. Tadqiqotda bir qator metodikalardan foydalanildi. Metodikalar psixologlarning psixologik etukligini bir necha jabhada o‘rganishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotimizning dastlabki bosqichida kasbiy psixologik etukligining umumiy holatini o‘rganishga erishildi. Buning uchun E. V. Kalyaeva, T. V. Prokofevalarning “Shaxs etukligini aniqlash” ga qaratilgan so‘rovnoma, N.Safayev va U,Butayevalarning maxsus ishlab chiqilgan “NOM-nosituativ mas’uliyat so‘rovnomasi”dan foydalanildi.

Birinchi navbatda psixologlarni bir necha metodikalar bo‘yicha so‘rovnomalarga javoblari umumlashtirilgan jadval asosida tahlil qilindi. Shuningdek, psixologik etuklik xususiyatlari bo‘yicha ijtimoiy va psixologik yosh ko‘rsatkichlari, nosituativ mas’uliyat va vaziyatning asosiy sababini aniqlash mezonlariga tayanildi. Respondentlarning natijalari tahlili metodikalarning mezoniga muvofiq psixologik etuklikning darajalari bo‘yicha amalga oshirildi. Psixologik etuklik darajalari metodikaning xususiyatidan kelib chiqib, quyi, o‘rta, o‘rtachadan yuqori, yuqori va juda yuqoriga ajratildi. Natijalar o‘zaro darajalar bo‘yicha qiyosiy talqin etiladi.

Shkalar	Psixologik yosh	Ijtimoiy yosh	Vaziyat	ikkilanish	NOM	VAS
Psixologik yosh	1	-0,029	0,078	-0,104	0,018	0,177*
Ijtimoiy yosh		1	0,085	-0,045	-0,039	-0,020

Vaziyat			1	-0,558**	-0,035	0,112
Ikkilanish				1	-0,029	-0,050
NOM					1	0,118
VAS						1

Izoh: *p≤0,05, :**p≤0,01,

Jadvalda olihgan metodikalar o\rtasida korrelarsiya borligi anaqlandi. Bundan ko‘rinadiki, psixologning yetukligi vaziyatning sababini aniqlash, holisona xulosa chiqarishda namoyaon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, maxsus psixologik xizmat faoliyatidagi psixologlar professionalizmini superprofessionalizm darajasiga erishish bilan sezilarli darajada rivojlantirishni ta’minlaydi. Ushbu dinamik rivojlanishni ta’minlash psixolog mutaxassislarda davr talabiga mos ko‘nikma va malakalarni shakllanishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баротов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане. Автореф. Докт.дисс. – Тошкент: 1998. – 28 с.

2. Баротов Ш.Р. Социалъный Интеллект: Структура и Функции. // “Психология XXI столетия” том 2 г. Ярославлъ 2012. С.– 153-158

3. Баротов Ш.Р. A role of social intellekt and social competence in professional development of a teacher in the intense training system// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Volume 3 Number 4, 2015 ISSN 2056-5852. P.- 43 – 48

4. Shoumarov G‘. Oila psixologiyasi. Darslik. “Sharq” nashriyoti.:T – 2010y.

5.. Баротов, Ш. Р. (2017). Психологическая служба образования: от теории к практике. (Учебно-методическое пособие). Бухара: Дурдона.

6. Баротов, Ш. Р. (1999). Таълимда психологик хизмат асослари (Монография). Т.: Маънавият.

7. Baratov, S. R. (1991). Kul’tura skotovodov Severnoj Fergany v drevnosti I ranned srednevekov’je. Avtoreferat Kandidatskoj Dissertacii. Institut arheologii, Samarkand.

8. Salaeva M.S. Psixolog kasbiy kompetentligini shakllantirish tamoyillari va texnikalari / «Педагогик инновациялар ва юқори самарадорликка етакловчи таълимий ғоялар» мавзуидаги Республика илмий-амалий онлайн конференцияси. Сурхондарё ВХТХҚТМОҲМ. -Термез. 2020 йил 15 май.–Б.764- 768.

Laylo PARMONOVA,
Qarshi davlat universiteti doctoranti

SHAXS SENSOMOTORIKASINING PSIXALOGIK STRUKTURASI

Annotatsiya

Shaxsda tuyg‘u, sezgi, idrok, sezish kabi qobiliyatlarni shakllantirishda sensor tarbiya muhim o‘rin tutadi. Sensor tarbiya tevarak atrofdagi borliqni bilishi, sezgi va idrokka asoslanadi. Shuningdek shaxs tasavvurining asosini bevosita sezish orqali idrok qilish mumkinligi , tasavvurning aniqligi to‘liqligi, sensor jarayonning rivojlanish darajasi bilan belgilanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxs, sezgi, sensor tarbiya, motorika, sensomotorika, sensomotor madaniyat, shaxs sensor tarbiya.

Сенсорное воспитание занимает важное место в формировании у человека таких способностей, как чувство, интуиция, восприятие, восприятие. Сенсорное воспитание основано на познании, интуиции и восприятии окружающего существа. Также было высказано предположение , что основу воображения человека можно воспринимать через непосредственное восприятие, что точность воображения определяется полнотой, степенью развития сенсорного процесса.

Ключевые слова. Личность, интуиция, сенсорное воспитание, моторика, сенсомотория, сенсомоторная культура, личность сенсорное воспитание.

Sensory education plays an important role in the formation of such abilities as feeling, intuition, perception, perception in a person. Sensory education tevarak is based on knowledge of the surrounding being, intuition and perception. It was also thought that the basis of the person’s imagination can be perceived by direct perception , the accuracy of imagination is complete, the degree of development of the sensory process is determined.

Key words. Personality, intuition, sensory education, motor skills, sensorimotor, sensorimotor culture, personality sensory education.

“Sensomotorika lotin tilidan olingan bo‘lib, “sensus” – sezgi, his qilish, hissiy bilish va “motor” – harakat ma‘nolarini anglatadi. Sensomotorika – psixik faoliyatning sensor (hissiy) va motorika (harakat) komponentlarining o‘zaro aloqadorligi, birligini anglatadi”. Analizatorlar orqali inson miyasiga kelib tushadigan sensomotor axborotlar natijasida inson o‘z harakatlarini regulyatsiyalaydi (tartibga soladi), nazorat qiladi va korreksiyalaydi(tuzatadi). Xuddi shu faoliyat davomida axborotlarni aniqlashtirish, o‘zgarishlar kiritish va yangi axborotlarni izlash ishlari amalga oshiriladi. Inson o‘z hissiy bilish jarayoni va motorikasini koordinatsiyalash asosida o‘z faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etishni o‘rganadi.

“Sensor tarbiyaning maqsadi shundan iboratki, shaxs sezgi a’zolari faoliyatini o‘stirish hamda idrok etish jarayonini takomillashtirishdan iboratdir”.

“Motorika (lotincha tildan olingan bo’lib harakat ma’nosini anglatadi va ushbu tushuncha inson harakat jarayoni bilan bog‘liq fiziologik va psixologik holatlarni ifodalaydi”. Mayda motorika – ko‘z qorachig‘ining harakatini bildirsa, katta motorika gavda harakatini aks ettiradi.

Sensomotorika ikki asosiy qismdan iborat:

Sensorika – sezish va his etish (persepsiya) kabi ikki qismdan iborat bo‘lib, har bir individga xos bo‘lgan sezgi organlari rivojlanganlik darajalari va ularning bir kompleksga birlashuvidir.

Motorika – turli psixik jarayonlar – diqqat, xotira, idrok, tafakkur, nutq rivojlanishining asosi hisoblanadi. Sezgi va hissiy bilish harakatning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Ya’ni, ko‘rish sezgisi va teri-taktil, taktil-harakat tajribalar orqali olingan ma’lumotlarni assotsiatsiya qilish natijasida hissiy bilish asalga oshiriladi.

Shaxsning sensomotor rivojlanishi umumiy intellektual rivojlanishning asosini tashkil etadi. Sensor bilish idrokning boshlanishi hisoblanadi. Ya’ni sezgilar orqali aniqlangan ma’lumotlar inson ongida aks etadi – idrok etiladi. Anglashning boshqa barcha operatsiyalari idrok qilingan ma’lumotlar bilan hosil bo‘ladi. Shuning uchun tafakkurning kechishi sensor bilish jarayonining haqqoniyligi va to’laqonliligiga bog‘liqdir.

Sensomotor madaniyat – bu emotsiya va harakatni boshqara olish ko‘nikmasining shakllanganligi bo‘lib, ko‘rish va harakat, eshitish va harakat hamda teri-taktil sezgi va harakatning birligini ta’minlash bilan bog‘liq.

Sensomotorika jarayoni tashqi olamni sezgi organlari orqali bilish va shunga ko‘ra o‘z xatti-harakatlarini boshqarish bo‘lib, turli sezgilar orqali idrok etilgan ma’lumotlarni sintez qilish asosida shakllantiriladi.

Shaxs sensor tizimini quyidagi tizimosti komponentlar shakllantiradi:

Ko‘rish sezgisi – tashqi olamdagi obyektlarni rangi, shakli, hajmi, harakat turi orqali farqlashga yordam beradi;

Vestibulyar tizimi – insonga tashqi olamda mo‘ljal olishga, muvozanatini saqlashiga yordam beradi;

Eshitish sezgisi – tashqi olamdagi tovushlarni tinglash, ularni farqlash hamda so‘zlashishga yordam beradi;

Propriotseptiv tizim – insonga gavda harakatlarini boshqarishga ko‘maklashuvchi tizim hisoblanadi:

Taktil sezgi – teri orqali bilish obyektining harorati, harakatini, yuzasini bilishga xizmat qiladi.

Sezgilar uch qismdan iborat analizator orqali amalga oshiriladi:

Periferik tizim – retseptorlar;

Nerv tizimi;

Nervlar orqali kelgan impulslarni qayta ishlovchi miya po‘stlog‘i.

Idrok – bilish faoliyatining murakkab shakli bo‘lib, perseptiv harakatlarning his etish, anglash, o‘lchash, baholash kabi turlarini o‘z tarkibiga oladi. O‘z navbatida idrok jarayonida perseptiv harakatlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

– o‘lchash;

– qiyoslash;

– qurish;

– nazorat;

– regulyatsiyalash.

“Sensor harakatlarning rivojlanishi darajasi shaxsning qobiliyatlari shakllanayotganida hamda muayyan bilimlarni va ayrim amaliy ko‘nikmalarni egallash jarayonida katta ahamiyatga egadir. Shaxsda shakl va bo‘yoqlarni idrok etish qobiliyati rivojlangan bo‘lsa, u atrof-tevarakdagi narsalarning xossalarini har tomonlama ko‘radi va his eta oladi”.

“Sensor jarayonlari, ayniqsa, ilk bolalik davrida alohida ahamiyatga ega bo‘ladi, chunki voqealikdagi narsa va hodisalarning shakli, katta-kichikligi, rangi va boshqa xossalarini to‘g‘ri va aniq idrok etish qobiliyati ayni shu ilk va maktabgacha tarbiya yoshi davrida juda tez rivojlanadi”. Shuning uchun ham ilk bolalik davrini o‘rganguncha mashhur rus tadqiqotchilari M.Aksarina ilk bolalik davrini “sensor taraqqiyotining oltin davri” deb ataydi va bolalarda sensor madaniyatni ular hayotining dastlabki oylaridan boshlaboq shakllantirib borish zarurligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Hozirgi psixologik va fiziologik izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, idrok qilish o‘ziga xos mo‘ljallangan harakat-

dan tashkil topgan faol faoliyat bo‘lib, u predmetlarni tekshirishga, uning xususiyatlarini va xossalarini tushunishga qaratilgan.

Sensomotorikani rivojlantirish jarayonining mohiyati quyidagilar bilan izohlanadi:

Shaxs intellektual rivojlanish jarayonining asosi hisoblanadi.

Tashqi olamdan olingan tartibsiz ma’lumotlarni tartibga keltiradi.

Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi.

Real hayotga tayyorlaydi.

Estetik ongning shakllanishiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi.

Tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Diqqatni rivojlantiradi.

Shaxslarga prdemetli-bilish jarayonining yangi usullarini o‘zlashtirishga yordam beradi.

Sensor etalonlarni o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

O‘quv-biluv faoliyatini tashkil etishga yordam beradi.

Sezgi organlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxslarga xatti-harakatlarini boshqarish tajribasini boyitishga yordam beradi.

Jismoniy va hissiy bilish jarayoni birligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Harakatlarni maqsadli tashkil etishga o’rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beruniy Abu Rayhon. “Ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida”. – Toshkent, 1992. 130 bet.

2. Boboyeva D.G. Tevarak-atrofni o’rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog’lanishli nutqini rivojlantirish. 13.00.02. Ped. fan. nomzodi … diss. av-toreferati. – T., 2001. – 25 b.

3. Богуславская З.М., Смирнова Е.О. Развивающие игры для детей младшего дошкольного возраста: Кн. для воспитателей детского сада. - М.: Просвещение, 1991. - 206 с.

4. Венгер Л.А. Педагогика способностей. М., «Знание», 1973. - 117 стр.

5. Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005.

6. Ковалев А.Г. Психология личности. http://window.edu.ru/resource/179/76179/files/psichollichn.pdf

7. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 311 b.

Feruza IBRAIMOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti, PhD

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KOGNITIV TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI LOYIHALASHTIRISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada bolada kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni kognitiv faoliyat tajribasini egallashga yo‘naltirish, pedagogik tafakkuri, kasbiy ijodkorligini rivojlantirish, kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishga tayyorlash masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Kognitiv pedagogika, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik ta’lim, kasbiy ijodkorlik, ta’lim, tarbiya, loyihalash, bilim, metod, kognitiv-pedagogik faoliyat.

В данной статье анализируется вопрос подготовки будущих учителей для приобретения опыта познавательной деятельности, развития их педагогического мышления, профессионального творчества, подготовки их к проектированию познавательного образовательного процесса.

Ключевые слова. Когнитивная педагогика, будущий учитель, педагогическое образование, профессиональное творчество, воспитание, обучение, проектирование, знание, метод, познавательно-педагогическая деятельность.

This article analyzes the issue of training future teachers to gain experience in cognitive activity, develop their pedagogical thinking, professional creativity, and prepare them for designing the cognitive educational process.

Key words. Cognitive pedagogy, future teacher, teacher education, professional creativity, education, training, design, knowledge, method, cognitive and pedagogical activity.

Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarni kognitiv faoliyat tajribasini egallashga yo‘naltirish, ularda tashabbuskorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, kasbiy ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish, o‘quv hamda tadqiqotchilik faoliyatni o‘zaro uyg‘unlashtirishga ko‘maklashadigan topshiriqlarni bajarishga jalb etish ehtiyoji kuchaymoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarga taqdim etiladigan kasbiy bilimlar, ularda ijodiy xarakterdagi pedagogik faoliyat tajribasini egallash mayillarini shakllantirishga xizmat qiladi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarga taqdim etiladigan kasbiy bilimlarni tizimlashtirish zaruriyati mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogikaning xususiy yo‘nalishlari haqidagi aniq bilimlarni taqdim etish orqali, ularning kasbiy dunyoqarashi, pedagogik tafakkuri, kasbiy ijodkorligini rivojlantirish ijtimoiy buyurtmaning asosini tashkil etadi.

Pedagogik amaliyot tabiiy pedagogik shart-sharoitlar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik xarakterdagi tahliliy faoliyatni shakllantirish imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchi tafakkurining predmeti o‘z pedagogik faoliyatining vositalari va metodlarini tahlil qilishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, ular amaliy yechimlarni ishlab chiqish va uni amalda tadbiq etishga oid qarorlarni qabul qilish haqida ham o‘ylashlari kerak.

Pedagogik amaliyotning ijodiy xarakterga egaligi shundaki, mazkur jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik layoqatlari rivojlantiriladi. Shu asosda ular ta’lim-tarbiya jarayonini nostandart usullar yordamida tahlil qilish imkoniyatiga ega

bo‘ladilar. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkor o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilishlari muhim ahamiyatga ega. Ular mazkur jarayonda ijodiy xarakterga ega bo‘lgan turli topshiriqlarni bajaradilar. O‘quv jarayonini loyihalash, innovatsion usullarni qo‘llash vaziyatlarini modellashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faollikka undash jarayonlarini loyihalashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning iqtidorlarini aniqlashga doir topshiriqlar tuzish, evristik topshiriqlar ustida ishlash kabilar shular jumlasidandir . Shunga ko‘ra bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ijodiy rivojlanishlarini tashkil etish oliy pedagogik ta’limning dolzarb vazifalaridan biridir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishga tayyorlashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

– bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quv-biluv jarayonni loyihalashtirishning o‘ziga xos jihatlari bilan tanishtirish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarda kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari haqida tasavvur hosil qilish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarda kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi hamda o‘qituvchi hamkorligini yo‘lga qo‘yish usullari haqidagi bilimlarni singdirish, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarda bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-biluv natijalarini boshqarish va nazorat qilishga oid bilimilarni taqdim etish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarda kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonida asosiy sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsatish tajribasini hosil qilish kabilar.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning erkin faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llash uchun dastlab ularda quyidagi bilimlarni hosil qilish lozim :

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarni reproduktiv usullar bilan muntazam ishlashlariga yo‘l qo‘ymaslik. Buning uchun ularda kasbiy jihatdan o‘z-o‘zlarini namoyon qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarda erkin fikrlash, ixtirochilik, ijodkorlik ko‘nikmalarini izchil shakllantirish va kognitiv ta’lim jarayonini loyihalashda ushbu ko‘nikmalarni namoyon qilishlariga keng yo‘l ochish.

3. Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkorlik, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini namoyon qilishlari uchun qulay vaziyatlarni vujudga keltirish kabilar.

Turli o‘quv predmetlaridan dars beradigan o‘qituvchilarning yagona maqsadga erishishlarini ta’minlash uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni guruhli hamkorlikka undash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda guruh a’zolari uchun umumiy muvaffaqiyatni ta’minlovchi vazifalarni hal qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunday umumiy vazifalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’limning konseptual asoslari hamda texnologiyalarini chuqur tahlil qilishga o‘rgatish.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarni bo‘lajak o‘qituvchilarning qobiliyatlari, shaxsiy rivojlanishlari, o‘ziga xosliklarini tashxislashga o‘rgatish.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarni bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi va kognitiv o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishga qaratilgan o‘z faoliyatlarini tahlil qilib, takomillashtirib borishga odatlantirish kabilar.

Buning uchun professor-o‘qituvchilar har bir guruhda individual vazifalarni bo‘lajak o‘qituvchilarga bajartirishga tayyor bo‘lishlari kerak. Chunki bunday guruhlarga o‘zaro yaqin yoki bir-biriga bilim darajasi teng hamda kasbiy ko‘nikmalar va malakalarga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilar birlashtiriladilar.

Faol bo‘lmagan reproduktiv usullar bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zlarini namoyon qilishlarini ta’minlashga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlar doirasida ularning pedagogik bilimlarini kengaytirish, kasbiy tajribalarini

boyitish maqsadi ustuvor qilib qo‘yiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ruhiy xususiyatlarini markazlashtirish natijasida kasbiy ko‘nikmalarning integrallashgan, tizimlashtirilgan, ijodiy xarakter kasb etuvchi namunasi vujudga keladi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy ko‘nikmalarining turli qirralari va parametrlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy bilimlarning ortishi ularning istiqboldagi faoliyat yo‘nalishlari, fikrlari va shakllanish maqsadlarini ifodalaydi. Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilar oldida quyidagi vazifalar qo‘yiladi :

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quv maqsadlarini aniqlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Bu jarayonda ularda bo‘lajak o‘qituvchining o‘ziga xosligi va imkoniyatlarini hisobga olish, bo‘lajak o‘qituvchilar hayotining istiqbolga yo‘naltirilganligi, umuminsoniy, milliy va shaxsiy qadriyatlarga asoslangan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

2. O‘quv jarayoni mazmuniga insonparvarlik tushunchalarini singdirgan holda bo‘lajak o‘qituvchilarda bo‘lajak o‘qituvchining hayotiy ehtiyojlari asosida uning rivojlanishini modellashtirish ko‘nikmasini tarkib toptirish. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilarda ajdodlarimiz va jahon xalqlarining ilg‘or tajribalari, fan-texnika yutuqlaridan kognitiv ta’lim mazmunining tarkibiy qismi sifatida foydalanish, o‘quv jarayoni tarkibini kognitiv texnologiyalarga asoslangan holda belgilash ko‘nikmasini shakllantirish talab etiladi.

3. Kognitiv o‘quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga oliy pedagogik ta’lim mazmunini yo‘naltirish. Bu holat muayyan pedagogik vaziyatlarda namoyon bo‘lishi kerak. Jumladan, muammoli, ijodiy-jamoaviy, loyihalashtirish vaziyatlari, dasturlardan foydalanish, o‘yin va o‘zaro muloqot vaziyatlari kabi.

Ixtirochi, ijodkor, erkin fikrlovchi bo‘lajak o‘qituvchilar kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishda quyidagilarga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir:

1. Kognitiv ta’lim maqsadidan kelib chiqqan holda bo‘lajak o‘qituvchilar bilan amalga oshiriladigan o‘zaro hamkorlik va muloqot jarayonidagi to‘siqlarni bartaraf etish yo‘llarini aniq bilishlari va loyihalashtira olishlari, shu asosda bo‘lajak o‘qituvchilarni bir-birlarini o‘zaro tushunish, hamorlik, do‘stlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik, tenglik ruhida tarbiyalashga erishish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya jarayoniga bo‘lajak o‘qituvchini rivojlantirishga xizmat qiladigan komponentlarni mustaqil kirita olish layoqatiga ega bo‘lishlariga erishish, bunda ta’lim mazmuniga kiritilgan komponentlar o‘qituvchi hamda bo‘lajak o‘qituvchini birgalikda fikrlashga undashi zarurligini nazarda tutishlari.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilar bo‘lajak o‘qituvchining rivojlanish darajasi tashxislariga tayanib bosqichma-bosqich mashg‘ulotlar, ijodiy topshiriqlarni murakkablashtirgan holda loyihalashtira olishlari, bunday loyihalarni tuzishda bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkorliklari, yaratuvchiliklari, mustaqil fikrlash layoqatlari, o‘quv hamda ijodkorlik mayllarini rivojlantirishni hisobga olishlari lozim.

Ijodkor, tadqiqotchi bo‘lajak o‘qituvchilar ta’lim jarayonida quyidagi holatlarga e’tibor qaratishlari zarur:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilar bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlari va uning natijalarini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qila olishlari, bo‘lajak o‘qituvchilarning rivojlanishiga imkon berishiga ko‘maklashadigan o‘quv-biluv jarayonining maqsadi, mazmuni, pedagogik vositalarini aniq loyihalashtira olishlari.

2. Ta’lim mazmuni, o‘qitish metodikasi, texnologiyalari, modellariga kiritilgan yangi o‘quv elementlarini nazariy-didaktik jihatdan asoslab bera olishlari.

3. Olingan natijalarga tayangan holda istiqboldagi kasbiy pedagogik faoliyatlari, xatti-harakatlarini tuzatib, takomillashtirib borishlari talab etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihalashtiriladigan ta’lim jarayoni haqidagi qarashlari, nuqtai nazarlarining boyishi uning istiqbolda kasbiy faoliyatida erishadigan muvaffaqiyatlarini ta’minlaydi. Bunday vaziyatni biz yosh o‘qituvchilarning kognitiv o‘quv-biluv jarayonini boshqarishga oid faoliyatlarini kuzatganimizda aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Buni biz bitiruvchi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyat tajribalarini tahlil qilish natijasida aniqlashga erishdik:

– bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyat tajribasi va kognitiv o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish va boshqarish mezonlarini o‘zlashtirganliklari;

– bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik modelni kognitiv o‘quv-biluv jarayonida qo‘llay olish mahoratiga egaliklari;

– ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining rivojlanish darajasini tashxislaydigan metodlarni qo‘llay olishlari;

– ta’lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tarzda loyihalashtira olishlari kabilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilar ta’lim-tarbiya jarayoni o‘z xarakteriga ko‘ra muntazam rivojlanuvchi, jarayonli faoliyat ekanligini anglab yetishlari lozim. Mazkur pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun dastlab uni maqsadga muvofiq tarzda loyihalash, bunda jarayon sub’ektlarining xohish-irodasi, ongliligi, faollik darajasini hisobga olishlari muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, oliy pedagogik ta’lim jarayonida amalga oshirgan kuzatishlarimiz, bo‘lajak o‘qituvchilar bilan suhbatlarimiz, muloqotlarimiz, anketa so‘rovlarimizning natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bo‘lajak o‘qituvchilarda kognitiv ta’lim jarayonini tavsiflash, uni tarkibiy qismlarga ajratish va loyihalash ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmagan. Shundan kelib chiqqan holda oliy pedagogik ta’lim jarayonida dastlab quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘qituvchi faoliyatining shakl va metodlari haqida aniq ilmiy tasavvur hosil qilish, o‘qituvchining kasbiy madaniyati va pedagogik bilimdonligini oshirishga oid zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish mayllarini hosil qilish.

2. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi o‘zining kasbiy kompitentliligini namoyon qilishi uchun qulay didaktik vaziyatni vujudga keltirish usullarini o‘zlashtirishlari.

3. O‘quv-biluv jarayonida o‘qituvchining mahsuldor faoliyat ko‘rsatish mayllarini rivojlantirish usullarini o‘zlashtirishlari.

4. Shaxs rivojlanishining o‘ziga xos mezonlari asosida uning o‘quv-biluv faoliyatini tahlil va tashxislash metodlarini egallashlari.

5. Bo‘lajak o‘qituvchilar oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qituvchiga xos bo‘lgan o‘quv-biluv jarayonini boshqarish madaniyatini o‘zlashtirishlari.

6. Bo‘lajak o‘qituvchilar bo‘lajak o‘qituvchilarning rivojlanishlari va o‘z-o‘zlarini namoyon qilishlarini ta’minlashga imkon beradigan o‘quv-biluv vaziyatini vujudga keltirish tajribasini egallashlariga erishish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. – B. 219.

2. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent, 2023.

3. Ibragimov, X., Abdullayeva Sh. “Pedagogika nazariyasi (darslik).” – T.: Fan va texnologiya, 288 (2008).

4. Ibraimov Kh.I. Creativity as one of the characteristics of the personality of the future teacher // Science, education and culture. – 2018. – No. 3 (27). – P. 44-46.

5. Ibraimov X.I., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T., “Shaffof”, 2023, 416-bet.

Sohiba HAJIYEVA,
Toshkent shahri Puchon universiteti Ta’lim muassalarini boshqarishning 1-bosqich talabasi

BOLALARDA KREATIVLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Bolada kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish lozimdir. Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning estetik tafakkurini rivojlantirishda kreativ yondashuv haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek mustaqil fikrlashga o‘rgatish muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar. Kreativ, bola, taafakkur, maktabgacha ta’lim tashkiloti, ijodiy, estetika, mashg‘ulot.

Для полноценного понимания общей сущности процесса развития у ребенка качеств креативности необходимо изначально разобраться в значении понятия “креативность”. В данной статье речь пойдет о творческом подходе в развитии эстетического мышления детей дошкольного возраста. Также обсуждается обучение самостоятельному мышлению.

Ключевые слова. Креативный, детская, созерцательная, дошкольная организация, творческая, эстетическая, тренировочная.

To fully understand the general essence of the process of developing the qualities of creativity in a child, it is necessary to initially understand the meaning of the concept of “creativity”. This article will focus on a creative approach to the development of aesthetic thinking in preschool children. Learning to think independently is also discussed.

Key words. Creative, children’s, contemplative, preschool organization, creative, aesthetic, training.

Yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish uzluksiz ta’lim tizimining boshlangich bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan ta’lim va tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasida keng ko‘lamli ishlar, islohotlar amalga oshirilmoqdaki, bu o‘z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim va tarbiya olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni asosiy vazifa qilib qo‘ygan.

Bola rivojiga individual yondashuv, shaxsiyatini hurmat qilish, uning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, his-tuyg‘ularini e’tiborga olish zarur. Shu asosda tarbiyachilarning tarbiyaviy ishlarining mazmuni, shakllari, vositalari va metodlarini o‘zlashtirishlariga erishiladi. Tarbiyachilar bolalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish metodlarini ham egallashlari lozim. Bularning barchasi tarbiyalanuvchilarda ma’naviy xislatlarni tarkib toptirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kreativlik so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “yaratish” degan ma’noni anglatadi. Kreativlik bu o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmuidir.

Hozirgi paytda jamiyatning bog‘cha oldiga qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to‘g‘ri yondashgan holda ularni amalda bajarish pedagogning vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda pedagog eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo‘lishi lozim chunki, u kechiktirib bo‘lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma’naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish pedagogdan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o‘z ishiga ijodiy yondashishni ta-

lab etadi. Pedagogning kreativligi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma’lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi , sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning muammosi ko‘pgina pedagog va tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o‘rganilib kelinmoqda. Emebaylning fikricha kreativlik muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish demakdir. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negiizda noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil - mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borsidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Boshqa ko‘pgina, sifatlar (fazilat) singari kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirib boradi. Bolaning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davri, chunki aynan manashu davrda psixik jarayonlar progressive o‘zgarishlar kechadi va shaxsiy fazilatlar tezkor rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o‘yinlar yordamida amalga oshadi.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib o‘qituvchining kreativligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida estetik tafakkurni shakllantirishning ko‘pgina usullari mavjud.

Estetika (yunoncha aisthetikos - hissiy idrok, sezgi) - 1) voqyelikni hissiy ta’sirchan, emotsional o‘zlashtirish; 2) estetik faoliyat qonuniyatlari to‘g‘risidagi fan, nafosatshunoslik. Estetikaga oid dastlabki ta’limotlar miloddan avvalgi 2-3 ming yil muqaddam Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoyda vujudga kelib, Qadimgi Yunonistonda Aflotun, Arastu, rimlik Lukretsiy, Goratsiy singari mutafakkirlarning asarlarida har tomonlama rivojlandi. O‘rta asrlarda Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda ham o‘ziga xos estetik g‘oyalar vujudga keldi. Nizomiy, Sa’diy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Behzod kabi san’atkorlar ijodida go‘zallik va ezgulikning uyg‘unligini tarannum etuvchi estetik tasavvurlar tarkib topdi. Bunda mashg‘ulot jarayonida turli o‘yinlardan foydalaniladi. Mashg‘ulotni samarali o‘tkazish o‘z navbatida tarbiyachi pedagogga bog‘liqdir. Mashg‘ulotlarda «kreativlik yo‘l xaritasi»ga ko‘ra quyidagi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

1. Ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;

2. Mashg‘ulotlarni qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;

3. Innovatsion yondashuv va pedagog masalalarining yechimini topishga kreativ yondashish;

4. Kutiladigan natija.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, shuningdek, bolalar faoliyatining o‘yin, dramatizatsiya kabi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to‘rtta kreativlik konikmasini

aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko‘plab g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi ko‘p degan so‘zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi o‘zgartirish degan so‘zga asoslanadi.

3. O‘ziga xoslik. Boshqalarga o‘xshamagan, ajralib turuvchi g‘oyani o‘ylab topish ko‘nikmasi noyob degan so‘zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G‘oyalarni kengaytirish ko‘nikmasi qo‘shish degan so‘zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g‘oyalarni o‘ylab topish (o‘ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g‘oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog‘liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko‘nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlari ni muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan:

• Kreativ fikirlash ko‘nikmasini shakllantirish;
• Amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish
• Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
• Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o‘qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, kreativlikni faollashtirish usullaridan foydalangan holda tashkillashtirilgan ijodiy o‘yin vazifalari, hayotiy vaziyatlar kreativ o‘yin va mashg‘ulotlardan foydalanish maktabgacha yosh davridagi bolalarda kreativ yondashuv asosida estetik tarbiyani shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Kreativ tafakkurga ega bo‘lgan bola mashg‘ulotlarni tez o‘zlashtirish, berilgan har bir ta’limiy va tarbiyaviy ta’limotlarni tezda ilg‘ab oladilar va hayotga tatbiq etish xususiyatiga ega bo‘ladilar. Maktabgacha yoshdanoq kreativ fikrlay oladigan estetik tafakkurga ega bo‘lgan bolalar kelajakda buyuk inson bo‘lib, yetishadilar va o‘z navbatida kelajakda vatani ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Shunday qilib, maxsus ta’lim jarayonida barcha bolalar kreativ va ijodiy konstruktiv muammolarni hal qilishni.

O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy,kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish,ularni ijodiy fikirlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘ladi. Тарбиячиларнинг ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

3. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘‘g‘risida”gi 802-son qarori. T. 2020 y.

4.https://cyberleninka.ru/article/n/kreativlik-pedagogik-faoliyatni-rivojlantirishning-asosiy-omili-sifatida

5.https://cyberleninka.ru/article/n/kreativ-yondashuv-asosida-maktabgacha-yoshdagi-bollarda-estetik-tafakkurni-rivojlantirish

I.A. ADXAMOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

IJTIMOIY SHERIKLIK ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBASINI TAQQOSLASH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mahalliy hamda xorijiy tajribalar asosida ishbilarmonlik, tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari haqida so’z borgan.

Kalit so‘zlar. Ishbilarmonlik, tadbirkorlik, kompetensiya, xorijiy tajriba, mahalliy tajriba, kasbiy kompetensiya, yoshlar tadbirkorlik maktabi.

В статье говорится о путях развития предпринимательства и предпринимательских компетенций будущих учителей начальных классов на основе отечественного и зарубежного опыта.

Ключевые слова. Бизнес, предпринимательство, компетентность, зарубежный опыт, отечественный опыт, профессиональная компетентность, школа молодёжного предпринимательства.

The article talks about ways to develop entrepreneurship and entrepreneurship competencies of future primary school teachers based on local and foreign experiences.

Key words. Business, entrepreneurship, competence, foreign experience, local experience, professional competence, youth entrepreneurship school.

Jahon hamjamiyati bunday raqobatbardosh va malakali kadrlarning (ayniqsa, yoshlarning) yangi avlodini yaratishga katta umid bog‘lamoqda, ular boshqa narsalar qatori mustaqil tadbirkorlik faoliyatini, kasbiy ta’limni va umumiy ta’limni amalga oshirishga qodir, bu esa shaxsning boshlanishini yanada rivojlantirishga va foydalanishga tayyor shaxsni rivojlantiradi ijtimoiy sheriklik asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tadbirkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirishga xos bo‘lgan kompetentsiyalar. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyot uchun yosh avlodning tadbirkorlik kompetentsiyalari – barqaror strategik natijalarni ta’minlaydigan yangi va ilg‘or yo‘nalish – yoshlar tadbirkorligini samarali rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

“Kompetentsiya”ni aniqlashda bir nechta yondashuvlar mavjud. O‘zbek tilining zamonaviy izohli lug‘atiga ko‘ra kompetentsiya – bu kimdir yaxshi biladigan masalalar sohasi. Kompetentsiyalari asoslangan (lot dan. competens) – biron sohada puxta bilimga ega bo‘lish, bilish.

Ko‘pincha kompetentsiya so‘zi bilan bir qatorda “kompetentsiya” atamasi kompetentsiyaning sinonimi sifatida topiladi. Lekin kadrlar bilan ishlaydigan ko‘pchilik mutaxassislar, biznes va tadbirkorlik masalalari; xodimlarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishni o‘rganuvchi olimlar (psixologlar, iqtisodchilar), shu jumladan tadbirkorlik kompetentsiyalar, kompetentsiya atamasidan foydalandik:

Adabiyotlar tahlili va metodlar. D.Makklellandni xodimlarni boshqarish bo‘yicha

kompetentsiyalarga asoslangan yondashuvning asoschisi deb hisoblash mumkin (kompetentsiya metodologiyasi). (Makklelland). Psixolog Makklelland XX asrning 60-yillari oxiridan boshlab Garvard umumiy o‘rta ta’lim maktabida ishlagan. U kompetentsiyalarni quyidagicha aniqlash uchun asos yaratdi. Kasbiy samaradorlikka ta’sir qiluvchi ba’zi omillar faoliyati. 1973 yilda u “Amerikalik psixolog” jurnalida chop etilgan “Intellektni emas balki kompetentsiyani sinovdan o‘tkazish kerak” nomli maqola yozdi. Makklelland tomonidan taklif qilingan metodologiyaning mohiyati quyidagilardan iborat edi:

Xodimlar bilan bog‘liq jarayonlarning aksariyati xodimlarni baholashga bog‘liq. Lavozimga murojaat qilib, nomzod alohida mezonlarga muvofiq baholanadi; uning keyingi tayyorgarligi shaxsni tahlil qilish asosida amalga oshirilganda eng samarali hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, kompetentsiya faqat baholash bilan birga mantiqan to‘g‘ri keladi.

Davlatimiz tomonidan ijtimoiy sheriklik asosida nafaqat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining balki butun yoshlarmizni tadbirkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirish borasida bir qator ijobiy loyihalarni hayotga tadbiq etib kelmoqda. Jumladan, yosh tadbirkorlarga imtiyozli subsidiyalar va kreditlarning bir nechta dasturlarini, yosh tadbirkorlar vakili bo‘lgan kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish loyihalarini yaratildi. Ushbu dasturlar samarali ishlashni boshlashi kerak. Ammo ularni amalga oshirish uchun tadbirkorlarning muvaffaqiyatlarini tahlil qilishning katta va to‘laqonli tizimi zarur bo‘lib, u ko‘pincha buxgalteriya hisobotlari va iqtisodiy faoliyat tahlili yordamida amalga oshiriladi, natijada tegishli qarorlar qabul qilinadi yoki yangi o‘quv dasturlari va standartlari ishlab chiqilmoqda va o‘qitishga joriy etilmoqda. O‘z biznesini yuritishga kirishgan yoshlar o‘zlarining bir necha yil ichida ish sohasiga kiradigan va mumkin bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan ijtimoiy sheriklik asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar o‘rtasida tadbirkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari yuzaga kelmoqda.

Bu jarayon aynan oliy ta’limning eng dolzarb masalalaridan biridir. Respublikamizda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar orasida o‘z biznesini, o‘z biznesini yuritishga tayyorgarlik ko‘rish muammosi tobora keskinlashib bormoqda. Zamonaviy yosh avlod ishbilarmon bo‘lishga, muvaffaqiyatga erishishga intiladi, iqtisodiy jihatdan davlatga qaram bo‘lmaslikni istaydi. Jamiyat va madaniyatning o‘zgargan ko‘rinishi, qarama-qarshi tendentsiyalar, izlanishlar va tajribalar, asosan dunyoning murakkabligi tufayli, yoshlar tadbirkorligini ijodiy rivojlantirish uchun yangi kontseptual asoslash zarurligiga olib keldi. Kelajakda o‘z biznesini yaratish istagi haqida jamoatchilik jamg‘armasi tomonidan so‘nggi yillarda statistik tadqiqotlar ko‘ra, 30 foiz ijobiy javoblar mehnat rejalari haqida yosh o‘zbeklar umumiy so‘rovda qabul qilindi, holbuki 36 foiz respondentlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri savol javob berdi (bu uchun barcha sharoitlar mavjud yedi, agar yaqin kelajak). Yana 9 foiz javob berishga qiynaldi. Shu bilan birga, 12-16 yoshdagi 26 foiz vatandoshlar keyingi ikki yil ichida ushbu rejalarni amalga oshirishga tayyor.

Tadqiqotlar salohiyati tadbirkorlar o‘z moliyaviy vaziyat uchun katta mas’uliyat bilan ajralib ko‘rsatdi (yoshlar orasida 73 foiz o‘rtacha qarshi 59 foiz), ular bir marotaba (85 foiz) qurish uchun ko‘proq ishtiyoqmand va, boshqa narsalar orasida, ish ularning joriy joyda yoki ularning ish bilan kamroq rozi mutaxassisligi: ishlayotganlarning 48 foiz mutaxassisligi bo‘yicha emas, o‘z biznesini tashkil qilmoqchi (taqqoslash uchun – mutaxassisligi bo‘yicha ishlaydiganlarning 22 foiz va ishlamaydiganlarning 29 foiz). Tadbirkor bo‘lishni istagan yoshlarga ularning qadr-qimmati oralig‘ida ko‘proq e’tibor karera (+44 foiz), muvaffaqiyat (+16 foiz), barqarorlik (+13 foiz), imon (+18 foiz), o‘zlikni anglash (+19 foiz), erkinlik (+6 foiz) va quvvat (+12 foiz). Shu bilan birga, ular pulni umuman yoshlarga qaraganda 3 foiz kamroq qadrlashadi. Ushbu so‘rov natijalariga

ko‘ra, potentsial tadbirkorlar o‘zlarining martaba ambitsiyalarini amalga oshirish uchun muayyan qurbonliklarga tayyor bo‘lgan maqsadli yoshlardir. Ushbu dissertatsiya adqiqotida biz yoshlar tadbirkorligiga nisbatan tushunchalar metodologiyasidan foydalanish mavzusini yanada ko‘rib chiqish uchun “yoshlar tadbirkorligi” atamasining ilmiy ta’rifini aniqlashtirish kerak degan xulosaga keldik. Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va yoshlar biznesini qo‘llab-quvvatlash 3 tamoyilga asoslanadi:

1. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish;

2. Ularning tadbirkorlik g‘oyalarini biznes loyihalariga targ‘ib qilish va kichik korxonalarni rivojlantirish;

3. Yaratilgan yoshlar biznes tuzilmalarini tashkiliy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash tizimi – bu umumiy maqsad va vazifalar, tashkiliy-huquqiy munosabatlar, Qonunchilik va normativ-huquqiy baza bilan birlashtirilgan va umumiy uslubiy va funktsional yondashuvlar asosida ishlaydigan mintaqaviy va mahalliy darajadagi tashkiliy tuzilmalar to‘plami.

Yoshlar tadbirkorligiga davlat darajasida ko‘maklashish tizimiga quyidagilar kiradi:

– Xalqaro va yoshlar palatalari,

– Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish markazi,

– Ilmiy-texnik sohadagi korxonalarning kichik shakllarini rivojlantirishga ko‘maklashish jamg‘armasi,

– Yoshlar Jamoat Palatasi,

– Jamoatchilik bilan aloqalar uchun o‘quvchilar uyushmasi.

Toshkentda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash tizimi tashkilotlar tomonidan namoyish etiladi:

– tadbirkorlikni rivojlantirish markazining yoshlar tadbirkorligi bo‘limi;

– kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘limi qoshidagi yoshlar Kengashi;

– tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi;

– kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘limi;

– oila va yoshlar siyosati bo‘limi;

– davlat muassasasi “yoshlarga huquqiy va axborot yordami markazi” tanlovi;

–Yoshlar Jamg‘armasi;

– innovatsiya va yuqori texnologiyalar markazi;

Xulosa. Ba’zi ijtimoiy sheriklik asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tadbirkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun biznes-inkubatorlar tashkil etishga ham harakat qilishdi. Ammo tashabbus tegishli mablag‘, joy va mutaxassislarning etishmasligi bilan cheklangan. Bugungi kunga qadar bunday faoliyatni tartibga soluvchi va “biznes-inkubator” kontseptsiyasini joriy etish va tushuntirish bo‘yicha rasmiy hujjatlar qabul qilingan. Yoshlar va o‘quvchilar o‘z hayotlarini martaba o‘sishi orqali emas, balki o‘z bizneslarini tashkil etish orqali ta’minlash imkoniyatiga qiziqish bildirdilar. Kichik biznesni “inkubatsiya qilish” g‘oyasi dolzarb va talabga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреэва Г.М. Социальная психология. Учебник для вқсших учебнқх заведений. - .: Аспект Пресс, 1996 -376 с.

2. Голованова Н.Ф. Социализация младшего школьника как педагогическая проблема. - СПб.: «Спетсиальная Литература», 1997. - 192 с.

3. Ibragimov X., SH. Abdullaeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008, 124- bet.

4. Возрастная и педагогическая психология / Под ред. М. В. Гамезо и др. М.: Просвещениэ, 1984. 256 с.

Гулинур ХАЙДАРОВА,
Каршинский государственный университет, докторант

АНАЛИЗ МЕДИЙНОГО КОНТЕНТА КАК МЕТОД ИССЛЕДОВАНИЯ В ПЕДАГОГИКЕ

Annotatsiya

Maqolada media-kontent tahlilidan pedagogikada tadqiqot usuli sifatida foydalanishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mavzu bo'yicha adabiyotlarni ko'rib chiqish, media tarkibini tahlil qilishning asosiy yondashuvlari va usullari, ularni pedagogik tadqiqotlarda qo'llashi tahlil qilinadi. Xususan, muallif kontent-tahlil, diskurs-tahlil, semiotik tahlil va boshqalar kabi usullarni ko'rib chiqib, natijalar bo'limida turli usullarning samaradorligini muayyan tadqiqot misollaridan qiyosiy tahlil qilib bergan.

Kalit so'zlar. Media tarkibini tahlil qilish, tadqiqot usullari, pedagogika, tarkibni tahlil qilish, nutqni tahlil qilish.

В статье рассматривается использование анализа медиа-контента в качестве метода исследования в педагогике. Также анализируется обзор литературы по теме, основные подходы и методы анализа медиа-контента, их применение в педагогических исследованиях. В частности, автор рассмотрел такие методы, как контент-анализ, дискурсивный анализ, семиотический анализ и т. д., предоставив сравнительный анализ эффективности различных методов из конкретных примеров исследований в разделе результатов

Ключевые слова. Анализ медиаконтента, методы исследования, педагогика, контент-анализ, дискурс-анализ.

The article examines the use of media content analysis as a research method in pedagogy. It also analyzes the review of literature on the topic, the main approaches and methods of analyzing media content, their application in pedagogical research. In particular, the author examined such methods as content analysis, discourse analysis, semiotic analysis, etc., and in the results section he gave a comparative analysis of the effectiveness of various methods from specific research examples

Key words. Media content analysis, research methods, pedagogy, content analysis, discourse analysis.

В современном информационном обществе медиа среда играет важную роль в социализации и обучении подрастающего поколения. Влияние различных видов медиа, таких как телевидение, интернет, социальные сети и др., на формирование личности и мировоззрения детей и молодежи является актуальной исследовательской проблемой. Однако методология изучения медийного воздействия в педагогике до сих пор недостаточно разработана.

В данной статье анализируются возможности применения методов анализа медийного контента как инструмента педагогических исследований. Анализ медиаконтента (media content analysis) представляет собой совокупность методов для изучения смыслов, заложенных в медиа текстах и аудиовизуальных медиа. Медиаконтент можно определить как содержание, представленное посредством медиа в текстовой, аудио или видео форме.

Цель данного обзора - проанализировать перспективы и ограничения использования анализа медиаконтента как метода педагогических исследований воздействия медиа и выявить наиболее эффективные подходы. Поставлены следующие задачи:

1. Провести обзор литературы по теме применения анализа медиаконтента в педагогических исследованиях.

2. Описать основные методы анализа медиа, используемые в педагогике.

3. Проанализировать эффективность разных методов на конкретных примерах исследований.

4. Определить перспективы и ограничения анализа медиаконтента как инструмента педагогических исследований.

Анализ предшествующих исследований показал наличие ряда работ, посвященных применению методов анализа медиа в педагогических исследованиях. Однако комплексного осмысления возможностей и ограничений медиа анализа как инструмента изучения медиа воздействия в образовательном и воспитательном контексте пока недостаточно.

Исследования в этой области в основном сосредоточены на нескольких направлениях:

1. Изучение репрезентации тем и персонажей в образовательных медиа с помощью контент-анализа.

2. Дискурс-анализ учебных и популярных медиа текстов с целью выявления заложенных в них ценностных смыслов и установок.

3. Семиотический и семантический анализ визуального ряда образовательных медиа и его интерпретации детьми.

4. Рассмотрим более подробно основные группы методов, используемых в этих исследованиях.

Контент-анализ как количественно-качественный метод широко применяется для изучения содержания разных типов медиа текстов, в том числе в педагогических исследованиях медиа воздействия. Он позволяет выявлять основные темы и сюжетные линии медиаконтента, частоту упоминаний определенных персонажей и идей, особенности языка и стилистики медиа текстов. На основе контент-анализа можно делать выводы о ценностных установках, транслируемых тем или иным медиаконтентом, например детскими телепередачами или учебной литературой.

Дискурс-анализ позволяет рассматривать медиа тексты в культурном и идеологическом контексте, анализируя используемые языковые приемы в связи с вопросами власти, неравенства, конструирования идентичности. С помощью дискурс-анализа выявляются скрытые смыслы и установки, неочевидные при поверхностном прочтении текста. Этот подход широко используется для критического осмысления образовательных и популярных медиа как инструментов трансляции определенного типа ценностей и мировоззрения.

Семиотический анализ медиа текстов предполагает рассмотрение системы знаков и символов, используемых для кодирования и передачи информации в медиа продукции - как вербальных, так и невербальных (визуальных, аудио). Особенно актуален этот подход при исследовании восприятия образовательного аудиовизуального контента детьми. Семиотический и семантический анализ позволяет интерпретировать, какие смыслы и ценности транслирует визуальный ряд и как он декодируется юной аудиторией.

Как видно из обзора, существует широкий набор качественных и количественных методов анализа медиаконтента, которые могут использоваться исследователями в зависимости от задач конкретного педагогического

исследования медиа воздействия. Рассмотрим их применение и эффективность на примерах ряда исследований.

Для анализа эффективности рассмотренных методов были проанализированы конкретные примеры исследований влияния медиа на социализацию детей и подростков, где эти методы были использованы.

В исследовании воздействия телепередач на гендерные стереотипы девочек-подростков использовался метод количественного контент-анализа популярных молодежных сериалов. Были проанализированы гендерные характеристики главных героев, время на экране, сюжетные линии. На основе результатов делается вывод о трансляции телесериалами традиционных стереотипных представлений о женственности. Однако контент-анализ не позволяет выявить более глубинные смысловые конструкции.

В исследовании гендерных стереотипов в дискурсе детских анимационных фильмов применяется критический дискурс-анализ с элементами семиотики. Выявлены лингвистические и визуальные приемы наделения персонажей гендерными характеристиками. Показано, как через язык и образы транслируются традиционные представления о мужественности и женственности. Мультфильмы рассматриваются как элемент социализирующего дискурса.

Исследование репрезентации расовых отношений в популярных американских мультсериалах демонстрирует сочетание количественного и качественного подходов. Контент-анализ позволяет выявить долю и время на экране персонажей разных рас, а дискурс-анализ - проанализировать особенности репрезентации разных расовых групп. Выявлено как явное, так и скрытое воспроизводство расовых стереотипов.

Исследование интерпретации рекламных образов детьми базируется на методе фокус-групп с элементами семиотического анализа. Детям предъявлялись рекламные изображения, которые они должны были интерпретировать. Затем проводился анализ детских интерпретаций с точки зрения понимания визуальных знаков и символов. Выявлены возрастные различия в декодировании рекламных образов.

Таким образом, приведенные примеры демонстрируют эффективность сочетания качественных (дискурс-анализ, семиотический анализ) и количественных (контент-анализ) методов анализа медиаконтента для получения комплексной исследовательской картины.

Проведенный анализ показывает, что методы анализа медиаконтента открывают широкие возможности для педагогических исследований процессов медиа воздействия на детей и молодежь. Они позволяют выявить не только явные, но и скрытые смыслы, ценности и установки, транслируемые образовательными и развлекательными медиа.

К ограничениям следует отнести значительную трудоемкость глубинного качественного анализа, особенно при работе с большими массивами данных. Автоматизированные методы контент-анализа могут дать лишь первичную количественную картину. Для исследования механизмов влияния на ценностную сферу и модели поведения необходим постоянный контроль качества анализа и интерпретации медиа текстов с учетом широкого социокультурного контекста.

Тем не менее, при правильном применении анализ медиаконтента открывает уникальные возможности для изучения роли медиа в социализации и образовании подрастающего поколения. Перспективным представляется дальнейшее развитие комплексного подхода, сочетающего качественный и количественный анализ, применение новых цифровых методов обработки больших данных в связке с их контекстной гуманитарной интерпретацией с

привлечением экспертов предметной области.

Проведенный анализ показал, что методы анализа медийного контента (контент-анализ, дискурс-анализ, семиотический анализ) представляют собой эффективный инструментарий для педагогических исследований, позволяющий всесторонне анализировать влияние образовательных и развлекательных медиа на детей. Оптимальный подход - сочетание качественных и количественных методов анализа медиа текстов и визуальных медиа. Анализ конкретных исследований показал перспективы комплексного подхода с использованием автоматизированных и ручных методов. При правильном применении методы анализа медиаконтента позволяют вскрывать механизмы медиа воздействия на ценностную сферу и модели поведения детей.

Использованная литература:

1. Быховский Я. С. (1999). Образовательные веб-медиа. – М.: Изд-во МГУ.

2. Лукина М.М., Фомичева, И.Д. (2007). СМИ в пространстве Интернета. Москва: Издательский дом «Фаир Пресс».

3. Кирия И. В. (2019). Методы контент-анализа медиатекстов. Вопросы теории и практики, 3(9), 85-95.

4. Ivanova A. (2017). Media Violence Content Analysis. Journal of Cultural Research, 23(4), 301-317.

5. Войскунский А. Е. (2001). Медиапсихология: определение и статус. Психологический журнал, 22(6), 90–100.

6. Челышева И. В. (2008). Медиаобразование в России: краткая история развития. Taganrog: Кучма.

7. Thompson L., & Zerbinos E. (1995). Gender roles in animated cartoons: Has the picture changed in 20 years? Sex Roles, 32(9-10), 651-673.

8. Рождественская Е. Ю. (2015). Гендерные стереотипы в дискурсе современных медиа. Вестник СПбГУ, 63(1), 209-221.

9. Gifford N.T. (2016). Children's Perceptions of Racial Groups and Television Car9. toon Characters. The Howard Journal of Communications, 27(3), 205-225.

10. Arestova O., Babanin, L., & Voiskounsky A. (2000). Educational multimedia: Analysis of Russian children's perception. Moscow University Press.

11. Березин В. М. (2002). Массовая коммуникация: сущность, каналы, действия. М.: РИП-холдинг.

12. Кастельс М. (2000). Информационная эпоха: экономика, общество и культура. М.: Высшая школа экономики.

Mohira JO‘RAYEVA,
Teacher and student of KSU, PhD

AN INTEGRATED APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCE

Annotatsiya

Maqolada nutq madaniyatini samarali usullar bilan oshirish va bo‘lajak pedagoglarimizda notiqlik san’atini shakllantirish ko‘nikmalari tahlil qlinadi. Ushbu jarayonga muallif kompleks yondashuvni qo‘llash samaradorligini o‘rganilib, amaliy interaktiv usullar va didaktik vositalarni aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Nutq, nutq madaniyati, kompleks usul, kompleks yondashuv, mustaqil o‘rganish.

В статье анализируются навыки повышения культуры речи эффективными методами и формирования ораторского искусства у наших будущих педагогов. Изучается эффективность применения комплексного подхода к этому процессу и представлены практические интерактивные методы и дидактические инструменты.

Ключевые слова. Речь, культура речи, комплексный метод, комплексный подход, самостоятельное обучение.

The article will analyze the skills of increasing the culture of speech by effective methods and the formation of the art of public speaking in future educators. The effectiveness of applying a comprehensive approach to this process is studied and practical interactive methods and didactic tools are presented.

Kalit so‘zlar. Nutq, nutq madaniyati, murakkab usul, integratsiyalashgan yondashuv,mustaqil o‘rganish.

In almost every country, the education system recognizes speech learning as a creative activity. Teaching the speech of pupils and students at all stages of continuous education in Uzbekistan has been chosen as the main area of pedagogical practice. The formation of mass culture and innovative education sphere, the increase of social need for development of the intellectual capital, requires the younger generation to be fully matured, intellectually developed, and use the opportunity of speech. Fulfilling such an urgent task requires a high level of speech culture and pedagogical skills from our pedagogues. The path to learning for students of any age progresses with the support and direction of the teacher. So, our task is to form oratory skills in our future pedagogues studying at the bachelor’s level, because in the future they will inspire students to learn and become an example for them. Speech is only a means of expressing ideas, exchanging ideas, using language vocabulary or its derivatives it has been proven from psychological and biological point of view that it is not only an emac, but also an acoc that develops the intellectual capacity of a person. Therefore, in the life of a person, special attention is paid to the development of speech from early childhood.

Teaching speech is a pedagogical technique that expresses the development of the skill of oral and written artistic language by the individual: mastering the rules of correct pronunciation, pronunciation, grammar, correct use of vocabulary, in which he makes full use of the artistic expression of the language. Learning a lot of speech in its essence, including oral and written artistic language learning by the student: correct pronunciation, grammar, practical mastering of the rules of correct use of speech, full use of artistic expression of the language, methods that ensure the acquisition of

speech skills It means providing pedagogical support, guidance, and providing support to students. Researcher M. Kholmatova emphasizes: «The spiritual image of a person, his appearance, behavior, and behavior are expressed in the culture of communication, and he expresses his feelings, inner feelings, and hopes in the process of communication «. Researcher M. Berdiyeva emphasizes that creating problem situations during training also strengthens the child's thinking . In our opinion, this method is effective. However, we believe that it is correct to take age into account when choosing questions and assignments that are problematic by their name. Creating problem situations during classes also strengthens the child's thinking, facilitates the acquisition of knowledge, helps them to be intelligent and independent thinkers. D. Abdurahimova, R. Babayeva, S. Mirjalilova, R. Tolaganova, Sh. Yusupova and other similar researchers do not isolate the child's speech and its development separately, but interrelate it with the pedagogical influence of an adult on the child.

Speech development is a complex and multifactorial process of a child's assimilation of socio-historical experience. Work on the development of children's speech occupies a special place in the educational work of a preschool educational institution. D. R. Babayeva, who aims to master oral speech in accordance with the norms of the literary language, listed some tasks:

– education of sound culture of speech;
– vocabulary enrichment, strengthening and activation;
– improving the grammatical correctness of speech;
– teaching oral (dialogic) speech;
– development of fluent speech;
– education of interest in the artistic word and preparation for learning literacy.

In the studies on speech development, mainly oral methods, such as the interview method, as well as questionnaires and tests, were used. This article analyzes the use of integrative methods based on a comprehensive approach to speech development. One of the ways to apply an integrated approach in teaching practice is to conduct integrated lessons. Instead of teaching different subjects separately, teachers can combine several subjects into one lesson. For example, in a history lesson you can also discuss literary works of that time, and in a mathematics lesson you can solve problems related to historical events. This helps students see connections between different subjects and apply what they learn in real life. An integrated approach also involves the establishment of interdisciplinary connections. Teachers can actively look for connections between different subjects and help students see these connections. For example, in a geography lesson you can discuss the influence of climate on the development of agriculture, and in a biology lesson you can study plants that grow in different climatic conditions. This helps students understand that knowledge is not isolated pieces, but is interconnected and has practical applications.

Integrated teaching methods. An integrated approach also involves the use of interactive teaching methods that actively involve students in the learning process. For example, this could be conducting discussions, role-playing games, projects, research, etc. Such methods allow students to apply knowledge and skills from different subject areas, develop critical thinking, communication skills . Integrating (lat. Integer- totality) - summarizing the formation of knowledge, understanding, skills and qualifications and bringing it into the form of a law or rule. A methodological tool that helps to create ideas of commonality and harmony between processes and events. In the following plan, as an integrative approach to the development of the speech of elementary school students, a set of tasks designed to be completed independently on the general topics of the 4th grade Reading literacy and English language classes was created. It contains interactive didactic tools used for each general topic.

Lesson 1 in the «Reading Literacy» textbook «The only Motherland is yours!» theme and «Guess what!» textbook 2– «Around town» topic «What can you see in your town?» part is similar; The game for the above topic is: Lexical chairs. Chairs are put in the middle of the classroom. The number of chairs is less than the number of pupils. Children move around the chairs and the teacher says words belonging to one topic. (Shop, library, market,)When the teacher says a word out of the topic, the children sit fast. The one who could not sit is out of the game, the last child is the winner.

Lesson 9 in the “Reading Literacy” textbook “Nature lesson” and “Guess what!” there is a similarity between the 4th “Wild animals” topic in the textbook and the “Take care of nature” part;

The game “Little artist”.

Purpose: to develop children’s speech, imagination, attention and memory.

Conducted: the pedagogue invites the child who plays the role of the artist in turn from among the children. The “artist” child is shown a picture of nature. Or one

of the child’s friends is invited. For 1 minute, the “Artist” child carefully examines

the picture or his friend. After that, the photo is taken or the child must tell his friends

the information he has kept in his memory, turning upside down. That is, he has to re-draw the picture or his friend verbally. It is important that the child pays attention to small details and uses words appropriately. If necessary, the teacher can help with questions.

Lesson 11 “Winged dreams” and “Guess what!” 1-”Fun sports” topic in textbook “Do you like talent shows?” there is a similarity between the parts. The game for the topic: “What is it made of and how?”

Purpose: to develop the child’s oral speech, imagination and thinking.

Conducted: the teacher shows a card to the children. There is a picture of sports on the card. Children should voluntarily tell information about this subject.

Other interactive games that are helpful to develop oral speech:

Day and night. Teacher writes two or more words on the blackboard. After pupils read it, teacher says “night”. Children close their eyes and pretend to sleep. The teacher changes a letter or syllable and then says “day”. Children open their eyes and then they should find the difference.

Bat-rat

sea-see

pad-bed

day-say

sea-see

take-lake

2. Limon tea and coffee. There is lemon tea and coffee on the first picture,

and lemon, tea, and coffe on the other picture. Pupils should differentiate the pictures

from the techer’s intonation.

Lemon, tea and coffee

Lemon tea and coffee.

Results. In the educational process, the introduction of the idea of research through students’ solving various educational materials is one of the methods of teaching students to think independently. There is a great number of teaching materials and didactic tools for both teachers and parents to use. This is the part in which teachers’ and parents’ mutual creativity is most visible and most important. The culture of speech has a special place in the basis of spiritual and moral education of the younger generation. For a child’s speech to be well-formed, the environment in which the child is growing

must follow the etiquette of the child's development. Based on this, every educator and parent should use didactic tools to help children learn foreign languages and look for ways to develop children's cognitive characteristics. As a result of conducting lessons using interactive didactic tools, the student's interest and passion for the lesson increases, he learns to concentrate and work together as a team. If the teacher skillfully inspires the students with a beautiful speech during the process, motivation will appear in the student, and a sense of mutual respect will be formed. The student develops the ability to communicate in a polylingual environment.

Discussion. In our opinion, the mentioned interactive methods are related and valid. Also, these tasks help in the development of speech culture, with the development of children's speech, they not only increase the communication culture, but also increase their listening culture and thinking ability. That is why we consider these tasks to be important. After all, fluency, purity, and artistic eloquence of speech are not only a product of communication, but also of listening and thinking processes.

Used literature:

1. Safarova R.G‘, Jo‘rayev R.X. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.- 376 bet.

2. Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirish va sog‘lom avlodni tarbiyalash muammolari: Falsafa fanlari d-ri... dis: 17.00.08 – madaniyat nazariyasi va tarixi / Xalmatova Manzuratxon. – T.: Toshkent davlat agrar universiteti, 1998. –326 b.

4. Babayeva D. R. “Nutq o‘stish metodikasi” – T.: Fan va texnologiyalar, 2009.

5. Berdiyeva M. Maktabgacha pedagogika fanidan ma’ruzalar matni. – T.: Termiz davlat universiteti, 2018. – B. 152.

6. Nurullayeva Sh. Muammoli ta’lim texnologiyalaridan boshlang’ich ta’lim jarayonida foydalanish, O‘zMU xabarlari. 2023/1/3/1. Toshkent.

7. Jo‘rayeva Mohira Yunus qizi; American journal of pedagogical and educational research issn (e): 2832-979 Stimulating development of children’s speech competence with the help of didactic tools.

8. https://inlibrary.uz/index.php/traditions-innovations-language/article/download/26739/27577.

9. https://nauchniestati.ru/spravka/kompleksnyj-podhod-v-pedagogike/?ysclid=lrw46vxbl8404231876

С.Т. УСМАНХОДЖАЕВ,
и.о.доц.каф.теории и методики таэквондо, фехтования
Т.С. УСМАНХОДЖАЕВ,
доктор. пед. наук профессор УзКУФКС
Т. ЗУФАРОВ,
преподаватель каф. ТМФВ Чирчик ГПУ

ЭТНОСПОРТИВНИЕ НАРОДНЫЕ ИГРЫ – ЭФФЕКТИВНЫЕ СРЕДСТВА, МЕТОДЫ И ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ, ЮНОШЕЙ И СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Annotatsiya

Tavsiya etilgan maqolada xalq o'yinlaridan foydalangan holda bolalar, o'smirlar va yoshlarning motor faolligiga e'tibor qaratilgan. O'yinlar bolalar va yoshlarni o'ziga jalb qiladi ularni uzoq vaqt davomida unga ergashishga majbur qiladi. Tadqiqot natijalari vosita faoliyatida yuqori individual o'zgaruvchanlikni ko'rsatdi.

Kalit so'zlar. Jismoniy faollik, qadam chastotasining umumiy faolligi, turli yosh guruhlarining maqbul darajasi.

В предлагаемой статье сделан акцент на двигательную активность детей, подростков и молодежи с использованием народных игр. Игры захватывают детей и молодежи заставляет их подолгу следовать ему. Результаты исследований показали высокую индивидуальную изменчивость двигательной активности.

Ключевые слова. Двигательная активность, суммарная активность частоты шагов, оптимальный уровень разных возрастных групп.

The proposed article focuses on the physical activity of preschool and primary school children using folk games. Games capture children and makes them follow it for a long time. The research results showed a high individual variability of children' s motor activity.

Key words. Motor activity, the total activity of the frequency of steps, the optimal level of different age groups.

Одним из эффективных факторов физического совершенствования детей , подростков и молодежи является двигательная активность, которая как установлено нами и другими специалистами (Сухарев, Лебедева и др.) определяется двумя основными факторами: биологическим и социальным. Образ жизни современных детей и подростков, к сожалению, характеризуется резко ограниченной двигательной активность. Особенно заметно она снижается с поступлением детей в школу (не менее 50 процент). Эта тенденция сохраняется и в последующие годы обучения.

Сравнительное изучение хронометражных данных рабочего времени старшеклассников показывают, что в течении учебного года в суточном режиме жизни учащихся на физический труд, подвижные игры, физические упражнения приходится более 6-8 процент всего времени, на сон - до 40 процент, на умственную

работу - 33-35 процент, на остальные виды деятельности – 17-20 процент времени. Особенно резкое уменьшение двигательной деятельности в режиме детей и подростков наблюдается в школах с углубленным изучением, какого либо предмета.

В таких школах 26 процент учащихся начальных классов, 28 процент средней и 62 процент старших классов фактически не получают никакой физической нагрузки, кроме уроков физической культуры. Школьники – не спортсмены, даже во время бодрствования 85 процент времени проводят в стандартных статических положениях позах. Аналогичные данные наблюдаются и в режиме дня студентов. Ограничение мышечной деятельности отрицательно сказывается на физическом развитии школьников, создавая предпосылки для чрезмерного увеличения тела, затормаживает рост тела в длину, не благоприятно влияет на здоровье и развитие организма. Получены фактические данные о том, что почти 20 процент детей и учащихся разных типов учебных заведений имеют избыточный вес, а около 60 процент -отклонение в развитии опорно -двигательного аппарата. При низкой двигательной активности диапазон приспособительных реакций организма сужается, работоспособность не восстанавливается. Малоподвижный образ жизни отрицательно сказывается на работоспособности детского организма; у учащихся с малой подвижностью, умственная работоспособность снижена, а ухудшении функционального состояния детского организма, его здоровья, снижения работоспособности успеваемости, замедлении физического развития и физической подготовленности важное место среди других факторов занимает недостаточная мышечная активность в режиме дня.

У детей дошкольного возраста двигательная активность снижается к зиме на 30 процент, повышается весной на 70-75 процент и вновь снижается летом на 16-20 процент. Объем среднесуточных двигательных действий у дошкольников составляет 7-17 тысяч шагов.

У учащихся младших классов двигательная активность наиболее низка осенью, повышается зимой весной и летом (соответственно на 1 12 45 20 процент) и составляет в среднем 7-15 тысяч шагов в день (у девочек ниже в среднем на 20 процент).

У учащихся 5-9 классов двигательная активность наиболее низка в зимнее время, повышается на 45 процент весной, снижается летом на 25 и повышается к осени на 15 процент объем среднесуточных двигательных действий составляет от 8 до 20 тысяч шагов в день (у девочек ниже в среднем на 32 процент).

У учащихся 10-11 классов не обнаружено колебания двигательной активности: среднесуточная сезонная двигательная активность колеблется от 5 до 14 тысяч шагов (у девочек ниже в среднем на 20).

Результаты наших исследований показали высокую индивидуальную изменчивость двигательной активности у детей. Так, у отдельных детей 6 лет в весенний период было отмечено 25120 шагов в день, а наименьшее число таких движений 8650 шагов в зимнее время. У 10 летних школьников отмечается разброс числа шагов движений от 2644 до 3760, а у 15 летних соответственно, 21710 и 3540.

На основании определенных нами функциональных (физиологических) величин двигательной активности можно определит уровни оптимальной и гигиенической активности, которая составляет соответственно 70 и 50 процентов от первых.

Результаты наших исследований и литературные данные позволили прийти к выводу, что физиологический допустимой нормой для детей 6 лет можно считать: девочки 33 тысяч шагов, мальчики -35 тысяч шагов, для 16 лет-соответственно

24 и 27 тысяч шагов в день.

Полученные нами экспериментальные данные позволили определить оптимальный уровень двигательной активности детей дошкольного и школьного возрастов:

- дошкольники 5-6 лет около 21-22 тысяч шагов в день;
- учащихся 1-2 классов 25-27 тысяч шагов в день;
- учащихся 3-4 классов около 25 тысяч шагов в день;
- учащихся 5-9 классов 20-23 тысяч шагов в день.

Вышеперечисленные полученные нами данные согласуются с результатами других ученных. Однако для повышения двигательной активности были использованы игры, которые способствуют реализации различных потребностей школьников от биологических (потребность в движениях) до социальных (общение, самоутверждение и самосовершенствование); их быстрая оценка результатов деятельности вызывает положительные эмоции и способствует формированию устойчивого интереса детей к занятиям физкультурной.

В качеств последних могут быть подвижные игры, игровые упражнения, содержание которых позволяет оказывать целенаправленные воздействия на развитие специальных, прежде всего координационных способностей : ориентирование в пространстве, быстрота и точность реакции и перестроения двигательных действий, способность точно деформировать пространственные, силовые и временные параметры движений, чувство ритма.

Рядом авторов экспериментально установлено, что включение в уроки классов подвижные игр направленности в объеме 25-30 процент ведет к повышению темпов развития различных физических способностей примерно на 8-30% (К.Рубаш, 1983 и др).

Другие исследователи выявили положительный эффект влияния подвижных игр на развитие психомоторных способностей детей и юных спортсменов. (В.И.Лях, 1980 и др).

Перечисляя и обосновывая средства и методы развития двигательных способностей младших школьников, большинство авторов ососбо выделяют подвижные игры. (Б.Н.Пивоваров, 1979; Ю.Д.Железняк, 1967; В.И.Лях, 1997 и др).

Использование подвижных игр разной направленности на уроках физической культуры обеспечивает прирост основных двигательных качеств.

В развитии выносливости наибольший сдвиг обнаружен в экспериментальной группе школьников, где применялись подвижные игры скоростно-силовой направленности (С.Л.Рубаш, 1983) выявлены наибольшие сдвиги в скорости бега - 8,2 процент, в силовых показателях -34,7 процент, в скоростно-силовых способностях -18 процент, в общей физической подготовленности -52,1 процент.

В развитии выносливости наибольший сдвиг обнаружен в экспериментальной группе, с использованием подвижных игр преимущественной на развитие этого качества 13,2 процент (К.Рубаш, 1983).

Выявлена оптимальная структура комплексов подвижные игр для повышения скорости бега у мальчиков 9-11 лет при решении задач всесторонней физической подготовки начинающих легкоатлетов: 40 процент подвижные игр, направленных на совершенствование скоростно-силовых способностей, 20 процент -на развитие скорости, 10 процент на развитие ловкости, 10 процент на развитие скорости реакции.

Включение в уроки физической культуры для школьников в возрасте 9-11 лет комплексов подвижные игр в объеме 25 процент от общего времени занятий, позволили существенно (p^0.01) повысить уровень всесторонней физической подготовленности, и прежде всего, скорости бега, по сравнению с эффектом обще-

принятой программы, в которой подвижным играм отводилось всего 7 процент времени уроков.

Характеризуя игры как средство и метод физического воспитания младших школьников, авторы указывают на важные особенности их формы, структуры и содержания (В.П.Пелипак, 1971; М.С.Бриль, 1976 и др).

Наиболее часто указывается на следующие особенности: в ходе подвижных игр значимы короткие перерывы для отдыха. Этому отвечают игры типа пробежек, которые широко представлены в программе, так как у школьников в этом возрасте преобладает предметно-образное мышление, игры носят, в основном, сюжетный характер, участником важно предоставлять возможность драматизации игры в проявлении творческой активности.

Использованная литература:

1. Усманходжаев Т.С. и др. Двигательный режим в старшей группе детского сада. Т.:2014-90с.

2. Усманходжаев Т.С.:, Байтураев Э.И.: Педагогические аспекты физического совершенствования детей и молодежи в связи с их двигательной активностью, Фан-спортга, 2017 г., №4, с.3-6.

3. Лях В.И., Развитие координационных способностей у дошкольников М.: Спорт, 2019, 128 с.

4. Лебедева Н.Т. Двигательная активность в процессе обучения младших школьников. Минск.2000-7 с.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
XXilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Ulfat MAHKAMOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA , Muhayyo UMARALIYEVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Islom ZOKIROV

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul –

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2024.